

**Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov,  
Komila Usmonova**

# ADABIYOT

O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va  
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining  
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

*Birinchi nashr*

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tasdiqlagan

## II QISM



**«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»**  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent—2018

**UO‘K: 821=512.133(075.3)**

**KBK: 83.3(50‘)ya721**

**A 29**

**Taqrizchilar:**

- N. Rahmonov** – filologiya fanlari doktori, professor;  
**X. Hamraqulova** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;  
**Sh. Toshmirzayeva** – filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

**Mas’ul muharrir**

- Vahob Rahmonov** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Xalqaro Bobur mukofoti laureati.

Hurmatli o‘quvchi! Siz darslikning 1-qismida xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek mumtoz va jahon adabiyoti namunalari bilan tanishdingiz. Mazkur 2-qismda esa XX asr o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari bilan tanishasiz.

**A 29 Adabiyot** [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi  
mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

**UO‘K: 821=512.133(075.3)**

**KBK: 83.3ya72**

**ISBN 978-9943-07-618-1**

- © B. To‘xliyev va boshq.  
© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, 2018



## XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

### Abdurauf Fitrat

(1886–1938)



Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat 1886-yil Buxoro shahrida tug‘ildi. Dastlab eski maktabda, keyin Mirarab madrasasida, XX asr boshlarida Istanbulda tahsil oldi. U yerda ijod bilan jiddiy shug‘ullandi. O‘sha davrda «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti» singari nasriy asarlari hamda «Sayha» («Chorlov») nomli she‘riy to‘plami chop etildi. 1917-yil apreldan 1918-yil martigacha Samarqandda bosilgan «Hurriyat» gazetasiga muharrirlik qildi. 1918-yil Fitrat Toshkentga keladi va asosan, adabiy, ilmiy-ma‘rifiy ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladi. 1921-yil Buxoroga taklif etiladi. Shu davrda Fitrat tashabbusi bilan 70 nafar turkistonlik iqtidorli yoshlar Germaniyaga o‘qishga yuboriladi.

Fitrat 1923–1924-yillarda Moskva va Leningradda yashadi, Sharq tillari institutida ishladi. U yerda turk, arab, fors tillari va adabiyotidan dars berdi. Leningrad dorilfununi-ning professori bo‘ldi. Shu yillarda «Abulfayzxon», «Bedil», «Qiyomat», «Shaytonning tangriga isyoni» kabi asarlar yozdi.

Fitrat maktab o‘quvchilari uchun «Adabiyot qoidalari» darsligini, tilshunos olim sifatida o‘zbek tilining qoidalari to‘g‘risida «Sarf», «Nahv» kitoblarini yozdi. Uning musiqashunoslik sohasiga doir «Shashmaqom», «O‘zbek klassik musiqasi ham uning tarixi», «Sharq musiqasi» kabi tadqiqotlari ham bor.

1937-yil asossiz ravishda «xalq dushmani» degan ayblov bilan qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda Toshkent shahri-

ning hozirgi Yunusobod tumani Bo'zsuv qirg'og'ida otib tashlandi.

Mustaqillik davrida Abdurauf Fitrat ijodi keng ommaga qayta yetkazildi. Uning hayoti va ijodi to'g'risida ayrim ilmiy risolalar yozildi.

## ABULFAYZZON

### Yo'qsul o'lkasining tarixidan besh pardali fojia

(Drama qisqartirib berildi.)

#### KIMSALAR<sup>1</sup>

Abulfayzxon<sup>2</sup> – Buxorodagi o'zbek xonlarining so'nggisi; qirq-ellik yoshlarda.

Ulfat – xonning xo'jasaroyi (haram boshlig'i); qirq-ellik yoshlarda.

Davlat to'qsoba – xonning yaqin xizmatchilaridan.

Qozi Nizom – Buxoroning qozi kaloni. Ellik-oltmish yoshlarda.

Hakimbiy – xonning inog'i, so'ngra otalig'i; ellik-oltmish yoshlarda.

Rahim qo'rchi – so'ngra to'qsoba, so'ngra otaliq. Hakimbiyning o'g'li; o'ttiz-qirq yoshlarda.

Mir Vafo – Rahimxonning hukmronlik tarixiga bag'ishlangan «Tuhfayi xoniy» asarining muallifi. Hakimbiyning odami, ellik-oltmish yoshlarda.

Donyolbiy – Hakimbiyning ukasi; qirq-ellik yoshlarda.

Ibrohim inoq – so'ngra otaliq; oltmish-yetmish yoshlarda.

Tog'ayqulbek – mang'it beklaridan.

Xo'ja Kalon – mashhur xo'jalardan.

Oxund – Buxoroning katta mullasi.

Nodirshoh – Eron shohi.

Rizoqulixon – Nodirshohning o'g'li.

Mirzo Mahdi – shohning bosh kotibi.

Aliqulixon, Husaynixon, Ahmadxon – Eronning qo'shin boshliqlari.

<sup>1</sup> *Eskarma*: Bundagi voqealarda birinchi parda bilan ikkinchi parda orasida yetti yil, ikkinchi, uchinchi pardalar bilan to'rtinchi, beshinchi pardalar orasida bir yil zamon o'tkandir. Shuning uchun kimsalarning yoshlarini yozg'anda qirq-ellik, oltmish-yetmish deb o'n yillik ochiqlik qoldirildi. (*Fitrat*)

<sup>2</sup> **Abulfayzxon** – Buxoroda hukmronlik qilgan Ashtarxoniyalar sulolasining so'nggi vakili. U 1747-yil vaziri Rahimbiy otaliq fitnasi tufayli butun oila a'zolari bilan yo'q qilib yuborilgan. Shundan so'ng Buxoro taxtiga yangi sulola – Mang'it amirlari kelgan. Shu vaqtdan e'tiboran Buxoro xonligi «Buxoro amirligi» deb yuritila boshlagan.



Abdumominxon – Abulfayzxonning o‘g‘li, 15 yashar.  
Yo‘ldosh, Ergash – qalandar kiyimli tilchilar, Hakimbiy-  
ning odamlari.

Qorovullar, xizmatchilar, jallodlar, cholg‘uchilar.

## BIRINCHI PARDA

Kecha. Buxoro arkida. Abulfayzxonning uyi shohona to‘shali, bezangan. O‘rtada osilg‘an muhtasham «Chil charog‘»ning butun shamlari yonib turadir. Uyning o‘rtasida, kichkina kursi-  
chaning ustidagi shamdonchada yonib turg‘an shamning oydinlig‘i ostida Ulfat xo‘jasaroy, Mir Vafo ham Qozi Nizom taxta<sup>1</sup> o‘ynab turalar. Tashqarida chalinib turg‘an cholg‘ular birozdan keyin sekinlashar, so‘ngra bitar.

Qozi Nizom. Kisht! (*Bir dona surar.*)

Mir Vafo. E..., otimiz ketdi-ku!

Ulfat. Podshohi olam eson bo‘lsalar, yana ot topilar.

Qozi Nizom. Tangri xoqonimizg‘a esonlik bergay.

Ulfat. Omin! (*Bir dona surar.*)

Mir Vafo. Shu kecha tushimda xoqonimizni ko‘rdim, bo‘z bir otg‘a mingan, qo‘llarida qilich, yiroqlarg‘a qarab turg‘anlar edi.

Qozi Nizom. Xudo xohlasa, yiroq yerlargacha borib, ko‘b o‘lkalarni olarlar.

Ulfat. Nafas muborak, omin.

Mir Vafo. Kisht! (*Bir dona surar.*)

Qozi Nizom. Mana, emdi ish qiyinlashdi!

Hammalari taxtag‘a tikilalar. Abulfayzxon ichkari uylaridan juda og‘ir bosib chiqar, o‘tirg‘anlarga qarab yurar, hammalari turib qo‘l qovushturalar.

Abulfayzxon. Qani, kim kuchli?

Ulfat. Xoqonimizning ikkala qullari ham yaxshi o‘ynaylar.

Xon. Sen qaysi tomonda?!

Ulfat. Men xoqonimizni olqab tomosha qilib turaman, hech bir yoqqa qo‘shilg‘anim yo‘q.

Xon qaytib, katga<sup>2</sup> chiqar. Yonboshlab, bir qo‘lini boshig‘a tirkab uzanar. Kuchli bir qayg‘u ostida ezilib turg‘ani ko‘rinadir.

<sup>1</sup> Taxta – shaxmat nazarda tutiladi.

<sup>2</sup> Kat – so‘ri, karavot.

Mir Vafo. Kisht! (*Bir dona surar. O'yinchilar singir-  
lanib, taxtag'a qaraylar.*)

Xon. Kim o'tdi?!

Ulfat. Mir Vafo qulingiz o'tdilar.

Xon boshini qimirlatar. O'yinchilar taxta boshidan turib, uyning eski yoqasidagi ko'rpalarga o'tiralar. Xizmatchi kirib, taxtani hamda kursicha bilan shamdonni olib chiqar.

Xon (*Qozi Nizomga*). Farhod otaliqni ko'rdingizmi?

Qozi Nizom. Hazratimning buyruqlari bilan borib ko'rgan edim.

Xon. Nima qildingiz?

Qozi Nizom. Otaliq qulingiz bilan uzun so'ylashdim, hazratim buyursalar, hammasini arz qilayin.

Xon. Aytingiz.

Qozi Nizom. Bordim, ko'rishdim, so'yladim: «Siz xoqonimizning eng ishonchli qullari bo'lasiz. Xoqonimizning muborak mijozlariga yoqmayturg'an ishlar qilar ekansiz. Eron qo'shini Qarshidan qaytgandan so'ngra, sizning yurish-turishingiz boshqacha bo'lg'an ekan», — dedim.

Xon. «Eron qo'shinini Qarshidan qaytarg'an yolg'iz sen emassan», demadingizmi?!

Qozi Nizom. Uni ham aytdim. «Nodirshoh tomonidan yuborilg'an qo'shinning Qarshidan qaytishi uchun sizgina emas, Hakimbiy inoq ham ko'b tirishdilar», — dedim.

Xon. Nima dedi?!

Qozi Nizom. Otaliq qulingiz bu so'zimga kulibgina qaradilar. «Eron qo'shini ikki-uch bekninggina tirishmagi bilan yurtimizdan chiqmadi», — dedilar.

Mir Vafo. Xoqonimiz juda yaxshi biladilarkim, Nodirshoh qo'shinining tuprog'imizdan chekilishiga Hakimbiy inoq qullari ko'b tirishdilar. Otaliq shuni ko'rmak istamaylar chog'i!

Qozi Nizom. Otaliq deyilarkim, Eron qo'shinini tuprog'imizdan biz chiqarmadik, o'zi chiqdi.

Xon. Nima... O'zimi chiqdi?!

Qozi Nizom. Otaliq qulingiz shunday deydi: «Eronning, — deydi — yangi to'p, miltiqlar bilan yaroqlang'an qo'shini bizning qo'shinimizni buza olg'an bo'lsa ham, o'zbekning botirlikligi bilg'ani uchun hurkib turar edi. Bizga



yordam uchun Xiva qo‘shinining ham Buxorog‘acha kelganini eshitg‘ach, butun qo‘rqdi, ustalik bilan urushni yotqizdi-da, qaytib ketdi. Bu ishda menim-da, Hakimbiy inoqning-da ayricha xizmatimiz Xiva qo‘shini Buxorog‘a kelgancha urushni uzatib turmoq bo‘ldi. Men Eron qo‘shinini qaytardim deb, kattalik qilmag‘anim kabi, xonimizdan yashiring‘ina Nodirshohg‘a elchilar yuborib, xabarlashib-da turmadim».

Xon. Kim Nodirg‘a elchi yuborg‘an ekan?!

Qozi Nizom. Otaliq qulingizning so‘zlariga ko‘ra, Hakimbiy inoq shunday qilg‘an bo‘lsalar kerak.

Xon. Ul menga do‘st bo‘lsa, nega bukungacha qizini yubormaydir?!

Qozi Nizom. Uni ham so‘radim.

Xon. Nima dedingiz?!

Qozi Nizom. «Molimizni, jonimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarida qurbon qilmoq hammamizg‘a lozimdir. Shuni qilmag‘anda, sultonimizning chin qullari bo‘la olmaymiz. Siz shuncha kundan beri bittagina qizingizni tortiq qilmay turasiz», dedim. Otaliq bu so‘zni eshitg‘ach, yomon qizidilar. «Xong‘a yaxshi ko‘rinmak uchun qiz qurbon qilg‘uchilar ko‘b, shularning qizlarini oldira beringiz», dedilar.

Xon. O‘zi yubormaydir. Yuborg‘anlarga so‘z ham otadir.

Ulfat. Yomonning bir qiligi ortiq!

Qozi Nizom. «Biz xon hazratlarig‘a o‘zimizni qurbon qildik, emdi nomusimizni ham istamasinlar», dedilar. Men aytdimki...

Xon (*so‘zini kesib*). Bas!.. Yegan tuzlar ko‘r etsin uni... Kimni tuproqdan ko‘tarib kursiga chiqarsak, tezgina boshimizg‘a chiqmoqchi bo‘ladir.

Ulfat. Xoqoni olam! Ularni yana tuproqqa qaytarmoq sizning qo‘ling‘izdadir.

Xon. Yaxshikim, bularning o‘limi qo‘limizdadir. Yo‘qsa, oz zamonda bizni eshak qilib minmak istaylar!!!

Ulfat. Xoqonimizg‘a ma‘lumdirkim, podshohlik qon bilan sug‘orilaturg‘an bir og‘ochdir. Qon oqib turmag‘an yerda bu og‘ochning qurib qolishi aniqdir.

Xon (*Ulfatg‘a*). Tur joyingdan. Tez ket. Besh daqiqadan keyin Farhod otaliq boshini keltirasan. Qanday istasang,

shunday ishla! (*Ulfat qulluqlab chiqar.*) Men tinchg'ina turayin deb akamni o'ldirdim. Emdi bir-ikki buzuqbosh chiqib, menim tinchlig'imni buzmoq istaylar! Qo'yaman sizni!

Qozi Nizom. Xoqoni olam! Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilg'ani uchun uni o'ldirmak nechuk bo'lar ekan?

Xon (*Qozining so'zini eshitmagandek biroz o'ylag'andan so'ng*). Farhod otaliqni eski bir qulimmi, dedingiz?!

Qozi Nizom. Hazratim karomat qildilar.

Xon. Farhod otaliq xitoy qipchoqning boshlig'idir, bilmaysizmi?!

Qozi Nizom. Hazratim yaxshi biladirlar.

Xon. El boshlig'i bo'lg'an beklarim meng'a qul bo'lmaylar, ular o'z ellarig'a tayanib, tutash menga yomonlik qilmoqchi bo'lalar.

Qozi Nizom. Tavba qildim!

Xon. Buxoroda el boshliqlari bo'lmaganda, men tinchg'ina xonlik sura olar edim. Menim butun qayg'ularim shular dandir. Otam sotib olg'an qullar mana Ulfat bilan Davlat. Ko'ringiz-chi, men chizg'an chiziqdan chiqadirlarmi?

Qozi Nizom. Albatta, chiqmaylar.

Xon. Emdi kimni otaliq qilishimiz kerak, siz shuni aytingiz, boshqa gaplarni qo'yabering!

Qozi Nizom. Tangri xoqonimizg'a esonlik bergay. O'zlari yaxshi biladirlar.

Mir Vafo. Hazratim, albatta, yaxshiroq biladirlar. Mang'itlardan Hakimbiy inoq, qalmoqlardan Jiyanqulibiy, kenagaslardan Ibrohimbiy qullari bor.

Xon. Jiyanqul bo'lmaydir. Hakimbiy bilan Ibrohim kenagasdan bittasini qo'yarmiz. ...To'xta, domullo! Menim yonimda har kun maqtab turg'aning Hakimbiy inoq Nodirshoh bilan nechun xabarlashadir?!<sup>1</sup>

Mir Vafo. Bu so'z to'g'ri bo'lmasa kerak.

Xon. Boya qozining Farhod otaliqdan keltirgan xabarlarini eshitmadingmi?!

Mir Vafo. Farhod boshliq o'zining o'limini bilg'an bo'lsa kerak. Qutilmoq uchun shunday so'ylagandir.

<sup>1</sup> Matnda uchta nuqtadan so'ng «Mir Vafo» yozilgan. Matbaa xatosi bo'lsa kerak. Asar mazmunidan kelib chiqilsa, bu xon so'zining davomi.





Xon. Men boshqa joylardan ham eshitdim, to‘g‘ri so‘yla!

Mir Vafo. Hazratim eson bo‘lsinlar. Inoq qulingiz bunday ishni o‘ylamag‘an bo‘lsalar kerak. Menim hech xabarim yo‘q. Shuni juda yaxshi bilamankim, inoq qulingiz xoqonimizning muborak xizmatlarini har narsadan ortiq ko‘radirlar.

Xon (*tashqariga qarab*). To‘qsobani chaqir, kelsin.

Davlat to‘qsoba kelar.

Xon. Yotishda<sup>1</sup> kimlar bor?!

Davlat. Ibrohimiy bilan Rahim qo‘rchi<sup>2</sup> bor.

Xon. Ikkovini ham olib kel. So‘ngra bizga bazm qilib ber!

Davlat to‘qsoba chiqar.

Mana shul Davlat bilan Ulfat kabi o‘nta odamim bo‘lsa edi, Buxoroni tinchg‘ina saqlar edim. Ishning yo‘llarini bilalar, teran tushunalar. Yomonlik, yog‘iylikni esa sira o‘ylamaylar.

Qozi Nizom. Hazratim, marhamat qilsalar, hamma qullari ham shunday ishlaylar.

Davlat to‘qsoba chog‘ir bilan piyolalarni kirg‘izadir. Ketidan uch tanburchi, bir rubobchi, ikki naychi, bir dafchi<sup>3</sup>, bir-da o‘yinchi qiz kirarlar. Hammalari o‘tirg‘ach, bazm boshlanadir. Davlat uch piyoladan chog‘ir tarqatadi. Bazm bitkach, o‘yinchi, cholg‘uchilar qulluqlab chiqarlar. Ulfat piyolalarni chiqarar.

Xon (*juda teran bir tushunchadan ayrilib*). Rahim qo‘rchi, otangiz qalay?

Rahim qo‘rchi. Hazratimni duo qilib turadirlar.

Xon. Yaqinda Erondan sizga qo‘noqlar kelganmi?!

Rahim qo‘rchi. Hazratim karomat qildilar.

Mir Vafo telbalanadir.

<sup>1</sup> Yotish – xon saroyining tunashga kelgan mehmonlar uchun ajratilgan qismi.

<sup>2</sup> Qo‘rchi – qo‘rxona (qurol-aslaha yoki qimmatbaho narsalar saqlanadigan ombor) egasi, xon saroyidagi lavozimlardan, xazinador.

<sup>3</sup> Daf – chertib chalinadigan, yog‘och gardishga xom teri tortilgan musiqa asbobi.

Xon. Kim ekan ular?!

Rahim qo'rch'i. Qarshi urushida Eron qo'shinidan bir-ikki kishi bizning tomong'a tutilg'an edilar. Inoq otam ularni ozod qilg'an edilar. Shular savdo uchun Buxorog'a kelgan ekanlar. Yaxshilikni unutmag'anlarini ko'rsatgali otamni kelib ko'rdilar.

Xon. Tuzuk... Yaxshilik, albatta, unutilmaydir. (*Biroz to'xtab.*) Biz Farhod otaliqqa shuncha yaxshilik qildik, bit-tasini ham bilmadi. Yana bizg'a xiyonat qila boshladi. Eng so'ng o'z boshini yeydi.

Rahim qo'rch'i bilan Ibrohimbiy shoshqin tinglaydilar.

Farhod otaliqni o'rindan tushirdik. O'z jazosini yaqinda ko'rar. Uning o'rnida, Ibrohimbiy, seni otaliq qildik. Rahim qo'rch'i, senga ham to'qsobalik<sup>1</sup> berdik. Inoq, otang ham yaqinda katta mehribonchilik ko'rarlar.

Ikkalasi turib, qulluq qilarlar.

Ibrohimbiy. Hazrating'a arzim bor.

Xon. Ayt!

Ibrohimbiy. Otaliq o'rni juda katta o'rin, men bajara olmayman.

Xon. Nega bajara olmaysan, uning nimasi bor?!

Ibrohimbiy. Farhod otaliq kabi o'tkir bir odamning bajara olmag'ani bir ishni men qanday bajararman?!

Xon. Nimasi bor, nimani bajara olmaysan?!

Ibrohimbiy. Xoqonimizni rozi qilmoq juda qiyin bir ish bo'lib qolg'an.

Xon. Nima deganing bu?!

Ibrohimbiy. Shul Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasam, siz quvonmaysiz, bu ikkisini rozi qilmoq-da mumkin emasdir.

Xon. Devona bo'ldingmi?!

Ibrohimbiy. Devona emas, to'g'riman, to'g'rilikning devonalikdan yomonroq natijalar berganini bilaman. Yana to'g'rilikdan ayrila olmayman, xoqonim! Shul ikki odam bo'lmaganda, siz Farhod otaliqni yo'q qilmoq fikriga tushmas edingiz.

Xon (*qizg'in.*) So'zni uzatma, qabul et!

---

<sup>1</sup> To'qsoba – *aslida*, to'qsabo, O'rta Osiyo xonlik va amirliklarida oliy harbiy unvon va shu mansabga ega bo'lgan shaxs.



Qozi Nizom bilan Rahim qoʻrchi koʻzlari bilan uni qabul etdirarga tirisharlar.

Ibrohimbiy. Buyrugʻingizni qaytarmoq qoʻlimdan kelmaydir, qabul etaman. Biroq bir kun menim ham oʻlimimgʻa hukm chiqararsiz, xoqonim!

Xon. Qabul etdingmi?!

Ibrohimbiy. Qabul etdim.

Xon. Emdi chiqib, saqlovda yotingiz. Erta bilan yorliqlaringʻiz chiqar.

Ikkalasi ham duo qilib, chiqib ketarlar. Bular chiqqach, Ulfat xoʻjasaroy qizil oʻrtuk<sup>1</sup> bilan oʻrtulgan bir taboqni koʻtarib kelar, xonning oldigʻa qoʻyar. Oʻzi ikki odim keyinga borib, qoʻl qovushtirib turar.

Och ustini!

Ulfat oʻrtukni olar, taboqda Farhod otaliqning qongʻa boʻyalgʻan oq soqolli boshi koʻrinar.

Xon (*yovvoyi kulish bilan*). Xo... xo... xo... eng soʻng oʻlim... oʻlim janjalimizni bitirdi. Butun janjallarni oʻlim bitiradir.

Ulfat. Xoqoni olam eson boʻlgʻaylar.

Xon. Buni chiqarib, «Chil duxtaron» qudugʻiga tashlat. (*Ulfat taboqni olib chiqar.*) Yeganlari tuzni oʻylamagʻanlarning jazolari shuldir. (*Qozi Nizom bilan Mir Vafogʻa.*) Sizga javob emdi.

Qozi Nizom. Tangri hazratingʻa esonlik bergay.

Ikkovi ham duo qilib, turib ketalar.

Xon (*yolgʻuz*). Shul tiriklikdan-da bezdirdilar meni. (*Turib yuradir.*) Bir dushmanimning qoni qurimayin, yana bittasi chiqib qoladir. Bu Ibrohim ahmoq ham meni tinch qoʻymay turgʻandek koʻrinadir. Qachongʻacha oʻldiraman bularni! Ortiq hech kimning menga ishonchi qolmadi... Bularning oʻzi yoʻlgʻa kelib, menga dushmanlik qilmoqni tashlasa, nima boʻlur! Yoʻq... yoʻq. Bularning oʻzi yoʻlgʻa kelmaydir. Oʻldiraman, oʻldiraman. Dunyoda bitta dushmanim qolmagʻancha, qon toʻkaman. Ulfatning soʻzi toʻgʻri!

<sup>1</sup> Oʻrtuk – parda.

Podshohlik qon bilan sug'orilaturg'an bir og'ochdir. (*Ulfatning kirganini ko'rib, joyiga o'tirar*). Kel, Ulfat, o'tir. Qanday qilib o'ldirding?!

Ulfat (*o'turar*). Xoqonimizning ishlari bor, deb keltirdim. Bir uyga kirgizdim. Unda yoshirinish turg'an ikki kishi birdan chiqib yopishdilar. Biroz talashg'andan so'ng, yiqitib, boshini kesdilar.

Xon. Hech kim onglamadimi?

Ulfat. Kimsa onglag'an emas.

Xon. Ibrohim kenagasni otaliq qilmoqchi bo'lib, o'ziga so'yladik. Uning ham tusi boshqacha-ku!

Ulfat. Nima dedi?

Xon. Ko'b ahmoqliklar qildi. Sening uchun ham ma'nosiz so'zlar so'yladi. Hakim inoqning o'zini otaliq qilsak bo'lmaydirmi?

Ulfat. Xoqoni olam! Hakim inoqning Nodir<sup>1</sup> bilan xabarlashib turg'ani aniq. Shu tobda uni (ish) boshiga qo'yib bo'lmaydir. Shuning o'zi bo'la bersin, to'g'rilik bilan ishlasa, turadir. Yo'qsa, Farhod otaliq izidan bora qoladir-da!

Xon. Ulfat, men bu ishlardan bezdim. Bu odamlarning bittasi ham menga to'g'ri qaramaydir. Farhod otaliq yomonlik qildi. Hakim inoqning qilg'an ishlarini ko'rib turibsan. Ibrohimni odam deb o'ylasam, bu ham buzuqqa o'xshaydir. Qon to'kmakdan-da bezdim. Akamni o'ldirdim. Ko'b do'stlarimni o'ldirdim. Meni bir ota kabi asrag'an Farhod otaliqni(ng) boshini oyoqlar ostida ko'rdim. (*Ko'zlarini tutub.*) Uf.. ko'zlarim qong'a to'ldi. Kechalar uxlay olmayman. Ko'zlarimni yumg'ach, butun o'lg'anlar, o'ldirg'anlarim meni aylantirib olalar, siralanib, yonimdan o'talar. Meni qo'rqitalar, menga kulalar!..

Ulfat. Xoqonim, bularni o'ylamangiz. O'liklarni esingizdan chiqaringiz. Yotoqqa kirgach, Qur'ondan bir oyat o'qib yotingiz. Bular hammasi o'tg'usidir. Yaqinda dushmanlaringizning hammasini bitirarmiz. Hozir emdi boshqa ishlari-mizni ko'raylik.

Xon. Yana nima ish?

Ulfat. Farhod otaliqning qizini keltiraylikmi?

---

<sup>1</sup> Nodir – Nodirshoh nazarda tutiladi. Ulfat Abulfayzxonning eng yaqin odami sifatida Nodirshohga bo'lgan nafratini ayamay uni mensimayroq Nodir deb murojaat qilyapti.



Xon. Erta bilan kishi yuborursan. Men emdi charchadim, biroz uxlayin. Sen ham ket, ishlaringni ko‘r. Bittasini yubor, choponimni olsin. Tanburchilarg‘a ayt, ikki tanburni kamoncha qilib bir «Husayniy»<sup>1</sup> chalsinlar.

Ulfat. Xo‘b bo‘libtur.

Ulfat chiqar. Xon salla, choponini chiqara boshlar. Xizmatchi kelib, xonning salla, choponini olib, bir chetg‘a qo‘yar, Xonning kecha kulohini berib, shamlarni o‘chirib chiqar. Xon kulohini kiyib, yotoqda uzanib yotar. Tashqarida ikki kamonchining «Husayniy» cholg‘ini eshitar. Cholg‘i sekinlanib bitganda, xon uxlagan bo‘lur. Biroz so‘ngra xonning o‘ldirilg‘an akasining xayoli qonli kafan bilan ko‘rinadir.

Xon (*tushida*). Akam... Nechun keldi... (*Bo‘g‘dirilg‘ani, arqon bo‘ynida taqilg‘ani holda chiroyli bir xotinning xayoli kelar.*) Yo‘qol... ket... (*Xotin xayoli xonni bo‘g‘ardek, unga qarab yurar. Xon talvasa qilar.*) Ket... ket!... (*Bir yigit xayoli Farhod otaliqning boshini olib kelar. Xong‘a yaqinlashar.*) Yo‘qol... kelma... Yo‘qol... kelma... (*Xayol chekilar. Undan so‘ng uchala xayol birgalashib, xong‘a hujum qilarlar. Xon kuchli talvasa bilan qichqirar.*) Voy... Urma! (*O‘z tovushidan uyg‘onib, irg‘ib turar.*)

Tovushni eshitgan Davlat to‘qsoba bir shamdonchani ko‘tarib, yugurib kirar.

Davlat. Hazratim qo‘rqdilarmi?!

Xon (*titrab turgani holda*). Biroz qo‘rqdim chog‘i! Shamni qo‘yib ket. Suv tayyorlang, tarat<sup>2</sup> qilaman. (*Davlat to‘qsoba shamni qo‘yib ketar. Xon yotoqdan tushib, choponini kiyar ham so‘ylar.*) Bular u dunyoda ham menga qarshi birlashg‘ang‘a o‘xshaylar. Meni tinch qo‘ymaylar, chog‘i! (*Shamni olib, boshqa uylarg‘a boraturg‘an eshikdan chiqib ketar.*)

Parda tushar.

<sup>1</sup> «Husayniy» – o‘zbek mumtoz kuylaridan biri. Ko‘pincha satoda (tanburni kamon singari chalinishi) ijro etiladi.

<sup>2</sup> Tarat – tahorat so‘zining qisqa shakli.

## TO'RTINCHI PARDA

Eski bir gilam bilan ikki-uch eski ko'rpa to'shalg'an o'rtacha bir uy. Chetdagi bir kat uzra Abulfayzxon ko'ylakchan yotqon, uxlaydir. Kat yonida bir kursicha uzra qo'yilg'an shamdonchanning shami yonib turadir. Birozdan keyin Qurbongul bir oftoba suv olib kelar, oftobani toshnov<sup>1</sup> yonig'a qo'yib, o'zi sekingina qaytib, xonning yuziga qarar.

Qurbongul (*yolg'uz*). Uxlaydir... sho'rim qursin. Dunyoning qora chiziqlarini o'qimoq uchunmi keldim men! Xudoning soyasi deb, podshohlarning uyiga sig'indim. Bunda ko'rganlarimni hech ko'z ko'rmasin. Menim shuncha yig'lashlarimga qaramayin, shul xon akasini o'ldirdi, uning taxtig'a chiqdi. Karmina begini bola-chaqalari bilan tutib, keltirib qamadi. So'ngra bitta-bitta hammasini bo'g'dirib, quduqqa tashlatdi. Bu kun esa o'zini Rahimbiy qamab qo'yibdir. Erta, albatta, o'ldirar. Buning joyida o'zi «soyayi xudo» bo'lur. Bir-ikki yildan keyin yana bittasi chiqar. Uni ham sag'anag'a jo'natib, «soyayi xudo»likni o'ziga olar. Bizda esa bu qora kunlarning qayg'usi qoladir. (*Biroz o'ylab.*) To'g'risini aytganda, yana o'zimiz tinch. Xudo soyasi-da bo'lmaymiz, o'ldirilmaymiz-da. Och qornim, tinch qulog'im. (*O'ng qo'lining barmoqlarini uch yo'la o'pib, yelkasiga urar.*) Ko'zim ko'rmasin-ey! Uch-to'rt yil xudo soyasi bo'l. So'ngra qamal, so'ngra o'l... Menga nima kerak shular? (*Uzoqdan kelgan azon tovushin tinglab.*) Azonlar o'qildi. Xonni uyg'otay, namozin o'qisin. (*Yotoq oldig'a borib, xonning oyoqlarini uqalar.*) Xon bolam, arslonim... turmaysizmi?

Xon (*seskanib uyg'onar*). Hah... kimdir (*Yotoqda o'tirib*). Kimdir? Senmi, Qurbongul?!

Qurbongul. Men, men. Qo'rqitdimmi sizni?

Xon (*ko'zlarini uqalab*). Yo'q, yo'q... Nechun kelding?

Qurbongul. Azon o'qildi, suv keltirdim, tarat qilmaysizmi?

Xon. Nima gaplar bor, Qurbongul?

Qurbongul. Tinchlik, arslonim!

Xon (*o'ylaydi*). Bular har so'rag'animga mana shunday

<sup>1</sup> Toshnov – uying bir burchiga suv ketadigan qilib qo'yiladi, buni «avraz» ham deyдилar.



tinchlik, tinchlik deb meni dunyodan xabarsiz qoldirdilar. Men qamoqda, taxtim boshqalar qo'lida, bola-chaqalarim bilmadim qayerda. Yana tinchlik ekan. Bilmam bular tinchsizlik deb nimani deyalar. (*So'ylar.*) Qanday tinchlik? Ulfatdan xabaring bormi?

Qurbongul. Ulfat qochgan, uni axtarib turalar. Davlat to'qsoba bilan Jiyanqulbiy, Xo'jaqulbiy, Karimbiy, Bahrinbiy-ni tutib qamadilar, ertagacha o'ldirar ekanlar.

Xon (*ko'z yoshlarin artib*). Meni nima qilar ekanlar, ongladingmi?

Qurbongul. Nega yig'laysiz, arslonim?! Nima bo'lsa, xudoning buyrug'i bilan bo'lar. Tunov kun podsho bibiyim ulug' eshong'a ko'p pul yuborib, siz uchun duolar oldilar. Albatta, shular bir ish qilar.

Xon. O'g'illarim qayda?!

Qurbongul. Omon-eson, tinch. Podsho bibiyim bilan birga turalar.

Xon. Oh... o'g'illarim, sizni kimga topshirarman emdi?! (*Yig'lar.*)

Qurbongul. Nega yig'laysiz, arslonim? Xudo ursin-kim, bolalaringizga hech bir narsa bo'lgan yo'q, ular tinch o'tiribdurlar.

Xon (*nafrat bilan*). Qo'y meni o'z holimda. Budan keyin shul «tinch» so'zini mening yonimda aytma! Dunyoda hech bir ma'nosi bo'lmagan bu so'zni sen eng yomon ma'nolarda ishlatib turasan. Men qamaldim – tinch, bolalarim qamoqda – tinch. Ulfatni axtaralar, Davlatni o'ldiralar, yana tinch! Bu qanday «tinch», bu qanday tinchlik... Oh, bolalarim, siz nega kichiklikda baxtsizlikka uchradingiz! Bunga menmi sabab bo'ldim? (*Qattiq yig'lar.*) Koshki dunyoga kelmagan bo'lsa edim.

Rahimbiy kelar. Qurbongul bir chetda qo'l qovushtirib turar.

Rahimbiy. Xon hazrat, nega yig'laysiz?! Xon (*seskanib. boshini ko'tarur. Istamayin o'rnidan turar.*) Hech!

Rahimbiy. O'tiringiz, o'tiringiz. (*Xon o'tirar.*) Nega yig'laysiz?

Xon. Hech, bolalarim esimga keldilar.

Rahimbiy. Boshg'a ish tushkach, eng ahmoq chora yig'lamoqdir. Yig'lamangiz!

Xon. Men sizga nima yomonlik qildim?!

Rahimbiy. Hech!

Xon. Otangiz menga otaliq edi. Bobongiz, meni taxtga o'tqizib, otaliq bo'ldi. O'zingiz Erondan kelgach, bot otaliq qildim. Butun hukumat ishlarini sizga topshirdum, yana Nodirshohning o'yinlarig'a berilib, meni qamatdingiz! Nodirshoh oldida men bilan sizning nima oyirmamiz bor?! Bu kun meni tushirgan ekan, erta sizni ham tushirmasmi?!

Rahimbiy. Xon hazrat! Dunyoda har kim o'z kuchiga qarabg'ina o'rin tutadir. Bu tirikchilikning eng o'tkir buyrug'idirkim, bunga bo'ysunmag'anlarning dunyodan chiqib ketishlari lozim bo'ladi. Siz Buxoroni idora qilarlik kuch ko'rsata olmadingiz. Davlatimizning buyuk, buyuk teraklarini o'z qo'lingiz bilan yiqita berdingiz, butun ishni menga emas, bir ahmoq mug'ambil<sup>1</sup> bo'lg'an Ulfatg'a topshirdingiz. Taxtdan tushkaningizning sababi shuldir. Nodirshohning esa bu ishdan xabari yo'qdir. Nodirshoh sizni tushirg'an emas.

Xon. Nodirshohning bu ishlardan xabari yo'q, deganingiz yolg'on emasmi?

Rahimbiy (*jilmayib*). Yolg'on emas.

Xon. Nega Erondan qo'shin olib keldingiz?

Rahimbiy. Kattaqo'rg'ondan chiqqan Ibodullabek fitnasini bosdirmoq uchun.

Xon. Emdi meni nima qilasiz, o'ldirasizmi?

Rahimbiy. Yo'...q, tangri saqlasin bu ishdan.

Xon (*yalinib, qo'llarini uzatar*). Otaliq, meni o'ldirmangiz. Xonlikni sizga bag'ishladim. Ayting, meni o'ldirmaysizmi? Ayting!

Rahimbiy. Sizni o'ldirmayman, xonlik ham menga kerak emas. O'g'lingiz Abdumo'min xonni sizning o'rningizda erta xon ko'taraman.

Xon. Meni nima qilasiz?

Rahimbiy. Siz shu hafta orasida Eronga, Nodirshoh oldig'a borarsiz.

Xon. Uh... Xudoga shukur! Meni o'ldirmangiz. Men hajga boraman, hajga.

<sup>1</sup> Mug'ambil – «mug'ambir» so'zining buzilgan shakli.





Rahimbiy (*jilmayib*). Undan so'ngra qayoqqa borsangiz, bora berarsiz. Hozirda men sizdan bir narsani so'ramoq uchun keldim.

Xon. So'rangiz.

Rahimbiy. Pullaringiz qayda?

Xon. Xazina o'z qo'lingizda-ku!

Rahimbiy. Sizning o'z xazinangiz?

Xon. Menim o'z pullarimning hisobi Ulfatdadir. Shundan so'rangiz.

Rahimbiy. Ulfatning qayda ekanini bilmaysizmi?

Xon. Bilmayman.

Rahimbiy. Hay, siz o'tiringiz. Yaqinda Erong'a borsarsiz.

Xon. Bolalarimni sog'indim. Shularni menga yuborsangiz, ko'rib qo'yay.

Rahimbiy. Xo'b, Qurbongul bilan yuborurman. (*Qurbongulga.*) Kel, sen bilan yuboray. (*Qurbongul bilan chiqib ketar.*)

Xon (*joyidan turub*). Tong ota yozdi. Tarat qilay emdi. (*Toshnovg'a kelib, oftobani olib, tarat qila boshlar.*) Tangridan boshqa kimsam qolmadi. Ko'rasizmi, hamma iskanjalar pul uchun ekan.

Xon taratni bitirayozganda, Abdumomin to'ra bilan ukasi kirib salom berarlar.

Xon (*taratni bitirib turar*). Ha, o'g'illarim, keldingizmi? (*Yuzini artib, ularni bitta-bitta quchoqlab o'par.*) Qalaysan, o'g'lim?! (*Ko'z yoshlarini artar.*)

Abdumomin. Shukur.

Xon. Sen qalay? (*kichkina o'g'li bo'ynini bukmak bilan javob bergan bo'lar.*) Onang qayda?!

Abdumomin. Uyda.

Xon. Hammangiz bir uydami?

Abdumomin. Ha, bir uyda.

Xon kichkina o'g'lini quchoqlab, manglayidan o'par, katta o'g'lini quchoqlab, boshini uning umuzig'a<sup>1</sup> qo'yib yig'lar.

Bolalar (*birdan yig'lab, xong'a yopishib*). Otajonim, nega yig'laysiz? Bizni nima qilarlar emdi?

<sup>1</sup> Umuz – aslida, o'miz, yelkaning qo'l bilan tutashgan qismi.

X o n. Hech, o'g'lim, hech. Ketingiz emdi, onangizning yonida turingiz. (*Yana quchoqlab o'par. Ikkalasini eshikkacha keltirub, yana o'pib, uzatar. Shul chog'da ikki g'ijakning «Bebokcha»<sup>1</sup> kuylagani eshitilar. Xon cholg'u tovushini qayg'u ostida tinglag'andan so'ng, so'ylar.*) Insonlar – dunyoning uyalmoq bilmagan hayvonlari! Biringizning ko'z yoshlari biringizning shodlik bog'chalarini sug'oradi. Biringizni(ng) motam ingrashlari yana biringizning to'y cholg'ularini kuylatadi! Bir-biringizning borliqlarini yeb, hirslicingizni to'ydirmoqdan qachong'acha bezmaysiz! (*Kun oqarg'anin ko'rib.*) Namozimni o'qib olayin. (*Joynamozni yoyar. Namozning birinchi rakatini o'qig'ach, uying bir puchmog'idan devorning teshilgani seziladir. Kesak, tuproqlar to'kila berar. Xon namozning ikkinchi rakatini tez bitirar. Telbalanib turar. Buyuk bir qo'rquv bilan ishning so'ngini kutib turar. Devor kattaroq ochilg'ach, uzun soqolli bir qishloqli bir qozma ko'tarib chiqar.*) Bu kim?.. Sen kimsen?! (*Haligi odam, gapirmayin qozmasini yerga qo'yib, telpagini olib, yasama soqolini yechgach, Ulfat ekani onglashilar.*) Ulfat!..

Ulfat. Men, Ulfat qulingizman, xoqonim!

X o n. Oh... Ulfat, nega bunday kelding?

Ulfat. Qo'rqmangiz, sizga xizmat uchun. (*Xonni qo'tlig'idan olib, katga o'tqazar. Uying eshigini sekingina yopar. Qaytib kelib, xon yonida o'tirar.*) Bilasizmi, Rahimbiy meni tutib o'ldirmak uchun tirishadi. Men qochib yuribman.

X o n. Qayda eding?

Ulfat. Men Eron qo'shinida edim.

X o n. Ishimiz nima bo'lar! Meni Erong'a yubora ekanlar, to'g'rimi?

Ulfat. Nodirshohga Rahimbiy ham, Hakimbiy ham sizni o'ldirmaslik uchun so'z bergan ekanlar. Nodirshohni buyrug'i bilan Rahimbiyga qo'shilib kelgan Eron qo'shini sizni omon-eson olib qaytarg'a shohdan buyruq olg'on ekanlar.

X o n. Qachon borarmiz emdi!

---

<sup>1</sup> «Bebokcha» – lug'aviy ma'nosi: sho'x, shaddod. Bu yerda: maqomda ufor usulida aytiladigan mashhur xalq qo'shiqlaridan biri. Navoiyning «Chashmi ohularmidir», Zebunisoning «Nashud» g'azallari shu usulda qo'shiq qilib aytilgan. Shu qo'shiqlarning kuyi nazarda tutiladi.



Ulfat. To'xtang, hali ish buzilib qolg'an.

Xon. Nima bo'lg'an?

Ulfat. Nodirshohning o'lim xabari kelgan.

Xon. Nima... Nima... Nodirshoh o'lganmi?

Ulfat. O'ldirilgan.

Xon. Kim o'ldirg'an uni?! E, voy... Menim baxtim qaro ekan!

Ulfat. Eron eli yog'iqib, uni o'ldirganlar. Bu xabar Buxorog'a kelgandan so'ng, Rahimbiy sizni yubormoq fikridan qaytqon.

Xon. Emdi men nima qilaman?

Ulfat. Eron qo'shini sizni omon-eson qo'lig'a olmasa, Buxorodan ko'chmaydir. Buni shu kun Rahimbiyga bildirdilar.

Xon. Nima degan u?

Ulfat. Hanuz bir narsa demagan, biroq Eronning qo'shin boshliqlari Rahimbiy sizni o'ldirib qo'ymasin, deb qo'rqalar. Sizni, ishqilib, qochirmoq uchun meni yubordilar. Shu tobda men bilan qochasiz. (*Eshikka borib, tinglag'andan so'ng.*) Kelingiz, shahardan chiqib, Eron qo'shinig'a qo'shilamiz.

Xon. Qanday qilib qochaman?

Ulfat. Qochmoqning qanday-mandayi yo'q, mana shu yo'lga kirib olsangiz, qochib qutularmiz. Menga ishoningiz, hech qo'rqmangiz.

Xon. Bolalarni, nima qilayin?

Ulfat. Vaqtimiz oz qolg'an. Yuringiz, tez qochaylik. Bir balo chiqmasin.

Xon. Bolalarim nima bo'lalar?

Ulfat (*eshikni tinglab qaytg'andan so'ng*). Buxoro taxtig'a Chingiz bolalaridan boshqa kishi chiqarilmaydir. Shuning uchun Rahimbiy katta o'g'lingizni xon ko'taradir. Sizning ularga ishingiz bo'lmasin. (*Qo'lini tutib.*) Turingiz, bot qochaylik emdi.

Xon (*o'rnidan turar*). Men qochg'ach, bolalarimni o'ldirmaylarmi?

Ulfat. O'ldira olmaylar. O'g'lingizni xon ko'tarishdan boshqa choralari yo'qdir. Yuringiz, tez qochaylik. (*Xonni eshikka olib borar.*) Kiringiz, tez kiringiz!

Xon (*birdan keyinga otilib*). Yo'q, qochmayman. Qochsam, bolalarimni o'ldirarlar.

Ulfat. Uf!.. (*Yugurib eshikka borib tinglag'andan so'ng.*) Nega bunday qilasiz? Shu tobda bittasi kelib, shu holni ko'rsa, ikkimizni ham o'ldiralar.

Xon. Men Eronda nima qilarkan?

Ulfat. Undan kuch yig'ib qaytarmiz-da, yana Rahimbiy bilan urusharmiz. Eron sizga yot emas, bobolaringizdan nechalari Buxorodan Eronga ko'chganlar. Kelingiz, tez qochaylik. Kiringiz tez!

Xon (*kirmakchi bo'lub yana qaytar*). Oh... bolalarim! Sizni kimga tashlab ketaman?

Ulfat. Nega bunday qilasiz. Kelib ikkovimizni ham o'ldiralar!

Xon (*juda qisilg'an.*) To'xta biroz, Ulfat! Bolalarimni chaqirib, bir ko'ray!

Ulfat (*o'z yuzlarig'a urib*). Ey-voy, bitdik, shu tobda kelib, bizni o'ldiralar, baribir bolalaringizni ko'ra olmaysiz!

Xon. Nega ko'ra olmayman?

Ulfat. Ko'ra olmaysiz, chunki... (*Bir tovush sezgan kabi bo'lub, yugurib eshikka borib, tinglar, telba bo'lib qaytar.*) Xon! Odamlar kelalar. (*Soqolini taqar.*) Keling, qochamiz. (*Qozmasini olar.*) Keling, tez keling. (*Oyoq tovushlari kelar.*) Men qochdim, keling. (*Teshikka kirgandan so'ng, boshini chiqarib, xonni chaqirar.*) Keling, xon.

Xon ham yugurib, teshikka kirmakchi bo'lg'ach, uch jallod katta pichoqlar olib kelalar. Ulfat qochar. Jallodlar qotib qolg'an xonni kelib tutarlar.

Jallobdoshi. Bu nima? Kim keldi bu yo'ldan? (*Xon indamaydir.*) Kim keldi bu yo'ldan? (*Pichoqni ko'tarar.*)

Xon. Ulfat kelgan edi. Meni qochirmoqchi bo'ldi, ketmadim.

Jallobdoshi shoshib bir-birlarig'a qaraylar.

Jallobdoshi (*bir jallodga*). Chop, bekga xabar ber, qorovul bersinlar, shu uying orqasig'a borub, axtararsiz. (*Jallob yugurib chiqar.*) Biz ikkimiz bu kishining ishini ko'raylik.

Ikkala jallod pichoqlarini ko'tarib, xonga hujum qilalar.



Xon (*jalloklar bilan talashib, qichqiradir.*) Nega meni o'ldirasiz? Voy-dod!

Jallobboshi. O'g'lingiz buyurdilar.

Xon (*taloshda*). O'g'lim... Yo'q... U buyurmas... (*Pichoq ko'kragiga tegar.*) Voh, o'ldim. (*Yana bir pichoq urar. Xon yiqilar.*) Oh, nega qochmadim... Bolalarim... O'ldim... Ulfat... (*deb jon chekishar.*)

Jalloklar pichoqlarini qinlariga solib, xonning so'ng so'lishini kutib turarlar. Shu tobda Ulfat qishloqli aftida, katta bir pichoq qo'lida, teshikdan chiqar, sekingina jallobboshiga yaqinlashib, pichoqni suqib yuborar. Jallobboshi «vah» deb yiqilg'ach, Ulfat ikkinchi jallodg'a hujum qilar. Ul qichqirib qochar. Ulfat xonning o'ligi ustiga kelar.

Ulfat. Yuraksiz xon, qochmadi, o'ldi. Muhrini olay. Yo'lda kerak bo'lur.

Xonning kissasidan muhrini tez olib, yugurib teshikka borib yo'qolar. Oyoq tovushlari kelar. Qolg'an jalloklar bilan besh kishi qilichlar chekib kirarlar.

Jallob (*teshikni ko'rsatib*). Mana shundan keldi.

Uch kishi yugurib kirarlar. Qolg'anlar: «Biz tashqaridan boraylik», – deb chopib chiqarlar.

Parda tushar.

## BESHINCHI PARDA

Sahnaning to'rida qorong'i bir zindon (Chil duxtaron zindoni). Ulfat xo'jasaroy, Davlat to'qsoba bilan yana ikki-uch bekning o'liklari osilg'an, o'tqizib bo'g'dirilg'an, qong'a bo'yalib yotg'an bir holda turadir. Chetda qoramoy chirog'i tutunlar sochib yonmoqda. Birozdan keyin Rahimbey yolg'iz kelar. Og'ir bir yurish bilan yurib, o'liklarning har bittasiga es qo'yib qarab, zindonni bir aylanib chiqar, Rahimbey ketgach, manzara o'zgarib, sahnaning beri yonida Buxoro arkining Salomlik ayvoni ko'rinadir. Ayvon ostidag'i taxtning har tomonida qiymatli qolinlar, ko'rpalar to'shalgan, shamlar, chilchirog'lar yonib turadir. Rahimbey rasmiy kiyimi bilan kamarlik, qilichlik holda bir tomondan ko'rinib, sekinlab taxtg'a yaqinlashar. Bir oyog'ini taxtning bosqichig'a qo'yib, tizzasiga tayanib so'ylar.

Rahimbiy. Yo'limizning ozi qoldi. Manzilga erisha yozdik. Abulfayzxon ketdi. Uni yoqlag'onlarning-da ruhlariga fotiha o'qib keldim. Emdi kim qoldi? Chumchuq kabi kichkina bir xon! Shunday (*qo'li bilan ko'rsatib*) olasan, kallasini uzib tashlaysan!.. Ruhing shod bo'lg'ay, otam. Sen bitirmagan ishni men bitirdim. Yo'q, bularning hammasi sen ekan urug'larning mevasidir. Sen menga yo'l ko'rsatmasa eding, sen Nodirshoh bilan do'stlashib, meni unga yubormasa eding, bu ishlar bo'lmas edi. Bo'lg'anda ham, juda qiyinchilik bilan bo'lar edi.

Mir Vafo kelar.

Mir Vafo. Yo'ldosh qalandar kelibdi. So'zi bor ekan. Boshqa bir yo'l bilan olib keldim.

Rahimbiy. Keltiringiz.

Mir Vafo panada turgan Yo'ldoshni chaqirar. Yo'ldosh shul burung'i qalandar afti bilan kelib, duo qilar.

Yo'ldosh. Omin, tezroq bu oyog'ingizni ikkinchi bosqichga qo'yib, taxtg'a chiqqaysiz. Ollohu akbar.

Rahimbiy (*kulib.*) Ha, tentak, nima gap?

Yo'ldosh. Yaxshilik, bek! Sizning xon bo'lishingiz to'g'risida odamlar bir-birlarig'a so'ylashib turadirlar.

Rahimbiy. Nima deylar?

Yo'ldosh. Odamlar rozi, xonlik otaliq bekning haqqi deylar. Biroq beklar, el boshliqlari bu ishga ko'nmaylar. Chingiz avlodi bo'lmag'an kishi xon bo'la olmas, dey-lar. Mana shu so'zlar boshqa odamlarni biroz tushuntiradi. Shunga bir chora qilishingiz kerak.

Rahimbiy. Qanday chora?!

Mir Vafo. Buning chorasi qulay. Mullolardan bir fatvo olasiz. Shuning bilan bitadi.

Rahimbiy. Uni qilamiz.

Yo'ldosh. Yana qiziq bir gap bor. Erondan keltirgan qo'noqlaringiz boshimizg'a bir balo chiqarmasalar, yaxshi edi.

Rahimbiy. Nima qildilar? (*Yurar.*)

Yo'ldosh. Buxoroni mang'itlardan tozalash kerak, deb so'z tarqatar ekanlar. Bir necha beklarimizga kishilar yuborib, «Siz ishga kirishingiz, biz yordam qilamiz» deganlar, Abdu-



mo‘minxonni arkdan qochirib, so‘ngra siz bilan urushmoqchi ekanlar, degan xabarlar bor.

Rahimbiy. Ahmoqlar. Buxoroda nima ishlari bor ekan?! Nodirshoh o‘ldirilgan, yurtlari buzulib turadir. Borib o‘z ishlarini tuzatsinlar.

Mir Vafo. Bek, Abdumo‘minxonning ishini bir yoqlik qilmasangiz, yana bir janjal chiqar.

Rahimbiy (*Mir Vafog‘a*). Siz buni chiqarib yuboring, Oxun bilan Qozi Nizomni menim yonimg‘a chaqiring. O‘zingiz Eron qo‘shinig‘a borib, sardorlarga ayting, o‘zlarini ko‘rmak istayman, kelsinlar.

Donyolbiy kelar. Mir Vafo bilan qalandar unga salom berib chiqarlar.

Donyolbiy (*Rahimbiyga*). Bu qalandar kim?

Rahimbiy. Tanimaysizmi?

Donyolbiy. Tanishg‘a o‘xshaydir.

Rahimbiy. Bir kecha otam bilan o‘turg‘animda kelgan edi-ku.

Donyolbiy. Ha... Bu bor ekan. O... Shuning so‘zlarini eslaysizmi? Karomati bor ekan. Boya aytsangiz edi, duosini olar edim.

Rahimbiy. Hay, yana kelar.

Donyolbiy. Ibrohim kenagasni keltirdilar.

Rahimbiy. Qani?

Donyolbiy. Saqlovda turibdur.

Rahimbiy. O‘, bola! (*Xizmatchi kelar.*) Saqlovga chiqib ayt, Ibrohim otaliqni keltirsinlar.

Xizmatchi ketar.

Donyolbiy. Qo‘llarini bog‘lab, keltirganlar. Bechora, qarib qolg‘an.

Rahimbiy. Ko‘zi ko‘rmaydimi?

Donyolbiy. Yo‘q, ko‘rmaydi. Bechoraning duosini ol-sangiz, yaxshi bo‘lur.

Rahimbiy. Albatta, unga hurmat qilamiz. (*Bir kishi Ibrohimbiyini keltirar. Qo‘llari bog‘lang‘an, ko‘zi ko‘rmaydir.*) Otaliqning qo‘llarini och! (*Halig‘i kishi Ibrohimbiyning qo‘llarini ochar.*) Otaliq amak, o‘tiringiz, qalaysiz?

Ibrohimbiy (*o'tirar*). Ko'zim ko'rmaydir. Siz kim bo'lasiz? Rahimbiy. Tanimadingizmi? Men, Rahimbiy.

Ibrohimbiy. Ha, tanidim, tanidim. Xudog'a shukur, yaxshiman.

Donyolbiy. Hali meni ham tanimasangiz-chi, otaliq!

Ibrohimbiy (*biroz o'ylab*). Siz Donyolbiy emasmi?

Donyolbiy. Topdingiz.

Ibrohimbiy. Qalaysiz, uka? Ko'rishaylik-ey... (*Qo'llarini uzatar, ko'risharlar.*) Eskilardan yolg'iz siz qolibsiz. Rahmatli akalaringiz o'lganlar ekanlar.

Donyolbiy. Ha, tangri yorlaqasin, o'ldilar.

Ibrohimbiy. Hay, dunyo shunday ekan, bitta kelib, bitta ketar ekan-da.

Rahimbiy. Otaliq amak, meni qutlamaysiz?

Ibrohimbiy. Sizni nega qutlay ekan, jiyanim?

Rahimbiy. Dushmaningizni o'ldirdim. (*O'tirar.*)

Ibrohimbiy. Siz o'ldirmaganda, o'zi o'lmasmi edi?

Rahimbiy. Shunday ekan, siz nega unga yog'iqib shuncha urushdingiz?!

Ibrohimbiy. U elg'a yomonlik qildi, yurtni taladi, hukumat ishlariga qaramadi. Kecha-kunduz chog'ir ichib yotdi. Men uning shul ishlarig'a qarshi bo'lib urushdim.

Rahimbiy. Men nima qildim?!

Ibrohimbiy. Siz bu ishlarni o'zingiz uchun qilasiz-ku chog'i!

Rahimbiy. Qaydan bildingiz?!

Ibrohimbiy. Rahmatli otangizning Nodirshoh etagiga yopishqonini bilar edim. Siz ham Nodirshohga bordingiz. Uning qo'shinini keltirdingiz. Abulfayzxonni o'ldirg'andan so'ngra, butun ishni o'z qo'lingizga olib turibsiz.

Rahimbiy. Abdumo'min to'rani xon ko'targanimizdan xabaringiz yo'qmi, amak?

Ibrohimbiy. Abdumo'min to'ra o'n besh yashar bir bola. Uni xon ko'tardingiz nima, ko'tarmadingiz nima!

Rahimbiy. Siz bo'lg'anda, nima qilar edingiz?!

Ibrohimbiy. Men bo'lg'anda, Abulfayzxonni tushirg'ach, qurultoy chaqirar edim. Yangi xon bilan uning otalig'ini el boshliqlarining kengashlari bilan belgilar edim.

Rahimbiy. Mana, el boshliqlaridan bittasi — siz. Elingiz kenagas! Buxoroning tubchak, buyuk bir eli.





Kelingiz, bunday ma'nosiz so'zlarni qo'yingiz, birgalashib, kengashib ishlaylik, Abdumo'minxonning hukumatini biriktiraylik.

**Ibrohimbiy.** Men juda yaxshi bilaman: siz shu kun erta Abdumo'minni ham otasining orqasiga yuborib, taxtini olarsiz. Jiyanim, men Abulfayzxon bilan urushdim, chunki ul haqsizlik qilg'an edi. Siz bu kun undan ortiq haqsizlik qila turibsiz. Ko'zim bo'lsa edi, ertadan boshlab, siz bilan ham urushar edim. Nima qilaykim, ko'zim yo'q. Hay, sizku Buxoro taxtini olarsiz. Abdumo'minni o'ldirarsiz. Balkim, meni ham o'ldirarsiz. Biroq shuni bilib qo'yingizkim, bu taxt sizning bolalaringizg'a yuqmag'usidir.

Oxund bilan Qozi Nizom salom berib kelarlar.

**Rahimbiy.** Marhamat qilsinlar. (*Ibrohimbiyni ko'rsatib.*) O'taliqni tanimadingizmi?

Oxund (*Ibrohimbiyga qarag'andan so'ng*). Kenagas o'taliqmi? Ko'rishaylik-ey.

Ikkalasi borib ko'rishgach, o'tirarlar.

**Qozi Nizom** (*Ibrohimbiyga*). O'taliq, xudoga shukur qilingiz. Bekning g'ayratlari bilan dushmanlaringiz yo'qoldilar. Emdi qolg'an umringizni shu kishining ko'lagasida tinchg'ina o'tkararsiz.

Ibrohimbiy javob bermaydir.

**Rahimbiy.** Bir-ikki shar'iy masala bor. Shuni so'ramoq uchun sizlarni chaqirdim.

Oxund. Marhamat qiling, taqsir!

**Rahimbiy.** Shul to'rt-besh kunlik janjalimizda Abulfayzxon bilan yana bir necha kishi o'ldilar.

Oxund. Ha, taqsir.

**Rahimbiy.** Bularning o'limiga men sabab bo'ldim. Shuning shariatda hukmi nima bo'lsa?

Oxund. Taqsir, ho taqsir, masalan, «bolvoyi om»da<sup>1</sup> o'lganlarning qotili hech kim bo'lmaydir. Ular bolvoyi omga sabab bo'ldilar, shariatning hukmi shudir, taqsir.

<sup>1</sup> Bolvoyi om – «bolvo», ya'ni balolar; «om» – ommaviy so'zining qisqa shakli. Iboraga to'lig'icha «balo-qazolarning birdan yopirilib kelishi» ma'nosini beradi.

Qozi Nizom. Abulfayzxon hukumat ishlarini bajara olmadi. Shuning uchun hukumatni boshqa kishig'a topshirmog'i kerak bo'ldi. Buni qilmag'ach, jazosini ko'rdi.

Rahimbiy. Bizning oramizda bir so'z bor: Chingizxon avlodidan bo'lmag'an kishi xon bo'la olmaydir, deylar. Bu to'g'rida shariatning hukmi nima bo'lsa?

Oxund. Shariatda bunday bir narsa yo'qdir. Kimning qo'lidan ish kelsa, shul xon bo'la beradir.

Rahimbiy. Shul eski masala to'g'risida rivoyat (fatvo) berasizmi, taqsir?

Qozi Nizom. Albatta, beramiz.

Rahimbiy. Erta shuni yozib keltiringiz!

Oxund. Xo'b bo'lubdir.

Ibrohimbiy. Rahmatli Rajabxon bilan birlashib, Abulfayzxonga qarshi urushg'animizda shunday kengashgan edik-kim, Buxorog'a borib kirsak, butun mullolarni bir madrasag'a solib, o't qo'yamiz-da hammasini yondiramiz. Elimizni buzib, rasvo qilg'an shular. Bular dingingizni tuzatamiz deb, dunyomizni murdor<sup>1</sup> qildilar.

Qozi Nizom. Nima qildik biz?!

Ibrohimbiy. Siz Qozi Nizom emasmi?

Qozi Nizom. Ha, men Qozi Nizom.

Ibrohimbiy. Tunov kun Abulfayzxonni «soyayi xudo» deb oyoqlarini o'pmag'an edingizmi? Abulfayzxon xotinlar bilan ichishib yotg'an bir kechening ertasida, uning oldig'a kelib: «Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar», – deb, chopon kiyganingizni unutdingizmi? Tunov kun sizga chopon bergan soyayi xudoning o'limiga bu kun fatvo berasiz, hech uyalmaysizmi? Tushingizda Abulfayzxonni so'rag'an payg'ambar, yana bir yo'la tushingizga kirib, uni so'rasalar, nima deysiz? Bular oz emish kabi, Chingizxonning yosog'ini ham yo'q qilmoqchi bo'lasizmi?

Donyolbiy. Otaliq aka, shariatning hukmi shu ekan-da.

Ibrohimbiy. Men shariat-mariatni bilmayman. Ishingizni to'g'rilamoqchi bo'lsangiz, qurultoy chaqirasiz. Bularning so'zi yarim chaqag'a arzimaydir.

Mir Vafo kelar.

Mir Vafo. Eron sardorlari keldilar.

<sup>1</sup> Murdor – nopok, harom; o'limtik.



Rahimbiy (*Donyolbiyga*). O'taliqni siz qo'noq qilingiz. Bu kishiga yaxshi qarashib, hurmat ko'rsatingiz. (*Mir Vafo-ga*.) Siz sardorlarni keltiringiz. (*Donyolbiy, Ibrohimbiy, Mir Vafo chiqarlar. Rahimbiy mullolarg'a so'ylar.*) Men Eron sardorlarini chaqirdim. Eron qo'shini Buxoroda qola bersa, yaxshi bo'lmaydi. Buxorodan chiqib ketishlarini taklif qilaman.

Oxund. Ko'b yaxshi qilasiz, bek. Kelgan qo'noqning ketishi yo'qmi? Buxoroda nima ishlari bor?

Rahimbiy. Bu kecha menim so'zimni tinglamay, yana Buxoroda qolmoqchi bo'lsalar, bu to'g'rida erta sizlar bilan boshqacha kengasharmiz. Albatta, erta shul rivoyatlarni olib kelarsiz.

Oxund, Qozi Nizom. Xo'b bo'libdir (*Turarlar.*)

Rahimbiy. Ketasizmi emdi?

Oxund. Ketaylik, bek.

Rahimbiy. Xo'b.

Oxund bilan Qozi Nizom chiqadi. Mir Vafo bilan Eron sardorlari Husaynxon, Ahmadxon kelarlar. Salomdan so'ng o'tirmasdan so'ylasharlar.

Husaynxon. Chaqirg'an ekansiz, keldik, bek!

Rahimbiy. Xush keldingiz. Sizni chorlatganimning sababi shul: aziz qo'noqlarimiz bo'lg'an Eron qo'shini biz uchun ko'b musofirchilik chekdilar. Shukur, mana o'lkamiz tinchlanib qoldi. Eshitishimizga ko'ra, podshohimiz Nodirshoh shahid bo'lg'anlar. Endi bu aziz qo'noqlarg'a xizmatlarig'a yarasha jaldular<sup>1</sup> berib, yurtlarig'a qaytarsak, bizdan rozi bo'lurlarmi?

Husaynxon. Bek, qarorimiz boshqacha edi. Bizga Abulfayxonni omon-eson Erong'a erishdirmak xizmati topshirilg'an. Siz Abulfayxonni bizga qachon topshirsangiz, biz shul daqiqada chiqib keta berarmiz. Xonni topshirmay ekansiz, Eron qo'shini ham yota beradir.

Rahimbiy. Nodirshoh o'lmaganda, men Abulfayxonni, albatta, siz bilan yuborar edim. Bu kun Nodirshoh o'lgan. Eronda Abulfayxonning hech kimga kerakligi yo'q. Shuning uchun xonni sizga topshirmoqning ma'nosi qolmag'an.

<sup>1</sup> Jaldu – sovg'a, in'om.

Husaynxon. Nodirshoh o'lgan bo'lsa, Eron tirikdir. Eron podshohi «Abulfayzxonning jonini qutqaringiz» deb, o'z qo'shinig'a buyurg'an. Biz uning shul buyrug'ini yeriga kelturarmiz.

Rahimbiy. Mayli. Bizning xon sizga shuncha lozim ekan, chiqarib berar edim, biroq u kishi shu kun ertalab o'zlarini o'ldirganlar. O'liklarini sizga chiqarib bermak unumsizdir.

Husaynxon. Nima, Abulfayzxon o'ldimi?

Rahimbiy. Shu kun erta bilan o'zlarini pichoqlab o'ldirdilar. (*Eron sardorlari hayrat bilan bir-birlariga qaraylar. Rahimbiy so'zining ta'sirini ko'rgach, gapira berar.*) Aziz qo'noqlarim! Abulfayzxon o'ldi. Nodirshoh o'ldi. Sizning bunday yot o'lkada boshsiz, tilaksiz turishingiz foydasiz bir ish. Elimiz Nodirshohning o'lganini eshitsa, sizni tinch qo'ymasa kerak. Xazinadan sizlarga yigirma ming tangadan pul beraylik, qo'shiningizg'a ulashib beringiz-da, yurtingizga qarab keta beringiz.

Ahmadxon. Bek! Biz bu ishdan bir narsa onglayolmadik. Xonni kim o'ldirgan? O'zimi, dushmanlarimi? Bu ochiq bilinmadi. Biz qo'shinimizg'a qaytib, kengasharmiz. Qanday bir qarorga kelsak, sizga bildirarmiz.

Rahimbiy. Xo'b, qachon bildirarsiz?

Ahmadxon. Erta bildirsak kerak.

Rahimbiy. Xo'b bo'ladir. Shunday qilingiz.

Husaynxon. Xudo hofiz, bek!

Rahimbiy. Xudo hofiz.

Eron sardorlari chiqib ketarlar.

(*Mir Vafoga*) Siz O'rdag'a boringiz. Abdumo'minxonni ko'ringiz. Eron sardorlari sizdan fотиha olib, yurtlarig'a qaytar ekanlar, deb bu yoqqa yuboringiz. O'zingiz keta beringiz.

Mir Vafo. Xo'b. (*Ketar.*)

Rahimbiy (*yolg'iz yurib so'ylar*). Emdi ikkinchi bosqichni bosmoq kerak. Bu qo'g'irchoqni yo'q etmasak, boshimizg'a bir balo chiqq'usidek ko'rinadir. (*Kissasidan bir kichkinagina shishacha chiqarib, shunda turg'an sharbat shishasiga ag'darar. Yana yura boshlab, birdan kular.*) Eron sardorlari buning ham o'lganini eshitsalar, o'zlari qochib ketarlar. Biz tutmoqchi bo'lsak ham turmaslar.

Abdumo'min kiyinib, toj qo'yg'ani holda kulib kelar.



Abdumo‘minxon. Bek bobo, meni chaqirdingizmi?

Rahimbiy. Ha, o‘g‘lim, sizni chaqirdim. Eron sardorlari yurtlarig‘a qaytar ekanlar. Sizni ko‘rib, fotiha olarlar.

Abdumo‘minxon. Qani?

Rahimbiy. Kellarlar. Siz taxtg‘a chiqib o‘tiringiz. (*Abdumo‘minxon taxtga chiqib o‘tirar.*) Eron sardorlari kelganda: «Nechun ketasiz, bizning Buxoroda qolsangiz bo‘lmasmi!» – deb qarang. Ular: «Yo‘q, ketamiz», – deylar. So‘ngra bularga yigirma ming tangadan pul berilsin, deb menga buyuringiz.

Abdumo‘minxon. Xo‘b.

Rahimbiy (*sharbat shishasiga yondoshib, shundan bir piyola ichkan bo‘lib*). Bay, ba...y, yaxshi sharbat ekan-da. Siz tomoq yedingizmi?

Abdumo‘minxon. Ha, yedim.

Rahimbiy. Bir piyola ichasizmi?

Abdumo‘minxon. Hay, ichaman. (*Rahimbiy piyolani to‘ldirib berar. Abdumo‘minxon birdan ichar.*) Biroz achchig‘mi?

Rahimbiy. Biroz... (*Piyolani olib joyig‘a qo‘yar.*) Albatta, foydali dorilar soling‘andur. Erta Qozi Nizomga mirasadlik<sup>1</sup> o‘rini bersangiz bo‘lurmi?

Abdumo‘minxon. Bo‘lur. (*Yuragini tutib.*) Yuragimni yondirib yubordi, bu nima edi?

Rahimbiy. Menga bir narsa bo‘lmadi-ku!

Abdumo‘minxon (*ikki qo‘li bilan ko‘kragini tutib, buruladir*). Voy, yondim. (*Yalinar.*) Bek bobojon, bu nima edi? Yondim.

Rahimbiy. Jim turingiz, hech narsa qilmaydir.

Abdumo‘minxon (*chiday olmay*). Voy yondim... biroz suv beringiz! (*Abdumo‘minxonning ko‘zlari olayib, yuzi buzila boshlar.*) Yondim. Biroz suv beringiz! (*Qusmoq istaganda, taxtdan yumalanib, tubanga tushar. Rahimbiyning singirlari buzilar, kuchli bir vijdon azobiga uchragan kabi devorg‘a tayanib, ko‘zlarini Abdumo‘ming‘a tikib, qotib qolar. Qusib, talpinib, qiynalib yotg‘on Abdumo‘minxon birdan boshini ko‘tarar.*) Jallod! (*Rahimbiy seskanar.*) Meni ham o‘ldirdingmi?! (*Yana yiqilib, talpina-talpina jon berar.*)

<sup>1</sup> Mirasad – «mira» xoja, boshliq, katta ma’nolarini beradi, «sad» esa yuz raqamini anglatadi. Bu mansab saroydagi yuzboshilikka yaqin mansablardan biri.

Ko'k gumburlar, qattiq bir yel esib, shamlarni o'chirar. Shu tobda taxtning bir chetidan, yigirma yashar eronli aft bir Xayol chiqar. Sochi orqag'a qaytarilib, bo'yni to'g'risidan kesilgan, boshi yalang, egnida kafan, og'ir yurib, Rahimbiyning qarshisig'a borib turar. Rahimbiy juda qo'rqib, qattiq titrar.

Rahimbiy (*bo'g'iq*). Bu kim!.. Kim bu!..

Xayol qo'li bilan imlagach, parda ochilib, o'liklar turg'an boyagi zindon ko'rinar.

Xayol (*og'ir tovush bilan shul forscha nazmni o'qur*).

Surati adli Xisravon in ast:

(*zindonni ko'rsatur*)

Zulm dar olami g'araz din ast.

Ojizonro dihan g'utta ba xun,

(*o'liklarni ko'rsatar*)

To shavad xilvati havas gulgun.

Adl in rang tuxmi ra'fat kosht,

V-ey agar zulm teg' mebardosht<sup>1</sup>.

Rahimbiy. Bu kim?..

Xayol (*taxtga qarab*). Ey qora kuch, qurib ketgur taxt! Hech gunohi bo'lmag'an bolalardan, tog' kabi yigitlardan, millionchalari sen uchun qurbon bo'lub ketarlar. Insonlar tomonidan yaratilgan minglarcha tangrining eng buzuqboshi, eng shumi, eng qop-qora saodat — sensan. Ostingda qolg'anlarni ezguchi bir falokat yuki bo'lg'aning kabi, ustingga chiqqanlarning borliqlarini yondirg'uchi bir olov tepasidirsan!

Rahimbiy. Kim bu? (*Qo'rqa-qo'rqa ikki odim ilgari bosib, bir narsa so'ramoqchi bo'lur. Xayol so'ylag'ach, yana qo'rqib keyinga qaytar.*)

Xayol. Sen fazilatlik bilimlarning qo'l, qanotlarini uzib tashlading. Inju tizg'uchi adiblarning qalamlarini o'choq supurgisiga aylantirding. Ota pichog'i bilan bolalarini bo'g'izlading.

<sup>1</sup> Bu tizim Bedildandir.

Xusrav (shoh)lar adlining shakli shunday:

G'araz olamidagi (kishilarning) dini zulmdir.

Zaiflarni qonga sho'ng'itishadi,

Toki havas kiyimi rang-barang bo'lsin deb.

Ey, zulm tig'i o'rtadan ko'tariladigan bo'lsa,

Adolat shu tarzda yuksaklik urug'ini ekadi.



Bola xanjari bilan otalarni yiqitding. Do'stlarni bo'g'ishtirding, o'rtoqlarni urushtirding. Dalaning erkini, shaharning tinchini, erlarning g'ayratini, xotinlarning ismatini<sup>1</sup> talatding. Otamdan qochib, o'ziga sig'ing'ananim holda uyalmayin, boshimni kesdigan Afrosiyobingdan mana shu kimsasiz bolani og'ulatib yiqitqon Rahimxoningg'acha minglarcha yirtqich xoinlarni sen yaratding, sen yashatding. Ey insonning dushman tangrisi, qachong'acha bu ongsizlar to'dasini o'zingga ham topindirib, ham qurbon qilarsan?! Ey boyqushlar qafasi, bunday dev ishtiholiq hayvonlarning<sup>2</sup> qo'li bilan qachong'acha dunyolarni bir-biriga urib turasan?! Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko'masini<sup>3</sup> chuqurdan chuqurg'a yumalatmog'ingning zamoni hanuzg'acha bitmadimi?!

Rahimbiy (o'ylar). Afrosiyob, deydir. Otamdan qochdim deydir. (*Bir-ikki odim ilgari bosib, qo'rqa-qo'rqa.*) Sen kimsan?!

Xayol. Men... Sening kabi bir zolim qo'lida mana shuning kabi (*Abdumo'minning o'ligini ko'rsatar*) hech bir narsani bilmayin, onglamayin, bo'g'izlang'an bir mazlum – Siyovush!... Ey qora yurakli boyqush, bundan senga qolg'an vayronani qutlamoq uchun keldim. Insonlik dunyosi, esini bir joyga to'plab, o'z ishiga o'zi ega bo'lg'anacha, sen ham, sening kabilarning ham ixtiyoringizdadir. Istaganingizcha hukm sura olarsiz. (*Sekin-sekin uzoqlanib, yo'qolar.*)

Rahimbiy. Siyovush... Siyovush. (*Xayol tomonidan tortilgan kabi, uning ketidan yurib, sahnadan chiqar*).

Parda tushar.

## «ABULFAYZZON» FOJIASI HAQIDA

Abdurauf Fitrat ijodining ma'lum bir qismini dramatik asarlar tashkil etadi. Ular orasida 1924-yilda chop etilgan «Abulfayzzon» fojiasi alohida o'rin tutadi.

Abdurauf Fitratning «Abulfayzzon» fojiasi birmuncha keskin voqealarni tasvir doirasiga olgan asarlar sirasiga kiradi. Asarni mudhish bir ta'kid, ya'ni asarda Ulfat obrazi tildan aytilgan «Podshohlik – qon bilan sug'orilaturg'on bir

<sup>1</sup> Ismat – nomus, iffat, poklik.

<sup>2</sup> Ishtiholiq hayvonlar – yirtqich hayvonlar.

<sup>3</sup> Ko'ma – to'plam, uyum.

og'ochdir» asosiga qurilgan desak ham bo'ladi. Chunki toj-u taxt orzusi ko'zlarni ko'r, qablarni nochor qilishi mumkin. Bunga asardagi bir qancha voqealar ham dalil bo'la oladi. Xususan, tarixiy dalillarga ko'ra, Abulfayzxon taxtga o'tirish uchun akasining bahridan o'tgan edi. Xon yon-atrofidagi ikkiyuzlamachi xoinlar dastidan, qolaversa, o'zining nihoyatda kaltabinligi tufayli mag'lubiyatga uchraydi. Asarning bosh g'oyasi ham zulm asosiga qurilgan tuzunning oxir-oqibat inqirozga yuz tutishini ta'kidlashga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, drama Mir Vafo va Qozi Nizomning shaxmat o'yinlari bilan boshlanadi. Yozuvchi bu o'yinni bejiz tanlamagan, shaxmat o'yini zamirida qaysidir ma'noda fojiada qatnashadigan obrazlarning o'zaro ziddiyati, qaysi tomonning yutishi va yutqizishiga ramzan ishora ham qilinadi. Ikkinchi tomondan, ko'pincha shaxmat o'yini aqlli va bekorchi odamlarning ishi sifatida ham talqin etiladi. Shunga ko'ra, xon ishongan mulozimlarning ahvoli, ularning maishat-u turli o'yinlar bilan mashg'ulligiga ishora qilinadi.

Kunlar o'tgan sayin Abulfayzxonni marhumlar ruhi bezovta qila boshlaydi: qo'rqinchli tushlar ko'radi. Xon atrofi borgan sari sotqinlarga to'lib boradi. Zero, bunga faqatgina uning o'zi aybdor edi. Hatto eng ishonchli odamlaridan biri Hakimbiy Eron shohi Nodirshoh bilan do'stlashadi. O'g'lini yashirin ravishda Nodirshoh huzuriga yuboradi. Hakimbiy bir tarafdandurushmaslik tarafdori bo'lib ko'rinsa ham, o'z yurtini dushman qo'lga topshirishi, dushman bilan yashirincha til birliktirishi, oxir-oqibat Eron shohining Buxoroni egallab olishi — bularning barchasi millatparvarlik, vatanparvarlik nuqtayi nazaridan oqlab ham, yoqlab ham bo'ladigan hodisalar emas. Hakimbiy obrazida Abulfayzxon bilan birlashmagan, o'z yurtini dushmanga emin-erkin topshirgan bir kimsa namoyon bo'ladi. Hakimbiyni Ulfat orqali Abulfayzxon o'z huzuriga chaqiradi. Hakimbiy borishdan bosh tortadi va «Jo'yborga borib Xo'ja Kalonning uylariga qo'nsinlar, elning kattalarini chaqirsinlar», deb muzokara uchun joy tanlaydi. Buning sababini ham Hakimbiy nutqidan bilib olish mumkin: «Xonning buyrug'i Arkdan Mirarabgacha yurmaydir». Bu gap Abulfayzxonning ijtimoiy-siyosiy mavqeyi naqadar zaifligini anglatadi.





Uchinchi parda Nodirshoh va o'g'li Rizoqulixon suhbatini bilan boshlanadi. Nodirshoh: «Har o'lkani urushib olmoq siyosat emas. Urush choralarning eng so'nggisi. Bir o'lkani olmoq uchun eng yaxshi chora — shul o'lkaning o'zida do'stlar topmoq, shularni ishlatmakdir», deya Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiyga ishora qiladi. Chunki Hakimbiy Nodirshohdan o'g'lini taxtga o'tqizish va'dasini olib ulgurgan edi.

Fojianing keyingi sahifalarida xonning afsus-nadomatlarini, yig'lash-siqtashlari — umuman, nochor ahvoli beriladi. Yurt boshqaruvini qo'lga olgan Rahimbiy Abulfayzxonni uy qamog'ida saqlaydi. Fitrat shu o'rinda Abulfayzxon bilan Rahimbiyni uchrashtiradi. Bu epizodda mahkum xon Rahimbiy va uning yaqinlariga qilgan yaxshiliklarini sanaydi. Rahimbiy esa xonni «Davlatimizning buyuk, buyuk teraklarini o'z qo'lingiz bilan yiqita berdingiz», deb xonning johilona siyosatini qoralaydi. Har kim o'z fikrida haqqa o'xshab ko'rinadi... Keyinroq Ulfat lahm qazib xon yoniga keladi. Xon esa qochishga jur'at etolmaydi.

Asarda zamon ahvolidan oshkora norozi, yurt tinchligi uchun kuyingan kishilar Ibrohimbiy obrazi orqali tasvirlanadi. Ibrohimbiy haqiqat tarafida, u xalq manfaatini ko'zlaydigan odam. Shuning uchun elga yomonlik qilgan, hukumat ishlariga qaramagan, «kecha-kunduz chog'ir ichib» yotgan Abulfayzxon siyosatini ham, ish boshiga kelgan Rahimbiyni ham qo'llab-quvvatlamaydi. Fitrat o'z orzu-istaklarini uning tilidan bergandek taassurot qoldiradi. Ko'zi ojiz bo'lib qolgan Ibrohimbiy Rahimbiy o'n besh yoshli Abdulmo'minni xon qilib ko'targanida esa «Men bo'lg'onda, Abulfayzxonni tushirgach, qurultoy chaqirar edim. Yangi xon bilan uning otalig'ini el boshliqlarining kengashlari bilan belgilar edim», deydi. Qolaversa, Rahimbiyga qarata shunday bir gapni aytishdan toymaydi: «Jiyanim, men Abulfayzxon bilan urushdim, chunki haqsizlik qilg'an edi. Siz bu kun undan ortiq haqsizlik qila turibsiz. Ko'zim bo'lsa edi, ertadan boshlab, siz bilan ham urushar edim. Nima qilaykim, ko'zim yo'q. Hay, siz-ku Buxoro taxtini olarsiz. Abdulmo'minni o'ldirarsiz. Balkim, meni ham o'ldirarsiz. Biroq shuni bilib qo'yingizkim, bu taxt sizning bolalaringizg'a yuqmag'usidir». Adolatning qaror topishini har qanday inson xohlaydi. Toj-u taxt bevafo va o'tkinchi. Fitrat Ibrohimbiy tilidan shu haqiqatni bayon

qiladi. Darhaqiqat, oxirgi sahnada Rahimbiy oldida ramziy obraz — Xayol paydo bo'ladi. Fitrat o'zi anglab yetgan va anglatmoqchi bo'lgan haqiqat bayoni uchun Xayolni: «Sen fazilatli bilimlarning qo'l, qanotlarini uzib tashlading. Inju tizg'uchi adiblarning qalamlarini o'choq supurgisiga aylantirding. Ota pichog'i bilan bolalarni bo'g'izlading. Bola pichog'i bilan otalarni yiqitding...», deya so'zlatadi. Xayol asardagi eng kuchli va eng teran obrazlardan biri. Fojiadagi obrazlarning o'zaro ziddiyatlarini, tarixiy haqiqat kim tomonida ekanini tushunish uchun asarni sinchiklab o'qish va ayni damda o'sha davr tarixini ham yaxshi bilish kerak bo'ladi.

Fitrat «Abulfayzxon» fojiasi uchun Buxoro tarixidagi o'ta ziddiyatli bir zamonni tanladi. XVIII asrda Buxoroda hukm surgan ashtarxoniyalar sulolasi tugab, ular o'rniga mang'it amirlarining kelish hodisalarini qalamga oldi. Fitrat real tarixiy shaxslar bilan birga to'qima hamda ramziy obrazlardan unumli foydalandi.

Abdurauf Fitrat «Abulfayzxon» fojiasida ma'lum bir tarixiy davr fojialarini badiiy talqin qilish bilan birga o'zi yashab turgan ziddiyatlarga to'la muhit — zulm, zo'ravonlik va bosqinchilikka asoslangan tuzumning mohiyatini ham qaysidir ma'noda ochib berishga muvaffaq bo'ldi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Fitrat hayoti va ijodi haqida qo'shimcha ma'lumot bering.
2. Dramani rollarga bo'lib o'qing.
3. Fojiaga asos qilib olingan tarixiy davr to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Ulfatning «Podsholik — qon bilan sug'orilaturg'on bir og'ochdir» degan fikriga munosabat bildiring.
5. Hakimbiyning Nodirshoh bilan munosabatini matndan misollar keltirib izohlang.
6. Abulfayzxon saltanatining inqirozini qanday izohlagan bo'lardingiz?
7. Rahimbiy bilan Abulfayzxon obrazlarini qiyoslang.
8. Asardagi Qurbongul qanday obraz?
9. Xayol nima uchun o'zini Siyovush deb ataydi? Sababini tushuntiring.
10. «Badiiy adabiyot va tarix» mavzusida ijodiy insho yozing.

## Abdulhamid Cho'lpon

(1898–1938)



«Kecha va kunduz» romaniga tugal badiiylik baxsh etgan eng muhim omil shundaki, Cho'lpon xalq hayotining badiiy tahlilini ham, ijtimoiy hayot haqidagi o'zining mulohazalari va xulosalarini ham biron o'rinda yalang'och aytishga urinmaydi — bularning bari romanda jonli odamlar, ularning taqdiri, xarakterlari mantiqi vositasida ochiladi».

**Ozod Sharafiddinov,**  
*O'zbekiston Qahramoni*

«Cho'lponning ulug'vorligi shundaki, u XX asr o'zbek adabiyotini yangi pog'onaga ko'tarib, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo'shibgina qolmasdan, xalqda «Vatan», «Millat», «Istiqlol» tushunchalarining teran ma'no kasb etishiga ham mislsiz darajada katta ta'sir ko'rsatdi. O'zga so'zlar bilan aytganda, u xalqda hurriyat tuyg'usini uyg'otdi, uning ko'zidagi g'aflat pardasini olib tashladi, unda Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch hislarini tarbiyaladi. Uning fuqarolik jasorati xuddi shundadir».

**Naim Karimov,**  
*akademik*

«Milliy adabiyotimizda zamonaviy nasrchilik endigina shakllanayotgan pallada ijod qilgan Cho'lponning ijodiy izlanishlari nasrimizning poetik arenasini boyitishga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi. Cho'lpon o'z ijodi bilan nasriy janrlarning turfa imkoniyatlarini namoyon qildi, turli poetik usul va



vositalarni dadil tajriba qilib, ularning milliy adabiyotimizda o'zlashib qolishiga puxta zamin hozirladi».

**Dilmurod Quronov,**  
*adabiyotshunos*

## KECHA

Birinchi kitob  
(*Romandan parcha*)

Hamal keldi, amal keldi.  
*Xalq maqoli.*

### I

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazil-lashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?

\* \* \*

Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi. Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan



to'xtaganlar, endi tashqari eshikning «g'iyt» etishi — bir-ikki ayolning astagina bosib, paranjisini sudrab kirib kelishiga dalolat qilmas, hali endigina o'n beshga qadam qo'ygan bu yosh qizning go'dak ko'nglini uncha cho'chitmas edi.

Ko'k terish bahonasi bilan bir-ikki marta keng hovlilarga, shahar ichida bo'lsa hamki, dala-tuzlarga chiqib kelganidan beri ko'ngli qirlarni, dalalarni, ishqilib olis-olis joylarni yana ko'proq tusay boshlagan edi.

Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog'ish bilan ovora, o'zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko'nglini bir qur seskantirib oldi. Bir qo'lida supurgisi, bir qo'li tizzasida — yerga egilgan ko'yi eshik tomonga tikilib qoldi. Otasining odatdagi tomoq qirish va yo'talishlar bilan, katta eshikning og'ir zanjirini sharaq-shuruq qilib tushirib, namozga chiqib ketganiga hali ko'p o'tmagan edi. Halol-haromni ko'p ham farq qilmayturgan bu odamning avrodda o'tirish odatlari, hatto hammadan keyin qolib, machit shamlarini puflab chiqish rasmlari bo'lardi.

Aytgandek, eshikdan shoshilib kirib kelgan — yoshgina, o'zi tengi bir qizcha bo'ldi. Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib yetmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi...

O'rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlamas paranjini iring'itdi va o'zining bolalik ruhi bilan yuguranicha borib Zebini quchoqladi. Ikkalasi quvona-quvona ko'rishdilar. Supurgi yetgan joyidan nariga o'tmasdan yerga yonboshladi... Ikkala yosh — yuzlari kulgan, ko'ngillari yozilgan — qo'ltiqlashib ayvonga bordilar va Zebining otasi turib ketgan so'ringing chekkasiga o'tirishdilar.

Salti (Saltanat) erta saharda munaqa halloslab kelishining sababini hali aytgani yo'q edi, ular ko'rishgan hamon, yosh qizlarning o'z oralarida o'taturgan mahram<sup>1</sup> gaplarini gaplashib, tikayotgan kashtalari, piltaga kirgan do'ppilari to'g'risida bir-birlariga kalta-kalta ma'lumot berishgan edilar. Salti endi gap ochdi:

— Erta saharlab chopganim bekorga emas...

<sup>1</sup> Mahram — sirdosh, do'st, hamdam.

– Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi...

– Nimaga, o'rtoqjon?

– O'zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi.

– Menam bezganman, jonim qaqa... shuning uchun bir qishloqqa chiqib kelsammikan, deb edim...

– Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku.

Zebining yuzini, shu topda, butun qish ichi to'planib qolgan horg'inlikning asarlari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko'rpaning katta-katta qavig'iga tikilgan andishalik ko'zlari hovur bosgan oynakning betiga o'xshardi. Aksincha, Saltining yuzlari charaqlagan yulduzday, sernash'a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo'lib, ko'nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to'lqinlarini aks ettirardi. Shu uchun u Zebining so'ng so'zlaridagi og'irma'yuslikni payqay olmadi. Uning ko'zlari Zebida bo'lsa ham, nazarlari boshqa yoqlarda edi.

– Enaxonni bilasiz-a? Yoyilma soydagi o'rtog'im bor-ku?

Zebi boshini ko'tarib, o'rtog'iga qaradi, shu qarash uning nechikdir Enaxonni eslolmay turganini ko'rsatardi. So'ngra Salti ta'rif qildi:

– O'tgan kuz biznikiga mehmon bo'lib kelishdi-ku – kelinbibisi bilan birga? O'shanda necha marta kishi yuborib chaqirtirdim, bormadingiz, otangiz javob bermadi...

Zebi bosh tebratdi:

– Ha, ha... bildim, bildim. O'zini ko'rganim yo'q-ku, eshitib bilaman.

– Ana o'sha qiz o'sha safar kelganida meni aytib ketib edi. Bahorlashib bir borib kelaman, deb yurib edim. Yaqinda yana aytib yuboribdi. Shunga teng-to'shlarim bilan bir borib kelmoqchiman. Sizni ham olib boraman...

– Qachon?

Zebining bu kalta savolidan Salti ko'p narsani angladi. Bu savol Zebining iloji bo'lsa shu kun paranjisini qo'liga olib (yopinib ham o'tirmasdan!), shu yerdan uzoqlashmoq uchun talpinganini ko'rsatardi. Shu uchun Salti:

– Men sizni olib ketgali keldim, aylanay! – dedi.



Va ikki yosh bola nihoyasiz quvonchlar ichida yana bir-birlariga chirmashdilar...

\* \* \*

Odatda, onaning ko'ngli yumshoq bo'ladi. Zebining onasi — Qurvonbibi Saltidan haligi chaqiriqni eshitgandan keyin darhol rozilik berdi:

— Mayli, o'ynab, yozilib kelinglar. Qish ichi yuraklaring g'ash bo'lgandir... Yosh narsalar, — dedi. Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi. Bu ona qizining saodatidan boshqa narsani bilmaydirgan onalardan edi. Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo'lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi. Lekin...

Onaning rozilik so'zlariga bu birgina «lekin» elchib<sup>1</sup> kelganidan, bechora qizlar sevinish to'lqinlarini yana bir qur ko'tarishga fursat topolmadilar.

Hamma jim qoldi. Har kim o'z oldida bir narsa topib shunga ko'z tikkan va u narsada Zebi — o'z otasini, Qurvonbibi — o'z erini, Salti — qovog'idan doim qor yog'ib turgan sovuq bir so'fini ko'rardi.

Bu bulutli havoni ochmoq faqat onaning vazifasi edi:

— Otasi bomdoddan kirsin, — dedi u Saltiga qarab, — men o'zim yotig'i bilan aytib ko'ray, yo'q demas, — so'ngra Zebiga yuzlandi: — Sen, qizim, uyga joy qil, o'rtog'ingni o'tqiz, dasturxon sol. Biz, otang bilan, choyni so'rida ichib, haligi gapni gaplashamiz.

Ikkala qiz ham og'iz ochmay jim qolishdi. Chunki Razzoq so'fining mijozini ularning ikkalasi ham yaxshi bilardi. So'figa eng ma'qul bir masalani bo'lsa ham uqtirib roziligini olmoq uchun yo o'zining piri, yoki katta bir davlatga ega bo'lish kerak edi. U odam o'z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o'z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun Razzoq so'fining qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo'lardi...

Shuning uchun Zebi ko'zlari andisha bilan kengayib ochilgani holda indamasdan joylarni yig'a boshladi.

U o'rinlarni yig'ishtirib, nonushta joylarini tayyorlab bo'lgandan so'ng o'choq boshida choynaklarga choy tashlarkan:

<sup>1</sup> Elchib — ilashib, ergashib.

– Otamdan darak yo‘q-ku? – deb so‘radi onasidan. Qurvonbibi bir ko‘cha eshigiga, bir yonboshdagi daraxtlar orasidan ko‘tarilib kelayotgan quyoshga, bir o‘choqboshidagi qiziga qaragandan keyin:

– Bilmadim, avrod cho‘zilibroq ketdimikin? Sen choyni jindek qo‘yib turib, chala qoldirgan yerlaringni supuratur, kelib qolar, – dedi.

Zebi shu topda yana qaytib qo‘liga supurgi olishni istamasada, o‘rtog‘ining «bu qiz enasining gapiga kirmas ekan», degan o‘yga borishini o‘ylab, indamasdan supurgini qo‘liga oldi va bir qo‘lini bir tizzasiga qo‘yib, sahn betini supura boshladi. Zebining choy damlab kelishini kutib, uyda – dasturxon boshida o‘tirgan Salti ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni ko‘rganidan keyin o‘rnidan turib, o‘rtog‘ining yoniga chiqdi. Zebi uni uzr aytib qarshi oldi:

– O‘rtoqjon, – dedi, – otam avrodda<sup>1</sup> o‘tirib qoldi, shekilli, shunaqa odati bor. Endiyoq kirib kelsa kerak. Xafa bo‘lmang-a?

Bu so‘nggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin o‘rtoq tutishgan yosh qizlardagina bo‘ladi. «Xafa bo‘lmang-a?» deb turgan vaqtida Zebining yuzini ko‘rish kerak edi, bir qo‘lida supurgi, bir qo‘li tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olingan emas, faqat bosh yuqori ko‘tarilgan-u butun vujud Saltining ixtiyorida! Ko‘ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o‘rab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi – oyday tiniq va quyoshday yorug‘ bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko‘rinardi.

O‘rtog‘ining bu samimiyatini Salti ham ko‘z bilan ko‘ribgina emas, ko‘ngil bilan sezib anglagan edi. Shuning uchun u Zebining so‘ziga javob ham berib o‘tirmasdan, birdaniga uning qo‘lidagi supurgiga yopishdi. O‘z ko‘nglida, supurgini olib, biroz supurishib bersa, haligi samimiyatga yarasha javob bergan bo‘lardi. Zebi supurgini qo‘ldan oldirdi, lekin o‘rtog‘i supura boshlagandan so‘ng:

– Voy, bu nimasi! Qo‘ying, o‘zim supuraman! – deb yana supurgiga yopishdi. Salti bermadi, bu olmoq istadi;

<sup>1</sup> Avrod – bomdod namozidan so‘ng o‘qiladigan oyat va duolar.





Salti qochdi, bu quvladi; shunday qilib, sahnni supurish o'rniga bu ikki o'rtoq butun hovlini boshlariga ko'tarib, shovqinlar va qiyqirishlar bilan dunyoni buzib, bir-birlarini quvlashib ketdilar...

O'z uyining qabristonlar qadar jim-jit, xonaqohlar qadar unsiz, o'z ko'ngli qadar tund va xo'mraygan bo'lishini istagan Razzoq so'fi xuddi shu ola-to'polon ustiga kirib keldi!

Eshikdan kirar-kirmas ovozining boricha:

— Bu nima qiyomat!!! — deb shovqin solishi ikkala yosh qizni, chaqmoq tekkan daraxtday, turgan joylarida qotirib qo'ydi. Yo'qsa, so'fi erining dindor xotini bo'lgan Qurvonbibi ham «bas endi!» deb ozmuncha qichqirmagan edi... Agar bu sovuq so'fi kirib kelgan bo'lmasa, ikki yosh qizning qish bo'yi to'plangan ko'ngil g'ashliklari biroz sho'xlik bilan ancha yozilgan bo'lardi. Zotan, ularning o'zlarini unutar darajada bir-birlari bilan bu xilda o'ynashuvlari o'sha g'am-g'ashlar purjinasining bo'shalishi, siqintilar oqimining to'g'onini buzib, oldinga tomon yo'l solish emasmi? Bunday telbalarcha ko'pirib-toshuvlarni to'xtatmoq uchun ham, albatta, telbalarcha hayqirishlar, chaqmoq qadar quvvatli zarblar lozim bo'lardi...

\* \* \*

Razzoq so'fida unday quvvat ortig'i bilan bor. Bu odam, jadidnamo bir hamshahrining deganidek, «ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluqlardan edi». Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirtirgan va birinchi daf'a yo'rgaklagan kampir hazilkashligi va sho'xligi bilan xotin-xalaj o'rtasida dong chiqargan Hamro enaymish. Bolani yo'rgaklaganidan keyin hali u qadar odam kepatasiga kirmagan yuzlariga tikilgan va mana bu so'zlar bilan erkalatganmish:

— Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo'lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog'ingizni ochsangiz-chi! Yorug' dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!..

O'shanda kulmagan Razzoq so'fi undan keyin ham kulmay o'tdi. Kulish bilan yig'lash orasida katta farq bor. Kulish bilan kulmasdan tekkina jiddiyat saqlab turish orasida

ham anchagina masofa bor. Shu uchun Razzoq so'fining kulishlarini kulish, deb bo'lmaydi...

Kulmasdan chidab bo'lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish — kasal odamning kulishiday og'ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg'on xushomadlarday ko'ngilga uruvchi bo'lardi. Bir kun Zebining juda jiddiy bir chehra bilan:

— Otam kulmas ekan-da! — deganini eshitib, Qurvonbibi ko'yib bergan edi. Shu haqiqatni aytgani uchun qizidan alayna-oshkor koyingan Qurvonbibi, bu haqiqatni o'zi o'z ko'nglida necha marta takrorlagan bo'lsaykin?.. Til bilan birovning aybini aytish oson, o'z tili bilan o'z aybini aytadiganlar juda kam, Qurvonbibi har qancha so'zga epchil xotin bo'lsa ham, uni bu kamlar orasiga qo'shib bo'lmaydi.

Qurvonbibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi. Tashqari olamda, ya'ni o'z hovlisidan tashqarida uning doimiy va birdan bir vazifasi: o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa — «hovva-hovva», demak, o'zidan past va kuchsizlar gapirsa — «yo'q, yo'q», degan ma'nida bosh chayqash bo'lardi...

O'zbekda axir har bir erkak o'z xotinini — o'z halol juftini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmon: — sharm-u hayo yuzasidan bo'lsamikan? — xotinini «Xadicha» deb chaqiradi...

Bizning so'fi mo'min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o'z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt «Fitna» deb chaqiradi: «Fitna, sallamni ber!», «Fitna, qiz o'lguring qani?», «Fitna, puldan uzat!»

...Uning ma'lum bir kasbi, hunari yo'q. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandlik peshasini tutadi. Shu bilan birga, dasturxonni nonsiz, qozoni issiqsiz qolmaydi...

\* \* \*

Otasi kirib kelganidan keyin Zebining ko'nglida o'ynagan iztirob va hayajonlar Razzoq so'fining «Nima bu qiyomat!»



degan qiyomatidan qo'rqinchliroq edi. Sovuq bir so'fining nazdida, bu qadar vahimali bo'lib ko'ringan oddiy va tabiiy bir bolalik o'yini qafas darichasining ochilishini kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qulf urilayotganganini ko'rgan bir qushning iztirobidan kam bo'larmidi?

G'aflatda qolganlarning boshiga tushadigan tayoq yomon zil ketadi, deydilar. Bu ikkala qiz o'yin va sho'xlik havasi bilan g'aflatda edilar. So'fining og'ir zarbi bilan o'zlariga kelgach, oldilarida zo'r bir tog' turganini ko'rib, ixtiyorsiz cho'chib ketdilar. Bu tog'dan o'tish kerak edi, holbuki, bu tog' — munaqa yosh bolalar o'ta oladigan tog'lardan emasdi. Ikkalasi ham iztirobning bu og'ir yukini bir-birlarining ko'zlarida o'qidilar...

So'fining baqirishidan so'ng biroz shoshib turgach, ular yugurgancha uyga kirdilar va o'zlarini eshikli derazaning panasiga olib, Razzoq so'fining harakatlarini kuzata boshladilar. Ko'zlari so'fida bo'lsa, quloqlari Qurvonbibining og'zida edi. Uning gapiradigan gaplari ularning ko'ngillarida tugilgan og'ir va chigal tugunchakni yo yechib yuborajak, yoki yana battarroq chigallashtirib, ikki yosh narsani — yana necha oy! — bir-biridan ajratib tashlayajakdi...

So'fi bular uyga kirib olguncha eshik oldida bo'zarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Qurvonbibiga uzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irg'itdi.

— Yosh narsalar o'ynashsa, nima bo'libdi? Muncha endi zabtga oldingiz? — dedi Qurvonbibi.

— Gapirma...

Qurvonbibi jim bo'ldi. So'fi kart tomonga qarab yurdi. Kart ustiga dasturxon yozilib, bir mistovoq non bilan piyolada qiyom qo'yilgan edi. So'fi kartga chiqib o'tirgandan keyin Qurvonbibi o'choqdan choyni olib keldi.

— So'fining bu avzoyini ko'rgandan keyin ikki qizning borqadar umidi ham uzilib bo'ldi. Zebi bu umidsizlikni yashirolmadi:

— O'ynashmay o'laylik, endi otam hech qayerga chiqarmaydi...

Salti ham o'z tashvishini anglatdi:

– Nima qilamiz endi? Siz bormasangiz, men ham bormayman... Enaxon toza koyiydi-da.

– Tek o'tirgan bo'lsak ko'ngli yumsharmidikan? – dedi Zebi.

Salti indamadi. Birozdan so'ng yana o'zi ilova qildi:

– Ko'ngli o'lsin, yumshagan vaqtini ko'rganim yo'q! Katta-katta xarsangtohlarni soy bo'yiga devlar tashlashgan, deydi... Eng kattasini otamning ko'kragiga tashlab qo'yib, «Mana shu sening ko'ngling!» deganmikan, yashamagurlar!

Bu gap Saltiga ta'sir qildi, shekilli, «pix-x» eta kulib yubordi.

Zebining munga chinakam achchig'i kelgan edi, qo'lini uzatib, o'rtog'ining og'zini to'sdi.

– Voy, anovi qizni! Yana besh battar qilasiz ishni! – dedi.

Salti zo'r bilan o'zini bosib oldi. Ikkalasi yana – ko'zlarini miltillatib – chol bilan kampirga tikildilar.

Boyadan beri eriga qarab jim o'tirgan kampirning endi astagina kulimsirashi bularga jon kirgizdi. «Ko'rdingizmi?» deganni qilib ikkalasi bir-biriga qarab olishdi.

Chinakam, Qurvonbibi, so'figa yoqadigan bir so'z topgan-day, dadillik va bemalollik bilan kulib turib gap boshladi:

– Men Zebini bir joyga jo'natib yotirman... So'fi bu safar baqirmasa hamki, dag'al bir ovoz bilan so'radi:

– Qayerga? Nega?

– Oydinko'ldagi Xalfa eshonimizning kichik qizlari bir-ikkita o'rtog'ini «Bahorlashib ketinglar», deb chaqirtirgan ekanlar. Shularning bittasi Zebi, yana bittasi uning o'rtog'i Saltanatxon ekan. Saltanatxon aravani qo'shtirib qo'yib, o'zi Zebini aytgali kelibdi. «Yo'q», desak qanday bo'ladi?

Xotini nima desa, «yo'q» deydigan so'fi bu safar bir-daniga «yo'q» demasdan, xayolga ketdi. Qizlar Qurvonbibining bu tadbiridan xursand bo'lib, yana umidlana boshlagan edilar.

– Qurvon xolam bopladi! – dedi Salti.

– Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko'ring. «Eshon», desangiz, otam o'lganini ham bilmaydi... Xudo muni eshonlar uchun yaratgan.



Salti Zebining bu gaplarini eshitgandan keyin so'fining «xo'p» deb javob berishiga ishonib ketdi. Bir qo'lini o'rtoq'ining bo'yniga tashlab, uni quchoqlar ekan:

– Bo'ldi, o'rtoq, endi! Jo'naymiz! – dedi.

– Sanamasdan sakkiz demay turing hali! Otam osonlik bilan ma'qul gapga ko'nadigan odam emas. Jim turib qo'lishini ko'ring: hali ham churq etmaydi.

Sukut uzoqqa cho'zilgandan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

– Nimaga indamaysiz? Xo'p, deng! Katta odam, uyat bo'ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki... O'zlarini bo'lsa, o'zingiz bilasiz, – dedi. So'fi negadir:

– Bilaman, Fitna, bilaman! – deb qo'yib, yana jim bo'ldi. Endi Qurvonbibi yana ham jiddiylashdi:

– Bo'lmasa, «yo'q», deng. Saltanatxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi.

Shundan keyin so'fining tili aylandi:

– Shoshma, Fitna, «yo'q», dema, mayli, bora qolsin... Qachon keladi?

– Indinga erta bilan yo kechqurun.

– Eshon oyimning ra'ylariga qarasin.

So'fi o'rnidan turdi. Kartdan tushib, kavshini kiyarkan:

– Ovozim bor, deb ashulaga zo'r bermasin, – dedi. – Nomahramlarga ovozinu eshittirsa, rozi emasman.

Bu safar odamga o'xshash gapirib, Qurvonbibini quvon-tirgan Razzoq so'fi shu so'zlardan so'ng yana o'z jimligiga qaytdi. Biroz so'ngra sallasini kiyib, yaxtagini qo'liga olgan-dan so'ng:

– Xurjinni ber, Fitna! Bo'lmasa, ikkita qop ber! – deb qoldi. Qurvonbibi qopni uzatarkan, erining qo'liga shu top-da biroz pul tushganini, endi kattaroq xarid qilish uchun bozorga ketayotganini va haligi zo'r iltifotning ham pulning kuchi bilan bo'lganini angladi... So'fi tomoq qirib eshikdan chiqarkan, uydagi ikki sho'x qiz yana bir-biriga chirmash-gan edi...

Qafasning darichasi ochildi!

Endi qushlarga qanotlarini rostlab turib: «pirr» eta uch-moqdan, keng ko'klarga, fazolarga parvoz qilmoqdan boshqa narsa qolmadi. Paranjini yopinib o'tirmasdan, shundoq bosh

ustiga tashlab, chimmatni «xo'ja ko'rsin»ga tutgan bo'lib yugurish kerak, xolos...

## II

Saltlarnikida kechgacha safarga tayyorlanib – birozgina patir bilan somsa yopib, ko'cha eshigining chap biqinidagi katta kundadan aravaga hatlagan vaqtlarida kun botib bordi. Arava shahar ichidan chiqib, dala yo'liga kirganda, kechening qora pardasi yer betini o'ragan edi. Qor ostidan chiqqan yerlar, bahorning salqin havosi va yoqimli shabadasida ostida mudrashib yotardilar. Oy hali chiqmagan; faqat kechening qorong'isiga o'chakishgan sanoqsiz yulduzlar tepada turib mash'allarini yondirganlar, xuddi peshona oldida ko'ringan eng yorug' bir yulduz, piyoz to'g'rab yotgan kelinchakning ko'zlariday, pirpirab yonardi.

Qizlar jim edilar. Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi. Uning ashulasi ham xirgoyidan nariga o'tmaganidan keyin Salti ko'tarildi:

– O'Imaxon, bormisiz? Durustroq aytasangiz-chi! Saltining yana bir o'rtog'i – Qumri uning so'zini quvvatladi:

– Ha, rost, shunday yaxshi ovozingiz bor ekan, sho'x-sho'x aytmaysizmi? Keng dalada qancha cho'zsangiz, shuncha ketadi varanglab...

Yigitcha kuldi. U qorong'ida sekingina orqasiga qayrilgan edi. Orqa safdagi qizlar chimmatini ko'tarib o'tirganlaridan ularning yuzlarini sal-pal ko'rsa bo'lardi. Kulimsirab turib, qizlarga biroz qaragach:

– Orangizda dong'i ketgan ashulachingiz bor turib, menga osilganlaring qiziq! – dedi. – Biz, «suv bo'lmasa tayammum»ga yaraydigan ashulachilardan...

Qizlar hammasi Zebiga qarashdilar. Har tomondan har xil ovozlar chiqdi:

– Ha, rost!

– Chinakam, indamay o'tirganimizni qaranglar-a!

– Ashulachi oramizda-ku.

Zebi «churq» etmasdan o'tirardi. Uning munday qilishi ham shu xil taklifdan qo'rqqanidan edi. Albatta, yosh narsaning ko'nglida o'ynash, kulish va xushvaqtlik qilish



mayllari boshqa har narsadan ko‘ra kuchlik keladi. Lekin Zebi shunday bir otaning qizikim, uning qo‘lida har qanday kuchli mayllarini ham yuganlab tutmoqqa, ko‘ngilning har bir havas va tilagini ko‘ringan joyida bo‘g‘ib tashlamoqqa to‘g‘ri keladi ham. Zebi shunday qilishga o‘rganib qolgan. Shuning uchun ham yigitning og‘zidan o‘z ismini eshitgach, badani durkirab ketdi. So‘ngra qizlar tomonidan aytilgan so‘zlar uni iztirobga tushirdi. Nima deyishni bilmas edi. O‘ylabroq javob bermoq uchun ko‘ngilning talvasaga tushmasligi darkor. Holbuki, ko‘ngil tashvishda va shu sababli talvasada...

Aravakash u yog‘dan turib:

– Ha, barakalla, bor ekansizlar-ku! O‘rtaga olinglar ashulachini! – degandan keyingina Zebining tillari qaldiradi:

– Gaplashib ketaylik. Shunday qorong‘ida!..

– Jin urarmidi? – dedi bittasi.

– Yaxshi emas, shunday zim-ziyo qorong‘ida... Gaplashib ketaylik... Shirin-shirin gaplardan...

Aravakash uning so‘zini ilib oldi:

– Shirin-shirin gap o‘rniga shirin-shirin ashuladan bo‘lsin, opa. Ta‘rifingizni eshitib, jigarlarimiz laxta-laxta qon bo‘lib ketgan...

Salti tegishdi:

– Voy, tovva-e! Laxta-laxta qon bo‘lganmi? Jabr bo‘lgan ekan... Aravakash ham bo‘sh kelmadi:

– Qon bo‘lgan yuraklarni bir nafasda yozish sizlarning qo‘lingizda, opalar! Biz ham dunyoga kelib bir yayraylik-da!

Yana indamasdan o‘tirgan Zebiga endi bu safar Salti yalindi:

– O‘rtoqjon, bir narsa desangiz-chi. Hamma baravar tashna ekan... Zebi o‘rtog‘ini astoydil koyib berdi:

– Sizdan kelgan gap shumi, hali? Otamning aytdanlarini o‘z qulog‘ingiz bilan eshitib edingiz-ku! Eshitib-netib qolsa, nima bo‘ladi? Bilib turib...

Salti o‘rtog‘ini to‘xtatdi:

– Bilaman, o‘rtoqjon, bilaman! Otangizning gaplarini bir emas, ikki qulog‘im bilan eshitdim. Odamlar ichida, ko‘pchilik orasida qistasam, mendan xafa bo‘ling. Bu yer dala joy bo‘lsa, odam asari bo‘lmasa, kechasi – qorong‘i bo‘lsa, bir-ikki juft aytib bermaysizmi?

– Nomahramga eshitdirib-a?

Zebi bu soʻzni chin koʻngildan chiqarib va jerkib turib aytgan boʻlsa ham, qizlar hammasi birdan kulishib yubordilar. Yana har xil ovozlari koʻtarildi.

– Shu ham nomahram boʻlibdimi?

– Shu Oʻlmasjon-a?

– Nomahram oʻla qolsin...

Zebi chinakam ranjigan edi. Yigʻlamsirashga yaqin bir ovoz bilan Saltiga:

– Munaqa qilishingizni bilsam, kelmas edim... – dedi. Qizlar ishning bu tomonga aylanganiga hayron boʻlishib jim qoldilar. Aravakash:

– Ey, tovba! Ey, tovba! – deb oʻz-oʻziga soʻzlanib, otni qattiq-qattiq besh-olti qamchiladi.

Ot qadamlarini ildamlatib, aravani guldur-guldur gʻildirata boshladi. Hamma jim boʻldi. Faqat Salti bilan Zebi ikkovi bir-birlari bilan pichirlashib soʻzlashardilar. Bu pichirlash natijasida, Salti oʻrtogʻini tinchlatishtigga muvaffaq boʻlgan, buning ustiga yana, qizlar «yor-yor» boshlaganda, uning qoʻshilajagi toʻgʻrisida soʻz olgan edi. Bir marta boshlangandan keyin undan narisi oʻzi keta beradi, deb oʻylardi Salti.

Darrov qizlarga tomon burildi:

– Qani, qizlar, oʻzimiz «yor-yor» boshlaymiz!

– Ha, balli! – dedi aravakash.

Qizlardan javob kutib oʻtirmasdanoq Salti oʻzi boshlab yubordi.

«Uzun-uzun argʻamchi-yo... Qizlar qoʻshilishdi: ...Halinchakka, Chakan koʻynak yarashar Kelinchakka. Chakan koʻynak yengiga Tut qoqaylik...»

Bir-ikki bayt oʻtgandan keyin Zebining tiniq, gʻuborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va oʻtkir ovozi qoʻshildi. Bu ovoz, peshona ustida pilpillagan eng yorugʻ yulduz singari boshqa ovozlardan ochiq ajralib turardi. Shu choqqacha «yor-yor»ga quloq berib, indamasdan, asta-asta otini qamchilab ketayotgan aravakash bu ovoz chiqishi bilan ogʻir bir «uh» tortdi, qoʻlidagi qamchisi daraxtdagi kuzgi yaproq singari zoʻrgʻa-zoʻrgʻa barmoqlariga osilib qoldi...



Arava yakka qanotli kichkinagina bir eshik oldida to'xtab, aravakash bola qamchi sopi bilan eshikni qoqqanda va ichkaridan bir kampirning ingichka va jonsiz ovozi «Kim u?» deb so'raganda, odamlar bir uyquni urgan edilar...

Kampirchaning so'rog'iga aravakash hazillashib javob berdi:

– Shahardan bir arava mehmon olib keldim, ena! Uyingiz kuydi toza! Ikki kunda bor-yo'g'ingizdan ajralib qoqlanasiz endi! Qani, bo'ling, eshikni oching! Qornimiz o'lgudek och...

Qizlar kuldilar. Kampir qizlarning kulishini eshitganidan keyin mehmonlarning kimligini angladi:

– Ha-a-a, Saltanatxonlardir? – dedi u.

Shu so'z bilan birga kichkinagina zanjirining shiriqlab tushgani va eshikning g'ichirlab ochilgani eshitildi. Kampircha eshikni ochar-ochmas sevinchilamoq uchun ichkariga yugurgan edi.

Aravakash:

– Qani, tushinglar endi, opalar! – deb muzaffarona bir ovoz bilan qichqirdi.

Faqat uning bu chaqirig'i foydasiz edi. Chunki zanjirning zaif shiriqlashi quloqlarga kirar-kirmas, qizlar o'zlarini aravadan tappa-tappa tashlay boshlagan edilar. Yorug'idan ko'ra tutuni va buruqsashi ko'p fonarchani ushlagan kampir bilan birga Zebilar tenglik bir qiz «Voy, o'layin, uxlab qolibman! Voy, o'layin, ko'zim uyquga ketibdi!» deb, ho'... allaqayerdan uzr aytib chiqib keldi. Bu yoqdan:

– Voy, aylanay! Enaxon! Jonim o'rtog'im! Bormisiz? – deb paranjisini qo'lga olib Salti yugurdi. Quchoqlashib ko'rishga ketdilar. Boshqa qizlar bilan naridan beri qo'l uchini tekkizib ko'rishgach, Enaxon yana Saltiga yopishdi va ikkalasi qo'ltiqlashib ichkariga tomon yurdilar. Ikkala o'rtog'ning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi...

Faqat ko'chada – arava ustida boshqa hangomalar bo'layotgan edikim, bulardan haligi ikki baxtlining hech bir xabari yo'g'idi:

Saltining onasi bilan katta onasi uni o'zi tenglik yosh qizlar bilan birga olis joyga yuborarkan, ehtiyot tomonini ham unutmagan edilar. Uning oyisi o'z qaynonasiga:

– Yosh qizlarning o‘zlarini yuborib, bo‘ladimi, qalay? Bitta-yarimtamiz birgalashmasak bo‘lmas? – deb o‘zining eslik xotin ekanini bildirgan vaqtida, qaynonasi juda keskinlik bilan javob bergan edi:

– Albatta, aylanay! O‘zlari yolg‘iz borishadigan bo‘lsa, javob yo‘q!..

Tandir oldida kuyib-pishib, shabnam donalariday yirik-yirik terlarga botib, Zebi bilan birga patir yopayotgan Saltiga bu maslahat juda yomon qattiq tekkan va u ham darhol o‘z ovoziini eshittirgan edi:

– Bizni bo‘ri yermidi? Yosh narsalaga qarilarni aralastirib nima bor? Siqilib o‘lmaydimi odam?..

Maslahat natijasida qaynona bilan kelin uyda qoladigan bo‘lib, ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir qizlarga ko‘z-quloq qilib berilgan edi.

Bu qari kampirning qo‘shilganiga qizlar xafa bo‘lmagan, balki, aksincha, sevingan edilar. Bu kampir, aravaga oyoq qo‘yar-qo‘ymas, qizlarning o‘rtasiga joylanib olib, Zebining tizzasiga bosh qo‘ygani holda uyquga ketgan va shu bo‘yicha qishloqqa kelib yetganda ham ko‘zini ochmagan edi...

Qizlar o‘zlarini tappa-tappa aravadan tashlab, eshikdan ichkariga kirarkan, Zebi sekingina kampirni uyg‘otdi:

– Enajon, turing, kelib qoldik!

Enajondan javob bo‘lmadi. Zebi o‘sha past ovoz bilan yana bir uyg‘otdi, enajon hali ham jim edi. Aravaning oldi tomonidan kelib, aravakash ham yordamlashdi:

– Ho‘... xola, turing, kelib qoldik!

Erkak kishining kuchlik ovozi bilan kampir ko‘zini ochdi, lekin uyqusirab turib:

– Hozir aylanay... xo‘p, turaman... – degandan keyin yana uyquga ketdi.

Zebi kamoli hayron bo‘lganidan aravakashning nomahramligini ham unutib, haligi tangriqosh nazari bilan unga qaradi. Bu vaqtda oy anchagina yuqori ko‘tarilib qolgan edi. Aravakash yumshoqqina kulimsiradi. Yosh yigitning bu yosh shirin tabassumini oy yorug‘ida alayna ko‘ra olgan yosh qiz butun badanlaridan muloyimgina durkirash kechganini payqadi va qizarib, teskari qaradi... U qarash aravakash yigitchaga

ham boshqacha ta'sir qilgan bo'lsa kerak, kampirni turtib uyg'otmoq uchun qo'lini yuqori uzatdi. Shunda kampirning boshidagi qo'l boshqa bir qo'lning o'ziga kelib tekkanini boyagidan kuchliroq bir durkirash bilan sezdi. Erkak zoti bilan birinchi marta bu xilda uchrashgan yosh qiz shu paytda biroz gangragan edi. Shuning uchun qo'lini darrov tortib olmasdan, o'ziga kelganidan keyin, birdaniga jerkib tortdi. Faqat yosh yigitning kuchli qo'llari uni mahkam ushlab, kampirning boshidan pastroq tushirdi va ikkala yosh, shu bo'yicha, turgan joylarida turib qoldilar...

Ichkarida o'tirgan baxtli mehmon o'zidan baxtli izmon bilan birga, ho'... ancha vaqt o'tgandan so'ng yo'qolgan ikki mehmonni izlab, ko'chaga chiqqan vaqtida, ko'chadagi ikki yosh vujud qo'llarini bir-birlaridan hanuz ajratib ololmagan edilar. Kampir esa ikki yoshning bu talvasali uchrashuviga quruq gavdasi bilan guvoh bo'lib, hali ham shirin uyquda dang qotib yotardi...

Mehmonlar osh-suv taraddudiga yo'l qo'ymasdan, sut-qatiq bilan quruq choy ichib, darhol o'tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar.

Aravakash ichkaridan chiqqan ikki non bilan bir piyola qatiqni ichib oldi-da, otni tashqariga bog'lab, o'zi arava ustiga cho'zildi. Uyqusi qochgan edi... Miyasida, umrida birinchi martaba o'laroq, ajib va shirin xayollar aylanardi. Ko'kdagi oyga qarab, yerdagi oyni o'ylar va boyagiday shirin-shirin kulimsirardi...

Ichkaridagilar ham dong qotdilar. Faqat, oralarida, xuddi ko'chadagi yosh yigitcha singari uyqusi ochilgan, ko'kragidagi yangi, begona va shirin hislarni anglayolmasdan hayron bo'lgan birov bor edi. U ham ko'kdagi oyga qarab, yerdagi «toy»ni o'ylar va yuzlari anorday qizarardi...

### III

Mehmonlarga qo'lidan kelgancha yaxshi dasturxon solib, qo'ni-qo'shni qizlar va kelinchaklarni chaqirtirib, allaqaylardan tori uzilgan dutorlarni topdirib kelgan va ularni xursand qilmoq uchun tirishib-tirmashgan Enaxon o'z ko'nglida yana xijolat tortishdan qutulmadi. Qadrli mehmonlarini

yana allaqanday ziyofatlar, mehmongarchiliklar, takalluflarga ko'mib tashlamoqchi bo'lardi. Uncha narsa bo'lmaganda ham, odamlar singari, tuzukroq bir siylab yuborishni, albatta, lozim, deb o'ylardi. O'z qo'lida bunday qudrat yo'qligini o'ylab, noumidlikka tushar, bo'g'ilardi...

Boyadan beri shu to'g'rida o'ylanib, oqqan suvga xashak tashlab o'tirgan kelinning yuzlarida xuddi shu paytda bir yoqimli kulimsirash paydo bo'lgan edi. O'rnidan turib, haligi shirin kulimsirashi borgan sari ochilgani va yoyilgani holda Enaxonga yaqin bordi:

– Xafa bo'lmang, aylanay! – dedi. – Men ilojini topdim. Boylarnikiga o'xshagan g'alati ziyofat qilib jo'natamiz mehmonlarimizni!

Enaxon bu ilojning nimaligini anglayolmaganidan hayron bo'lib kelinbibilisiga qarar, hali yuzi kulmas edi.

– Nechuk? – dedi u va kelinbibilisining ko'zlariga baqrayib tikilgani holda uning ikkala qo'lini qo'llari orasiga oldi.

– O'zimizning kuchimiz yetmasa, teng-to'shlarimiz, o'rtoqlarimiz bor. Ularga aytib chaqirtiramiz...

Enaxonning yuzi birdaniga ochildi. Lablariga keng bir tabassum yoyildi. U kelinbibilisi topgan ilojni anglagan edi:

– Mingboshining qiziga aytmoqchimisiz? O'sha chaqirsin, deysizmi?

– Yo u, yo bo'lmasa kichik xotini Sultonxon-chi?

– Bo'larmikin?

Shu yergacha ular ikkovi bir joyda to'xtashib so'zlashmoqda edilar. Keyin:

– Bo'ldirishni menga qo'yib bering. Ishingiz bo'lmasin. Ishqilib, mehmonlarni xursand qilsam, bo'ldimi? – dedi.

Shundan so'ng ikkalasi bel ushlab, uyga tomon yura boshladilar...

– Biz shu kechaga mingboshi tog'aning qizi bilan kichik xotinini chaqirtiraylik. Kecha chaqirtirganimizda kelmasalar, bugun chaqirtirsak, albatta, kelishadi. Siz nima deb o'tirib-siz! Zebixonning ovozi, ashulalari undan kattaroqlarni ham sudrab keltiradi. Siz xotirjam bo'ling. Men o'zim g'izillab chiqib kelaman. Bu kecha bitta-yarimta ashula eshitib, suhbatni ko'rishsa, ertaga, albatta, chaqirtirishadi.

Ikkalasi, yuzlari yulduzday charaqlagani holda, darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zebining «Qora sochim» kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi...

Dasturxon yig'ilgandan keyin bazm boshlandi; shundan keyin hamma o'zini unutdi, hamma yosh bolaga aylandi.

Uch ovozlik qizga yana bir nechtasi qo'shilib, yalla ohangi ko'klarga ko'tarilgandan keyin qishloqning past-past, yiqiq-yoriq devorlaridan osongina oshib o'tib, bitta-yarimta yigit-yalang ham to'plana boshladi. Ular xira yongan chirog'chaning yorug'i zo'rg'a-zo'rg'a yetadigan joylarda – ayvonning ikki yonida cho'nqayib o'tirishgan, nafaslarini ichlariga olgan edilar. Ular orasida Xolmat (Enaxonning akasi) bilan aravakash bola ham bor, ular ikkovi katta tut yog'ochiga suyanib, tikka turardilar. Xolmat havas bilan qiziqib qarasa-da, uning ko'ngli tamom betaraf edi, faqat aravakash yigit shuncha to'polon-yalla orasida Zebining ovozi boshqa ovozlarni, nechukdir, farq etolmasdi. U ovozni eshitishi bilan ko'nglining chuqur joylaridan xuruj qilib kelgan allaqanday totli bir sevinchini yashirolmadi:

– Zebinisani ovozi aytaman, Xolmat aka... – dedi u, o'zi shu so'zni aytganidan keyin, negadir, biroz qizara tushib, yerga qaradi.

– Chakki emas! – dedi Xolmat. So'ngra so'radi: – Oti Zebinisami?

– Ha, Zebinisaxon!

Yigitchaning shu «xon» degan qo'shimchasida «mening Zebinisam» degan ma'noda bir maqtanish, bir g'urur ohangi bor edi. Bu ohang juda ochiq eshitilgan bo'lsa kerakki, Xolmat darhol fahmiga bordi va «a, haromi-ey!» deganday qilib unga qaragach:

– Yurakdan urgan ekan-a!.. – dedi.

Yigitcha bu so'zdan o'ng'aysizlandi va tona boshladi:

– Yo'g'-e, ovozi soz deyman-da, ovozi! – dedi, lekin tili gapirgani bilan yuragi «yolg'on, yolg'on» deb turganini o'zi ham bilar, Xolmatning ishonmasligiga aqli yetardi. Shuning uchun masalani chuqurlashtirmasdan, so'zni boshqa tomonaroq burishni ep ko'rdi: – Ovoziga nima deysiz, chinakam qiyomat-a? – dedi Xolmatga

- Ha, ovozi joyida. Saltanatxondi o'rtog'imi?
- Eng yaqin o'rtog'i.
- Kimning qizi o'zi?
- Razzoq so'fi degan bir odamning...
- Razzoq so'fi?
- Ha, Razzoq so'fi. Xudo bergan lekin so'figa!
- Xaridori ham ko'pdir?
- Sovchining ko'pligidan ostonasi yeyilib ketgan, dey-dilar... Bilmadik, qaysi toleyi balandga nasib bo'lar ekan!
- Xudodan tilab turing, «noumid shayton», degan gap bor...  
Shu so'zlarni ayta turib, Xolmat ham yigitchaga shayton qarashi bilan qaradi.

Bu vaqtda ashulachi qizlar yalladan to'xtadilar, ingichka-yo'g'on ayol ovozlardan iborat kuchlik bir xorning:

– Bor bo'lsinlar! – degan olqishi yuksaldi. Erkaklar o'z olqishlarini ichlarida saqlamoqqa majbur edilar. Ularning to'planganlarini bir-ikkita kampirdan boshqa hech kim bilmas edi. Yalla bitgach, ba'zi qizlar o'rinlaridan turib, u yoq-bu yoqqa jilishdilar, ba'zilari o'choq boshiga choy olgali ketdilar, ba'zilari joylarini almashtirib, yaqin ko'rgan o'rtoqlarining yonlariga o'tib o'tirdilar. Endi erkaklar ham o'zlarini orqaroq olmoqqa majbur edilar, ular ham jilishdilar. Mehmonlardan Qumrixon birdaniga tutning tagiga borib qolib, u yerda ikki erkakning o'ziga qarab kulib turganini ko'rgach, «voy, o'la qolay!» deb, uyalib orqaga qaytdi. Yana Saltining yoniga borib o'tirgach, pichirlabgina:

– Tevaragimizni shundoqqina qishloq yigitlari o'rab olishibdi. Bilmasdan tutning tagiga borib qolsam, ikkitasi menga qarab baqrayib turibdi... Bittasi o'zimizning aravakashmi...

Bu vaqtda bu ikkala qizning nimalar deb pichirlashayotganidan vasvasaga tushgan Zebi sekingina bo'ynini cho'zib, gapga quloq soldi. U faqat Qumrining so'zini – «bittasi o'zimizning aravakash...» degan so'nggi so'zini eshitib oldi. Yuragi o'ynadi... va darhol burilib tashqariga qaradi. Chirog'ning xira yorug'ida kampirlarning ivirsib yurganlarini ko'rdi. Boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Yurak o'ynashi bosilmadi. Lablari titramoqqa boshlagan edi... Birdaniga o'rnidan

turdi; qizlar yo'l bo'shatdilar, ularni oralab o'tdi. Ayvondan chiqib olguncha hammaning ko'zi unda edi, ayvondan sahnga tushgach, qizlar yana o'z suhbatlariga mashg'ul bo'ldilar. Sahnda uni poyloqchi kampir qarshi olib, peshonasidan o'pdi:

– Ilohim, yomon ko'zdan saqlasin, bolam! – dedi. Ikkala ko'zidan yana bir martadan o'pgach, ichkari uyga tomon burildi.

– Ha, xola, uyda nima qilasiz? – deb so'radi Zebi.

– Uxlayin, bolam, men qari narsa, yarim kechagacha o'tirolamanmi? Sizlar yosh-yalang, o'ynab-kulib ko'ngillarni yozinglar. Men orom olay...

Poyloqchining bu xislati hamma ma'qul edi. Ayniqsa, shu topda ko'ngli allaqaylarga tortayotgan Zebi uchun bir xil ezma kampirlardan ko'ra bu – kamgap, seruyqu kampir yaxshi edi.

Yuragi urgan holda bitta-bitta bosib, qorong'ilikka kirdi. U ham tut tagiga – katta so'rining yoniga borayotir edi. Qorong'ida turgan aravakash yigit yorug' tomondan kelayotgan qizni tanidi, birdaniga:

– Ana, o'zi kelayotir! – deb qichqirdi.

Uning bu qichqirishi ixtiyorsiz bo'lgan edi. Allaqachonlar masalaning fahmiga borib qolgan Xolmat shu topda yigitchadan yiroqlashuvni ep ko'rdi. Unga ma'nolik qarash bilan kulimsirab qarab, yelkasiga bir-ikki urgach:

– «Umidsiz shayton», dedim-ku, uka... Mana, biz ketdik... – dedi va quyuq qorong'ilikka kirib, yo'q bo'ldi.

Yigit esa Xolmatning bor-yo'g'ini farq etolmaydigan holdaydi. Shunday paytlarda og'izdan ixtiyorsiz chiqishi lozim bo'lgan «bor bo'ling», «o'lmang» kabi minnatdorlik so'zlari ham esga kelmasdi. U, yuragini hovuchlagani holda, ixtiyorsiz, qari tutning yo'g'on badaniga yopishdi...

Zebi yigitchaning «Ana, o'zi kelayotir!» degan so'zlarini eshitgan edi. Agar esi o'zida bo'lsa, u ham Qumri singari «Voy, o'la qolay!» deb qaytib ketishi kerak edi. Holbuki, u o'zini bilmasdan va hech narsa o'ylayolmasdan, telba qadamlar bilan bitta-bitta bosib, ilgari yurardi... Uning oyoqlari allaqanday yomon bir kuchning afsuniga ilashganlar,

o'sha kuchning sudragan tomoniga borardilar. Yosh qiz o'z ko'nglining birinchi marta o'ziga begonalashganini, o'zidan boshqa bir kuchning ko'ngliga egalik qilganini sezardi...

Zebi tegrasiga bir ko'z yugurtib olgach, qadam bosishini sekinlatib, katta tutning o'ng tomonida to'xtadi. Yigitcha chap tomonda edi.

Ikkalasi ham anchagacha jim qoldilar. Qaysi biri oldin gap boshlashni va nima deyishni bilmasdi. Nihoyat, yigitcha bir gap topgan bo'ldi.

– Bugun sahar... aravani qo'shamanmi?

– Nimaga?

– Ketmaymizmi?

Zebi javob berolmay qoldi... Bu savolga javob bo'lgunday bir so'z uning shu topda juda yomon g'ovlab ketgan miyasiga yaqin kelmasidi. So'zga-so'z qaytarmoq uchungina:

– Shoshiltirib nima qilasiz? – dedi va so'zlarning o'z og'zidan uzilib tushib borganini sezdi. Shu topda o'z ovozi ham o'ziga yot edi, shu so'zlarni aytayotgan ovoz uning o'z qulog'iga soyning narigi betidan kelayotganday eshitilardi.

Yigitcha o'zini to'xtatib olgan edi. Endi u dadillanib va kulib turib, qo'lini tutning o'ng tomoniga uzatdi. Faqat ikkalasining orasi ancha yiroq bo'lganidan boshqa bir qo'l uning qo'liga urinmadi. Holbuki, Zebi birovning qo'l uzatganini payqaydigan holda emas edi. Yigitcha Zebidan muqobala ko'rmagach, qo'lini tortib oldi va endi, bu safar bo'ynini egib, ikki ko'zi bilan qizni axtararkan, quvnoq bir ovoz bilan.

– Hali bir-ikki kun o'ynaymizmi? Otga dam beramizmi? – dedi. Zebidan javob bo'lmagach, ilova qildi:

– Xayr, mayli, sizlar qachon «qo'sh», desanglar shunda qo'shaman. Zebi tutga suyangan, o'zining qayda turganini unutayozgan, shuncha gapga bir og'iz javob bermasdan, og'ir o'ylarga tolgan edi. U shu topda o'zining yaqin kelajakdagi qora kunlarini, qay rangda ko'rinishi ma'lum bo'lmagan baxti, toleyini o'ylardi. Uning butun baxti Razzoq so'fining johil vujudiga bog'li emasmi? O'sha sovuq so'fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi? Uning bir og'iz «ha» yoki «yo'q» deyishi qiz bechoraning behad quvnab yayrashiga yoxud





xazon yaprog'iday bir nafasda so'lib, nobud bo'luviga yaramaydimi? Qiz sho'rlik, u bir umr qovog'i o'yig'liq va yuzi kulmas otadan hech bir xayriyat kutmaydi. Otasi to'g'risida o'ylagan vaqtida o'zini o'limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko'radi... va titraydi! Bu qishloq sayohati, aravakash yigitcha bilan tasodifan tanishib qolishi, shu tanishuv orqasida ko'nglida sezgani besaramjomliklar bechora qizni haligidek qora o'ylarni o'ylashga majbur qilgan edi. U xil qora o'ylar uning uchun yangi emas, albatta. Yoshi balog'atga yetib uylari sovchilarning qatnov yo'llariga aylanganidan beri u sho'rlikning qora o'ylarga botmagan kuni yo'q! Faqat shirin bir umid bilan, ko'zda ko'rilib, qo'lda tutilgan — naqd bir umid bilan birga kelgan qora o'ylar qiz bechorani yomon ezib tashlaydi! Bir-ikki kundan beri ashula, o'yin deganda o'zini bilmas darajada berilib ketishi, shu iztiroblarning hordig'ini chiqarish uchun emasmi?

Ko'ngliga og'ir tashvishlar solgan yigitchaning shunday yonginasida juda shirin xayollar bilan birga juda qora o'ylarga botib turgan vaqtida birdaniga ayvon tomondan bir ovoz eshitildi:

— Hay, nima bu hammayoq jimjit bo'lib qoldi? Zebinisaxon qanilar? Saltanatxon, aylanay, o'rtoqjoningizni topmaysizmi?

Yana bir ovoz eshitildi:

— Rost-a, hammayoq muzlab ketdi! Hay, qizlar, sizga nima bo'ldi? Birdan bir necha ovoz ko'tarildi:

— Zebinisaxon, Zebinisaxon!

Qizlar o'rinlaridan turib, u yoq-bu yoqqa yurishib qoldilar.

Bu qichqirishlar har qanday og'ir uyqudan uyg'otishga yاردilar, Zebi ham yarim mastlik holatidan seskanib uyg'ondi va apil-tapil javob qildi:

— Mana men... Hozir boraman... hozir...

Faqat bu safar uning ovozi kasal odamning ovozi singari darmonsiz va jonsiz chiqardi. Yigit buni angladi va tezgina:

— Boring, bemalol o'yin-kulgingizni qiling! Hech naradan qo'rqmang, hech bir g'am yeya ko'rmang! — dedi. So'ngra darhol o'zini tutning panasiga oldi.

U yoqdan bir-ikki qiz yugurib kelib, Zebini yetaklab ketishdi. Shularning biri mingboshining kichik xotini Sul-tonxon edi.

Bu safar faqat o'yin bo'ldi. Yosh juvonlar va qizlarning hammasini deyarlik tortdilar. Shaharliklardan yaxshi o'ynagan Qumri bo'ldi. Qishloq qizlaridan ikki-uchtasi yaxshi o'ynadilar. Mingboshining qizi bir-ikki aylanib to'xtadi, kichik xotini esa ko'nmadi, uni ko'p ham zo'rlay olmadilar. Zebi esa dutorchilar va ashulachilar bilan birga yengil-yengil yallalar qilib turdi. O'yin tamom bo'lib, palov dasturxonini yozilganda, oy ancha balandga ko'tarilgan edi. Oshdan so'ng qishloq qizlaridan o'ziga durustroq bir dehqonning qizi o'rnidan turib:

— Ertaga mehmonlarni biz kutamiz, — dedi. Shundan keyin mingboshining kichik xotini Sul-tonxon katta kundoshining qizi bilan gapni bir joyga qo'yib, o'rnidan turdi va Enaxonga tomon yuzlanib:

— Bo'lmasa, mehmonlaringiz indinga biznikida bo'lishadi, — dedi, — tuzukmi? Endi bizga ruxsat!

U kundoshining qizi bilan birga ayvondan pastga tushib, kavshini kiya boshlagach, boshqa qizlar ham bitta-bitta o'rinlaridan turdilar. Shunday qilib, bu qiyomat yig'in kecha yarim bo'lganda, «guv-guv» bilan tarqaldi.

## «KECHA VA KUNDUZ» ROMANI VA UNDA OLINGAN PARCHA HAQIDA

Abdulhamid Cho'lpon adabiy merosining ma'lum qismini nasriy asarlar tashkil etadi. O'z davri adabiy hayotida shoir sifatida tanilgan Cho'lpon she'rlar bilan birga «Qurvoni jaholat», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz», «Oydin kechalarda» kabi hikoyalar yozadi. 30-yillarda «Kecha va kunduz» romani ustida jiddiy ishlaydi. Adib bu asarni, nomidan ma'lum bo'lganidek, ikki qismli qilib yozishni rejalashtiradi. 1936-yil romanning birinchi qismi alohida kitob shaklida bosilib chiqdi. Ikkinchi qismining taqdiri noma'lumligicha qoldi. Adib qatag'onidan keyin uning boshqa ijod namunalari kabi ushbu romanni ham uzoq yillar o'quvchilar nazaridan berkitildi; uni o'qish taqiqlandi. Oradan yarim asr o'tgach, kitobxonlar e'tiboriga qayta taqdim etildi. Mustaqil-



lik yillarida esa roman adabiyotshunos olimlar tomonidan jiddiy o'rganildi.

«Kecha va kunduz» romani Cho'lpon ijodiy biografiyasida ham, o'zbek romanchiligi tarixida ham alohida o'rin tutadi. Chunki bu asarda Cho'lponning hayotda orttirgan bilim va tajribalari, she'riyat va dramaturgiya sohasida erishgan badiiy mahorati jamlandi. Shuning uchun romanni o'qiganda uni shoirona ko'ngil egasi yozgani, ko'p o'rinlarda yozuvchining lirik kayfiyati yaqqol sezilib turadi.

Cho'lpon XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy muhiti, xususan, chorizmning bosqinchilik siyosatining ichdan yemirilib borayotgani, mahalliy amaldorlarning razil qilmishlarini real aks ettiradi. Muallif millatparvar adib sifatida o'zbek xalqining turmushida boshlangan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni, yuragini o'rtagan hayotiy muammolarni zo'r mahorat bilan bayon etadi. Asar boshidagi oddiy bir oilaning ma'naviy muhit tasviri bora-bora romanning badiiy matni mohiyati-negizida o'zlik va dunyoni anglash, ma'rifat va hurlik kabi millat taqdiriga bog'liq haqiqatlar bilan uyg'unlashib ketadi. Nasriy asarlarda ijodkorning tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga nisbatan nuqtayi nazari muhim sanaladi. Bu jihat muallifning bosh badiiy g'oyasi uchun xizmat qiladigan obrazlar tizimida, yaqin tarixdagi ijtimoiy tuzumga tegishli masalalarning badiiy muhokama qilinishida ko'rinadi. Shunga ko'ra romanni to'liq o'qigan o'quvchi e'tiborga mo'lik bir qancha o'ziga xos badiiy qahramonlarni juda yaxshi eslab qoladi. Ularning muomala-munosabatlari, oralaridagi ziddiyatlar, davr voqeligini baholashlari juda ishonarli badiiy talqin etiladi. Xususan, romandagi Akbarali mingboshining o'z baloyi nafsiga o'ralashib, aysh-u ishratga berilishi, Miryoqub epaqaning ijtimoiy-ma'naviy tarafdin dinamik o'sa boshlash jarayoni ko'rsatiladi. Oxir-oqibat beg'ubor bir qiz Zebining ayanchli qismati kitobxon qalbini larzaga soladi.

Darvoqe, yuqorida siz o'qigan parcha romanning boshlanish qismidan olingan. Roman uchun tanlangan «Hamal keldi – amal keldi» degan epigrafga ham diqqat qilgansiz, albatta. Hamal – shamsiy yil hisobiga ko'ra bahorning birinchi oyi, unda muzlar erib, tabiat qish uyqusidan uyg'onadi; yerga urug' qadaladi va ko'katlar unib o'sa boshlaydi.

Shunda «yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon» yugura boshlaydi. Adib xuddi shu holatni juda ta'sirchan, tabiiy va maroq bilan shoirona tasvirlaydi. «Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarining g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi...» Tasvir endi o'n besh yoshga qadam qo'yan yoshgina Zebining bahor fasliga mos ochila boshlagan ko'ngil mayl-istaklariga borib taqaladi. Zebi barcha yoshlarga o'xshab o'ynab-kulishni, dala-qirlarga chiqishni – kengliklarni orzu qiladi. Eshigini taqillatib hovliga kirgan dugonasi Saltanatning ko'ngli ham Zebining kayfiyatiga mos – bahor nafasiday pokiza, top-toza. Zebi dugonasining taklifidan juda mamnun. Yozuvchi shu mamnuniyatni: «Ko'ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o'rab, uni aylantirib, uni quchadi!» deya shoirlanib yozadi. Ammo Zebining otasi Razzoq so'fining tundligi, qovog'idan qor yozib turishi romanning birinchi sahifalaridayoq o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Zebi, Saltanat, Qurvonbilar bir taraf, Razzoq so'fi o'z tabiatiga ko'ra tarozining ikkinchi pallasida turadigan qahramon sifatida beriladi. Muallif ta'biricha, Razzoq so'fi «o'z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o'z ko'ngli qadar tund va xo'mraygan bo'lishini» istaydi. Uning ruhiyatidagi «bulutli havo» tabiatdagi bahoriy uyg'onishga, yoshlikning zangor quvonchiga zid qo'yiladi. Hayotdagi ijtimoiy-maishiy qarama-qarshiliklar, insonlararo konflikt roman voqealarini qiziqarli bayoniga xizmat qilishi tabiiy. Eng qizig'i shuki, Razzoq so'fi bomdod namozidan uyiga kirgan mahali hovlisida qizlarning quvalashib shovqin solayotgani ustidan chiqadi. «Bu nima qiyomat!» – so'fining mana shu gapi bahonasida yozuvchi ortga qaytib bir yo'la Razzoq so'fi o'tmishi va xos tabiati bilan o'quvchini tanishtiradi.

Razzoq so'figa doir tasvirlardan badiiy qahramonning individual qirralari ochila boradi. Uning kamgapligi, «indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam» ekaniga urg'u berilar ekan, undagi o'ziga xoslik qisqa nutqi vositasida ham kuchaytiriladi.



So'fi «o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa — «hovva-hovva», deb tasdiqlaydi; «o'zidan past va kuchsizlar gapirsa — «yo'q, yo'q», degan ma'noda» inkor etib boshini chayqaydi. Razzoq so'fining turmush tarzi, oilaviy tutumi ham, xotinini «Fitna» deb chaqirishi, Eshon boboga ixlos qo'yishlari, qishloqqa qaytishga taklif qilib kelgan o'gay akasi bilan muomala-munosabatlari — bularning barchasi Cho'lponning iste'dodli nosir sifatidagi mahorat egasi ekanini ko'rsatadi.

So'fining «Nima bu qiyomat!» degan gapi Saltanatning taklifiga ko'ra Zebining qishloqqa — Enaxonning uyiga mehmon bo'lib borish masalasini yana ham chigallashtiradi. Ruxsat tegishi yo tegmasligi muammosi o'rtaga qalqib chiqadi. Oraga so'fining tilini biladigan Quvonbibi tushib, vaziyatni yumshatadi. So'fi bir shart qo'yib ko'nadi: «Ovozim bor, deb ashulaga zo'r bermasin. Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman». Ushbu gap romanning muhim ochqich jumalari sirasiga kiradi. Chunki Zebining keyingi taqdiri tasvirida, roman voqealarining o'zaro bog'lanishida uning shirali ovoz bilan ashula aytish detali katta ahamiyat kasb etadi.

Mehmondorchilikka borish uchun ruxsat tegishini adib bir jumla bilan «Qafasning darichasi ochildi» deya ifodalaydi. Qishloqqa qarab yo'lga chiqilar ekan, aravakash O'lmasxon o'zicha qo'shiq xirgoyi qiladi. Gap tabiiy ravishda Zebining ovozigacha borib taqaladi. Garchand otasining tanbehini esida tutsa ham, Saltanat qo'yarda-qo'ymay Zebini qizlarning ashulasiga qo'shilishga ko'ndiradi. E'tibor berish lozim bo'lgan jihat shundaki, adib «ovoz» so'zi yoniga bir nechta sifatlashlarni keltirish bilan cheklanib qolmasdan, uni «eng yorug' yulduz»ga qiyoslaydi. Bu badiiy usul esa tasvirning tiniqlashuvini ta'minlaydi. Ta'kidlash lozimki, Cho'lpon o'z ijodida oy, quyosh, yulduz kabi osmon jismlaridan juda unumli foydalandi.

Qizlarni aravasiga ortgan O'lmasxon shahardan qishloqdagi manzilga kechqurun yetib boradi. Adib bu orada ham bir necha marta o'ziga suyuqli ramz va detallarga murojaat qiladi. O'lmasxon bilan Zebini bir muddat uxlab yotgan kampir oldidagi hayajonga to'la daqiqalari va yosh yigitning tabassumini ham «oy yorug'i»da ko'rsatadi. Qizlar ichkari kirgandan keyin aravada qolgan O'lmasxon «ajib va shirin xayollar» og'ushida «ko'kdagi oyga qarab, yerdagi oyni»

o'ylaydi. Ichkaridagi holat tasvirida ham shunga monand manzara gavdalanirilgan: qalbidagi «yangi, begona va shirin hishlarni» anglayolmay «hayron bo'lgan birov» ham «ko'kdagi oyga qarab, yerdagi «toy»ni o'ylar va yuzlari anorday qizardirdi...». Tabiiyki, hamma uxlaganida yolg'iz uyg'oq qolgan va haligi sof tuyg'ularni boshidan kechirayotgan Zebi ekani-ni o'quvchi hech qiynalmasdan tanib oladi. Bunday lirik his-tuyg'ular ifodasiga uyg'un tasvir Cho'lpon nasriga xos uslubning bir qirrasini namoyon qiladi.

Muhtaram o'quvchi! Romandan olinib sizga taqdim etilgan parcha yuzasidan bir qadar tahlillar berildi. Shu mu-lohazalar sizda romanni to'liq o'qishga rag'bat uyg'otgan bo'lishi tabiiy. Asardagi Zebining qismatiga yondosh vo-qea-hodisalar, ayniqsa, ijtimoiy hayotga tegishli tasvirlar ham sizni befarq qoldirmasa kerak.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Cho'lpon ijodi va uning nasriy asarlariga qisqacha izoh bering.
2. «Kecha va kunduz» romanida qaysi davr voqealari bayon qilinadi?
3. Cho'lpon ilk bahorni qanday tasvirlaydi? Adibning badiiy mahoratiga baho bering.
4. Zebi tarbiya topgan oilaviy muhitni tavsiflang.
5. Razzoq so'fi tabiatiga xos jihatlar qanday obrazli ifodalar bilan tasvirlangan?
6. Zebining ota-onasiga xos bo'lgan sifatlarni o'zaro qiyoslang. Fikrlaringizni matndan misollar keltirib izohlang.
7. Asardagi Enaxon obrazini tavsiflang.
8. O'lmasxonning ko'kdagi oyga qarab, yerdagi «oyni» o'ylashi-ni qanday tushundingiz, fikr bildiring.
9. Zebining san'atga ixlosini qanday baholaysiz?
10. Saltanat bilan Zebi munosabatlarini izohlang.
11. Romanni to'liq o'qib chiqing va uni sinfda muhokama qiling.
12. «Asardan olgan taassurotlarim» mavzusida ijodiy matn yo-zing.

## Erkin Vohidov

(1936–2017)



«Erkin Vohidov she'riyatida adabiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixorli yo'llarining manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she'riyatida to'la mujassamdir».

**Abdulla Oripov,**  
*O'zbekiston Qahramoni*

«Erkin Vohidov dilbar rubobiy taronalari, asr armoni, fig'oni darajasiga ko'tarilgan dostonlari qatori g'oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, ayni paytda istehzo, kinoya-kesatliqlar, o'tkir ijtimoiy pafos bilan yo'g'rilgan hajviyoti, benazir tabassumi bilan ham elimiz uchun ardoqlidir».

**Umarali Normatov,**  
*adabiyotshunos*

«Erkin Vohidov badiiy adabiyot daholari ruhini shod etgan, yangi o'zbek adabiyoti darg'alari duosini olgan, o'z xalqi qalbiga chuqur kirib borgan san'atkordir. Bunday shoir hech qachon zavol ko'rmaydi».

**Abdug'afur Rasulov,**  
*adabiyotshunos*

## RUHLAR ISYONI

*(Dostondan parcha)*

## Birinchi fasl

Nazrul Islom  
Bu dunyoga  
Shoir bo'lib tug'ildi.  
Ilhom otli pok ziyoga  
Go'dak qalbi yo'g'rildi.  
Nigohidan  
Sehrli nur  
Borliqqa nur taradi.  
Koinotga u tahayyur  
Ko'zi bilan qaradi.  
Tunlar unga berdi xayol,  
Shavq atadi kunduzlar.  
Gullar g'azal aytdi xushhol,  
Ertak aytdi  
Yulduzlar.  
Ulg'aydi u,  
O'smir bo'ldi,  
Yetdi yigit yoshiga.  
Ishq otli qush kelib qo'ndi  
Yosh shoirning boshiga.  
U ham yondi bag'ri kabob,  
Ham ochildi chun bahor.  
Hijron berdi totli azob,  
Visol etdi baxtiyor.  
Goh shodlik,  
Goh alamidan  
Dil chashmasi ochildi.

Uning hassos qalamidan  
Ishqiy baytlar sochildi.  
Bu dunyoga  
Nazrul Islom  
Shoir bo'lib tug'ildi.  
Ibtidodan yoniq ilhom  
Shu'lasiga yo'g'rildi.  
Yetti asr avvalgidek  
Bo'lsa edi zamonlar,  
Balki,  
Xusrav Dehlaviydek  
Bitar edi dostonlar.  
Tug'ilsaydi  
Shoir agar  
Yarim ming yil ilgari,  
Bitar edi ruboiylar  
Mirzo Bobur singari.  
Agar  
Necha zamon o'tib  
Kelmasa bu davronlar,  
Bedilona g'azal bitib  
Tuzar edi devonlar.  
O'zga edi ammo fursat,  
O'zga edi el dardi.  
Zamon uning  
Yonib turgan  
Yuragini so'rardi.

\* \* \*

Shoirni u tug'ilmasdan  
Gado qilgan edilar.  
O'z yurtida  
O'z yurtidan  
Judo qilgan edilar.

O'rab uning naq yurakdek  
Ona Hindistonini,  
Zobitlar oq o'rgimchakdek  
So'rardilar qonini.





Bir tomonda,  
Yovni emas,  
Bir-birini beomon –  
So‘yar edi taqvodan mast  
Hindu bilan musulmon.  
Bir tomonda  
Na uy ko‘rib,  
Na bir to‘shak, och, xarob,

Ko‘chalarda hayot qurib,  
O‘lim topgan behisob.  
Ganga oqar ko‘zyosh bo‘lib,  
Jamuna lim bo‘lib qon.  
Bori butun bardosh bo‘lib  
Najot kutar  
Hindiston.

\* \* \*

Har nechakim zo‘r iste‘dod,  
Toshqin ilhom,  
U nega,  
Xalqing yotsa chekib faryod,  
Yaramasang kuniga.  
Shoir esang,  
Shoir bo‘lib  
Nega kelding hayotga,  
Eling yotsa dardga to‘lib,  
Kelolmasang najotga?!  
Ne shoirsan,  
Tashbihlarning  
Bormi asli keragi,  
Bo‘lmasa el g‘ami – darding,  
Yuraging – el yuragi?!  
Nazrul Islom  
Hind xalqining  
Zardobini yutardi.

Nazrul Islom  
O‘z qalbini  
Bayroq qilib ko‘tardi.  
Yuragida to so‘nggi dam  
Isyon o‘ti so‘nmadi.  
Haqsizlikka ko‘ndi olam,  
Ammo shoir ko‘nmadi.  
Ko‘rgilik bu, dedi hindu,  
Taqdir, dedi musulmon.  
Lekin  
Zo‘rlar zulmiga u  
Tan bermadi hech qachon.  
O‘zni o‘tga otdi aniq,  
Joni borki, kurashdi.  
Umri uning  
Mangu yoniq  
Qo‘shiq'larga tutashdi.

### Isyon qo‘shig‘i

«So‘yla, inson,  
So‘yla, qadding  
Ko‘tarib baland.  
Yuksaklikda sening qadring  
Himolay monand.  
So‘yla,  
Sening poyingdadir  
Bu ulug‘ zamin.

So‘yla, otib zolim asr  
Dard-u alamin.  
Sen o‘tmishni supurguvchi  
Kuchli bo‘ronsan,  
Osmonlarga ot surguvchi  
Sohibqironсан.  
Sen chaqmoqsan,  
Qaro zulmat  
Bag‘rini yoqqan.



Sen Indrasan,  
 Ko'kda ismat  
 Chirog'in yoqqan.  
 Sen Shivasan, koinotni  
 Barbod qilguvchi.  
 Sen Gangasan, bu hayotni  
 Obod qilguvchi.  
 Sen – Durganing tosh yuragi,  
 Shafqat bilmaysan.  
 Sen – Krishna qo'lidagi  
 Kuylagan naysan.  
 Izmingdadir cheksiz fazo,  
 Zamin-u zamon,  
 Bu olamga ega tanho  
 O'zingsan, inson!  
 Tangrilarni to osmon  
 Ko'targan ham sen,  
 Sajda qilgan,  
 Yana isyon  
 Ko'targan ham sen.  
 Ham shafqat-u  
 Bezorlik  
 Yashar qoningda.  
 Ham fidoyi isyonkorlik  
 Yonar joningda.  
 So'yla, inson,  
 So'yla, qadding ko'tarib baland.  
 Yuksaklikda sening qadring  
 Himolay monand.  
 Qullik senga ko'p maloldir,  
 Ammo ne uchun  
 Boshing egik,

Tiling loldir,  
 Qomating zabun?  
 Tangrilarga bo'ysunmagan,  
 Bermagan bardosh,  
 Bandasiga bugun nega  
 Egadirsan bosh?  
 Sababkormi yolg'iz taqdir  
 Hologga saning?  
 Bilasanmi, do'sting kimdir,  
 Kimdir dushmaning?  
 Asriy g'aflat yetar endi,  
 Ey, mazlum inson!  
 Uyg'onmoqning vaqti keldi,  
 Bosh ko'tar, uyg'on!  
 Bosh ko'targil,  
 Ming yil to'kkan  
 Ko'z during haqqi.  
 Qo'zg'al,  
 Asriy qullik bukkani  
 G'ururing haqqi.  
 Qo'zg'al,  
 Buyuk Tojmahalning  
 Shukuhi uchun.  
 Qo'zg'al,  
 Ulug' bobolarning  
 Pok ruhi uchun.  
 Erk bongin ur,  
 Sen intiqom –  
 Tablin baland chol.  
 Tug'ilgansan ozod, mudom  
 Ozod bo'lib qol».

\* \* \*

Isyon she'ri  
 Mushoira –  
 Minbaridan yangradi.  
 Kim dedi:  
 Bu she'rmas sira,

Kim dilidan angladi.  
 Yurt og'zida bu she'r bahsi,  
 El tilida bahosi,  
 «Qani she'rda gullar raqsi?  
 Qani bulbul navosi?»



«Bu she'r  
 Sharqqa xosdir, nahot?  
 Na ishqiy, na rindona...  
 Bunday ash'or Sa'diyga yot,  
 Hofiz uchun begona».  
 «Ul kun Buddha:  
 «Mard agar sen  
 Dardni ichga yut, degan.  
 Ul yuzingga ursalar sen,  
 Bul yuzingni tut, degan».  
 U dunyoda baxting ta'min  
 Bu dunyoda cheksang g'am».  
 Shunday deya bergan ta'lim  
 Ul...  
 Ustodi mukarram.  
 Malomatga qoldi endi  
 Shoir bitib haq doston.  
 Hindu uni «jobon» dedi,  
 «Kofir» dedi musulmon.

«Bu isyonni, bu nifoqni  
 Chiqarmoq ne zohirga.  
 Siyosat-la o'ynashmoqni  
 Kim qo'yibdi shoirga».  
 «U hali yosh,  
 Hali go'dak,  
 Zarra parvo etmaydi.  
 Es-hushi yo'q hayiqqudak,  
 Jon qadriga yetmaydi».  
 «Ha, zulm bor,  
 Haqsizlik bor,  
 Barchaga bu ayondir.  
 Ammo buni zinhor-zinhor  
 Aytib bo'lmas zamondir».  
 «Hamma bilar,  
 Inson erkin –  
 Yashashi shart poyidor.  
 Biz ham aytsak bo'lar, lekin  
 Uyda bola-chaqa bor...»

## Ikkinchi fasl

### G'alayon

Kalkutta, 1926-yil.  
 Kalkuttani  
 Quchdi g'ulu,  
 Bosh ko'tardi olomon.  
 Qutlug' jang, deb turdi hindu,  
 G'azot, dedi musulmon.  
 Barahmanlar dovul qoqdi,  
 Fatvo berdi  
 Imomlar.  
 Ko'cha to'lib qonlar oqdi  
 To'qnashganda imonlar.  
 Farzandidan ona ayr-u,  
 Otasidan – qiz, o'g'lon,  
 Buddha haqqi,  
 Bos, der hindu,

Alqasos, der musulmon.  
 Hindu ishi tahqir bo'ldi,  
 Muslim ishi – tahdidlar.  
 Butxonalar vayron bo'ldi,  
 Yakson bo'ldi  
 Masjidlar.  
 Rikshami bu, sohibmi bu,  
 Gadomi yo zodagon –  
 Farqsiz,  
 Faqat –  
 Bir yon hindu,  
 Bir yon esa – musulmon.  
 Sirtga chiqdi  
 Asrlik kin  
 Va ming yillik kudurat.

Ikki jondosh el aro din  
Yana soldi adovat.  
Aslida-ku  
Hayot og'ʻu,  
Turmush o'zi — zimiston.  
Aybdor emas bunga hindu,  
Gunohkormas musulmon.  
Aslida-ku...  
Beiztirob  
Ho'plab qora qahvoni,  
Derazadan oq tan janob  
Kuzatar mojaroni.  
U ko'p xursand,  
Labda kulgu,  
Ko'zi chaqnar komiron.  
Musulmonni yanchar hindu,  
Hindni esa musulmon.  
Janob shodon,  
Ushalmoqda  
Niyatning eng ulug'i.  
Hosil berdi shu tuproqda  
Ekkan nifoq urug'i.  
Bo'lmasin, deb qilar orzu,  
Bu nizoga hech poyon.  
Mayli,  
Ko'proq o'lsin hindu,  
Ko'p qirilsin musulmon.  
Nazrul Islom  
Olomonga  
Qaradi-yu oh chekib —  
O'zni otdi tik maydonga  
Yoqasini chok etib.  
Faryod qildi:  
«Ne vahshat bu,  
Bas, xaloyiq!  
Al-omon!  
Qotillikni to'xtat, hindu,  
G'azotni qo'y, musulmon —

Bizlar axir  
Birodarmiz,  
Farzand Odam Atoga!  
Haq oldida barobarmiz,  
Ayting,  
Ne bor nizoga!  
Xunrezlik qil demagan-ku  
Axir Veda  
Va Qur'on!  
Tig' uradi nega hindu,  
Bosh kesadi musulmon?  
Farq — kim mehrob,  
kimsa butga  
Sig'inib bosh qo'yadir.  
Shu farq uchun  
Yoqib o'tga  
El bir-birin so'yadir.  
Bas, adovat!  
Bas, endi kin,  
Jangni qo'ying, odamlar!  
Sizning asli yovingiz kim —  
Bilib qo'ying,  
Odamlar!  
Ular  
Uzoq yurtdan kelib,  
Yerga bukib shonimiz,  
Bizni bizga  
Dushman qilib,  
So'rmoqdalar qonimiz.  
Bosqinchining  
Qadimdanog —  
Falsafasi ayondir.  
El ichida bo'lsa nifoq,  
Demak, zolim omondir.  
Ular  
Mazlum vatanida  
Bo'lmasin der sobitlar.  
Jaholatning gulxanida  
Isinadi zobitlar.



Eldan omad ketsa, dastlab  
Hamjihatlilik yo'qolgay.  
Bunday elni,  
Sirtmoq tashlab,  
Har bosqinchi yiqolgay.  
Bu adovat  
Nahot, mangu?  
Nahot, bitmas bu qiron?  
Do'st bo'lolmas  
Nahot, hindu —  
Jigariga musulmon?

Sen hindmisan,  
Muslimmi yo,  
Birlik chog'i bu choqdir.  
Bosqinchini, eng avvalo,  
Hind bahriga uloqtir.  
So'ng ushalgay  
Barcha orzu,  
Yashar ozod, tinch, omon  
Vatanida ega hindu,  
Yurtida bek — musulmon».

\* \* \*

Nazrul Islom bo'ldi mahbus,  
Tunda uydan oldilar.  
El ko'zidan uzoq, maxsus  
Bir xonaga soldilar.  
Ishi qiziq bu jahonning,  
Hakamlar hukm etdilar:  
Shoirni ul g'alayonning  
Sababkori, dedilar.  
Aybnomani tinglang, hatto —  
Faryod qilar toshlar ham,  
«Hindu bilan muslim aro  
Qutqu solgan — shul odam!»  
Olis yurtdan kelgan birov  
Ayb qo'ydi beandisha!  
«Nazrul Islom —  
Xalqiga yov,  
Nifoq istar hamisha».  
Bu dunyoda  
Bor qabohat,  
Bu dunyoda bor yolg'on.  
Ammo bunday  
Yovuz tuhmat  
Bo'lmagandi hech qachon.  
Nazrul Islom nomi oxir

Ming baloga taqaldi.  
El uchun  
Jon tikkan shoir  
El dushmani ataldi.  
Hukm o'qildi.  
Bosh egib u  
Asta borar hibis tomon.  
Ajab!  
Soqchi — bir yon hindu,  
Bir yon esa musulmon.  
Uni turtar musulmon ham,  
Siltalar hind havoldor.  
— Qirpichoqda o'ldi akam,  
Senda ekan ayb, murdor!  
— Ko'p azoblar chekdi hindu,  
Ko'p qon to'kdi musulmon.  
Sen kabilar yo'qolsa-ku,  
Yashar edik  
Tinch, omon...  
Asta qadam tashlar mahbus  
O'ylaridan ogoh yo'q.  
Soqchilar ne bilar,  
Afsus,  
Jaholatda gunoh yo'q.

## Uchinchi fasl

## Tutqunlikda

«Onajonim,  
Menga bu kun  
Sendan o'zga dilxoh yo'q.  
Zindondaman,  
Bilmam, nechun,  
Menda zarra gunoh yo'q.  
Gunohkorman  
Na Ollohim,  
Na vijdonim oldida.  
Faqatgina...  
Bir gunohim  
Onajonim oldida.  
Kechir, onam!  
Ko'zingda g'am,  
Azob bo'ldim joningda.  
Bukun bayram,  
Men bukun ham  
Bo'lolmadim yoningda.  
Odamlardek  
Beozor, tek  
Yashab yursam netardi.  
Menga tole,  
Senga tinchlik  
Balki, nasib etardi.  
Bulbullarga,  
Gullarga mast  
Yozsam faqat g'azallar,  
Balki, meni  
Mirshablarmas,  
Izlardi yosh go'zallar.  
Menga ham yor sokinlig-u,  
Sening ham yo'q bu darding;  
Men — uylik,

Sen — kelinlig-u  
Nabiralik bo'larding.  
Oh, u yo'l berk,  
Menda yo'q erk,  
Tirik umrim — aftoda.  
Ne qilayki,  
Odamlardek  
Yasholmadim dunyoda.  
Lek ko'nglimda noliash emas,  
Allanechuk dilshodlik.  
Garchi jismim  
Bandi qafas,  
Ruhimda bor ozodlik.  
Tug'ilishdan qul emasman,  
Qullik yot bu jonimga.  
Erk istagi  
Suting bilan  
Kirmish mening qonimga.  
Meni otash, girdoblarga  
Otgan o'shal istagim.  
Onajonim,  
Azoblarga  
Qo'ydi seni yuragim.  
Meni kechir,  
Faqat sendan  
Bukun uzr so'rayman.  
Uzr so'rab, umid bilan  
Xayolimni o'rayman.  
Rozi bo'lgin,  
Gar o'g'loning  
Yurak qo'rin asrolsa.  
Bir kun ona Hindistonning  
Xizmatiga yarolsa».



\* \* \*

Nazrul Islom tor zindonning  
 Tuynugidan qaraydi.  
 Ko'rib zangor sof osmonning  
 Bir parchasin  
 Yayraydi.  
 Unda  
 Erkin qanot qoqib  
 Qushlar uchib yuribdi.  
 Bunda  
 Shoir ko'kka boqib  
 Havas qilib turibdi.  
 Qushlar bilan uchay desa,  
 Qani uning qanoti?  
 Bir olamdir  
 Orzu esa...  
 Yetarmikan hayoti?  
 Nazrul Islom  
 tor zindonning  
 Tuynugidan qaraydi.  
 U falakdan  
 Hindistonning  
 Toleyini so'raydi.  
 «Mayliga,  
 Men tutqun bo'lsam,  
 Sen ozod bo'l,  
 Onajon!  
 Ming qiynoqda  
 Mayli, o'lsam,  
 Yurtim,  
 bor bo'l,  
 Bo'l omon.  
 Umrin yetsa,  
 Mehri tayanch,  
 Seni yayrab kuylarman,  
 Bu kun esa,  
 Mushkul, ayanch  
 Qismatingni o'ylarman.

Necha ming yil  
 Manglay tering  
 To'kib yerga, qolding och.  
 Sen olamga  
 Ipak berib  
 O'zing o'tding yalang'och.  
 Bebaho — fil suyaklaring,  
 Bahring aro — to'la dur.  
 G'avvos qilib go'daklaring,  
 Kelgindilar oladur.  
 Yurtim,  
 Bitmas matonating,  
 Sen — mujassam bardoshsan.  
 Fil singari  
 Zo'r qudrating,  
 Fil singari  
 Yuvoshsan.  
 Ona o'lkam,  
 Bir kun seni  
 Ozod ko'rgim keladi.  
 Istibdodning zanjirini  
 Barbod ko'rgim keladi.  
 Ko'tarasan  
 Sen ham qadding,  
 Yo'l olarsan erk sari.  
 Himolayning ortidagi  
 Ozod vatan singari».

Nazrul Islom  
 Zindonda band,  
 U zax yerni quchardi.  
 She'ri esa qushlar bilan  
 Osmonlarda uchardi.  
 Kengliklardan oshar edi  
 Qalb shukuhi shoirning,  
 El dilida  
 Yashar edi  
 Isyon ruhi shoirning.

O'z umrini qilgandi u  
She'ri bilan jovidon.  
O'qir edi  
Uni hindu,  
Yodlar edi  
Musulmon.  
Shoir bandi,  
She'ri biroq  
Uchar edi beto'siq,

Himolaydan oshib  
Uzoq –  
Ketgan edi bu qo'shiq.  
Dunyo bo'ylab  
Dovruq soldi  
Nazrul Islom erk sasi...  
Hindistonda esib qoldi  
Ozodlikning nafasi.

## Beshinchi fasl

### Ozodlik

Bayroq qilib,  
El qo'zg'aldi –  
Nazrul Islom ismini.  
Tor zindondan uni oldi,  
Ammo faqat  
Jismini.  
Nazrul Islom  
Ozod,  
Ammo  
El qanoti qayrildi,  
Yosh, navqiron,  
Tirik siymo –  
Shoiridan ayrildi.  
Nazrul Islom  
She'ri butun  
Hindistonda yangrardi.  
Ammo shoir uni bugun  
Na tinglar,  
Na anglardi.  
Shoirini qo'ymay –  
Qo'lda –  
El ko'tarib eltardi.  
Na quvonar  
Shoir bundan  
Va na parvo etardi.

Bir yonidan quchar hindu,  
Bir yonidan musulmon.  
Ammo  
Hushdan ayrilgan u,  
Unga yotdir bu jahon.  
Tabriklaydi  
Uni Tokur,  
«Ozodliging muborak!»  
Ro'znomalar qutlov yozur.  
Bular unga ne kerak?  
U na uyg'oq  
Va na uxlar,  
Hissiz boqib turardi.  
Ruhi uning  
Oliy ruhlar  
Dargohida yurardi.  
Shoir topdi  
Erk chinakam,  
Ozod bo'ldi tamoman.  
Bir yo'l unga dardi olam  
Barbod bo'ldi tamoman.  
U bir yo'la  
Sho'rishlardan,  
Savdolardan qutuldi.  
Jabr-u jafu ko'rishlardan,  
Nizolardan qutuldi.





Qutuldi u sig'olmagan,  
 Sig'dirmagan jahondan,  
 Xolis bo'ldi  
 Ham zindondan,  
 Ham zindondek zamondan.  
 Ham tark etdi

Bir yo'l uni  
 El dardidek og'ir yuk.  
 Bu dunyoda qoldi tani,  
 Behush, beruh  
 va buyuk.

\* \* \*

Qirq yil o'tdi,  
 Uzoq qirq yil.  
 Bu dunyodan begona —  
 Nazrul Islom  
 Yashar bedil,  
 Yashar darvish,  
 Devona.  
 Qirq yil ichra  
 Nelar ko'rib,  
 Nelar chekdi  
 Hindiston.  
 Ammo ko'zi  
 Ochiq turib,  
 G'ofil o'tdi yoniq jon.  
 Bosqinchilar  
 Yurtdan ketdi —  
 El g'azabi  
 Quvoldi.  
 Shoir

Buni  
 Na his etdi,  
 Na ko'rdi,  
 Na quvondi.  
 Nazrul Islom  
 Bu dunyoda  
 Yetmish besh yil  
 Yashadi.  
 Ammo  
 O'ttiz ikki yoshda  
 Bu dunyoni  
 Tashladi.  
 Shoir umri  
 Qoldi she'rda,  
 Qoldi  
 Yoniq dostonda.  
 Bitganlari uning — yerda,  
 Ruhi esa — osmonda.

\* \* \*

Ko'tarolmay  
 Dardlar yukin,  
 Zamin qalqib turibdi.  
 Nazrul Islom  
 Ruhi bukun  
 Olam kezib yuribdi.  
 Ilhom chog'i  
 Dil zamindan  
 Ko'k toqiga o'rlaydi.

Nazrul Islom  
 Ruhi mendan  
 Shunda hisob so'raydi.  
 Shoir bo'lib  
 Elga bukun  
 Darkormisan, der menga.  
 Fidolikka xalqing uchun  
 Tayyormisan, der menga.

Der:  
«Shoirlik — yurakda qon —  
Silqib turgan jarohat.  
Tilamasman senga, o'g'lon.  
Osuda baxt,  
Farog'at.  
Tilamasman bir zum orom,  
To tiriksan,  
Bedor bo'l.  
Azob bersin senga ilhom,  
She'r dardida bemor bo'l.

Taqdiringdan senga dunyo  
Rohatlarin so'rmasman.  
O'z qismatim senga ammo  
Sira ravo ko'rmasman.  
«Saqla, — deydi, —  
yurak qo'ring.  
Dil otashing so'nmasin.  
Umring ado bo'lmay turib  
Cho'g'ing ado bo'lmasin».

1978–1979

## INSON

(Qasida)

Sobit-u sayyorada  
Inson o'zing, inson o'zing.  
Mulki olam ichra bir  
Xoqon o'zing, sulton o'zing.

Sen balo, ham muftalo,  
Xayr ila kin, rost-u riyo,  
Fitnagar olam aro  
Fatton o'zing, qurbon o'zing.

Sobit o'z ma'vosida,  
Sayyor fazo dunyosida,  
Koinot sahrosida  
Karvon o'zing, sarbon o'zing.

Goh adolat bog'ida,  
Piri adovat gohida,  
O'z diling dargohida  
Shayton o'zing, g'ilmon o'zing.

Shams — dil taftingdadur,  
Sayyoralar kaftingdadur,  
Keng jahon zabtingdadur,  
Bog'bon o'zing, posbon o'zing.

Xormisan yo gulmisan,  
Tojdormisan yo qulmisan,  
Chug'zmissan, bulbulmisan,  
Nolon o'zing, xushxon o'zing.

Bu yorug' dunyo nadur?  
Koshonadur, vayronadur,  
Senga mehmonxonadur,  
Mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Bu hayot o'rmon ekan,  
Jon borki, qasdi jon ekan,  
Bunda qatl oson ekan,  
Sirtlon o'zing, jayron o'zing.

Bunda oq birla qaro,  
Zulmat, ziyo, shoh-u gado  
Jang qilurlar doimo,  
Ul yon o'zing, bul yon o'zing.

Bu hayot ummon ekan,  
Ummon abad gardon ekan,  
Qatradek sarson ekan,  
Sarson o'zing, gardon o'zing.



Mash'ali fikrat – sening,  
Ham changali vahshat sening,  
G'ayrat-u g'aflat sening,  
Javlon o'zing, uryon o'zing.

Qilding-u oyda xirom,  
Ham yerda qon to'kding harom,  
Ushbu holingdan mudom  
Xandon o'zing, giryon o'zing.

Minding ilm narvoniga,  
Chiqding funun osmoniga,  
Bu jahon ayvoniga  
Arkon o'zing, vayron o'zing.

Zarrani ijod etib,  
Dahshat balo bunyod etib,  
Oqibatni yod etib  
Hayron o'zing, hayron o'zing.

Bog'i arz obod erur  
Sendin agar imdod erur,  
Yo'qsa, u barbod erur,  
To'fon o'zing, to'g'on o'zing.

Sen hilol, yulduz, salib,  
Tavrot, Zaburdin yuksalib,  
Boymisan yoki g'arib  
Komron o'zing, yakson o'zing.

Kim farangi, kim habash,  
Irq, qon talash, imon talash,  
Shulmi insondek yashash,  
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Mamlakatga mamlakat,  
Millatga millat bo'lsa qasd,  
Qilguvchi so'ng oqibat  
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Onaizoring – zamin,  
Tanho yo'g'-u boring – zamin,  
Xasta bemoring – zamin,  
O'g'lon o'zing, darmon o'zing.

Bag'rida yotquchi – sen,  
Ne'matlarin totquchi sen,  
Tig' bo'lib botquchi – sen,  
Paykon o'zing, qalqon o'zing.

Marsga to'p otquchi – sen,  
Zuhroni uyg'otquchi – sen,  
Uyquda qotquchi – sen,  
Uyg'on o'zing, uyg'on o'zing.

Kelding olamga, demak,  
Etmas uni so'rmak, yemak,  
Yerni etmog'ing kerak  
Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.

So'zga ham poyon bo'lur,  
Yozsam yana devon bo'lur.  
Rustami doston bo'lur,  
Doston o'zing, devon o'zing.

Bo'lmasin subhing qaro,  
Bor bo'l mudom borliq aro,  
O'zni etgil doimo  
Inson o'zing, inson o'zing.

Ey, sen Erkin, sen bukun  
Yozding dilingdan bir tugun,  
Sen kim-u ne dahri dun,  
Biyron o'zing, nodon o'zing.

1973

## YAXSHIDIR ACHCHIQ HAQIQAT

Yaxshidir achchiq haqiqat,	Soʻz demay oʻtli alamni
Lek shirin yolgʻon yomon,	Joningga solgʻon yomon.
Ul shirin yolgʻonga mendek	Jonga solgʻon ham na sozdir,
Aldanib qolgʻon yomon.	Elga soʻylab men kabi
Umrimiz aldoq jahonda	Shoiri devonayi ishq
Aldanib oʻtgay va lek	Nomini olgʻon yomon.
Soʻnggi qiynalgʻon yomondir,	Gar qilich kelsa boshingga,
Soʻnggi qiynalgʻon yomon.	Qoʻrqma, Erkin, rostni ayt,
Aytgali achchiq azobing	Yaxshidir achchiq haqiqat,
Boʻlsa dildosh yaxshidir,	Lek shirin yolgʻon yomon.

### «RUHLAR ISYONI» DOSTONI HAQIDA

«Ruhlar isyoni» dostoni Erkin Vohidov ijodida muhim oʻrin tutadi. Doston oʻtgan asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan otashin bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojiali taqdiriga bagʻishlanadi. Shoirga qalbidagi dardini ifodalash uchun Nazrul Islomning achchiq qismati vosita boʻlgan. Chunki oʻsha davrda Oʻzbekiston ham sobiq Ittifoqning mustamlakalaridan biri boʻlib, oʻzbek xalqining erki va mustaqilligi oʻz qoʻlida emas edi. Mustamlakachilar tomonidan oʻzbek millatining ming yillik anʼana va urf-odatları, milliy qadriyatları, ilm-u urfonining toptalishi, yoʻq qilinishi, maʼrifatparvarlarni xalq dushmani sifatida qamalishi va qatl etilishi, soʻz erkinligining yoʻqligi shoirni ushbu mavzuga qoʻl urishga undagan, albatta. Chunki yurt boyligi yetarli boʻlsa-da, xalqining mehnatiga yarasha farovon yashamasligi, kamsitilishi, nazar-pisand etilmasligi Erkin Vohidovga ham Nazrul Islomday tinchlik bermadi. Shu bois Erkin Vohidov nafaqat oʻzini, barcha erksevarlarni qiynayotgan dil tubidagi dard-sitamnlarni Nazrul Islom tilidan baralla aytishga jazm etdi va bunga erishdi.

Dostonda Vatanining ingliz mustamlakachilaridan ozod boʻlishini orzu qilgan va mana shu yoʻlda oʻz umri hamda



erkini baxshida etgan vatanparvar Nazrul Islomning tutqunlikdagi hayoti, his-tuygʻulari badiiy tasvirlanadi. Ona yurtida zulm va zoʻravonlik, irqchilik, erksizlikning avjiga chiqishi, mustamlakachilar tomonidan hind xalqi qonining zulukdek soʻrilishi, ayovsiz ezilishi, och-nochorligi shoir qalbini junbishga keltiradi. Dostondagi «Isyon qoʻshigʻi»da Nazrul Islom hind xalqini asriy qullikka qarshi kurashga, oʻz ozodligi uchun bosh koʻtarishga daʼvat etadi:

Soʻyla, inson,  
 Soʻyla, qadding koʻtarib baland.  
 Yuksaklikda sening qadring  
 Himolay monand...  
 Uygʻonmoqning vaqti keldi,  
 Bosh koʻtar, uygʻon!..

Ammo bu sheʼrni eshitgan olomon daʼvatkor shoirni xalq tinchini buzuvchi dushmanga chiqardi. Olomonning oʻz shoirini anglab yetmagani, unga ergashmagani mustamlakachilarga juda qoʻl keldi va shoir ozodlikdan mahrum etiladi.

Malomatga qoldi endi  
 Shoir bitib haq doston.  
 Hindu uni «jobon» dedi,  
 «Kofir» dedi musulmon.

Dostondagi qator mavzularni yoritishda shoir turli xil afsona hamda rivoyatlardan foydalanadi. Dostonning uchinchi faslidagi «tutqunlik» mavzusida Nazrul Islomning zindondagi oʻy-xayollari, insoniy his-tuygʻulari mohirona va ishonarli tarzda bayon etiladi. Shoir onasini gʻam-qaygʻuga qoʻyganligidan iztirob chekadi. Nazrul Islom oʻzini gunohkor hisoblamaydi, agar gunohi boʻlsa, u ham faqat onasining oldidagi farzandlik burchini ado eta olmaganida va xalqini ozodlik sari boshlaganida, deb biladi. Aslida, haqiqat ham shundan iborat.

Onajonim,  
Menga bu kun  
Sendan o'zga dilxoh yo'q.  
Zindondaman,  
Bilmam, nechun,  
Menda zarra gunoh yo'q.  
Gunohkorman  
Na Oллоhim,  
Na vijdonim oldida.  
Faqatgina...  
Bir gunohim  
Onajonim oldida.  
Kechir, onam!  
Ko'zingda g'am,  
Azob bo'ldim joningda.

Shuningdek, shoir jafokash hind xalqining tinimsiz og'ir mehnat qilishi, och-yalang'och, uysiz, joysiz kun ko'rishi va yurt boyliklarining huzurini kelgindi mustamlakachilar ko'rayotganini o'ylab yurak-bag'ri o'rtanadi.

Necha ming yil  
Manglay tering  
To'kib yerga, qolding och.  
Sen olamga  
Ipak berib  
O'zing o'tding yalang'och.  
Bebaho — fil suyaklaring,  
Bahring aro — to'la dur.  
G'avvos qilib go'daklaring,  
Kelgindilar oladur.

Shunday bo'lsa-da, shoir tushkunlikka tushmaydi, ona yurti va o'z xalqining ozodlikka erishishiga ishonadi, mana shu umid unga kuch bag'ishlaydi.

Dostonning so'nggi faslida erksevar shoirning va hind xalqining orzusi ro'yobga chiqqanligi tarannum qilinadi. Bi-



roq tutqunlikdagi qattiq qiynoqlar, azob-uqubatlar shoirning bu baxtli kunlar shukuhidan benasib etadi.

Erkin Vohidovning «Ruhlar isyoni» dostoni shoir adabiy merosining, umuman, XX asr o'zbek dostonlarining eng sara namunalari qatorida turadi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Erkin Vohidov ijodiga qisqacha tavsif bering.
2. «Ruhlar isyoni» dostoni qanday tarixiy haqiqatga bag'ishlangan? Uning yozilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Dostonning to'liq matnini o'qing, rivoyatlarga munosabat bildiring. Ularning asar mazmun-mohiyatiga ta'siri haqida fikr yuriting.
4. Hind xalqi qachon mustaqillikka erishgan? Tarix darsida olgan bilimlaringizga tayanib javob bering.
5. Dostondagi Nazrul Islom siymosiga tavsif bering. Uning qaysi sifatlarini qadrlaysiz?
6. Dostonning «Isyon qo'shig'i», «G'alayon», «Tutqunlikda», «Ozodlik» sarlavhasi ostida berilgan matnlarini kichik guruhlarda muhokama qiling va taqdimot o'tkazing.
7. Doston nima uchun «Ruhlar isyoni» deb nomlangani borasida o'zaro fikr almashing.
8. Dostondan olgan taassurotlaringizni ijodiy yondashgan holda qisqacha yozing.
9. Shoir «Inson» qasidasida qanday qarashlarini tasvirlaydi. Shoir qarashlarini matnga asoslangan holda izohlang.
10. «Yaxshidur achchiq haqiqat» she'rini izohlang.
11. «Inson» va «Yaxshidur achchiq haqiqat» she'rlarini o'qib, ularning mazmun-mohiyati, badiiyati, lirik qahramonning his-tuyg'ularini sinfda muhokama qiling.
12. Shoir she'rlaridan birini yod oling.



## Rauf Parfi

(1943–2005)

Rauf Parfi (Tursunali Parfiyev) 1943-yil 27-sentabrda Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumanidagi Sho‘ralisoy qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab o‘rta maktabda o‘qidi. Keyin ToshDUning filologiya fakultetida tahsil oldi. Shundan so‘ng Rauf Parfi adabiy jarayonga faol aralashdi. Respublikaning nufuzli adabiy nashriyotlarida, turli gazeta va jurnallarda faoliyat ko‘rsatdi.

Shoirning «Karvon yo‘li» nomli birinchi she‘rlar to‘plami 1968-yilda nashrdan chiqdi. Shundan keyin uning «Aks-sado», «Tasvir», «Xotirotd», «Ko‘zlar», «Qaytish», «Sabr daraxti», «Sukunat», «Tavba», «So‘nggi vido», «Sakina» kabi she‘riy to‘plamlari chop qilindi.

Rauf Parfi she‘rlari yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Shoir ijodida inson erki, Vatan ozodligi, Turkiston yodi, muhabbat tuyg‘usi kabi adabiy mavzular yetakchilik qiladi. Shoir o‘z quvonchlari, dard-u alami ifodasida, ko‘pincha, tabiat unsurlariga murojaat qiladi.

Tarjimon sifatida u Bayronning «Manfred», Nozim Hikmatning «Inson manzaralari», Karlo Kaladzening «Dengiz xayoli», A. Tvardovskiyning «Zaytun novdasi» asarlari va boshqa ko‘plab jahon adabiyoti namoyandalarining she‘rlarini o‘zbek tiliga o‘girdi.

Rauf Parfining o‘zbek she‘riyatiga qo‘shgan hissasi yuksak baholanib, unga 1999-yil «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

Shoir 2005-yilda Toshkent shahrida vafot etdi.



## TONG OTMOQDA

Tong otmoqda, tong o'qlar otar,  
Tong otmoqda, quyosh – zambarak.  
Yaralangan Yer shari yotar,  
Boshlarida yashil chambarak.

Tong otmoqda, musaffo tongga  
Yuragini tutar odamlar.  
Shu tong uchun kelgan jahonga,  
Va shu tong deb o'tar odamlar.

Tong otmoqda...

## YOMG'IR YOG'AR

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,  
Tomchilar tomchilar sochimga.  
Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar  
Ham qayg'umg'a, ham quvonchimga.

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,  
Men unga ochaman bag'rimni.  
Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,  
Asta unutkan yomg'irni.

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,  
Oxir meni asir etar ul.  
Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,  
Yog'a boshlar qog'ozga ko'ngil.

## YOZ KECHASI

Yoz kechasi. Osmon – falakda  
Kunduzning kitobi o'qildi.  
Tars yorildi qovun palakda,  
Oltin shaftolilar to'kildi.

Dalalarda mudraydi uyqu,  
Dala yotar kutib quyoshni.  
Ariqlarda doim uyg'oq suv,  
Polizlarga ketadi shoshib.

Yoz sha'niga qo'shiq to'qilar,  
Chigirtkalar chirillar chunon.  
Yomg'ir yog'ar, go'yo yog'ilar  
Issiq tuproq ustiga marjon.

Yoz yomg'iri iliqdir biram,  
Shitir-shitir uning qo'shig'i.  
Bir shirin hid taralar yerdan,  
Va yurakka ketar qo'shilib.

### YANA QAYTIB KELDIM...

Qaytib keldim yana. Chang to'zgan  
Yo'limizni sog'indim, ona.  
Tom ustida maysalar o'sgan  
Uyimizni sog'indim, ona.

Aziz dargoh ostonasida  
Sizni qalbim bilan quchayin.  
To'yib-to'yib sopol kosada  
Muzdek quduq suvin ichayin.

Har bir narsa yaqindir menga,  
Har bir narsa menga qadrdon.  
Qarab qoldingizmi yo'limga  
Issiq nonlar uzib tandirdan?

Koyimangiz meni bu safar,  
Unutdi deb uyni, dalamni,  
Ne chora bor, dil yonsa agar,  
Dil sog'insa turkiy olamni.

O, qishloqning munis chiroyi,  
Achchiq piyoz to'g'rayin o'zim.  
Dil sog'inib yig'ladi doim,  
Hozir, mayli, yig'lasin ko'zim.

Targ'illanib bormoqda osmon,  
Oppoq hidga to'lmoqda bag'rim.  
Ayingiz-chi, bormi sog'-omon,  
Shahlo ko'zli mening targ'ilim?



Og‘ushimda zangori sezgi,  
Kiprigimda suyuq hayajon.  
Ko‘zlarimda yumaloq sevgi,  
Salomatman men ham, onajon.

Qaytib keldim yana. Chang to‘zgan  
Yo‘limizni sog‘indim, ona.  
Tom ustida maysalar o‘sgan  
Uyimizni sog‘indim, ona.

## YURAK

Go‘yo baribirdir yaxshi va yomon,  
Yurak, senga borar ko‘chalar ochiq.  
Sachrab yonarsan-u, bo‘lmassan tamom,  
O‘tkinchi g‘amlarga achchiqma-achchiq.

Yurak, yo‘llaringda turganman takror,  
Rosa sayraganman sening to‘g‘ringda.  
Kim bilar, aqlimga kelding necha bor,  
Necha bor so‘zladim sening yo‘g‘ingda.

Balki, aldaganman vahima yutib,  
Sen-da tashvishlarga solgansan, balkim.  
Bugun-chi, degayman o‘zimni tutib:  
Sen haqsan, baribir, mening yuragim.

Shul osmon ostida kezgaymiz hali,  
Mantiq axtargaymiz izg‘ib izma-iz.  
Darkor bo‘la qolsang yiqilgil, mayli,  
Faqat yiqilmasin sho‘rlik dunyomiz.

Mayliga, hayqiray iymonim haqqi,  
Ko‘klarga termulib solayin uvvos.  
Men faqat Turkiston atalgan yorqin,  
Bir butun Vatanni istayman, xolos.

Garchi tutqinman-ku erkin sehringga,  
Unda sobit turar maqsud — manzilim.  
Qolib ketmasaydim sening mehringdan,  
Qolib ketmasaydim yo‘lda uzilib.

Ajoyib diyorsan, qalbim, na chora  
Shodlik va hasratning maskani sanda.  
Ovoz ber, kuyingni eshitib zora,  
Eslab qo'yarlar-ku hech bo'lmaganda.

Aytgil, kuylarmanmi bir kun, yuragim,  
Aytgil, kuylarmanmi boqmay o'zimga.  
Seni jarroh kabi sovuqqon va jim  
Yulib qo'yarmanmi qog'oz yuziga.

U payt aldamasding ko'zimga boqib,  
Shodumon dardingni aytarding butkul.  
Ungacha ilhomlar kelmagay oqib,  
Ungacha dunyoni anglamak mushkul.

## RAUF PARFI SHE'RLARI HAQIDA

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida o'zining betakror she'rlari bilan o'ziga munosib o'ringa ega bo'lgan shoirlardan biri Rauf Parfidir. Rauf Parfi she'riyat maydoniga XX asrning 60-yillarida kirib keldi. Birinchi kitobi «Karvon yo'li» deb nomlanadi. Ta'kidlash lozimki, shoirlar uchun birinchi kitob juda muhim bo'ladi. Shoir ahli o'zlarining birinchi kitoblari bilan o'quvchilarini topishi yoki, aksincha, yo'qotishi ham mumkin. Rauf Parfi taqdiriga she'riyat muxlislarining suyuqli shoiri bo'lishdek baxt bitilgan edi.

«Rauf Parfi she'riyati» degan ta'birning o'ziyoq shoirning adabiy merosi, go'zal she'rlari, ijodining umumpafosi to'g'risida mulohazalar yuritishga undaydi. Shoir she'rlarida Vatan, ona, inson, tabiat mavzulari yetakchilik qiladi.

Muhtaram o'quvchi! Siz shoirning ulkan ijodiy merosining bir qismidan bahra oldingiz. «Tong otmoqda», «Yomg'ir yog'ar», «Yoz kechasi», «Yana qaytib keldim...», «Yurak» she'rlari ijodkorning nechog'li favqulodda iste'dod sohibi ekanligidan, tabiat lirikasi bilan inson «men»i uyg'un va hamohang shaklda tarannum etilganidan darak berib turibdi.

«Tong otmoqda» she'rida shoirning umidlari, yorqin tuyg'ulari ifodasini topgan. E'tibor berilsa, bunda quyosh zambarakka, uning zarrin nurlari o'qlarga qiyoslangan. Quyoshdan tinimsiz o'qlar yog'iladi go'yo. Aslida, bu o'xshatish bejiz emas. Fizik qonuniyatlarga ko'ra, nurning zarralar



ko‘rinishida tarqalishi ham mavjud voqelikdir. Yer shari shoir tasavvurida o‘sha zarralar oqimi — o‘qlardan yaralangandek ko‘rinadi. Keyin shoir nigohi tabiat hodisasidan insonlarga ko‘chadi. Har kuni saharda uyg‘ongan odam musaffo tong bilan qarshilashadi. Tong pokizaligi odamlar yuragiga ko‘chadi. Bu she‘rning juda sodda zohiriy ma‘nosini shunday tahlil qilish mumkin. Ammo Rauf Parfi she‘rlari bir marta o‘qib qo‘yiladigan va darhol uqib olinadigan sodda she‘rlar sirasiga kirmaydi.

Shoir o‘z qalb kechinmalarini ifodalashda tabiatga murojaat qilishini «Yomg‘ir yog‘ar» she‘rida ham ko‘rish mumkin. Kim hayotida yomg‘irga duch kelmagan? Kim ham yomg‘ir ostida qolib ketmagan? Qo‘lida shamsiyasi bo‘lmagan har qanday odamning sochlariga, boshiga yomg‘ir tomchilari tomchilaydi. Kayfiyati chog‘ odam bundan huzur topishi, aks holda, asabiylashishi ham mumkin.

She‘rdagi «Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar» misrasi olti marta qaytariladi. Bunday takror misoli yomg‘irning yog‘ish tovushini eshitishga, yomg‘irning yerga tushish harakatini tasavvur etishga yordam beradi. Xo‘sh, shoir tasvirlayotgan yomg‘ir ostida qolgan «men»ning kayfiyati qanday? U qayg‘udami yoki quvonchdami? Bu jumboq keyingi bandlarda ochiladi. She‘rning lirik qahramoni yomg‘irdek go‘zal tabiat hodisasiga butun vujudi bilan qo‘shiladi. Chunki u: «Men unga ochaman bag‘rimni», — deb e‘tirof etadi. Demak, uning qalbida o‘zgacha bir zavq-shavq paydo bo‘ladi. Buning ta‘sirida yomg‘ir unutiladi. Yomg‘irga lirik qahramon asir bo‘ladi. Eng muhimi, ushbu ruhiy vaziyat ortidan she‘r tug‘iladi. Shu bois shoir: «Yog‘a boshlar qog‘ozga ko‘ngil», — deb o‘z she‘riga nuqta qo‘yadi. «Men bunday vaziyatda qog‘ozga she‘r yozdim» deyishi juda sodda va she‘riyatning ramzli tilidan ancha yiroq tushgan bo‘lar edi. She‘rga «ko‘ngil»ning qo‘shilishi uning badiiy quvvatini oshiradi. Chunki she‘riyatda shoirning o‘z ko‘ngli bilan suhbatlari, muloqot va bahslari ko‘p kuzatiladi. She‘r — ko‘ngil hodisasi. Rauf Parfi o‘z she‘rida so‘z, misra, tovushlar takroridan maydonga keladigan takrir, tavze‘ hamda o‘zaro qarshilantirishdan paydo bo‘lgan tazod kabi badiiy san‘atlardan unumli foydalangan.

Odatda, bahor fasli shoirlarga ilhom beradi. Ammo Rauf Parfining sizga taqdim etilgan bitta she‘ri — yoz fasli sha‘ni-

ga to'qilgan qo'shiq. Shoir yoz kechasidagi tabiat manzara-sini o'zgacha nigoh bilan kuzatarkan, qulog'iga shiraga to'lib g'arq pishgan qovunning tars yorilishi eshitiladi. Bunday sasni hamma ham eshita olmaydi, palakda endigina yorilgan chiziqni ko'rgan shoir shuurida «tars»illagan nafis ovoz paydo bo'ladi. Bir mahal uning ko'zlari pishib to'kilgan shaftolilarni ko'radi. She'rdan shoir jonlantirish, tashxis san'atini qo'llagan holda dalalarni insondek uxlatadi. Unga zid o'laroq, oqar suvlar hamisha uyg'oq. Shuning uchun suv ariqlar bo'ylab polizga shoshib ketayotgandek bo'ladi. Tundagi sokin-jimlik-ni, odatda, chigirtkalarining «qo'shig'i» buzadi. Chigirtkaning g'alati kuyi ham shoirni o'ziga tortadi. «Chigirtkalar chirillar chunon» – bu misradagi «ch» tovushining nazokati mitti hasharotlar kuylayotgan kuy nafosatiga qo'shiladi.

She'ning oxirgi bandida shoir yozadi:

Yoz yomg'iri iliqdir biram,  
Shitir-shitir uning qo'shig'i.  
Bir shirin hid taralar yerdan,  
Va yurakka ketar qo'shilib.

To'g'risi, yozda yog'adigan yomg'irning gashti, ayniqsa, yomg'ir suvining tafti bo'lakcha. Shoirning nozik qalbi bu haroratni ham sezib turadi.


Eng muhimi, she'ning oxirgi bandidagi ta'kid. Yomg'ir-dan keyin yerdan tuproq hidi keladi. Shoir ko'ngil ko'zi bilan ranglarni ko'radi, hidlarni sezadi. Chunki bularning barcha-barchasini shoir o'z yuragidan o'tkazadi. Shu bois tabiatda kechayotgan bunday dinamik voqelik shoir tuyg'ulariga, yuragiga qo'shilib ketadi.

Muhtaram o'quvchi, sizga taqdim etilgan «Yana qaytib keldim» hamda «Yurak» she'rlarining mazmun mohiyatini, shakliy qirralarini, unda qanday tasviriy vositalar, badiiy san'atlar qo'llanganini yuqoridagi tarzda talqin qilishga harakat qilib ko'rishingiz maqsadga muvofiqdir. Bunday tahlil jarayonida, albatta, she'ning sizga ma'qul kelgan nuqtalariga, har bir bandni ohangdor qiladigan unsurlarga diqqat qaratish talab etiladi. She'rni yod olish, undagi lirik qahramon o'rniga har kim o'zini qo'yib, tasavvur qilib sharhlashi ham yaxshi samara beradi.



### Savol va topshiriqlar

1. Rauf Parfi tarjimai holini yana boshqa dalillar bilan to'ldirishga harakat qiling.
2. Shoir she'rlarining o'ziga xosligi va milliy xususiyatlariga e'tibor bering.
3. Siz tong otishini kuzatganmisiz? Sizning kuzatuvingiz bilan shoir she'rda tasvirlagan tong manzarasini o'zaro qiyoslang. Bu borada shoir mahorati haqida nima deya olasiz?
4. Rauf Parfi she'rlarida qanday badiiy san'atlar qo'llangan?
5. Shoir she'rlarida tabiat lirikasining o'rni va ifoda tarzini misollar asosida tushuntiring.
6. She'rlardagi inson ruhiy holatlari ifoda qilingan nuqtalarni ajratib ko'rsating.
7. Rauf Parfi tasavvuridagi ona obraziga tavsif bering.
8. «Shahlo ko'zli mening targ'olim» deganda nimani tushunasiz?
9. «Ajoyib diyorsan, qalbim, na chora Shodlik va hasratning maskani sanda» misrasida qanday tuyg'ular ifodalangan?
10. «Yurak» she'ridagi shoirning murojaatlari sababini izohlang.
11. Shoir she'rlaridan namunalar yod oling.
12. «Rauf Parfi she'rlarining zamonaviyligi va umrboqiyli» mavzusida kichik ijodiy matn yozing.





## MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTI



XX asr o‘zbek xalqining boy madaniyati va badiiy tafakkuri tarixida alohida o‘ziga xos bosqich sanaladi. Bu davrda o‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘lida realistik tasvir tamoyili yetakchilik qildi; badiiy adabiyot ijtimoiy hayotga, insonlar dardiga yaqinlashdi, qalamga olingan mavzular zamon bilan, mavjud umuminsoniy muammolar bilan bog‘landi. Eng muhimi, XX asr oxirida birorta o‘zbekistonlikning yodidan chiqmaydigan tarixiy voqea sodir bo‘ldi, ya’ni 1991-yil 1-sentabrida O‘zbekiston mustaqillikka erishdi. Barcha o‘quv dargohlarida o‘quv yilining birinchi kunida betakror bayramona kayfiyat hukm suradi. Demak, o‘sha voqelikdan keyingi davr adabiyoti «Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti» deb atalishi tabiiy sanaladi. Badiiy ijodning har bir yo‘nalishi – nazm, nasr va dramaturgiya mohiyat e’tibori bilan mustaqillik davrining mavzulari bilan boyidi. Bu holat o‘zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak beradi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Mustaqillik davri adabiyoti bo‘yicha «Maktab kutubxonasi» ruknida barcha ijodkorlarni qamrab olgan maxsus antologiyalar tuzish rejalashtirilgan. (*Mualliflar*)





## MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATI

O'zbek she'riyati istiqloq yillarida o'ziga xos yangi adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Badiiy ijod maydonida shoirlar uchun erkin ijodiy muhit yuzaga keldi. Adiblar o'z ma'naviy dunyosini, olam va odamga doir qarashlari, individual his-tuyg'ularini bor holicha taqdim qila boshlashdi.

Mafkuraviylashgan eski adabiy siyosatdan boshqacha, ya'ni inson erkini qadrlash, Vatanning chin saodati, buyuk kelajagi uchun qayg'urish, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi qator mavzular bu davr she'riyatida yetakchilik qildi.

Vatan – ijod ahlining yuragiga eng yaqin, juda muhim va doimiy mavzu. O'zbek adabiyoti tarixida yurtning go'zal tabiatini, osmono'par tog'larini, dala-dashtlarini, bepoyon qirlarini, bebaho ma'danlarini madh etgan she'rlar ko'p yozildi. Tabiiyki, bu muazzam va muqaddas Vatan borlig'i faqat moddiy ne'matlardangina iborat emas. Abdulla Oripov bir she'rida: «Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!» deb xitob qildi. Zotan, bu ko'hna zaminda O'zbekistonning ma'naviy muhitini, ob-havosini, shon-sharafini, shuhratini dunyoga tanitib turgan, eng muhimi, Vatan timsoliga aylangan ulug' siymolari bor. Bu ulug'larning nomi yurtning uzoq-yaqin tarixi sahifalarini bezaydi. Ular orasida jahon ilm-faniga, ma'naviyat va adabiyot xazinasiga ulkan hissa qo'shganlari, Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, «sirli olam toqiga ilk narvon» qo'ygani ham, «she'riyat mulkida shoh-u sulton» bo'lgani ham, dushmanlarga qarshi «ko'ksi qalqon» vatanparvarlari ham mavjuddir. O'z vaqtida Vatan ozodligi, hurligi va erki ramziy ravishda shoirlar ijodining asos-negiziga joylandi.

Nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti tarixida Vatan haqida she'r yozmagan shoir kamdan-kam topiladi. Albatta, ularning badiiy saviyasi, ta'sir quvvati, yuraklardan joy olishi turlicha. Ayrim holatlarda shoir Vatan so'zini she'rida qo'llamasdan ham el-yurtiga mehrini izhor qilishi mumkin. Ba'zan ayni so'zning beto'xtov takrori she'riyat muxlislari-ning ixlosini qaytaradi. Har kim Vatanni o'zicha tushunadi, o'zicha suyadi, sog'inadi, o'zicha kuylaydi; Vatani bilan

faxrlanadi. O‘z tuprog‘idan, gulidan, gulistoni-bo‘stonidan, oshyoni-dilistonidan ajralgan bulbulning mungli fig‘oni falakka chiqadi. Odamning o‘z yurtiga mehr-muhabbati yoki ayriliq sog‘inchi ana shunday an‘anaviy obrazlarda ham ifoda qilinadi.

She‘riyatdagi Vatan haqidagi badiiy so‘z shoir tabiatiga, ruhiyatiga, dunyoni anglashi va anglatishiga daxldor so‘zdir. Ko‘pincha, shoirning o‘zligi, ichki «men»i bilan tashqi ijtimoiy muhit bitta lirik qahramonda jamlanadi. Vatan o‘sha obrazda namoyon bo‘ladi va, aksincha, shoirning o‘z dunyosi yoki yaratgan qahramoni Vatan timsoliga aylanadi...

To‘g‘risi, har qanday adabiy hodisalar, she‘riy asarlar o‘z-o‘zidan go‘zallik kashf etmaydi. She‘riyatning ta‘sir quvvati uchun shoirlarning iste‘dod darajasi va shu iste‘dodni namoyon etish uchun sog‘lom adabiy muhit muhim sanaladi.

Mustaqillik davri she‘riyati mazmunan yangilanib borayotgan she‘riyat sanaladi. Shu bilan bir qatorda, turli she‘riy shakllar bo‘yicha tajribalar ham qilindi.

She‘rda ta‘sir quvvati, har bir shoirning o‘z o‘quvchisiga o‘z aytar so‘zi va o‘ziga xos uslubi bo‘lishi lozim.

Bu dunyoga bir qo‘shiq,  
Berib ketgin, shoirim –  
Marhumlar uyg‘onsinlar,  
Uxlolmasin tiriklar.

(*Usmon Azim*)

Bu o‘tkir va o‘ziga xos poetik tabiatli to‘rt misrada shoir o‘z zamondoshlarining badiiy jihatdan yuksak, ta‘sirli, umrboqiy she‘rlar yozishga chaqirayotgandek taassurot qoldiradi. Shunday she‘riy namunalarni o‘z tarkibida jamlagan o‘nlab shoirlarning to‘plamlari aynan istiqloq yillarida dunyo yuzini ko‘rdi.

Mustaqillik yillarida qator katta va yosh avlod ijodkorlarining o‘nlab she‘riy kitoblari nashr etildi. Tabiiyki, bu she‘riy ko‘ngil izhorlarida har bir shoirning o‘z badiiy olami, mahorati va his-tuyg‘ulari aks etgan. O‘quvchi jahonshumul o‘zgarishlar davrini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan katta avlod shoirlari ijodida istiqloqga shukronalik, yoshlarda esa faxr-iftixor tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan she‘rlarga duch keladi.



## MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDAN NAMUNALAR

### Jamol Kamol

O'zbekiston xalq shoiri

(1938-yilda tug'ilgan)



### ASR BILAN VIDOLASHUV

1

Yigirmanchi asr, xayr, alvido,  
Kezdik yo'llaringni, so'qmoqlaringni.  
Yashadik umid ham tahlika aro,  
Chekdik rohatingni, qiynoqlaringni.  
Ba'zida kun yorug', ba'zan oy qaro,  
Totdik tahqirlaring, ardoqlaringni,  
Ne-ne talotumlar, quyunlar ko'rdik,  
Ne-ne tomoshalar, o'yinlar ko'rdik...

2

Yigirmanchi asr... Dunyo charx urib,  
Insonlar boshiga yog'ildi ofat.  
Daryo-daryo qonlar oqdi ayqirib,  
Ellarni qurshadi qirg'in, qabohat.  
Mustabidlar o'tdi davronlar surib,  
Bo'yinlarga solib zanjir, asorat,  
Do'stlar, qanday og'ir asr bo'ldi bu,  
Odamzod bariga chidadi, yohu!..

3

Jahannam elchisi — atomni ko'rdik,  
Mahshar gulxanini ko'rdik qalovda.



Olovga sig'indik, olovda yurdik,  
Najot farishtasin ko'rdik olovda.  
Insof, diyonatdan yuzni o'girdik,  
Butun bir dunyoni tutdik garovda,  
Xayriyatki, bizni Xudo asradi,  
Etmadi dunyodan judo, asradi...

## 4

Yigirmanchi asr... Munavvar etdi  
To'garak jahonni aqliy mo'jiza.  
Inson ilmi olis yulduzga yetdi,  
Inson qadam qo'ydi to'lin oy uza.  
Bir zum yuraklarning g'ubori ketdi,  
Xayollar yorishdi nurday pokiza.  
Ko'rdik olamshumul kashfiyotlarni,  
Koinot ortida koinotlarni...

## 5

Dunyoni kashf etib, dunyoni bildik,  
Tadqiq eta oldik yomg'irni, qorni,  
Falak peshtoqiga bayroqni ildik,  
Bildik borliq aro har neki borni.  
Jumboqlar ustiga qancha egildik,  
Ochdik zarradagi buyuk asrorni,  
Lekin yuraklarda iltijo yashar:  
Qachon o'zligingni bilgaysen, bashar?!

## 6

Millionlarning fikr-u andishasida  
Bobolar zikri bor, bobolar xuni,  
Nazar sol, dunyoning qay go'shasida  
Hamon hukmrondir qabohat tuni.  
Kunduz kechib mehnat nashidasida,  
Kechalar vasvasa buzar uyquni,  
Dohiyalar o'tdilar, g'oyalar qoldi,  
Bulutlar ketdilar, soyalar qoldi...



7

Xalqim, bu asrda qaram eding, qul,  
Bulutlar ortida tole yulduzing,  
Otildi, chopildi, kuyib, bo'ldi kul  
Ne-ne azizlaring, o'g'loning, qizing.  
Bardosh berolmadi, quridi butkul  
Peshonangga bitgan bitta dengizing,  
Orol qulligimiz qurboni bo'ldi,  
Olam bu shikvaning<sup>1</sup> hayroni bo'ldi...

8

Yigirmanchi asr... Armonlar bilan  
Necha bor tug'ildik, necha bor o'ldik.  
Olohni tark etib, bo'ldik yuztuban,  
Millatdan yuz burib, yuz qaro bo'ldik.  
Xayriyatki, bugun ozoddir Vatan,  
Yana qayta boshdan umidga to'ldik.  
Yana tong nuriga qorishdi dunyo,  
Ko'zimiz o'ngida yorishdi dunyo...

9

Istiqloq, ey mening asriy murodim,  
Ko'zlarim ustiga qo'yaber qadam,  
Niholdek qomating ko'rdi, avlodim,  
Ma'yus ruhimizga ufurdi ko'klam.  
Olohndan yetishdi bo'yla imdodim,  
Asrim, tutib berding yelkangni sen ham,  
Sen ham saxovating aylading zuhur,  
Mustaqillik uchun senga tashakkur!..

<sup>1</sup> Sh i k v a – shikoyat, arz qilish, biror narsadan norozilik.



## Oydin Hojiyeva

O'zbekiston xalq shoiri

(1942-yilda tug'ilgan)

### MUSTAQIL VATANNI BAXT NURI CHAYSIN

Sumbula suviday tiniq bir Ayol  
Dunyoni asraydi balo-qazodan.  
Yurtning ro'zg'orida sen baraka, bol,  
Qaldirg'och niyatli, umri ozodam!

Yerni uyqu devi aldab, muzlatar,  
Jonini ilitgay Qavs yaxobi.  
Qarri, soqov yerni qayta so'zlatar  
Dehqon yuragining mayin oftobi.

Oyog'ingda tilla kavushchalarmas,  
Kirza etik ko'rdim cho'yanday og'ir.  
Sumbul sochlaringga shivirlab ming sas,  
Har yil oshiq bo'lar ko'klamgi yomg'ir.

Har yil shonalagan g'o'za boshiga  
Egilding, unutib polaponingni.  
Men ko'rdim: balxi tut bolang qoshida  
Og'ziga dur tutgan saratoningni.  
Sendan rozi ketar shu ko'hna ketmon,  
Boshingdan ter quyar, chopiq qilarsan.  
Erkaklar qocharlar shiyponni chog'lab,  
Nozгим, sen qachon hordiq bilarsan?



Ro'zg'or — g'or deydilar. Shu tubsiz g'orda  
Ravshan bir chiroqday yurasan, bekam!  
Shu g'orni butlagil deb bir-u borda  
Joningni qirq bitta yaratmish egam...

Tunlar bez-bez og'rir, oh, barmoqlaring,  
Dutor pardasida uyg'onur nola.  
Allaga shaylansa gul dudog'laring,  
Mustaqil Vataning yetar kamola.

O'g'ling elga ega bo'lib ulg'aysin,  
Qizlaring malika bo'lib ulg'aysin.  
Shoh-u gadoga ham oq sut bergan zot,  
Mustaqil Vatanni baxt nuri chaysin.

Endi uying to'ri o'zniki bo'lg'ay.  
Noning butun bo'lg'ay, o'zlig'ing bo'lg'ay!  
Endi og'zingdagin oldirma, xalqim,  
Mustaqillik yorug' yuzliging bo'lg'ay!

## Usmon Azim

O'zbekiston xalq shoiri

(1950-yilda tug'ilgan)



## GRAFIKA

Ko'zing qaro sening, qoshlaring qaro,  
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.  
Qo'lingdagi ta'na toshlaring qaro,  
Menga g'amgin boqib turishlaring oq.



Unutishing – qaro, hijroning qaro,  
Sog'inching oppoqdir, xatlaring – oppoq.  
Qarodir yurganing o'ch-mehr aro,  
Menga tashlab ketgan dardlaring – oppoq.

Shommi yo saharmi – vaqtimdir qaro,  
Sen deb to'kayotgan yoshlarim oppoq.  
Sening ham, mening ham baxtimdir qaro,  
O'ttiz to'rt yoshingda sochlaring oppoq.

Ishon, yurak oqdir, qarodir taqdir,  
Oq-qaro bo'yoqlar bizning bog'larda...  
Men million bo'yoqni bilardim, axir,  
Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda.



## Xurshid Davron

O'zbekiston xalq shoiri

(1952-yilda tug'ilgan)

---

### «MEN KO'KSINGGA BOSHIMNI QO'YDIM»

Men ko'ksingga boshimni qo'ydim,  
Sen chekkan g'am, hasratda kuydim.  
Suydim sening Oqdaryongni ham,  
Hamda Qoradaryongni suydim,  
Ey, qalbimning onasi, Vatan!

Sen bobolar bitgan baytdirsan,  
Muhabbatim qo'shib ayturman.





O'tmishingga yo'l solib goho,  
Kelajaging bilib qayturman,  
Ey, qalbimning onasi, Vatan!

Sen o'tgan yo'l — yuragim yo'li,  
Iztirob yoshlari cho'kkan yo'l.  
Bobolarim jasoratiga  
Guvoh — alvon qonga cho'mgan yo'l,  
Ey, qalbimning onasi, Vatan!

Bu yo'llardan borurman, qadim  
Bitiktoshlar chiqar qoshimga.  
Ular so'zin ko'chiraman jim  
Yuragimning bujur toshiga,  
Ey, dardimga darmonim, Vatan!

Isming aytib chiqar kurtaklar,  
Isming aytib chiqadi quyosh.  
Isming aytar jangchi yuraklar  
Kurash chog'i tugasa bardosh,  
Ey, qalbimning onasi Vatan!

Bolakaylar qog'ozdan yasab  
Oqizgan kemachalarday,  
So'lim tonglar, ol tonglar yasan  
Oqib chiqar kechalaringdan.  
Sen umrimning tongisan, Vatan!

Men ko'ksingga boshimni qo'ydim,  
Sen chekkan dard, hasratda kuydim.  
Suydim sening Oqdaryongni ham,  
Hamda Qoradaryongni suydim,  
Ey, qalbimning onasi, Vatan!



## Mahmud Toir

O'zbekiston xalq shoiri

(1952-yilda tug'ilgan)

### MOMO YER

Shamollarning shokilasi daraxtlarning bo'ynidadir,  
Tog'lar toshin dil izhori irmoqlarning o'ynidadir,  
Oshiq bulbul sir, xandasi g'unchalarning qo'ynidadir,  
Aytar so'zim suvratini, Momo yerim, o'zing berding.

Maysalaring shivirlashdi, tizlar cho'kdim, quloq berdim,  
Bilmay bosib chumolini, gunohimga so'roq berdim,  
Vatan ne deb so'rganlarga bir kaftgina tuproq berdim,  
Menga Vatan siyratini, Momo yerim, o'zing berding.

Turnalarning tumorlari yaratganning o'zidadir,  
Kimki poklik axtaribdur — halol topgan tuzidadir,  
Gar gunohi, savobi bor bandasining izidadir,  
Pokdomonlik jur'atini, Momo yerim, o'zing berding.

Quyosh ko'kda sen deb yashar, oy boshingda o'rgiladi,  
Ko'rdim har tun ming-ming yulduz etagingga nur eladi,  
Chimdingina loyning bilan qaldirg'och beshik beladi,  
Bu dunyoning hayratini, Momo yerim, o'zing berding.

Senda ungan har bir giyoh Yaratganga sano aytar,  
Ko'kka yetgan teraklar ham kuni bitsa senga qaytar,  
Muhammadga ummat Mahmud kafti kuyib duo aylar,  
Oshiqlikning qudratini, Momo yerim, o'zing berding.

## Sirojiddin Sayyid

O'zbekiston xalq shoiri

(1958-yilda tug'ilgan)



### VATAN

Dil porasi, ko'z qorasi sen o'zingdirsan,  
Mening ko'nglim sen, aslida, sen ko'zimdirsan.  
Tomirimda tomir yoygan ilk so'zimdirsan,  
Ilk og'rig'im, ilk yomg'irim, naysonim, Vatan.

Qir ustida yonboshlagan bobom chaylasi  
Bu dunyoda kimlarningdir orzu-havasi.  
Dimog'imda — yulduz isi, shabnamlar isi,  
Momom ekib ketgan kashnich, rayhonim, Vatan.

Quloq solsam shivirlagay hatto toshlaring,  
Oy-u quyosh, kamalaklar ko'z-u qoshlaring.  
Beshigimni tebratgandir qaldirg'ochlaring,  
Oy-u quyosh ko'rpa solgan ayvonim, Vatan.

Bo'ronlari tulporlarga tunlar yol bo'lgan,  
Bir o'g'loni chinor, biri majnuntol bo'lgan.  
Temurlari ot minganda jahon lol bo'lgan,  
Jahonlarga timsol shoh-u sultonim, Vatan.

Valilardan ibrat so'ylar qadim sahrolar,  
So'ndi qancha saltanatlar, qancha tug'rolar.  
Maqbaralar aytsin lekin, aytsin Zuhrolar:  
Yer ostidan suhbat aylar hanuz Kubrolar,  
Termiziylar bedor yotgan qo'rg'onim, Vatan.



Ne tong edi — izg'irinlar zahrini totding,  
Dasturxonda muztar qoldi qand-u naboting.  
Shahidlaring nomlaridir har bir raboting,  
Abadiy yod erur asli adabiyoting,  
Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy ham Usmonim, Vatan.

Gard qo'nmasin toki sening kipriklaringga,  
Kipriklarim kiprik qilay ko'priklaringga.  
Malham bo'lmoq uchun asriy og'riqlaringga  
Bulutlaring suzib yurar ko'k, qirlaringga,  
Uyg'oq ruhlar osmonida posbonim, Vatan.

Naqshlaring qutuldilar kishan-bandlardan,  
Xatlar oldim yuragimga Naqshbandlardan,  
Afrosiyob bilan tengdosh kuy, ohanglardan.  
She'rlaringa ranglar oldim Samarqandlardan,  
Gohi moviy, gohi zangor dostonim, Vatan.

Ulug'laring xokini men yuzlarga surtay,  
Dilimdagi eng muqaddas so'zlarga surtay,  
Onamdayin aziz non-u tuzlarga surtay.  
Ozod bo'lgan oyatlaring ko'zlarga surtay,  
O'z yurtiga qaytib kelgan Qur'onim, Vatan.

Men dunyoni ne deb aytay? Bu bir ko'hna bog',  
O'z bilganin sayrar bunda har qumri, har zog'.  
Aslo sening bag'irlaring ko'rmayin men dog',  
Yulduzlarga osmon bo'lgan, ey nurli tuproq.  
Osmonlari yer-u, yeri osmonim, Vatan.

So'qmog'ingda men bir epkin yo bir nasimman,  
Yaproq sening, xas bo'lsam gar sening xasingman.  
Jayronlaring ko'zlarida qolar so'zingman,  
Mening borim sen bilandir, yo'g'im sen bilan,  
Katta yo'lga chiqqan ulug' karvonim, Vatan.

## Iqbol Mirzo

O'zbekiston xalq shoiri  
(1967-yilda tug'ilgan)



### O'ZBEK

Manglayga kaft qo'yib olisga boqsam,  
Edildan ko'rinar bo'ylaring, o'zbek.  
Tush kabi jimirlab ming yil oqsa ham,  
Noming aytar Enasoylaring, o'zbek.

Nuh to'foni, demak, qismat shamoli,  
Kimningdir kamoli, kimning zavoli.  
Sargashta kun ko'rding ohu misoli,  
Shundan hamon mungli kuylaring, o'zbek.

Dili qonga to'lib, ko'zlari — yoshga,  
Alp Tegin bir hikmat chegirdi toshga:  
«Bizning qayg'umiz yo'q boladan boshqa...»  
Bolangga bog'lidir o'ylaring, o'zbek.

Bir zamon olovni iloh bilgan el,  
Quyoshga qarashni gunoh bilgan el.  
Har bir bosqinchini qo'noq bilgan el,  
Yovga so'qmoq bo'lgan ko'ylaring, o'zbek.  
Ismingni ayirib kechdi asrlar,  
Xonlikni beklikka bo'lgan ne sirlar?



Kentlarga sochilgan oʻrda, qasrlar...  
Qumdan qorilganmi loylaring, oʻzbek.

Dil qoʻzgʻalsa, elni toʻxtatib boʻlmas,  
Sel qoʻzgʻalsa, gilni toʻxtatib boʻlmas,  
Zanjir uzgan qulni toʻxtatib boʻlmas,  
Tigʻ boʻldi har bitta moʻylaring, oʻzbek.

Boʻyningdan ketgan yoʻq hali dor izi,  
Qoʻy, qora kunlarning oʻchsin qorasi!  
Sen borsan — Temurning ulugʻ vorisi,  
Osmoningga qaytdi oylaring, oʻzbek.



Katta qishloq ekan Parij, London, Rim,  
Dalamni sog'inib ezildi ko'nglim.  
Dunyo go'zali – sen, qadoqqo'l singlim,  
Go'zaldir o'ngigan ko'yilaging, o'zbek.

Haftalab yo'l qarab sarg'aymas Kumush,  
Tog'ni talqon qildi bobomeros musht,  
Tin oldi davonga boqib Alpomish,  
Tog'larni qo'pordi yoylaring, o'zbek.

Qo'lingni ko'zimga suray, otajon,  
Yoningda ul bo'lib yuray, otajon,  
Yaxshi kunlaringni ko'ray, otajon,  
Sovimasin qo'lda choylaring, o'zbek.

Onajon, havoli bog'lar muborak,  
Handalak band bergan chog'lar muborak,  
Kelin yuzidagi dog'lar muborak,  
Bug'doylarga to'lsin uylaring, o'zbek.


Sumbula – to'kinlik, to'ylar mavsumi,  
Bir qo'zg'alib olar bog'bonning xumi.  
Asli, bir satrdir she'rim mazmuni:  
To'ylarga ulansin to'ylaring, o'zbek!

### *Savol va topshiriqlar*

1. Mustaqillik davri she'riyati, nasri va dramaturgiyasi haqida o'z fikrlaringizni bayon qiling.
2. Istiqloq davri she'riyatiga xos asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
3. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining eng muhim mavzularni sanab bering.



4. Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi qaysi shoirlarning she'rlarini sevib o'qiyasiz?
5. Istiqlol yillarida nashrdan chiqqan qanday she'riy kitoblarni o'qigansiz?
6. O'zingiz muxlis bo'lgan shoir ijodiga qisqacha tavsif bering. Sizni hayratga solgan ijod namunalaridan misol keltiring.
7. Jamol Kamolning «Asr bilan vidolashuv» she'ri ni ifodali o'qing va uni sinfda muhokama qiling.
8. Oydin Hojiyevaning «Mustaqil vatanni baxt nuri chaysin» she'ri ni ifodali o'qing va muhokama qiling.
9. Usmon Azimning «Grafika» she'ri sizda qanday taassurot qoldirdi. She'r nega shunday nomlanganini angladingizmi?
10. Xurshid Davronning «Men ko'ksingga boshimni qo'ydim» she'rining bosh mavzusi nima? Bu she'rni o'qiganingizda ko'z oldingizda qanday manzaralar gavdalandi?
11. Xurshid Davronning yana qaysi she'rlarini o'qigansiz?
12. Mahmud Toirning «Momo yer» she'riga bastalangan qo'shiqni eshitganmisiz? She'rdagi Vatanga mehr va vatanparvarlik tuyg'ulari ifodasi haqida nima deya olasiz?
13. Sirojiddin Sayyidning «Vatan» she'ri asosida «Bobolardan meros ozod Vatanim» mavzusida ijodiy matn yozing.







## MUSTAQILLIK DAVRI NASRI

Zamonaviy o'zbek adabiyotida nasriy asarlar o'z ko'lami va g'oyaviy-badiiy jihatdan tasvir imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Nasriy asar uchun har qanday hodisani – u katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar – badiiy tasvir vositalari, obrazli tafakkur, insonning barcha ruhiy kechinmalari e'tiboriga ko'ra aks ettirish muhim sanaladi.

Epik ko'lamdor roman yoki qissalarni o'qib, ma'lum bir davrning ijtimoiy-tarixiy hayoti, insonlarning turmush tarzi, o'y-kechinmalari, ishq-muhabbatdek bebaho his-tuyg'ularini tasavvur qilish mumkin. Ayni damda badiiy asar o'z muallifining dunyoqarashi, iste'dodi, shaxsiyatining kimligidan ham darak beradi. Abdulla Qodiriy: «Yozuvchini, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida, asosan, o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi», deb juda o'rinli fikrni yozgan edi.

Mustaqillik davri o'zbek nasri tarkibidagi ayrim namunalar bilan muhtaram o'quvchilar quyi sinflarning «Adabiyot» darsliklari orqali tanishgan edi. Ammo uni yaxlit tasavvur qilish uchun bugungacha davom etayotgan adabiy jarayondan ham boxabar bo'lislari lozim.

Istiqlol yillarida tarixiy va zamonaviy mavzuda romanlar, dunyo adabiyoti tajribalaridan o'rgangan holda yaxshi qissa va hikoyalar yozildi. Hech shubhasiz, bu davrda yangicha yo'nalishlar, adabiyot maydoniga qadam qo'ygan yosh adiblarning yangi nomlari paydo bo'ldi; inson tabiatidagi ziddiyatlarni noan'anaviy usulda tasvirlashga e'tibor kuchaydi; insonning sirli dunyosini badiiy tadqiq qilish jihatidan o'zbek nasri yuksaldi. Eng yaxshi asarlarda jahon adabiyotining tasvir tamoyillari bilan o'zbekona milliy tafakkur uyg'unlashdi.

Ijod – murakkab ruhiy-ijtimoiy hodisa. Adiblar o'z shuurida pishib yurgan asarlarni qog'ozga tushirishga ba'zida ijtimoiy-siyosiy muhitdagi erksizlik tufayli imkon topa olmasliklari ham mumkin. Sho'ro zamonida ijod erkinligining cheklab qo'yilishi bunga misol bo'ladi. Biroq istiqloq iste'dodli yozuvchilarga qalbida uzoq saqlanib kelgan mavzularning badiiy talqini uchun imkon berdi. Xususan, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev kabi adiblar istiqloq yillarida mustabid tuzum

davrida yaralangan qalbida qolib ketgan voqealarni «Sarob», «Qorako‘z majnun», «Oftob oyim», «Muzqaymoq», «Bandi burgut» kabi asarlarida bayon qildi. Aziz o‘quvchilar, bu hikoyalarning ayrimlarini o‘qigan bo‘lishingiz mumkin.

Mustaqillik davri o‘zbek nasrida insoniy qadriyatlarni e‘zozlash, milliy urf-odatlarini qadrlash, mashhur tarixiy shaxslar hayotini badiiy talqin etish, zamon qahramoniga munosib obrazlarni tasvirlash kabi tamoyillar yetakchilik qiladi.

Badiiy asar qayta va qayta murojaat qilinadigan adabiy manba bo‘lishi uchun serqatlam ma‘no va o‘ziga xos ramzlar tilini talab etadi. Shunda adabiyot to‘g‘risidagi oddiy, jo‘n va sodda tasavvurlar yangicha nazariy qarashlar bilan boyib boradi. Badiiy asar ma‘lum bir zamonda muayyan ijodkor tomonidan yoziladi. Biroq u hamma davrlarda yashayotgan insonlar tabiatiga mos kelishi, o‘y-kechinmalariga ta‘sir ko‘rsatishi lozim. Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotining nasr yo‘lida shunday badiiy puxta asarlarning yozilayotgani quvonarlidir. Xususan, tasvirlar suvratdan siyratga, oddiy ma‘lumotdan inson kechinmalariga – obrazli qilib aytganda irmoqdan ummonga ulanayotgandek taassurot qoldiradi. O‘z asarlarida ezgulik va qabohatning mangu kurashini, inson qalbidagi cho‘ng iztirob va surur chizgilarini yonma-yon taqdim etayotgan iste‘dod egalari, imkoni boricha, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotini dunyoga olib chiqish, zamonaviy o‘zbek nasrini jahon adabiyotining durdonalari qatoriga qo‘shish orzusida ijod qilmoqda.

Istiqlol davri nasrida o‘tgan asrdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning, mash‘um sho‘rolar siyosati davridagi ziddiyatlarni, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashning o‘ziga xos talqinlari ham maydonga keldi. O‘tgan asrdagi insoniyatni larzaga solgan mudhish hodisalardan biri – bu Ikkinchi jahon urushi. Ayni paytda, afg‘on urushi xunrezliklari to‘g‘risidagi mavzu ham adiblar nazaridan chetda qolgani yo‘q. Afg‘on urushi mavzusida kichik hikoyalar, e‘tiborli qissalar yozildi; hujjatli-publitsistik asarlar bitildi; yirik hajmli romanlar ham shu mavzuga bag‘ishlandi.

Mustaqillik davri nasrida inson va tabiat masalasi adiblar tomonidan ko‘p qalamga olindi. Zero, tabiat og‘ushidagi minglab, millionlab xilqatlarning o‘z fazilati, fitrati, xususiyati bor. Inson esa ular ichida eng go‘zal, eng mukarram,



barchasi ichra gultoj sanaladi. Inson tabiatiga xos qandaydir fazilat yoki qusurlarni yozuvchilar o‘z asarlarida hayvonot olami tili bilan ham bayon qiladi. Ot va inson munosabatlari to‘g‘risida maxsus asarlar bitildi. Bularning barchasidan maqsad – inson. Hayvonlarning insoniy fazilatlarini ko‘rsatilgan asarlarda odamlarning hayvondek tubanlashgan vaziyatlari namoyon bo‘ladi.

Istiqlol yillarida turli ovozga mansub adiblarning o‘nlab kitoblari nashrdan chiqdi. Ularning ayrimlari roman, boshqalari qissa va hikoyalardan tarkib topgan. To‘g‘risi, mustaqillik davri o‘zbek nasrini tugal tasavvur qilish uchun iste‘dodli yozuvchilarning asarlaridan namunalar topib o‘qish zarur. Bu asarlar Sizga ma‘naviy ozuqa beradi hamda jamiyatda o‘z o‘rningizni topishda ko‘maklashadi, albatta.

## MUSTAQILLIK DAVRI NASRIDAN NAMUNA

### Muhammad Ali

O‘zbekiston xalq yozuvchisi

(1942-yilda tug‘ilgan)



### SOHIBQIRON O‘YLARI

(«Ulug‘ saltanat» epopeyasi to‘rtinchi kitobidan parcha)

Zamona arg‘umog‘i poygada yutib chiqishga otlangan uchqur samanday shiddat bilan olg‘a chopadi. Faqat uning samandan farqi bor: samanni chavandoz boshqaradi, bu

arg'umoqning esa chavandozi, egar-yugani yo'q, yaydoq, bir o'zi, boshi og'gan tomonga chopadi, oyog'i tashlangan yerga tushadi. U birovni mindirish u yoqda tursin, yoniga ham yo'latmaydi, har qanday saman horib-toladi, arg'umoq esa ne-ne asrlar, yillar o'tibdirki, charchash nimaligini bilmaydi, to'xtamasdan yelgani yelgan...

Uni «Vaqt» deb atardilar.

Sohibqiron o'zini ana shu purqudrat Vaqt bilan bahs boy-lashishga qodir deb hisoblar, uning bilan birga chopishga tiri-shar, ortda qoldirib ketishni o'ylardi. Chindan ham, u Vaqtdan o'zg'irlik qilganday edi: keyingi to'rt yil mobaynida baland Hindikush tog'idan oshib o'tib Hindistonni fath ayladi...

Qo'shinlarni Oqshahar tomonga yuborishga farmon qilgan-dan keyin Amir Temur xushmanzara Egridir ko'li sohilda bi-roz istirohat etmoqchi bo'ldi. Serdaraxt joylar unga yoqib qoldi. Shimolga qarab yoyilgan zilol suvli ko'l xoriqulodda<sup>1</sup> fayzli va go'zal edi. Darhol shohchodir tikdilar, ipak ko'rpachalar tash-langan shohona so'rini shundoqqina ko'lning bo'yiga olib tush-dilar. Kunbotish tomonda, sohildan ichkariroqda kichik malika To'kal xonimning, ikki yonda esa kanizaklarning saropardalari joylashdi. Yigirma ikki yoshli kichik malika har kuni uyqudan turganlarida kanizakdan suv to'la oltin obdastani olib o'zi So-hibqiron qo'llariga quyib beradi.

Odatda, Sohibqiron saharlarda so'rida parqu bolishga yon-boshlagancha, tong otishini kuzatardi. Oldindagi yastanib yotgan tiniqlashib borayotgan poyonsiz shaffof ko'lga boqar-kan, Sohibqironning bahri-dili ochilar, baxmalrang suvlarning yoqimli rangi xiralasha boshlagan ko'zlariga quvvat bag'ish-lardi. Kunchiqish tomonga qarab cho'zilgan, ko'lga chiroyli yoqaday yarashgan, atrofiga gullar ekilgan, eni uch qadamlik shinam uzun yo'lkada kezish unga rohat bo'lib ko'rinadi...

Muhammad Churog'a dodxoh<sup>2</sup> yiroqdan sayr-u tomo-sha ixtiyor etgan Amir Temurning allaqachon saropardadan chiqib, ellik qadamlar narida sohilda ohista kezib yurganini ko'rdi. Boshida murassa toj, egnida zarbof to'n, belida oltin

<sup>1</sup> Xoriqulod – favqulodda, kutilmaganda.

<sup>2</sup> Dodxoh – arz va shikoyatlarni hukmdorga yetkazuvchi shaxs.



kamar yaraqlardi. Sohibqiron og'irligini bir oyog'idan ikkinchi oyog'iga tashlab qadam bosar, dodxoh nazarida, bu odam bir paytlardagi baland bo'yli, chorpahil, oyoq-qo'llari uzun pahlavonkelbat Temurbek emas, yillar zalvoridan yelkalari biroz chiqqan, sezilar-sezilmas cho'kkan (buni Muhammad Churog'a dodxoh sezadi, xolos!), ko'pdan buyon saltanat yukini yelkasiga dadil ortmoqlagan kadxudo, mo'ysafidlik shartlarini inkor etishga qodirman, Vaqtni yengib bo'lmasa-da, uni ham tiz cho'ktira olaman, deb urinayotgan Amir Temur edi.

Muhammad Churog'a dodxohning dili orziqdi. Eh-he, mana shu ro'baro'dagi odamning joni, chindan ham, temirdan ekan! Urush degan baloyi ofatning turgan-bitgani besaranjomlik, vayronagarchilik, qirg'in, jang, dod-voy, faryod, suron-u g'alayondan iborat. Dodxoh bundoq qarasa, Sohibqironning yigirma yilga yaqin umri shiddatli safarlarda kechibdi...

Ha, borgan joylarida «Turon tursa, bo'ron bo'ladi!» maqolini taomilga kiritib keldilar. Bundoq jahongirlikni hali olam ko'rmagan. Safarda, janglarda aslo halovat yo'q, hamisha jon-ruh azobda, ko'ngillar iztirobda, askardan to podshogacha barchasida it yotish, mirza turish holati yuz beradi. Sohibqiron bu qiyinchiliklarga, mashaqqatlarga chidaydi, yo'q, u ana shu mashaqqatlar uchungina tug'ilganday... Biron yerda yozg'irib, noliganini eshitmaysiz. Urushning beti qursin, deydi, faqat urushning oldini olaman degan sari urush chiqib kelaverganiga, uni tugata olmaganiga yoqa tutib qoladi...

Dodxoh Sohibqironning nima maqsadda chorlaganlari vajini o'zicha tasmollashga urinardi: «Amir Sohibqiron Rum taqdiri haqida so'zlashmoqchilar, nazarimda. Katta-kichik qal'alarni olish demasa, Rumda janglar deyarli to'xtadi. Agar shu haqda so'z ochilsa, uning ajoyib taklifi bor...»

Sohibqiron yo'lkadan burilgan dodxohni ko'rib ortiga qaytdi. So'riga borib o'ltirdilar.

— Rum qaysari betob bo'libdur, — dedi Amir Temur. — Afsus... Xiyla darmonsiz er mish. Darhol tabiblar yubortirdim. Yaxshi taomlar, doru darmonlar buyurtirdum.

— Ha, iztiroblar uni tinch qo'ymaydir, Amir Sohibqiron.

— Mamat, undan xabar olib turibsenmu?

– Hamisha boxabarman, Amir Sohirqiron.  
– Ne dard ilashg‘on erkan? Tabiblar ne deydir?  
– Zayyiqi nafas va xunok marazi<sup>1</sup> birlan og‘ribdur.  
Zo‘riqish kuchli, nafasi qisar emish.

Amir Temur o‘ylanib qoldi, keyin:

– Xudo shifo bersun. – dedi. – Yildirim Boyazid butun Rum boyliklarini jamuljam etmish edi. Qaramon shahzodasi amir Muhammad esa o‘n ikki yil Bursada zindon azobini tortibdur. Ozod etib, Qaramonni o‘ziga in‘om qildum.

– Hm-m...  
– Sulaymon Chalabiyga Edirnani tobshurdim...  
– Qandoq bo‘larkin... O‘zimizda chaqmoqdek shahzodalar ko‘p...

Sohirqiron dodxohga qarab jilmaydi:

– Mulk yetmay qoladur degan tashvishdasen-da, Mamat. Mulk... mulk...

Muhammad Churog‘a dodxoh dilidagini aytib yuboray dedi-yu, hali fursat yetmaganini bilib tiyildi, boshqa hech narsa demadi. Sohirqironning bugun qandaydir qulfi-dili ochilay deb turibdi, shekilli, qani, kutsin-chi. Dodxoh ko‘pdan, Rum yurti parchalab yuborilmay, yaxlit holida saqlanib, amirzoda Xalil Sultonga tobshirilishi lozim, degan fikrni ko‘ngliga tugib yurardi. Ammo buni hech kimga aytmagan. Rostdan ham, Turonda shahzoda Muhammad Sulton, Xurosonda Shohrux Mirzo, Rumda Xalil Sultonlar bu ulug‘ saltanatning uch purviqor ustunlariday Amir Sohirqiron qanotida tursalar, uzoq yillar mamlakat dorilomon-u el-ulus farog‘atda yashaydi.

Amir Temur ko‘l tomondan ko‘zini oldi.

– Mulk... – dedi yana Amir Temur. – Mulk Ollohnkidur. Lekin uni boshqarish, obod etish biz bandalarga tobshurilg‘on... O‘n besh yoshlarda ekanimda padari buzrukvorim Tarag‘ay bahodirning – unga parvardigor o‘z jannatini ato etsun – gapirg‘onlari esimda: «Bobolardan eshitg‘onmen, bobolarim bobolaridan eshitg‘on ekanlar. Bu hikmatlar Buyuk Turk xoqonligini boshqarg‘on Bumin xoqon, Istami xoqon

<sup>1</sup> Zayyiqi nafas va xunok marazi – nafas qisishi, qon bosimini oshishi.



zamonlaridan nasldan naslga o'tib keladur, o'g'lim, – degan-dilar ul zot. – Ajdodlarimiz ulug'larining parokanda yurtni ko'rib, aytg'on ushmundoq fig'onli so'zlarini hamisha yodingda tutg'il: «Jabrdiyda turk bek bo'ladurg'on o'g'il bolasi bilan dushmanga qul bo'ldi, suluv qiz bolasi bilan cho'ri bo'ldi... Davlatli xalq eding, davlating qani? Xoqonli xalq eding, xoqoning qani? Tepangda turk osmoni, pastda turk yeri bo'lsa...» Padari buzrukvorim o'sha paytlarda Turon zaminida yuz berayotg'on boshboshdoqliklardan, har shahr-u qasabada bir hokim ekanidan, birlashish yo'qligidan dillari ozor chekib o'ksinardilar, «Mana bu bechora xalqning qorni kim to'yg'izadi?..» – deb tashvish chekardilar. Ko'rdingmu, Mamat? Davlatli xalq ekanmiz! Xoqonli xalq ekanmiz! Kichikligimdan otamning o'sha alamli so'zlari ko'nglimga o'rnashdi, o'sha davlatni barpo etishni niyat qildim...

Muhammad Churog'a dodxoh davlat borasidagi bunday so'zlarni ilk bor eshitmoqda edi. Sohibqiron hech qachon bu haqda, uni qurdim, buni tuzdim, deb og'iz ochganmas. Maqtanishni aslo yoqtirmaydi. Chindan-da, bu qiziq.

– Nechog'liq farovon so'zlar! Demak, davlat tuzish fikri rahmatli ulug' bobomiz Tarag'ay Bahodir janoblariga tegishli ekan-da? Yana nimalar deganlar ul tabarruk zot?

– Aytg'onlari ko'p: «Davlat tuzgil, chunki davlat elni tutguvchi, qo'riqchi, millatning soqchisi, tuproqning egasi ekanini unutmagil! Avomunnos el<sup>1</sup>, miskin<sup>2</sup> holidin hamisha xabar olg'il, xalqning tomog'ini to'q tutgil!» – derdilar. «Faqat mol-mulkka bog'lanib qolma!» – deb uqtirardilar. «Yuqoridagi ko'z ochib ko'rganing ko'k osmonga, pastdagi ilk qadam qo'yg'oning qo'ng'ir yerga hamisha sadoqatli bo'l!» – deb tayinlardilar padari buzrukvorim...

Amir Temur yana ko'l uzra olis-olislarga tikildi. Sohilga yaqin yerda ko'l tepasida bir gala qush g'ujg'on o'ynashib, goh u tomonga, goh bu tomonga xuddi katta to'p yumalaganday uchishar, bir-biridan ajralishmas, goh yiroqqa ketishar, ko'p o'tmay chug'urlashganча ortga qaytishardi.

<sup>1</sup> Avomunnos el – oddiy xalq, fuqaro.

<sup>2</sup> Miskin – bechora, baxtsiz, faqirlikdan og'ir ahvolga tushib qolgan.

– O‘sha nasihatlarini kechagina eshitg‘ondaymen. Ularni bir lahza ham yodimdan chiqarg‘onim yo‘q. Ajab, qarasam, hash-pash deguncha, Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vassallam yoshidan ham o‘tib, oltmish sakkiz yoshga qadam qo‘yib turg‘on ekanmen. Saltanat masnadig‘a o‘ltirdim-u, rohat-farog‘at to‘shagida uxlashdan voz kechdim, tun uxladim, kunduz o‘ltirmadim. O‘n ikki yoshimdan jahongashtalik qismatim bo‘ldi, ranj-u mehnatlar tortdim. Har xil tadbirlar qo‘lladim, g‘anim favjlarini sindirdim. Amirlar va askarlarning isyonlarini bostirdim, ulardan achchiq so‘zlar ham eshitdim. Lekin sabr-u bardosh etagini tutdim, o‘zimni bilib bilmag‘onga, ko‘rib ko‘rmag‘onga soldim. Bari bilan murosaga bordim, ularni tinchitdim. Boshlarini biriktirdim. Parokanda mingquroq yurti birlashtirib, unga «Vatan» deb ot qo‘ydim. O‘layotg‘on xalqni tiriltirib tarbiyat etdim, yalang‘och xalqni kiyimlik qildim, kambag‘alni boyga aylantirdim, oz xalqni ko‘paytirdim. Qilich ko‘tarib jang maydoniga otildim, olamni qilich zarbi birla oldim, dunyoda nom chiqardim. Jahongirlik rutbasig‘a ega bo‘ldim. Turon davlatini barpo ayladim!..

Amir Temur biroz tin oldi.

Muhammad Churog‘a do‘xohning dilidan esa shunday so‘zlar kechdi: «Bu davlatda hozir yosh bolaning boshiga bir laganda o‘n tilla qo‘ysa, u Sultoniyan Samarqandgacha borsa, bir tilla kamaymaydur! Barchasiga o‘zim shohidman. Ha, Amir Sohibqiron adolatni mahkam tutdi. Zero, «Kuch – adolatda» so‘zlari uzugining ko‘zida porlab turibdur. Adolatga xiyonat qilmadi, bu borada, Xudo shohid, hatto o‘z farzandlarini ham ayagani yo‘q. Parvardigori olam mundoq davlat ato etdikim, beaded shukr, Yer yuzi podshohlarini mute’ qildi, tizzasi borni cho‘kka latdi. Haqning unga yuklagan vazifasini ado etmak maqsudi bo‘ldi, Olloh bergan umrni tug‘ilgan yurti Turon dovrug‘ini olamga yoyishga baxshida etdi. Dunyo bir uzuk esa, Samarqand – firdavsmonand dor us-saltanani uning yoqut ko‘ziga aylantirdi...»

– So‘zlaringiz rostdur, jonim sizga Qurvon, Amir Sohibqiron! Ularni ko‘z qorachug‘i bilan ko‘zlarimiz oqiga yozsak arziydi! Barini jumlayi jahon ko‘rib turibdur! – dedi





dodxoh Amir Temurda baland soʻz havosi paydo boʻlganini payqab. U koʻpdan bunday holni kuzatmagandi. Sohibqiron oʻz oʻtgan umrini eslaganidan mamnun-u masrur odamday favqulodda hayajon-u tugʻyonga chulgʻangandi:

– ... Xalloqi bezavolga sallamno! Mamat! Har lahzada ulugʻ bobolar ruhini sezamen, ular madadidan kuch olamen! Bari elimning baland osmonida parvoz etib yuribdur. Barini qalbim koʻzi birlan koʻrib turamen! Kimki ularni yurak-yuragidan his etsa, oʻsha shu tuproqning fidoyi oʻgʻlidur, Turon elining asl farzandidur!

– Ilohi, bari bizga madadkor boʻlsun!

– Bukun Eron-u Turonda, jumlayi jahonda bizga muxolifat tugʻini koʻtarguvchi kuch yoʻqdur. Bor saʼy-harakatim, shariat-u millat ravnaq topsun, din-u davlat dasti falaklarga yetsun, deymen. Tangri taolodan umidim shulkim, agarchi gunohim koʻb turur, ammo bir jihatdin menga rahmat degaykim, zolimlarning qoʻllarini mazlumlardan qisqa qilibdurmen. Va qoʻymadimkim, mening davrimda zoʻravondin zaif ozor yegay! Zero, olamni adl-u ehson bila obod etibdurmen! – Amir Temur biroz toʻxtab nafas rostladi. – Ha... yodinga tushdi. Yaqinda Eron imomlarining ulugʻlari-yu Turon sohib ixtiyorlari, Shomning nomdor ulamolari-yu Iroqning dongdor fuzalolari, dars-u fatvo asʻhoblari-yu zuhd-u taqvo arboblari – barchasini bir majlisda jam etdim. Koʻpdan oʻylab yurgʻon niyatimni amalga oshirdim. Barchasiga dedim: «Oʻtgan asrlarda ulamolar hukmdorlarga ezgulik va adolat bobida yoʻl-yoʻriqlar aytib, yaxshi-yaxshi kengashlar bergʻonlar, nomunosib harakatni man etgʻonlar. Sizlar nega hech irshod qilmaydursizlar va bajarishim vojib-u lozim yumushlarni menga aytmaydursizlar?» Turonlik bir ulamo dedi: «Tangriga sanolarki, Sohibqiron hazratlarining oʻzlari hammamizga toʻgʻri yoʻl koʻrsatadurlar, bizlarga oʻxshagan oʻzi shunday soʻzga muhtojlar nasihatlariga aslo ehtiyojlari yoʻqdur». Darhol unga eʼtiroz bildirdim: «Shaʼnimga tahsinlar aytingiz, mizojim (kishining tabiati)ga muvofiq xushomad soʻzlar nisor aylashingiz menga xush kelmaydur. Yaratgan Egam bizga shundogʻ shavkat-u ulugʻlik ato etdiki, u har xil takalluflarga ehtiyojmand emasdur. Bas, hech

nimani yashirmay, ko'nglingizdagilarni ro'y-rost aytingizlar». Shundan so'ng barchasi dillarini ochib, mamlakat ahvolidan ko'rgan-bilganlarini so'zladilar...

– Ofarin, Amir Sohibqiron!

– So'ng buyurdim: bir guruh diyonatli va nomdor ulamolardan tanlab, ularning har birini devoni a'lo tarafidin mamlakatning turli puchmoqlariga nomzod qilsunlar, toki ular tayin etilg'on tomonga jo'nab, saltanat ishlarining tagiga yetsunlar, dorug'a va devondin nimakim voqe' bo'lubdur, menga sharh etsunlar. Agar bironta mazlum kasga zulm yetsa yoki biron ojiz-u nochorga zo'ravonlik etilg'on ersa, zarar-u ziyon tikonini mazlumlar oyog'idan chiqarsunlar, ko'zdan yoshini oqizishga qo'yimasunlar. To shu vaqtgacha jahongirlik sarhadlarida zo'r sa'y-harakat ko'rgizdik, endi podshohona niyat etagidin tutarmiz, himmat uldurkim, xaloyiq, ulus rafohiyat<sup>1</sup> va farog'atda kun kechirg'ay, olam obodon va ma'mur bo'lg'ay!

– Ofarin, Amir Sohibqiron! – ma'qulladi dodxoh. – Ofarin! Qutlug' niyatlariga yetsunlar, ilohi!

Parvardigor Sohibqiron ko'ngliga favqulodda ilhom nurlarini yog'dirgan edi, Muhammad Churog'a dodxoh hayratga tushgancha tinglashda davom etdi:

– Shukrkim, Alloh taolo menga farzandlar ato qildi, temuriylar sulolasi halqasida har biri o'z maqomiga egadur. Barchasig'a yurt ulashmak bizning vazifamiz, bo'ynimizda turg'on zalvarli yukdur, Mamat! Arjumand farzandimiz shahzoda Muhammad Sulton saltanat valiahdidurlar. Suyukli jigargo'shamiz Shohrux Mirzo Xurosonda, nabiram Pir Muhammad ibn Jahongir Balx-u Qandahorda qaror topdilar. Sheroz-u Isfahonlar Pir Muhammad ibn Umarshayx, Rustam ibn Umarshayxlar tasarrufidadur. Ardoqli nabiramiz Xalil Sultonga Barda'a, Ganja tamomi Armanzamin, Gurjistonni, ularga qo'shub Trabzonni tobshurmak niyatidadurmiz...

«Oh, oh, kech qolibmen! – o'yladi ichida dodxoh. – Avvalroq aytishim lozim edi, kalovlanib yurdim, yurdim,

<sup>1</sup> Rafohiyat – turmush kengchiligi, farovon hayot, ma'nosida (*arab*).



taklifimni o'z fursatida aytolmadim. Xudo poshsho egam, deganlar. Hali ham kech emas...»

U o'z taklifini aytish niyatida qat'iyat bilan so'zga og'iz ochmoqqa chog'langandi, Sohibqiron so'rab qoldi:

– Bilasenmu, nelarni o'yladim? Ikki nabiram bor: Ulug'bek Mirzo va Ibrohim Sulton. Ikkisi ham to'qqiz yoshda, tilla bolalar-da! Umidim katta... Ollohning o'zi asrasun. Ular ham o'sib-ulg'ayib voyaga yetadurlar, chetda qolmasunlar. Bas, Ulug'bek Mirzog'a Toshkand, Sayram, Ashpara va Jeta viloyatini to Xitoy sarhadigacha, Ibrohim Sultong'a Andijon, Axsikat, Taroz, Koshg'ar va Xo'tanni farmon birla mulk qilib berg'aybiz... Ko'nglimga tugib qo'ydim. Yana bir gapni aytay. Samarqandga qaytgach, ko'zimning tirigida Konigilda beshta nabiramning to'ylarini o'tkazishni o'ylab qo'yg'onmen. Saltanatning barcha puchmoqlaridan, mamlakatlardan mehmonlar chorlag'aymiz!

Muhammad Churog'a dodxoh allanechuk bo'ldi. Unga titrabroq aytilgan «ko'zimning tirigida» so'zlari g'alati ta'sir qildi. Dodxoh Sohibqironidan avvallari bunday kalomlarni hech qachon eshitmagan.

– Bu nima deganlari, Amir Sohibqiron? Undog' demasunlar, Hazrat...

– Xudoning bandasidurmiz, Mamat... Hali ish ko'p... Aytdim-qo'ydim-da. – «Gapim qayerga keluvdi?» deganday dodxohga qaradi-da, davom etdi: – Ha... Abu Bakr Mirzo ibn Mironshohni esa Bag'dod imoratig'a yuborg'aymiz. Mamat, Haq taolo bizni aziz etib, rub'i maskun mamlakatlari tizginini qo'limizg'a tutqazdi. Endi istaymenki, jahon ahli g'azab va qahrimiz asoratlaridan aziyat chekkanlariday, saxovat va marhamatlarimizdan ham bahramand bo'lib rohatlansunlar. Sultonlar Xudo soyasidurlar. Shu sababdan ular goho qahr-u g'azab otashi olovida g'animlar vujudi xashagini yondiradurlar, kulga aylantiradurlar, goho marhamat va ehson maqomida turib, fuqaro ko'ngli shabistonini lutf-u karam charog'i birla nurafshon etadurlar... Mana, o'zing shohidsen, Bag'dod ahli zafarqarin askarlarimizga muxolifatlik, dushmanlik oqibatida, isfahonliklarga o'xshab o'z shaharlarini ham,

shirin jonlarini ham halokatga badal qildilar. Qilmishlari intiqomini ko'rdilar. Ammo Bag'dod islom shaharlarining onasi: ilm-u fan u yerdan jahonga yoyilg'on, mazhablar ham o'shal yerda dong taratg'on. Ardoqli nabiram Abu Bakr Mirzog'a buyurdimki, Amir Qora Yusufni daf etg'onidan so'ng, Bag'dod imoratiga mashg'ul bo'lg'ay, jahd ila botroq obodon etg'ay. Qahrimiz tufayli xarobaga aylang'on ul zaminni insof-u adolat humosiga qo'nimgoh qilmak lozim, viloyat buzug' holga tushmasun, u joy vayronalarini obodlik holiga qaytarsun, toki jahon ahli qattiqqo'llig-u g'azab-intiqomimiz qaysi darajada, ezgu ishlarimiz-u ehsonimiz qay maqomda erkonini ko'rib qo'ysunlar! Zero, Turon mamlakatida mashhur mavze'larni imorat qilduk, bas, endi Eron-u Iroq, Shom-u Ozarbayjonlarda ham bizdan baqa'oti xayr binolar, podshohona osorlar, xisravona yodgorliklar boqiy qolsun!

– Ofarin, Hazratim!

Oraga jimlik cho'kdi. Ko'l tepasida endi qaydandir tag'in bir gala qush paydo bo'lgan, lekin to'pga qo'shilmas, o'zlaricha gurillashib parvoz qilishar, chug'ur-chug'urlari baralla eshilib turardi. Birdan hammasi shimol yoqqa uchib ketdi. Xiyla hayallagan qushlar birozdan keyin qaytib, yana jimib qolgan osmon qatini to'ldirdi, Sohibqironning ko'ngli yorishdi.

– Mamat! Inshoolloh, dorilomonliq zamonlari yetishmakda! Ollohga shukr! – davom etdi Amir Temur qushlardan ko'z uzib. – Xitoy safaridan qaytgach, taxtni valiahd shahzodaga tobshursam, o'zim jinday oyoqni uzatib rohat-farog'atda umr kechirsam deyman... Xohlag'on vaqtimda Toshkandga borsam, xohlag'on vaqtimda Keshg'a otlansam, Buxorog'a, Termizg'a, Andijong'a, Xorazmg'a yo'l tutsam... Men ham bir odamday do'st-u yoronlar bilan ulfatchilik qilsam, Sirdaryoning bo'ylarida yalangoyoq kezsam, yurtimda emin-erkin yursam, yotsam, uxlasam...

– Ko'nglimda o'zlariga xuddi shuni tilar edim, oh, oh! Dilimdagini so'zladilar! Ilohi, baraka topsunlar, Amir Sohibqiron! – jilmaydi dodxoh. – Axir ulug' yoshga yetmaktalar. Bibixonim janobi oliyalari ham shunday orzudalar... Hazratim

endi orom olib, ulug' saltanat rohat-farog'atini ko'rsunlar, o'z emgaklarining mevalaridan totsunlar, tokaygacha ot yo'rttirib, tog' oshib, cho'l kezib, mashaqqatlar girdobig'a o'zlarini otib yuradurlar? Jonlari nechta?.. Yurt tashvishlarini esa zakiy va dono chaqmoqtabiat shahzoda o'g'limiz Muhammad Sul-tonning qudratli yelkalariga ortsunlar, deydilar...

– Shundog' fikrlarga boramen-u, o'ylanib qolamen: payt kelib, bizlar boqiy dunyoga rihlat qilgach, ahvol ne kechguvsi? Odatda, har bir saltanat tabiatida parchalanishga ichki moyillik bo'ludur, sal himo berilsa, ko'rinishidan qal'aday mustahkam tuyulg'on har qanday saltanat ham birpasda chok-chokidan so'kilib, parokandalikka yuz tutmog'i oson. Xudo saqlasun! Tunlar uxlamay, kunduz o'ltirmay barpo etg'on davlatim taqdiri qandoq kechadir, deb o'ylab chiqamen. Farzandlar shunchalar zahmat chekib, uqubatlar tortib tiklag'on ulug' saltanatning, bobosining qadriga yetarmu ekanlar, yo'qmi? Yoki... taxt talashishlar, o'zaro nizolar botqog'iga botib, or-nomusni unutilib jahonga afsona bo'ladir-larmu? Mana, O'rusxon-u To'xtamishxon bir-biri bilan savash qurdilar, o'rtada Oltin O'rda davlatiga zavol yetdi-ku. Eronda Muzaffariylar ham shundog' patarat<sup>1</sup> topdi.

Haligina ko'tarinki bir kayfiyatda o'ltirgan Sohirqiron dodxohga qandaydir xomush tortib qolganday tuyuldi.

– Samarqandga qaytgach, qurultoy o'tkazurmen, unda barcha yurt olg'on farzandlaring'a shundog' demakni o'ylab qo'ydim: «Har biringiz ittifoq bila o'z ishingizg'a mashg'ul bo'lg'aysiz. Raoyo va fuqaro-yu miskin holatidin g'ofil qolmag'aysiz. Va qilichning sopini mahkam tutg'aysiz, ki olam buzulmag'ay va musulmonlarg'a zahmat yetmag'ay. Umidim ulkim, necha yilliq sa'y-mehnatim zoye ketmag'ay!..»

– Aytsunlar, Amir Sohirqiron, aytsunlar! – hapiqdi Muhammad Churog'a dodxoh, muloqotning bunday tantanavor boshlanib, ma'yus ohangga chulg'anib borayotganidan hayrat-da. – Sa'y-mehnatlari aslo zoye ketmagay! O'h-ho', qanday aqlli farzandlaringiz bor! Shohrux Mirzo, Xalil Sul-ton,

<sup>1</sup> Patarat – parokanda, tartibsiz, alg'ov-dalg'ov.

Abu Bakr Mirzo, Umar Mirzo... Ulug‘bek Mirzo... Ammo baxtimiz dastavval jahon amirzodasi, saltanat chamanining ardoqli guli, zamona bahodiri, aqlli va pahlavon valiahd shahzoda Muhammad Sultondadur! Bosgan qadamidan yer titraydi, tog‘lar sado beradi! Aytgan so‘zidan ko‘ngillar obod, farishtalar mamnun! Uni Ashparaga yuborganingiz, Samarqandni ishonib topshirganingiz, mana endi Hulokuxon taxtini in‘om etganingiz, ayniqsa, Rum fathi uning nomiga bitilgani nur ustiga a‘lo nur bo‘ldi...

– Ilohi, aytg‘oning kelsun!

Sohibqironning chehrasi biroz ochildi. Valiahd shahzoda nomi aytilganda hamisha uning ko‘ngli yashnab ketardi. Eronda edi, shekilli, qaysidir shaharda bir nokasning unga pichoq urganini eshitganda, to shahzodaning to‘rt muchasi sog‘ ekani haqida aniq xabar olmaguncha, ko‘z ko‘zga tushmaguncha o‘zini qayerga qo‘yarini bilmagandi.

– Bir kuni bahor, navro‘z kirg‘on pallalar edi, Mamat, Misr qishlog‘i yonidagi Bog‘i Davlatobodg‘a borayotg‘ondim. Qishloqqa kirishda tomorqada ishtiyoq bilan egilib-bukilib daraxt o‘tqazayotg‘on, munkayib qolg‘on bir cholga ko‘zim tushdi. U sakson yoshlarda edi. «Bobo, – dedim salomdan keyin. – Yoshingiz bir joyga yetibdur. Xudo umr ato etsun. Ammo ekayotg‘on daraxtingiz mevasidan totib ko‘rish uchun besh-olti yil kerak bo‘ladi-ku...»

«Noumid shayton... – Chol qaddini rostlashga urindi va manglayidagi terni artdi. – Uning mevasi nasib etadi, o‘g‘lim, Xudo xohlasa!»

Shunday degach, chol ishida davom etdi. Men o‘z yo‘limga ketdim. Nariroq borg‘onda, Mamat, o‘z-o‘zimdanda to‘xtadim: bir kunlik umri qoldimu yo‘qmi, uyog‘ini surishtirmay, ertangi kunga umid bog‘lab shijoat bilan nihol o‘tqazayotg‘on munkaygan cholga havasim keldi. Ha, mening xalqim shundoq, hech qachon uning qaddi bukilmaydur, ko‘ngli cho‘kmaydur! Turon elining dunyodan umidi bor, men ana shu elning o‘g‘limen!.. Bilasenmu, bag‘oyat mutaassir bo‘ldim. Dinor to‘la hamyonni unga shartta berib yubordim. Birdan chol meni chaqirib qoldi. Qaytdim. U



salmoqlab hamyonni ko'rsatarkan, kulib dedi: «Ekayotg'on daraxtingiz mevasidan totish uchun besh-olti yil kerak, degan edilar. Mana, daraxtimni ekiboq, mevasini totib turibman, Xudoga shukr!..»

– E, qoyil-e! Donishmand chol ekan...

– Ha, donishmandlar donishmandi ekan o'sha oqsoqol bobo! Toj-taxtimning yagona vorisi, valiahd shahzoda Muhammad Sulton ham ekan niholimdur, – dedi Amir Temur ko'ngli iyib. – Men ham o'sha choldek niholim mevasidan bahramand bo'lib turibmen. Xudo xohlasa, shahzodam purviqor chinorday ildiz yozib, uzoq yillar Turon yurtini emin-u omonlikda saqlag'ay! Ollohim, unga e'timodimni barqaror qilg'il!

– Ilohi, barqaror qilg'il! – takrorladi dodxoh ham.

Ular duoga qo'l ko'tardilar.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Yangi davr nasridagi yetakchi asarlar asosan qanday mavzularda yaratildi?
2. Istiqloq yillarida yozilgan roman, qissa va hikoyalardan qaysilarini o'qigansiz?
3. Bugungi yosh adiblarning nasriy asarlaridan qaysilarini bilasiz?
4. Muhammad Alining «Sohibqiron o'ylari» nomli «Ulug' salтанat» epopeyasi to'rtinchi kitobidan olingan parchada buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur davrida ro'y bergan qaysi tarixiy voqealar eslatib o'tilgan?
5. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayangan holda epopeyadan olingan parchadagi tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi haqida o'zaro fikr almashing.
6. Romandan berilgan parchada tilga olingan tarixiy shaxslarni sanab o'ting va ularga matn asosida tavsif bering.
7. Parchada uchraydigan tarixiy geografik nomlarning ro'yxatini tuzing. Ular orasidan O'zbekiston hududi bilan bog'liq geografik nomlarni alohida ajratib ko'rsating va ularga qisqacha izoh bering.

## MUSTAQILLIK DAVRI DRAMATURGIYASI

Muhtaram o'quvchi! Siz jahon adabiyoti tarixidan joy olgan eng nodir dramatik asarlarning sahna talqinlarini ko'rgan, o'zbek milliy dramalarining ko'p namunalaridan boxabar bo'lishingiz kerak. Zero, ushbu adabiy turning yuzaga kelishida o'zbek mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodining ta'siri bilan bir qatorda dunyo adabiyotining yetakchi dramatik an'analari ham katta ahamiyat kasb etdi. Adabiyotshunoslik fani e'tiboridan dramaga xos adabiy-nazariy qonun-qoidalarga mos asarlarning sahnaga chiqishi XX asr boshlaridagi o'zbek madaniy muhiti bilan bog'liq, albatta. Jadid ma'rifatchilari dramatik asarlar o'ynaladigan teatr sahnasiga ibratxona sifatida qarashgan edi. Teatr sahnalari o'z vaqtida taraqqiyot yo'liga chiqayotgan xalq uchun bami-soli oyina vazifasini o'tadi. Shunga ko'ra, hozirgi o'zbek dramaturgiyasining o'ziga xos uzoq tarix qa'ridan kelayotgan adabiy-estetik umumiy asosi va o'tgan asr boshlariga borib taqaladigan yuz yillik tarixi bor. O'zbek dramasi tarixidan siz «Padarkush» (Mahmudxo'ja Behbudiy), «Abulfayzxon» (Fitrat), «Sohibqiron» (Abdulla Oripov) kabi ayrim namunalarni o'qigansiz, albatta.

Dramatik tur janrlaridan biri bo'lgan komediyada muallif o'z g'oyasini xarakter, kulgi va shunga mos tanlangan voqelikning sahnadagi badiiy talqini vositasida ifodalaydi. Fojia janrida esa qahramonlararo, mavjud ijtimoiy-ma'naviy muhitlararo haddan tashqari kuchli ziddiyatlar oqibati bo'lgan fojia ko'rsatiladi; bu ayanchli vaziyat tufayli o'quvchi yoki tomoshabin qalbida achinish tuyg'usi paydo bo'ladi. Yana bir e'tiborli jihat shuki, o'zbek dramaturgiyasi tarixida o'zida har ikki adabiy janrga xos xususiyatlarni jamlagan «Temir xotin» nomli (Sharof Boshbekov) tragikomediya ham mavjud. Uni ko'rgan yoki o'qigan odam asarda qatnashayotgan obrazlar holidan ba'zan beixtiyor kuladi va ayni damda og'ir mehnat ostida ezilgan insonning fojiviy holatidan qayg'uga botadi, chuqur o'yga toladi.

O'zbek dramaturgiyasi tarixida mustaqillik davri alohida bosqich sanaladi. Bu davr o'zbek dramalarida o'zbekona



turmushning eng muhim qirralariga, milliy qadriyatlar va urf-odatlar talqiniga alohida diqqat qaratiladi. Mustaqil mam-lakatning har bir ongli odami o'zligini, o'z o'tmishini, dunyo ilm-fani, madaniyati, adabiyoti va san'atiga beqiyos hissa qo'shgan ajdodlarining ulkan mutafakkir shaxslar bo'lganini juda teran anglashi lozim. Insonga milliy o'zlikni anglatishda dramatik asarlar so'z san'atining boshqa janrlariga qaraganda kuchliroq ta'sir o'tkazadi. Sahnadagi qahramonlarning so'zlaridan ta'sirlanadi va ularning xatti-harakatlarini o'z ko'zlari bilan ko'radi; ba'zan sahna bilan tomoshabin orasidagi che-gara yo'qoladi. Aktyorlar sahnadan odamlar orasiga tushib keladi; tomoshabin esa bamisoli o'zini sahnada his etadi.

Har qanday badiiy asarda insonlarning ma'naviy kamo-loti yoki tubanlashuvining obrazli tasviri muhim sanaladi. Jumladan, mustaqillik davri o'zbek dramalarida ham zamon kishilari yoki tarixiy shaxslarning odilligi, haqgo'yligi, xolis-ligi, olimligi, sadoqati, mardligi hamisha shu insoniy fazi-latlarning zidi bo'lgan axloqiy-ma'naviy tushunchalar bilan yonma-yon muhokama qilinadi. Tabiiyki, bunday murakkab va ziddiyatli hayot girdobiga tushgan qahramonlar orasidan har doim yuksak insoniy kamolot darajasiga ko'tarilgan chin ma'nodagi yuragi butun shaxslar g'olib bo'lishadi.

Sir emaski, hamma zamonlarda dramatik asarlar bevosita sahna hayoti bilan bog'liq bo'lib kelgan. Muallif qahramon-larining sahnada o'zlarini tutishlarini va o'sha asarni to-moshabin qanday qabul qilishini ko'z oldiga keltirishi hamda syujet voqeligining barcha komponentlarini puxta o'ylashi kerak. Boshqa adabiy tur va janrlar bilan dramatik asarlar taqqoslanganida uning poetik xususiyati va tarkibiy tuzulishi-ni yaxshi anglab olish mumkin. Dramatik asar voqelikning o'ziga xos badiiy talqini bo'lgani uchun obrazlar tabiati ham dialogik va monologik nutq, xatti-harakat, imo-ishora, sukut, yig'i yoki kulgi kabi sahnaga xos tasviriy-psixologik vositalar yordamida ochiladi. Tabiiyki, bu omillar sahna asarining umrboqiyiligini ham belgilaydi.

Umuman, bugungi o'zbek dramaturglari ozod yurt yosh-larining ma'naviyati yuksak, axloqi pok, ruhiy olami mus-tahkam bo'lishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqda.



## MUSTAQILLIK DAVRI DRAMATURGIYASIDAN NAMUNA



### Erkin A'ZAM

O'zbekiston xalq yozuvchisi

(1950-yilda tug'ilgan)

---

#### TANHO QAYIQ

Orol bobodan dramatik rivoyat

#### QATNASHDILAR

Orol bobo

Amet

Jumaboy

Tilovbergan

Genjamurod

O'tagan maxsum

Qalimbet

Gulxadicha

Rohat Sobirovna

#### Birinchi qism

#### 1

Atrofi qamish chiy bilan o'ralgan, dov-daraxtsiz yaydoq hovli. Bir yonda bahaybat duradgorlik dastgohi, tegishli asbob-anjom; yerda eski imoratlardan chiqqan uzun-qisqa taxta-yu tunuka qirqimlari, nam latta o'rab simga tortilgan egma-qayishqoq tol novdalari-yu yirik-yirik mum palaxsalari va qirindi-payraxalar aralash-quralash bo'lib yotibdi.



Ish chala, chala ishlar...

Qarshi tarafda tayyor mahsulot — katta-kichik qayig‘-u qayiqchalar qator qilib chetanga suyab qo‘yilgan. Biri qoramoyga bo‘yalgan, biri qizil, biri kumushrang; chetroqdagilari hali bo‘yoq ko‘rmagan — ajralib turibdi.

Hovlining to‘rida — ro‘parada g‘aribgina, pasqam bir kulba. Eshigi nimochiq, derazalari lang. Zehn solib qaralsa, eshik ham, deraza qasnoqlari ham qayiqqa mengzab ketadi, allanechuk qayiqsimon namoyishda. Uyning chap tomonida bo‘g‘otga tirab qo‘yilgan narvon ham shunday; aslida-ku u eski bir qayiq bo‘lib, to‘nkarilgan-u orqasiga taxta qoqib zina yasalgan, xolos.

Tom boshida ham bir qayiq! Ammo u xiyla haybatdor, hashamatli, ikki uchida baliqsimon bezaklari ham bor.

Ana shu qayiqning qoq belida kontoparlar kiyadigan soya-boni serbar allaqanday movut qalpoq cho‘qqayib ko‘rinadi. Suvda qalqib turgan kabi u goh baralla ko‘zga tashlanadi, goh «cho‘kib» ketadi...

Tong bo‘zara boshlagan palla. Bir maromdagi xurрак tovushi.

Tom ustidagi qayiqqa jon kirib daf‘atan chayqalib ketadi-yu undan soch-soqoli o‘siq, yoshini bilib bo‘lmaydigan bir qariya bosh ko‘taradi. U ko‘kragida yotgan qalpoqni hafsalasizgina boshiga qo‘ndirib, tevarak-atrofga vazmin alanglab nazar soladi.

Orol bobomiz mana shu kishi.

Orol bobo (tashvishmand g‘udranib). Qum, qum... yer-u osmon qum-a, tavba! (Tikila-tikila, birdan yuzi yorishadi.) Yo‘-o‘q, suv bu, suv! Qara, oftobda shishaday yalt-yult qilyapti jonivor!.. Orol qaytib kelibdi! Orolim! Bir kechada suvga to‘libdi, yashasin, dod! Ana — mavjlari! Ana — to‘lqinlar! Vah, qayiqlar ham suzib yuribdi!.. (U huvillab qolgan ovul tomlaridagi uzoq-yaqin qayiqchlarni o‘zicha sanay ketadi.) Bir, ikki, uch... yetti, sakkiz, to‘qqiz... Iye, shoshma, suv nega buncha sarg‘ish? Ana, mavjlari ham, to‘lqinlar ham sap-sariq!.. Ha-a, bo‘ldi, bo‘ldi — loyqalangan. Loyqalanib-loyqalanib to‘ladi-da suv! Ammo... xuddiki qum deysan, qumning o‘zginasi-ya!.. Ko‘zingni yiribroq qa-

rasang-chi, kallavaram, qum bo'lmay nima u axir?! Orol suvga to'lganmish! Suvlari mavjlanib yotganmish! Sen yasagan qayiqlar suzib yurganmish!.. Har erta shu ahvol-a! Tushingni ana – qumga, qumliklarga ayt! He, esini yegan telba chol! Oroling seni tashlab ketganiga necha zamonlar bo'ldi-ku! Endi qaytmaydi u, ey nodon! Sen esa bir ovulda bir o'zing so'ppayib o'tiribsan. Qo'ni-qo'shni ovuldoshlaring allaqachon ko'ch-ko'ronini ko'targan, hovli-joylari boyo'g'liga makon bo'lib yotibdi, ana! Lekin – har birining tomida bittadan qayiq. Sen yasagan qayiqlar, shogirdlaring yasagan qayiq. Suvga tashna, suvga ilhaq. Suzadigan suv bo'lmasa, mavj-u to'lqinlar bo'lmasa, yasagan qayig'ing kimga kerak?! (Qariya ruhsiz, qayiqning ikki yonidan ushlab, eran-qaran joyidan qo'zg'aladi. Yotoq-qayiq uzra ajab bir qiyofada qad rostlab, osmonga boqadi.) Quyosh! Bugun ham chiqibdi. Har kuni chiqadi. Charchamaydi, erinmaydi. Qarimasmikan shu? Qariydi, qariydi. Qishga borib bu ham qariydi. Senga o'xshab qoladi – harsillab, qarashlari xira tortib... Ammo ko'klam kelganda tag'in charaqlab ketadi-da. Yasharib... SENCHI, sen ham qaytib yashararmikansan? Tavba de, tavba de! O'zingni quyoshga teng ko'rding-a, manglayi qora! Yoshlik chog'laring, Orol bo'ylarida Oykumushning belidan quchganlaring yodingdan chiqibdi-da, noshukur?! Ha-a, esingni tanib, ko'rgan-bilganing – Orol bo'ldi. Ko'm-ko'k mavjlararo otang qayiqda eshkak eshib borayotir, sen uning qo'ynida... Shundan oting «Orolbola» bo'lib ketdi. Keyin-keyin – Orolboy, endilikda – Orol bobo. O'zingning oting-chi, o'zingning chin oting nima edi? E, kimning esida bor deysiz! «Orol» bo'lsa kerak-da... Ishqilib, yoshingni yashading, oshingni oshading endi, birodar... Uff! Nechaga kirdim o'zi? Xuddi ming yildan buyon borman-u yana ming yil o'lmaydigan-dekman-a! Yo'-o'q, Orolboy, hozirlikni ko'ravering, bugun bo'lmasa, ertaga... Yoshligingiz ham, umringiz ham Orol bilan ketgan, qaytmaydi endi u! Uff!.. (Qariya engashib, qayiq ichida qarmoqqa ilashib yotgan kattakon baliqni dumidan ko'taradi, u yon-bu yon aylantirib qaraydi.) Yirikkina! Xudoyim bu kecha ham siylabdi. Qulluq, qulluq!

Qariya bir qo'lida qalpog'i, bir qo'lida baliqni osiltirib tom qirg'og'iga keladi va avaylabgina qayiq-narvondan hovli-



ga tushadi. Yonboshdagi o‘choq taraf yurib, baliqni qozonga soladi-da, ustunga ilig‘liq sochig‘ini yelkasiga tashlab uy orqasiga o‘tib ketadi.

## 2

Duradgorlik dastgohining bir chetida tushlik dasturxon: non bo‘laklari, uch-to‘rt dona oqqand, qora qumg‘onda choy. Orol boboning shogirdlari – o‘spirin yigitlar Jumaboy, Tilovbergan, Genjamurod – birovi dastgoh qirrasiga suyanib non kavshamoqda, birovi yerga cho‘nqayib sopol kosadan xo‘rillatib choy ichayotir, kalta-kulta taxtadan qo‘lbola kursi yasab olgan, yana biri bekorchilikdan hushtak chalib o‘tiribdi. Yagona buklama brezent o‘rindiqla Orol boboning o‘zi, ensasini qashlab o‘y suradi.

Orol bobo (hushtakchi Genjamurodga). Ha, shaytonni chaqiryapsanmi?

Genjamurod (anqayib). Shaytonni? Nega?..

Orol bobo. Hushtak chalish – shaytonni chaqirish bilan barobar. Shunday gap bor, eshitmaganmisan?

Genjamurod. Hamma chaladi-ku hushtakni...

Orol bobo. Bilib-bilmay chalsa kerak-da. Senga o‘xshab.

Jumaboy (iljayib). Ovulingizda shayton qoptimi, Orol bobo, hammasi har yoqqa to‘zib ketgan-ku!

Orol bobo. Shayton degani hamma joyda bor, hamma joydan topiladi. Odamzodning ichida bo‘ladi-da u. Sezdirmaygina kirib, in qurib oladi...

Tilovbergan. Bizning-chi, bizning ham ichimizda bormi?

Orol bobo (miyig‘ida kulimsirab). Qaydam deysan... Ichida borini har kim o‘zi biladi.

Genjamurod. Masalan, mening ichimda shayton-payton... hech narsa yo‘q.

Tilovbergan (qiqirlab). Shuning uchun hushtak chalib uni chaqirayotgandirsan-da. A, bobo?

Orol bobo. Sizlarda shayton nima qilsin, bolam! Badniyat ko‘ngilda bo‘ladi u. Sizlarning dillaring oqchorloqning to‘shidek beg‘ubor! Yo‘qsa, menga o‘xshagan bir devona-

ga qo‘shilib, bekordan-bekor qayiq yasab o‘tirarmidilaring!.. Hatto qo‘l chaygali bir ko‘lmak topilmasa, Orolimiz huv olislarga ketib qolgan bo‘lsa...

Tilovbergan. Bir kuni qaytib keladi, deysiz-ku o‘zingiz doim?

Orol bobo (jonlanib, komil ishonch bilan). Albatta qaytadi! Men ko‘rolmasam, sizlar ko‘rasizlar o‘sha kunni, xudo xohlasa! Bu yasagan qayiqlaring nima uchun axir!..

Jumaboy (tamshanib). Baliq yeb bunaqa totlisini ko‘rmaganman, rosti!

Orol bobo. Ha-a, baliqdan baliqni ajrata bilasan, sen bola! Qulboy qarmoqning nevarasisan-da, iliging baliq moyiga to‘la. O‘sha bobong men yasagan qayiqlarni minib ovlagan...

Jumaboy. Eshitganman. Otam aytgan. Lekin siz har kuni bunaqasini qayoqdan olasiz-a, Orol bobo?

Orol bobo (ajab bir ixlos-u qanoat bilan). Xudo beradi, bolam, xudo!

Tilovbergan (ajablanib). Xudo?! O‘z-o‘zidan beraveradimi, bekordan-bekor?.. Bu qum sahroda qayoqdan toparkan u?

Orol bobo. Ollohimning karomati beaded, o‘g‘lim! Kerak bo‘lsa, mana shu qumingni zarga aylantiradi. Kerak bo‘lsa...

Tilovbergan. Nimaga bo‘lmasa Orolni to‘ldirmayapti?

Genjamurod. Ha, nega quritib qo‘ydi uni?

Orol bobo. Tavba deb gapiringlar, bolalarim. Xudo emas, sen bilan menga o‘xshaganlar boshiga yetdi Orolning. (Shogirdlarining savolchan nazariga javoban.) G‘azabini qo‘zg‘adik-da. Hali aytdim-ku, shayton oraladi ichimizga, vasvasa soldi. Ana shuni quvsang, ana shundan xalos bo‘lsang, bir kun qarabsanki, Oroling suvga limmo-lim to‘lib turibdi-da! (Bir lahza tin olib.) Qani, yigitlar, qo‘zg‘aldik! Bekorchidan xudo bezor... Omin, Orolimiz suvga to‘lsin, suvlari baliqqa to‘lsin, Ollohi akbar! (Qariya yuziga fotiha tortib, kaftini tizzalariga tiragancha, inqillay-sinqillay o‘rnidan turadi.) Men peshinimni o‘qib olay, sizlar... Tilov, sen bola bo‘yog‘ingni oxiriga yetkaz, xo‘pmi? Sen, Jumaboy, anovi o‘lchab qo‘yilgan taxtalarni arralab turasan. Genja qarashar... (Tashvishmand alanglab.)



Amet... Ametimizdan bugun ham darak yo'g'-a? Nima bo'ldi ekan? Keyingi vaqtda mashqi pastroq ko'rinadi o'zi shu bolaning...

Jumaboy. Kim bilsin, har erta orqalaringdan yetib boraman, deydi-yu, keyin esa...

Xuddi shu choq chetan eshik ochilib, sheriklaridan tikroq, dadilroq yigit – Ametning o'zi ko'rinadi.

Orol bobo (chehrasi yorishib). Xizrni yo'qlasak bo'lar-kan... Kel, Ametboy, tinchlikmi?

Amet (xomushroq). Assalomu alaykum. Uyda yumush ko'payib ketdi, oqsoqol...

Orol bobo. Mayli, bularingga bosh-qosh bo'lib tur-chi, gplasharmiz.

Genjamurod. Buningizning ichiga hali siz aytgan shayton kirib olgan bo'lmasin tag'in, Orol bobo!

Orol bobo (unga o'qraygandek). Tilingni tiy, bola! Alhazar!

Chol o'choq og'zida turgan sopol oftobasini olib, uyning panasiga g'oyib bo'ladi. Shogirdlar topshirilgan yumushlarga unnab ketishadi. Tilovbergan bo'yoq chelagini ko'tarib, chetanga suyab qo'yilgan qayiqalar tomon yuradi. Jumaboy bilan Genjamurod bir chetga uyilgan taxtalarni saralamoqqa kirishadi. Birgina Amet hovli o'rtasida bekor qaqqayib turibdi. O'ychan, allanechuk taraddudda.

Genjamurod (o'girilib). Ha, shayton, sen-chi?..

Amet (unga beparvo). Bu yoqqa kelinglar-da. Gap bor!

U bolalarni girdiga yig'ib, qo'lida uzun bir kaltak, yerga aji-buji shakllar chizgan bo'lib allanimalarni uqtira boshlaydi...

Jumaboy (axiyri jig'ibiyron bo'lib). Kallang joyidami, Amet, shuncha shishani qayoqdan olasan axir?!

Genjamurod. Xomxayol, xomxayol! Uch kun uyda o'tirib, topib kelgan gapini qara buning! Nima, shisha zovuting bormidiki... Egri jiydaning tagidan o'tmaganmisan, mabodo?

Amet. Ana – ovulni shisha bosib yotibdi! Hech kimga keragi yo'q, egasiz! Asta ko'chirib olaverasan-da...

Jumaboy. Xo'p, ko'ndik, sen aytganday bo'laqolsin, mayli. Lekin bu bepoyon sahroni bir ovulginadan chiqqan shisha bilan qanday to'ldirasan, shunisidan gapir!



Amet. Sidirg'asiga shisha to'shab chiqish shart emas, oshna, tushunsang-chi. Har-har joyga tashlab ketilsa kifoya, ko'zni qamashtirib, suvday yaltirab yotaveradi. Keyin, chor tarafni shishaga to'ldirasan deyyatog'anim yo'q-ku, axir. Faqat Orol tomoni bo'lsa bas...

Genjamurod. Umuman, shu masxarabozchilik kimga kerak o'zi?! Sho'rlik cholni aldab, laqillatganday bo'lib...

Amet. Hech kim uni aldamoqchi, laqillatmoqchi emas, jo'ra, o'ylab so'zla! Ko'ngil ovlash deydilar buni, bilsang! Mana, senu menga shuncha hunar o'rgatdi, ustozimiz, ko'rib ko'zi bir quvnasin, armonda ketmasin degan niyatda edim-da, xolos...

Jumaboy. Bilamiz, bilamiz, cholning senga mehri bo'lakcha, shogirdlarining zo'risan. Lekin erta-indin o'zing huv bir yoqlarga chog'lanib turibsan-ku, bu yog'i necha puldan tushdi?..

Amet. Men hech qayoqqa bormayman! (Keyin sal bo'shashganroq ko'yda.) Ketar bo'lsam ham... Mayli, senlar qo'shilmasang qo'shilma, shu ishni bir o'zim bajarmasam, nomard sananglar meni!

Genjamurod. Katta ketmang, katta ketmang, Amet-boy! Yolg'iz o'zingiz...

Amet. Ana ko'rasizlar! Men sizlarni oshna, og'ayni deb yursam!..

Orol bobo (namozini tugatib qaytgan, hovli boshida to'xtab). Yigitlar deyman... mana, Ametboyimiz kelib, saf-laring to'ldi. Qo'sh-qo'sh bo'lib anovi ikki qayiqni tomga qo'ndirib kelsalaring-chi, a?

Jumaboy. To'g'ri, to'g'ri. Qurib yotganiga necha kun bo'ldi!

Orol bobo. Shunday qilinglar, chirog'larim.

Xuddi shu farmoyishni kutib turgandek, aslida xufya maslahatlari chala qolganidan norozi shogirdlar darhol qanot chiqarib, chetanga suyab qo'yilgan tayyor qayiqlar sari yurishadi.

Jumaboy (cholga o'girilib). Kimnikiga eltamiz, bobo?

Orol bobo (o'ylangan bo'lib). Qizg'ishini-i...

Jumaboy (yalingannamo). Pirnazar eshkakning tomiga qo'yaylik shuni...





Orol bobo (shahodat barmog'ini tahdidli o'qtab). Pir-nazar — tog'a qavming-da, a? Qay go'rga ko'ch ko'targan o'zi shu?

Jumaboy (hamon ilinj bilan). Nukusga. Baland uylarga. Katta o'g'li o'sha yoqda-ku, amaldor!

Orol bobo (cho'rt kesib). Yo'q! Eshkakka xiyonat qilib juftak rostlaganga qayiq yo'q! Buni Najim muallimning tomiga o'rnatasan. Uqdingmi?

Tilovbergan. Qorasini-chi, qorasini? O'zim bo'yaganman... To'qliboy polvonnikiga olib boraylik? Xiyonat qilmagan u!

Orol bobo. Ota-bobosining ovulini tashlab salqin tomonlarga qochgan bachchag'arni aytasanmi? Hah, mug'om-bir! Otaginangning oshnasi edi-da u, shundaymi?

Tilovbergan. Bir serkaning ustidan otam u bilan rosa urushganlar, o'zim ko'rganman!

Orol bobo. Qo'y, qo'y... Biri u yoqqa tortadi, biri bu yoqqa... He, g'irromlar! G'irrom ustaning qo'lidan chiqqan qayiqqa suv kiradi, bilib qo'yinglar!

Tilovbergan (norozilangan kabi). Suv deysiz, suvning o'zi qani?!

Orol bobo (yer ostidan unga o'tkir tikilib). Suv — bo'ladi! Suv — keladi!.. Kelmaydigan bo'lsa nega qayiq yasab o'tiribsan, xo'sh? Ol, ko'tar! Eltib buni huv ovuldan chiqaverishdagi Jang'il momoning kulbasiga tiklab kelasanlar. Gap shu!

Genjamurod. Jang'il momo deysizmi? Uning o'lib ketganiga ming yil bo'ldi-ku!..

Orol bobo (shashtidan qaytmay). Yana ming yil bo'lsin! Jannati kampir edi. Boyoqishning choli Orolga cho'kib ketgan... Ming yil emish! O'zlari nechaga kirdilar, yigit?

Jumaboy (yer suzib). Bu yil o'n to'qqizga to'laman.

Orol bobo. Barakalla, o'n to'qqizga to'ladigan azamatning gapini qarang! Bo'! Narigi boshidan ol-chi, qani!

Genjamurod (Jumaboy bilan sheriklashib qayiqni yelkasiga qo'ndirarkan). Ovulingizning tomlari qayiqmazor bo'lib ketdi-ku, Orol bobo!

Orol bobo (nogahon qahrdan bo'kirib). O'v-o'v! Men senlarga necha bor aytdim, manglayi qora! Qo'ltig'ingga ol

axir, qo‘ltig‘ingga! Nima bu, Orol bobongning tobutimidiki bo-shingga qo‘yib olding?! Shayton uribdi senlarni, shayton! He!..

Shogirdlar qayiqni apil-tapil qo‘ltiqlab olishadi-da, chetan eshik sari yurishadi. Hovli o‘rtasida Orol bobo yolg‘iz. Titrab turibdi.

Orol bobo. Nima jin urdi-ya bularni, tavba! (So‘ng ohista yerga cho‘kib.) To‘g‘ri-da axir, sen qariyaga-ku xudoyim g‘oyibdan rizq yetkazib turibdi, buginalar nima qiladi ertaga? Nima yeb, nima ichadi? He, xudbin, noinsol chol!

### 3

Kechki payt. Hovli kimsasiz.

Ota-o‘g‘il – qo‘lida «diplomat» portfel, bashang kiyingan Qalimbet, uning ortidan kundalik engil-boshda Orol bobo kirib keladi.

Orol bobo (qo‘l siltab). Qo‘y, Qalimbet, qarigan chog‘imda sarson qilib yurma odamni. O‘z uyim – o‘lan to‘shagim debdilar...

Qalimbet (o‘zini eshitmaganga solib). Hamma jihozi muhayyo! Mehmonxona-yu oshxonalarini ko‘rdingiz... Bir boshga yana nima kerak, to‘g‘rimi? («Diplomat»ini dastgoh ustiga tashlab.) Kichikroq bo‘lsayam obodgina hovli. Yozlarda karavotni qo‘yib olib...

Orol bobo. Kimniki o‘zi u?

Qalimbet. Sizniki-da, ota, sizniki! Sizga deb olindi.

Orol bobo (hang-mang). Meniki?! Sotib oldingmi? Kimdan, qanchaga?

Qalimbet. Uzunini yeng-u, bog‘ini so‘ramang. Hukumat bobo qurgan uni! Puli to‘lansa bas, qurib beraveradi. Qarigan chog‘ingizda bir suyuntiraylik dedik-da sizni. O‘tiring bunday, o‘tiring... (U mehribonlik bilan kiftidan tutib otasini hovli o‘rtasidagi buklama o‘rindiqa o‘tqizadi, o‘zi shunga yondosh qo‘lbola kursidan joy oladi.) Yurasizmi endi bu cho‘lu biyobonda! El-ulus bizni ayb qilyapti-ku, shundoq o‘g‘il-qizlari shaharlarda davron surib yuribdi-yu, otalari huv bir ovloqda qarovsiz qolib ketgan, deb...

Orol bobo (hasratomuz). Cho‘l-u yobon deysan... Onang mana shu yerda yotibdi, bobo-momolaring shu yer-

da... Ularni tashlab men qayoqqa ketardim, o'g'lim, o'ylab gapiryapsanmi? Onangning mozorini ziyorat qilmagan kunim dunyo ko'zimga qorong'i... Bu yoqda qayiqlarim, Orol...

Qalimbet. Eski ashula! Orol, Orol! O'zingiz bilasiz-ku, ota, u endi hech qachon o'zaniga qaytmaydi, to'lmaydi. Qayiqlaringiz ham birovga keraksiz...

Orol bobo (shasht bilan bosh ko'tarib, jo'shib). Nima?! Qaytmaydi, to'lmaydi... Siz qayoqdan bilibsiz, xudomisiz?! Ha, to'lmaydi! To'ldirolmaysan uni! Hech biring! Olim-u ulamong ham, boshqang ham! Chunki baring foydani ko'zlaysan! Orol g'irrom emas, senlar g'irrom, ha! Xudo senlarga insof bergan kuni u o'z-o'zidan suvga to'ladi! Xudoyim to'ldiradi uni, bilib qo'y! (Og'ir xo'rsinib.) O'sha kunni ko'rib o'lsam armonim qolmasdi...

Qalimbet. Mayli, mayli, otajon, qattiqroq ketibman, tavba qildim. Lekin gapning bori ham shu-da, axir. Odam ertasini o'ylab ish tutgani yaxshi. Xudo ko'rsatmasin-u, ertaga bir kun... Biz sharmanda bo'lib qolmaylik deyman-da.

Orol bobo. Gap bu yoqda degin? Sharmanda bo'lmaysan, qo'rqma... (Bir zum o'yg'a tolib.) Mana, o'zing boshlading, o'g'lim. Mabodo bir kun ajalim yetib, suv kelganini ko'rmas ketar bo'lsam, aytib qo'yay, jasadimni qayiqqa solib, Orolga eltib tashlaysan! Mayli, baliqlarga yem bo'lay! Mayli...

Qalimbet (sapchib tushgudek). Iye-ye, ota, bu nima deganingiz?! Axir, musulmonchiligimiz qayoqda qoladi unda?

Orol bobo (boyagi shashtidan tushmay, birmuncha muloyim, ammo qat'iy yo'sinda). Bir musulmon bo'lsa menchalik bo'lar, Qalimbet! O'g'limmisan, mana shu aytganimni bajarasan, gap tamom! Vasiyat bu, xudoyim ham kechirar...

Qalimbet (yasama bir ko'tarinkilik bilan). E, otaboy, qo'ying halitdan shu sovuq gaplarni! Siz hali ko'p yashaysiz, ko'p! Yangi uylarda davron qilib, a!.. Qalay, ma'qul keldimi o'zi sizga?

Orol bobo (bo'shashibroq, sovuqqina). Yaxshi, yaxshi... Lekin... (Qo'l siltab.) Hay, o'zingdan gapir. Ishlar jilyaptimi axir?

Qalimbet (jiddiy tortib). Ishlarim yomonmas, ota. Yomonmas-u, shu keyingi vaqtda unchalik yaxshiyam emas.



Orqaga ketgandayroq. Bir xizrsifat odam maslahat berib qoldi deng. Borib otangizning ko'nglini obdon ovlab, duosini olib kelsangiz, bari yurishib ketadi, deydi...

Orol bobo. Shunday dedimi o'sha xizrsifating? Bo'pti, mana, duosi bizdan: iloyim, ishlaring birdan yurishib ketsin! (U yuziga fотиha tortib qo'yadi.) Shunga keldim de?

Qalimbet (norozilanib). Bunaqa duo emas-da, ota!

Orol bobo. Qanaqasidan bo'lsin, ayt?.. Qulog'ingga quyib olgin, bola: chinakam g'ayrat bilan, toza ko'ngil bilan qilingan ish hyech qachon orqaga ketmaydi — duosi o'zi bilan bo'ladi uning!

Bir damlik sukut.

Qalimbet. Ha, aytganday, eshitdingizmi — Gulxadi-chamiz deputat bo'lmoqchi!

Orol bobo. Deputat? Qanday deputat?

Qalimbet. Jo'qorg'i Kengesga!

Orol bobo. Uniyam duo qilib qo'yish kerakmi? Nima deb? Jo'qorg'i Kengesga o'tsin debmi, undan narigami?..

Qalimbet. O'zimizdan chiqqani yaxshi-da, ota. Foydasi tegib turadi: sizga ham, menga ham, o'ziga ham...

Orol bobo. Menga?! Nima, Orolni to'ldirib beradimi?

Qalimbet. To'ldirib berar... (kulib) gap bilan! Qizingiz mahmadona-ku, shuning uchun saylanyapti-da.

Orol bobo. Navzanbilloh, navzanbilloh... (Daf'atan yumshab.) Qo'zi-qo'chqorlaring yaxshi yuribdimi? Bir olib ham kelmaysan, nevaralarimni ko'rmaganimga necha zamon bo'ldi...

Qalimbet. Hozir, hozir... (U shosha-pisha turib, dastgoh ustida yotgan «diplomat»idan allanarsa — planshetini oladi-da, tugmachalarini bosa-bosa otasining boshiga keladi.) Mana, ko'ring... Qani, toping-chi, manavi kim?

Orol bobo (sinchiklab-suqlanib). Kamolingmi? Voy-bo'-o', arslondek bo'lib ketibdi-ku! (Yuzini chetga olib.) Tuf-tuf, yomon ko'zlardan asragaysan iloyim! (So'ng jur'atsizgina engashib, planshetga lab tegizib qo'yadi — o'pgan bo'ladi.) Shuginani qavatimga qo'yib ketmading-da, Qalimbet. To'ng'ich nevara — bobosiniki degan udumlar bo'lgich edi...

Qalimbet. Nima, ovulma-ovul tezak terib yursinmidi!..



Orol bobo (orzumandona). Qayiqsoz qilardim. Zo‘r qayiqsoz usta!

Qalimbet (eshitmaganga olib). Bunisini taniyapsizmi? Kim?.. (Chol tikila-tikila topolmagach.) Gulzira-ku, Gulzira! Yaxshilab qarang...

Orol bobo. Qiz maxluqning shaytoni bo‘larmish, qu-log‘idan tortib o‘stiraverarmish... Cho‘zilib qolibdi qizing. Omon bo‘lsin, omon bo‘lsin.

Qalimbet. Mana bunisi-chi?..

Orol bobo (qaray-qaray, bo‘yniga oladi). Buningni taniyolmadim, rosti. Ko‘rmagan ekanman. Kenjatoying bo‘lsa kerag-a?

Qalimbet. Ha, oti ham Kenjabek.

Orol bobo. Umrini bersin iloyim.

Qalimbet. Keling, endi dunyoga sayohat qilamiz! (U «mo‘jiza»sining tugmachalarini bir-bir bosib, izoh bera boshlaydi.) Mana bu yer Arabiston, Saudiya Arabistonini... Ka‘bamiz shu yerda, qarang... Bunisi – Hindiston, bunisi – Pokiston... Mana – O‘zbekistonimiz! Orolni toping-chi, qani, ko‘raylik... (Chol hadeb tikilavergach.) Mana, mana!

Orol bobo (hafsalasi pir bo‘lib). Shuginami? Orol shumi? E-e, ko‘tar! (U qo‘lining orqasi bilan planshetni nari suradi.)

Qalimbet (kulib). Shugina!.. Sizga qolsa, butun dunyo Oroidan iborat bo‘lsin-da, a? O‘-o‘rtasida bitta qayiq – yakka, tanho qayiq, unda – siz...

Orol bobo (kufri qo‘zib). Tur, jo‘na, uy-puying kerak emas menga!

Qalimbet mulzam o‘tira-o‘tira, dastgoh ustidan «diplommat»ini yulqib olib planshetni joylaydiyu otasi tomon bir o‘qrayib, hovlini tark etadi.

#### 4

Orol boboning hovlisi. Qulog‘iga qalam qistirgan, bo‘ynida metr o‘lchagich tasma – qariya dastgoh qoshida taxta chamalash bilan mashg‘ul. Dastgohning narigi boshida eski tranzistor g‘o‘ng‘illab turibdi. Tashqaridan otning kishnagani,

tepingani eshitaladi. Hayal o'tmay chetan eshikni g'iyqillatib, qo'lida bejama qamchi, g'o'ddayganroq bir kishi – Ametning otasi O'tagan maxsum kiradi.

O'tagan. Hormang, oqsoqol, hormang! Assalomu alaykum.

Orol bobo (taniyolmagan kabi kaftini peshonasiga soyabon qilib). O'taganboyga o'xshaydimi? Keling, keling, inim.

Qo'shqo'llashib ko'rishadilar. Orol bobo xos o'rindig'idan, O'tagan maxsum qo'lbola kursidan joy oladi.

Qani, baxayr?

O'tagan. Sizni bi-ir ziyorat etaylik deb...

Orol bobo. Xush kelibsiz, hoji maxsum, xush kelibsiz!

O'tagan (og'ringannamo). Kulyapsiz-da, boboy?

Orol bobo. Kulganim yo'q, kulganim yo'q. Ilgari kim-san – mulla Gulboyning o'g'li, O'tagan maxsum edingiz. Qayta-qayta haj qilib, mana, hoji bo'ldingiz. «Ham hoji, ham maxsumman» deb el-ulusga yoygan o'zingiz-ku, biz nima deylik?!

O'tagan. Mayli, mayli... (Har yonga alanglab.) Hammayoqni qayiq qilib yuboribsiz-ku! Zo'r, zo'r.

Orol bobo. Bu o'ramlarga qo'lingiz tushmaganiga ko'p bo'ldimi deyman, maxsum, ko'rmagan ekansiz-da? Ota-bobomizdan qolgan hunar, qo'limizdan boshqa ish kelmasa...

O'tagan. Bekorchi hunar deng... Zo'r, zo'r. Shogirdlar ko'rinmaydi?

Orol bobo. Bir yumushga jo'natuvdim, hozir kepqo'lishadi. (Chetan devordagi bo'yog'i chala qayiqni ko'rsatib.) Huv anovinisini o'g'lingiz, Ametboy yasagan. Qarang, qandoq bejirim! Mullazodalardan ham usta chiqarkan, duppa-durust qayiqsoz bo'lib qoldi bola!

O'tagan (ensasini ermakka qashlab). O'shanga keluvdim, oqsoqol. Men uni Leningradga yubormoqchiman. Akasining oldiga. To'g'ri-da, qachongacha tezak bosib, laylak haydab yuradi bu yerda!

Orol bobo (o'zicha maroqlanib). Laylak haydab deysizmi? Laylak qoptimi, inim! Laylagu g'ozigacha qirilib bitgan...

O'tagan. Boyo'g'lining makoni deng! Bosh boyo'g'li – o'zlari...



Orol bobo (hazilga burib). Yumronqoziqdan kelsangiz-chi, maxsum!

O'tagan (battar achitmoqchidek). Shuni aytaman-da, yumronqozig'-u bitta siz qolgansiz bu biyobonda!

Orol bobo (murosa yo'liga). Nasiba-da, maxsum, peshonaga yozilgani shu ekan... Leningradga jo'nataman, dedingizmi? Nima qiladi u yerda Amet?

O'tagan. Bu yerda nima qiladi?

Orol bobo. Bu yerda... (hovliga alanglab) mana, qayiq yasaydi!

O'tagan. Yasagan qayig'i kimning dardiga shifo, oqsoqol?! O'sha yoqlarga borsin, tayinli bir ishning boshini tutsin, pul topsin deyman-da!

Orol bobo (dami ichiga tushib). Tayinli ish... Nima ish ekan, nimaga yubormoqchisiz uni?

O'tagan. Salat kesishga.

Orol bobo (rostdan ham tushunmay). Sallat? Nima degani u? Nega kesadi?

O'tagan. Sala-at... Shu, o't-po't-da. Ko'kat deymiz-ku...

Orol bobo (lol qolib). Shoshmang, Amet kelib-kelib o't kesadimi? Ametimiz-a?! Qayiq yasaydi-ku u, qayiqsoz usta!

O'tagan. Qayig'ingizni yeb bo'lmasa! Salatni esa (u barmog'ini dastgoh qirrasiga urib-urib) to'g'rab-to'g'rab, maza qilib tushiriladi.

Orol bobo. Shuginani o'zlari to'g'rab yesa bo'lmasmikan, maxsum, nimasi qiyin?

O'tagan (qo'lidagi qamchini tizzasiga urib). Bo'lmaydi, oqsoqol, bo'lmaydi. U yoqlarda birov kesib beradi, birov yeydi. Restoran deganini aytyapman-da.

Orol bobo. Keyin shuni kesgani uchun pul ham oladi?

O'tagan. Xuddi shunday! Qayiq yasagani uchun esa shamataloq ham olmaydi!..

Orol bobo (ma'yus tortib). Navzanbilloh, navzanbilloh...

O'tagan. Qaytaga, uy-uyidan ul-bul ko'tarib kelib sizni boqadi, shundaymi?

Orol bobo. Unaqa minnatni qo'ying, maxsum. Men shogirdlarim olib kelgan nonning ushug'iga ham sheriklik qilmayman...

O'tagan. O'zim yasagan qayiq'larni g'ajib-g'ajib kun ko'ryapman desangiz-chi!.. Qo'ying-e, oqsoqol!

Orol bobo. Iya, nega? Xudo bergan rizqim bor, inim! Men baliq go'shti yeyman, bilsangiz!

O'tagan. Opqoching-a, opqoching! Tush-push ko'ryapsizmi deyman. Shu dasht-u biyobonda baliqni kim berarkan sizga?!

Orol bobo (qo'llarini baravar osmonga cho'zib). Xudo! Hoji bo'lmasak ham, maxsum bo'lmasak ham – beradi. Kuniga bittadan. Bizniki ana shunday, hoji maxsum, kunbayil!

Chetan eshik ochilib, orqama-ketin yigitlar ko'rinadi.

O'tagan maxsum qamchinini havoga sermab o'rnidan turadi-da, Amet tomon bostirib boradi.

O'tagan (unga qahrli o'qrayib). Sen bolaga nima degan edim?! Qani, oldingga tush-chi! Qaytib shu yerga qadam bossang!..

Orol bobo (qaltiray-qaltiray qo'zg'alib). Hay, hay! Shaytonga hay bering, maxsum!..

O'tagan (ijirg'anib). E-e, aljirama, tentak chol!

Amet avval Orol boboga, so'ng sheriklariga o'kinchli bir nazar tashlaydi-da, sekin burilib otasining izidan chiqadi. Ammo shu zahoti qaytib kiradi. O'rtoqlari bilan bir-bir quchoqlashib xo'shlasha boshlaydi.

Jumaboy (ta'na aralash ming'irlab). E qo'y-e, Amet, bo'lmading, oshna!

Amet ko'cha tarafga imo qilib, g'amgin yelka qisadi: nachora, otam!..

Genjamurod (achitib). Anuv ishni boshlab qo'yib, endi qochish ekan-da, a?

Amet (chol tomon xavotirli nigoh tashlab olib, pichir-laydi). U yog'ini o'z'laring...

Jumaboy. Ketaver, ketaver, bir hisobi bo'lar.

Tilovbergan (chapanichasiga qo'l tashlashib). Yaxshi bor, do'st!

Amet gunohkorona bosh egib, xos o'rindig'ida xomush qotgan Orol boboning qoshiga keladi. Chol uni bo'ynidan quchib, bir muddat so'zsiz qoladi. Ta'sirli holat!

Orol bobo (nihoyat tilga kirib). U yoqlarda faqat o't kesish bilan bo'lib yuraverma, bola. Yaxshi-yomonni ko'r, bil, xo'pmi? (So'ng birdan o'pkasi to'lib, ko'zlari yoshlan-





gandek.) Bizlarni unutsang unut, Orolni esdan chiqarma, Orolimizni!..

Tashqaridan O'tagan maxsumning dag'dag'ali ovozi eshiti-tiladi: «Ame-et!..»

Amet tag'in barchaga bir-bir xomush bosh silkib chiqadi-da, shalvirabgina chetan eshik tomon yuradi. Orol bobo o'rindig'iga cho'kkancha mung'ayib qolgan. Yigitlar ham parishonhol serrayib turibdi. Tashqarida otning kishnashi, tepingani, qamchi tovushi...

Orol bobo (hasratomuz). Borib-borib huv do'zaxiy pirga o'xshab bir o'zim sho'ppayib qolmasam deng...

Shogirdlar tushunmay unga anqayib qaraydi.

Orol bobo (rivoyatga kirishib). Parning qirq muridi bor ekan. Sizlarga o'xshagan shogirdi. Qirq yil ichida kamaya-kamaya, oxiri shulardan bittaginasini qolibdi. Ameting misoli birin-sirin tashlab ketgan-da. Pir o'sha qolgan murididan so'rabdi: «Bularing nega bunday qildi ekan?» Murid chaynala-chaynala aytibdi: «Ular sizning ta'limingiz bilan Mangu kitobni o'qiydigan maqomga yetdi. U kitobda esa...» «Gapir-gapir», deb qistabdi pir. «U kitob sizni do'zaxiy deb yozgan ekan, ustoz...» «Bilaman, — debdi pir. — Haqrost, shunday yozilgan. Ammo men jannatdan ham ulug'rog'ini ko'zlaganman-da... Ular-ku jannat ilinjida ketibdi, xo'sh, sen nega qolding?» «Chunki o'sha kitobni o'qishni sizdan o'rganganman-da, pirim», debdi murid. Qarang, qanday oqibatli ekan-a shogirdi!..

Yigitlar rivoyatdan ta'sirlangandek o'yladi.

Genjamurod. Bobo-o, jannatdan ham zo'r deyapsiz, qanaqa joy u?

Orol bobo. Bor, o'g'lim, shunday joy bor. Haq, haqning dargohi deydilar uni. Bandasi umidvor-da. Mana, bobong ham umid bilan yashayapti-ku!..

## Ikkinchi qism

### 5

O'sha hovli. Tun. Osmonda yulduzlar charaqlaydi, erinibgina oy suzadi. Shamolning bir maromda uvullashi; olislar-dan chiyabo'rilarning «hi-hi, hi-hi»lagan tovushi sado beradi.



Boshiga serbar oq qalpoq ilgan bir ko'lanka harsillay-harsillay kulba biqinidagi qayiq-narvonga tirmashib, tomga chiqib borayotir.

Orol bobomiz!

Tom ustiga chiqib olgach, u bir muddat nari-beri borib keladi. Osmonlarga qaraydi, oy-u yulduzlarni tomosha qilgan bo'ladi. So'ng asta kelib qayig'iga o'rnashib o'tiradi-da, tevarak-atrofni yana bir qur ko'zdan kechirgach, ikki yondagi eshkaklarni qo'lga oladi. Eshkak esha boshlaydi. Avvaliga sustroq, bir maromda, keyin esa navqiron bir g'ayrat bilan. Shamol uvullashi-yu chiyabo'rilarning «hi-hi»lashi nogahon suv shovqiniga — mavj-u to'lqinlar sasiga aylanib-qorishib ketadi. Shalop-shulup, shalop-shulup... Oy yog'dusida charx etayotgan dengiz qushlari — chag'ala-yu oqchorloqlarning suvga to'sh urib uchishlari, kumush qanotlari nimqorong'ilikda yalt-yult akslanib ko'zga chalinadi... Chol bir zamon eshkak eshishdan tinib, timirskilay-timirskilay qayiq ichidan uzun allanimani oladiyu uzoqni chamalab uni havoga — «suv»ga uloqtiradi. Shalop-shulup... «Baliqchi» kaftlarini quloqpana qilib pastga engashgan — nimadir sasni eshitmoqchi...

Sukunat, sukunat...

Bir payt qayiq chetida ko'ndalang yotgan egma xoda qimirlab ketib, shalop-shulup tovush chiqaradi. «Baliqchi» shosha-pisha xodani «suv»dan ko'taradi. Naqd tumshug'idan ilingan laqqa oy yorug'ida bilanglab turibdi!..

Orol bobo (uni zavq bilan aylantirib tomosha qilarkan, shodon). Berganingga shukr! Berganingga shukr, Tangrim!..

So'ngra u baliqni qarmoqdan uzib, qayiq ichiga tashlaydi. Ov ashyolariyu eshkaklarni joy-joyiga qo'yib saranjomlagach, qayiq bo'ylab ohista cho'ziladi.

Ko'ksi uzra tanish oq qalpoq!..

Orol bobo (horg'in, uyquli ovoz). Berganingga shukr, Egam! Berganingga shukr!..

Tun. Ko'kda yulduzlar charaqlaydi, erinibgina oy suzadi. Shamolning bir maromda uvullashi, olislarda och chiyabo'rilar sasi...

## 6

Hovli. Kunduz kuni. Uch shogird – Jumaboy, Tilovbergan va Genjamurod qayiq yasash yumushlari bilan band. O‘choq ustidagi yarmi kesilgan bochka idishdan qoramtir dud ko‘tariladi – mum eritilmoqda.

Shoshib-hovliqib Qalimbet kirib keladi. Odatdagidek, qo‘lida «diplomat».

Qalimbet (alang-jalang qilib). Otam qani?.. (Yigitlarga qarab.) Ho‘v ukalar! Qani, yuguringlar! Ovulning og‘ziginasida moshinamiz qumga botib qoldi, chiqarishvoringlar. Ha, barakalla!.. (Kulba eshigida bir uchi cho‘michsimon uzun kosov ko‘targan Orol boboni ko‘rgach.) «Jip» deng tag‘in! Shunday moshinaki botib qolganidan keyin ahvolni bilaver-da!

Orol bobo amriga mahtal shogirdlariga «mayli, borib qarashinglar» degandek ishora qiladi. Usti-boshini qoqa-qoqa, ular hovlidan chiqib ketishadi. Cholning o‘zi indamay o‘choqboshi tarafga yuradi.

Orol bobo (qo‘lidagi anjom bilan «qozon» kavlamoqqa tusharkan). Ke, Qalimbet, shovqin solib yuribsan?..

Qalimbet («diplomat»ini tizzasiga qo‘yib kursiga o‘rnasharkan, yasama xushnudlik bilan). Bir o‘ynab berasiz endi, otaboy, zo‘r syurprizimiz bor sizga! (Sinovchan sukutdan so‘ng, shirin qilib.) Bi-ir hajga borib kelsangiz-chi, a? Hamma bizni izza qilyapti-ku: shundoq puldor-u badavlat o‘g‘illari, qizlari bo‘laturib, otalarini hajga jo‘natmayapti, deb.

Orol bobo (ishidan chalg‘imay). Buniyam huv anovi xizrsifat maslahatgo‘ying aytgandir?

Qalimbet. Topdingiz, u ham shunday degan edi.

Orol bobo. Qulluq, qulluq. Lekin otang hech qayoqqa bormaydi, ovora bo‘lma.

Qalimbet. Iye, iye! Hajga ham-a? Hajdan bo‘yin tovlagan mo‘minni endi ko‘rishim! Ota, o‘ylab gapiryapsizmi o‘zi? Axir, haj muborak har bir musulmonga...

Orol bobo. Bilamiz, bilamiz – farz.

Qalimbet. Bilsangiz, nega bunday oyoq tirayapsiz? Ba‘zilar hatto ot minib, pul ko‘tarib chopib yursa-yu, siz bo‘lsangiz...

Chol qo‘lidagi kosovni «qozon» chetiga qo‘yib, o‘ringiga kelib joylashadi.

Orol bobo. Hajga qilgan-kechgan gunohlaridan tavba etmoqqa borilardi chog‘i, shundaymi axir?

Qalimbet. Iye, albatta, buning uchun ham...

Orol bobo. Unda otang qaysi gunohini yuvgali borsin, xo‘sh?

Qalimbet. E, e, Orol bobo, kufr ketgandaysiz, begunoh banda bor ekanmi bu dunyoda?!

Orol bobo. Shoshma, og‘zimga urmay tur... Yolg‘on gapirganimni yo birovga firib berib ish bitirganimni bilasanmi? (Qalimbet yelka qisadi.) Gapir, gapir, eshitganmisan hech?

Qalimbet. Yo‘q...

Orol bobo. Birovning haqiga xiyonat qilgan joyim bormi, ayt?

Qalimbet. Ota...

Orol bobo. Kimsaning moli yo jufti haloliga ko‘z olaytirganimni-chi? Quloq-pulog‘ingga chalingan chiqar?..

Qalimbet. E, ota, izzaga qo‘ymang-da odamni. Faqat shular uchungina haj qilinmas...

Orol bobo. Ha, nima uchun borilar ekan bo‘lmasa? Shunchaki sayr-u tomoshagami? Yo nomchiqarargami? To‘g‘ri, unaqalarini ham bilamiz. Ana — o‘zimizning O‘tagan maxsum. Yil sayin qatnaydi. Nima, avliyo bo‘lib qoptimi u? O‘sha-o‘sha, kelib tag‘in gunohga botgani botgan... Yo‘q, o‘g‘lim, haj ziyoratining shartlari, qonun-qoidalari bor. U yerga obdon hozirlik ko‘rib, riyozat-u mashaqqatlar chekib boriladi!

Qalimbet. Eski zamonlarning gapini qo‘ysangiz-chi, ota. Mashaqqat chekib nima foyda? Hozir tap-tayyor samolyot, oppa-osongina borib kelinaveradi. Bu ham Tangrining marhamati-da, axir!

Orol bobo. Qulluq, qulluq. Ammo... tavba qildim, tavba qildim, ko‘nglida bir toza niyat-u chin ixlosi bormi-yo‘qmi, duch kelgan odam haj ekan deb jo‘nayversa... Xuddi to‘yga otlanganday... Ziyorati qabul bo‘larmikan?.. Axir, bandasi poklanib, tozalanib bormaydimi unaqa joylarga?!

Qalimbet. Men ham shuni aytyapman-da, ota! Haligina o‘zingiz isbotlab berdingiz: birovga yomonlik qilmagansiz,

xiyonat qilmagansiz, ko‘z olaytirmagansiz... Siz bormay kim borsin hajga?!

Orol bobo (erib ketib). Rosti, bir-ikki daf‘a chog‘lanib ham ko‘rganman. Yurak dov bermadi-da: o‘zing kim bo‘psan-u, hajni orzu qilsang deganday. Biz-ku bir xashaki banda, haj ziyorati nasib etmagan ne-ne ulug‘ zotlar o‘tgan, o‘g‘lim! Lekin ichimdagi bir sirni senga aytsam: ba‘zan xud-diki borib kelganga o‘xshayman! Niyati bilan-da...

Qalimbet (jonlanib). Ana endi chinakamiga borib kela-siz, otaboy! Mana, hamma hujjatingiz tayyor! (U shosha-pi-sha «diplomat»ini ochib, bir dasta qog‘oz chiqaradi.) Mana...

Orol bobo (og‘zi ochilib). Iya, bir og‘iz so‘ramading-ku, Qalimbet, mensiz qanday qilib?..

Qalimbet. U yog‘i bilan ishingiz bo‘lmasin, otaboy. Biz kirishdikmi, bitmaydigan ish yo‘q!

Orol bobo. Baribir oldimdan bir o‘tishing kerak edi-da, axir...

Qalimbet. O‘tsam-o‘tmasam, endi masala hal! Azza-bazza bittasining o‘rniga gaplashganman-a!..

Orol bobo. Nima? Birovning o‘rniga?! (U balodan qochgan kabi, ikki qo‘li oldinda, tislaniib.) Yo‘q-yo‘q, bormayman! Minba‘d! Birovning o‘rnini tortib olib hajga jo‘nash!.. O‘ylab qildingmi shu ishni, Qalimbet? Gunoh-ku bu axir, gunohi azim!

Qalimbet (suv yuqtirmay). He, ko‘chadagi bittasi bor-gandan ko‘ra – siz, mening otam borgani yaxshi emasmi?!

Orol bobo (qat‘iy turib). Yo‘q dedimmi, yo‘q! Kim-ning o‘rnini olgan bo‘lsang, o‘shaning o‘ziga eltib topshi-rasan, gap tamom! Xudoyim o‘zi kechirar, otangning sig‘ina-digan ziyoratgoh-u ibodatgohi ham mana shu o‘zi tug‘ilib o‘sgan tashlandiq ovuli bugun qurib qolgan bo‘lsayam, um-rini bergani – Orol! Shundan o‘zga hech narsa kerak emas unga, bilib ol, bola!

Qalimbet. Orol, Orol... Hah, Orol otaginamdan! (U quvlik bilan yaltoqlanib cholning yelkasidan quchadi.) Ishni buzdigingiz-ku, boboy, endi nima qildig-a?..

Talay zamon mum tishlab qoladilar.

Bu orada chol o‘choqboshiga borib, olovini tortib keladi.

Orol bobo (kufridan tushgan; iltijoli ohangda). Qalimbet, huv birda ko'rsatgan matohingni menga tashlab ketsang-chi, a? Nevaralarimni sog'inganda tomosha qilib o'tirardim. Mayli, anovi uy ham, haj safari ham seniki, o'zingga siylov...

Qalimbet (mug'ombirona bosh chayqab). Yo'-o'q, bo-boy...

Orol bobo (qalpog'ini qo'lida g'ijimlab o'rnidan tura-di). Bo'pti, men ketdim unda.

Qalimbet. Iya, qayoqqa?

Orol bobo. Onangning oldiga, mozorga. Ertalab xabar ololmagan edim...

Qalimbet (bo'g'ilib). Mendan nima gunoh o'tdi, ota? Aybim – sizni hajga jo'natmoqchi bo'lganim-u yangi uy tortiq qilganimmi?!

Orol bobo. Beayb – parvardigor, mening ham bir gunohim bor bu dunyoda. Nimaligini aytaymi? Seni, sendaylarni dunyoga keltirganim!..

Qalimbet (alam-iztirob ila). Ota-a!..

Orol bobo qalpog'ini boshiga bosib, hovlidan chiqib ketadi.

Qalimbet (bir lahza sukutdan so'ng, ijirg'anib). Mi-yasi aynib qopti bu cholning... (U yonidan telefonchasini olib, qo'ng'iroq qila boshlaydi.) Gul, o'zingmisan? Hech gapga unamayapti-ku bu qaysaring. Shahar yaqinidan yap-yangi hovli olib berdim, mana, hajga to'g'rilab qog'ozlarini keltirib o'tiribman – qani, ko'nsa! O'zing bir yo'lini topmasang bo'lmaydi, singil. Senga mehri bo'lakcha, yaxshi ko'radi...

## 7

Oqshom. Orol bobo odatdagi o'rindig'ida; horg'in, behafsala ko'rinadi. Yonboshdagi qo'lbola kursida omonatgina bo'lib qizi Gulxadicha o'tiribdi; tizzasida sumkachasi, o'ta zamonaviy kiyingan.

Shogirdlar ish bilan mashg'ul. Ora-orada ota-bola tomon qarab qo'yishadi.



Orol bobo. Deputatlikka chogʻlanganmishsan, shu rostmi? Ering boshingda, bu yoqda jujuqlaring — nima keragi bor edi, qizim?

Gulxadicha. Ha, Joʻqorgʻi Kengesga. Boʻlasanchi boʻlasan deb qoʻyishmadi-da, ota... (Birdan tumshayib.) Lekin boshim qotib qolgan. Ustimdan yoza-yoz!

Orol bobo. Iya! Nima deb yozadi, kim?

Gulxadicha (koʻzlarini yoshlab). Oʻlgur raqiblarim-da, dushmanlarim!

Orol bobo. Senda dushman nima qilsin? Ajab gaplarni gapirasana!

Gulxadicha. Birga ot surib yurganlar dushman boʻlmay nima? Bari oʻzim deputat boʻlay, bu qolib ketsin deydi, yaramaslar!

Orol bobo. Qanday aybing bor ekan, xoʻsh?

Gulxadicha (barmoq uchi bilan qovoqlarini artib, arazlagan singari). E-e, sizni aytib yozadi-da!..

Orol bobo (yoqasini juftlab). Meni?! Men nima qipman ularga? Birortasini tanimasam, bilmasam...

Gulxadicha. «Tuqqan otasini bir goʻrlarga tashlab qoʻygan, qaramaydi, borib holidan xabar olmaydi! Shunday oqpadar inson deputat boʻlishi mumkinmi?» va hokazo. Ishqilib, oyogʻimdan chalsa, badnom qilsa boʻldi ularga!

Orol bobo (xijolatga tushib). Men hech kimga arz qilganim yoʻq-ku, jonim qizim... Senlardan biror narsa kerak emas, oʻz holiga qoʻysalaring... iya, tinchgina yursa kifoya otalaringga. Shunday-shunday gap deb, toʻgʻrisini tushuntirmaysanmi oʻshalarga?

Gulxadicha. Kimga tushuntiraman? Saylovchilargami? Xalqqami? Xalqingiz tushunmaydi baribir! Ishonmaydi-da...

Orol bobo. Shuginani tushuntirolmasang, shunga ishon-tirolmasang, deputat boʻlib nima qilasan, qizim?!

Gulxadicha. E-e, siz ham tushunmayapsiz, ota. Qoʻymayapti-da axir! Oʻzimga qolsa-ku, allaqachon tuf deb yuborardim. Bezorim chiqib boʻldi oʻzi!

Orol bobo (ajablanib). Kim qoʻymayapti, kim? Oʻsha saylovchilarmi?

Gulxadicha. Ular ham... Kuyovingiz, kuyovingiz! Bu yoqda ogʻam — Qalimbet. Bizneslariga yordam boʻlarmish...

Orol bobo. Obbo-o! Erkakman deb beliga kamar boylagan azamatlar bir zaifani oʻrtaga solib, shuning soyasida... Suf-e senlarga!.. Hay, meni yoʻqlab qolibsana? Shu gapni aytgani keldingmi yoʻ?

Gulxadicha (kuyingan kabi aftini burishtirib). Rang-roʻyinigizni qarang, otajon, koʻrgan kishining rahmi keladi-ya!

Orol bobo (sarosimada qolib). Rangimga nima qipti, Gulxadicha? Soppa-sogʻman, hych bir joyim ogʻrimasa...

Gulxadicha. Shunday boʻlsayam bir-ikki kun dam olib kelsangizmi devdim. Zoʻr bir joyga olib borsam sizni... Vuy, bogʻlarini koʻrsangiz — gulu gulzor!..

Orol bobo. Qanaqa joy ekan u? Toʻppa-toʻgʻri jannat boʻlmasin tagʻin!..

Gulxadicha. Undan ham zoʻr! Hozir... (U dik etib oʻrnidan turadi-da, bir kaftini ogʻziga karnay qilib koʻcha tomon ovoz soladi.) Rohat Sobirovna! Rohat Sobirovna!

Chetan eshik ochilib, qoʻlida yaltiroq qutisi, yasan-tusanda Gulxadichadan qolishmaydigan oq xalatli juvon — Rohat Sobirovna kiradi.

Rohat Sobirovna (hovliga alanglab, atay xushhollik bilan). Voy-boʻ-oʻ, hammayoq qayiq-ku! Suvimiz qani, suv?.. Assalomu alaykum, otaxon, bormisiz? Shundoq pustinyada bir oʻzingiz-a! Ne ponimayu, ne ponimayu. (Dashnom ohangida.) Gulyaxon, adangizni biroz charchatib qoʻyibsizmi deyman-a, oʻrtoq? (U qutisini tagiga qoʻyib roʻbaroʻ oʻtiradi-da, goʻyoki sehrlamoqchidek, Orol boboga qattiq tikiladi. Chol xijolat, koʻzini qayoqqa yashirishni bilmaydi.) Qani, boshladikmi? Tilingizni koʻrsating-chi, otaxon...

Orol bobo. Tilimni?.. (Dovdirab Gulxadichaga qaraydi.) Birovga ogʻzingni ochib tilingni koʻrsatish noqulay-ku, qizim? Mazax qilganday gap-da bu.

Gulxadicha. Koʻrsating, koʻrsatavering, ada, bu kishi doʻxtir-ku! (Kulib.) Sugʻurib olmaydilar, qoʻrqmang.

Orol bobo (taajjub aralash). Nima? Nima deding? Bir soʻz aytganday boʻlding...

Gulxadicha «jim oʻtiring endi» degan kabi uni sekingina turtib qoʻyadi. Chol battar mulzam, tishsiz milklari orasidan arang tilining uchini chiqaradi...



Do‘xtir qutisidan olgan igna-yu bolg‘achalarini ishga solib, bemorni obdon tekshirib ko‘rgach, savolga tutadi.

Rohat Sobirovna. Ko‘p tush ko‘rasizmi, otaxon? Masalan, nimalar kiradi tushingizga?

Orol bobo. Ha, unda-bunda ko‘rib turamiz. Har xil tush-da, qizim... Ko‘pincha rahmatli kampirim kiradi tushimga, mana buning onasi.

Rohat Sobirovna (Gulxadichaga yuzlanib, shunchaki). Oyingizlarmi?

Gulxadicha (eshitilar-eshitilmas). Oyim, oyim, Rohat Sobirovna.

Rohat Sobirovna. Otaxon, ayting-chi, tushlaringizda baliq ham tutasizmi?

Orol bobo (ensasi qotib). Nega endi tushimda ekan? Tushimda emas, o‘ngimda tutaman baliqni. Har kecha!

Rohat Sobirovna. Har kecha deysizmi? Zo‘r-u! Qayerdan ovlaysiz uni, suvdanmi?

Orol bobo (toqati toq bo‘lib). Suvdan bo‘lmay qumdan ovlanarmidi u jonivor?! Suvdan-da, albatta. Orol suvlaridan!

Rohat Sobirovna (Gulxadicha bilan o‘g‘rincha ma‘nodor ko‘z urishtirib olib). Orol deganingiz olis-ku, otaxon, juda olisda! Qanaqa qilib borasiz u yerga har kecha?

Orol bobo (do‘xtirga uzoq tikilib). Nima desam ekan sizga? Aytganim bilan baribir ishonmaysiz-da, qizim. Hyech kim ishonmaydi bunga... (U alam bilan mung‘ayib, boshini solintirib oladi.)

Rohat Sobirovna Gulxadichani chetga imlab, uning kiftiga hamdardona qo‘l tashlaydi.

Rohat Sobirovna (pichirlab). Vsyo yasno. Simptomi nalitso. Opketamiz, deputatim! Tayyorlang...

Gulxadicha. Ukolmi? Bo‘lmasa ko‘ndirolmaysiz, tochno!

Rohat Sobirovna. Da, ukol!

Gulxadicha (orqadan kelib cholni bo‘yni aralash quchadi). Ota... iya, ada... Do‘xtir opa aytyaptilarki, sizni ukol qilmasa bo‘lmas ekan. Qo‘rqmang, qo‘rqmang, bilagingizga. Bittagina, xolos. Hecham og‘rimaydi, mana ko‘rasiz...

Orol bobo (vazmin bosh burib). Mening nimamni ukol qilasan, qizim, hech joyim og‘rimasa...

Gulxadicha (to'satdan jazavasi qo'zib). Og'riydi, og'riydi! Ana — aftingizga qarang! Gapirib o'tirgan gaplaringiz-chi!.. Ey-y, hammang jonimga tegding! Birovi «Deputat bo'lsang — bo'lganing, yo'qsa, to'rt tomoning qibla» deb shart qo'ysa! Unisi «Deputatlikka chiqmasang, senday singlim yo'q» deb siyosat qilib tursa!.. Nima qilay? Nima qilay axir, ayti-ing?! (U alamidan yig'lamsiragan bo'ladi.)

Orol bobo. Mayli, mayli, senga shu kerak bo'lsa, ma, qilaqol ukolingni... (U hafsalasiz qo'lini uzatadi.)

Gulxadicha otasining biligidan tutib turadi, Rohat Sobirovna abjirlik bilan ignasini sanchadi. Hayal o'tmay Orol bobo o'rindiqqa cho'zilib qoladi.

Bolalar hang-u mang, tashvishga tushib qolgan, o'zaro pichir-pichir.

Jumaboy. Ho' opa, bobomizni nima qildingiz?

Gulxadicha o'girilib ham qaramay, «e, ishingni qil» degan kabi ular tomon jahl bilan qo'l siltaydi.

Rohat Sobirovna. Chaqiravering.

Gulxadicha (ko'cha tomon chinqirib). Og'a-a! Og'a-a! Bo'ldi, tayyor!

Qalimbet va haydovchisi paydo bo'lib, cholni qo'tig'idan ko'targancha tashqariga sudraydi. Gulxadicha bilan Rohat Sobirovna bir-birining yelkasiga qo'l tashlashib ularning ortidan yuradi. Shogirdlar beixtiyor chopib borib yo'lni to'smoqchi bo'ladi.

Jumaboy. Iye, og'a, qayoqqa opketyapsiz bobomizni?!

Qalimbet (zarda bilan). Enangning uyiga!

Tilovbergan (unga tarmashib). Opketmaysiz, yo'q!

Qalimbet (tizzasi bilan uning quymuchiga bir tepib). Nari tur-e, maymoq!

Tilov uchib ketib, bir chetga ag'nab qoladi. Bolalar sarosimada, noiloj tek qotgan.

Rohat Sobirovna (yo'l-yo'lakay, hovliga yana bir qur ko'z tashlab). Chudak! Nastoyashiy chudak!

## 8

Namozshom payti. Jumaboy va Genjamurod qayiqsozlik bilan band. Odatdagi yumushlar: o'lchash, taxta qirqish, yelimlash, bo'yoq-so'yoq...

Jumaboy (tuyqus ishdan bosh ko'tarib). Bobomizni qayoqqa opketdi-ya bular?



Genjamurod. Ota – ularniki, xohlagan joyiga olib ketaveradi-da.

Jumaboy. Soppa-sog‘ odamni ukol qildi-ya, tavba!

Genjamurod (bilag‘onlik ko‘rsatib). Qiladi! Kerak bo‘lganda qarab o‘tirmaydi. O‘zim ko‘rganman! Japaq amakimni bilarding-a, do‘xtirlar uni mana shunday ukol sanchib, moshinaga bosib ketishgan, esimda.

Jumaboy. Amaking to‘rt tumanga nomi ketgan bir jinni-sang‘i edi-da! Bobomiz axir...

Genjamurod (nafsoniyati qo‘zib). Bobong nima, sog‘ ekanmi? Hamma uni «devona, savdoyi» deb yuradi-ku!..

Jumaboy. Aytib qo‘y, o‘shalaringning o‘zi devona, o‘zi savdoyi! Shuni gap deb ko‘tarib yurgan sen ham sog‘ emas, Genjaboy!

Genjamurod. O‘zing ham shu! Tilovning ham... Boboning girdida yurganlarning barini el-ulus shunaqa deb o‘ylaydi, bilsang!

Jumaboy. O‘ylayversin! (Mushtumini do‘laytirib.) Qani, birortasi kelib o‘zimga shunday deb ko‘rsin-chi!..

Bir o‘ram eski sim ko‘tarib hovliga Tilovbergan kiradi.

Tilovbergan (qo‘lidagini yerga tashlab). Juma-a, ovulingda shisha degan matoh qolmabdi-yov! Amet bilib aytgan ekan: kecha ertalab bu yoqqa kelayotib, Jang‘il momoning tomiga chiqib qaragam, rostdan ham Orol taraf suvga to‘lganday, oftobda charaqlab ko‘zni oladi!

Jumaboy (ishdan bosh ko‘tarib). Men ham ko‘rdim. Xuddi suvning o‘zi! Shu ish Ametning xayoliga qayoqdan keppoldi ekan-a?..

Tilovbergan. Bilasan-ku, kitobni ko‘p o‘qigan u. O‘ziyam kallali. O‘tagan maxsumning bolasi-da, mullazoda!

Genjamurod. Mullangning bolasi bugun allaqaylarda salat kesib yuribdi. Kallali emish!..

Jumaboy. Kim nima desa desin, baribir zo‘r ish bo‘ldi shu. Malades Amet!

Genjamurod. Bobong ko‘rmaganidan keyin bu hammasi bir pul, oshnam! O‘sha kishi uchun qilindi-ku, to‘g‘rimi?

Tilovbergan. Shunday, shunday...

Xuddi shu choq chetan eshik g‘iyqillab, Orol bobomizning o‘zi paydo bo‘ladi! Bir lahza hayratda qotgan shogirdlar



guvva borib, talasha-tortisha uning bo‘yniga osiladi: «Keldingizmi, bobojon, keldingizmi?», «Ustoz, ustoz!», «Sog‘inib ketdik sizni, bobo!..»

Orol bobo (ularni baravar bag‘riga bosib, ko‘zlari jiqqa yosh). Chirog‘larim!.. Sherlarim, burgutlarim...

Shogirdlari cholni ko‘tarib kelib, e‘zoz bilan xos o‘ringiga o‘tqazadilar. O‘zlari yon-verida cho‘nqayib, allanechuk achinish aralash unga ko‘z tikadilar.

Tilovbergan (yig‘lamsirab). Nima bo‘ldi sizga, bobojon, buncha qolib ketdingiz?

Orol bobo (qo‘l siltab.) E, so‘ramanglar, bolalarim... Qochdim, qochib keldim! Ko‘rdilaring, «mazangiz yo‘q, mazangiz yo‘q» deya nima balodir qilib uyiga olib ketdi-yu, qamab qo‘yganday ahvolga soldi-ya meni! Anovi do‘xtir dugonasi kunda ikki mahal ukol qilib ketadi, uxlaganim uxlagan, ko‘zlarimni ocholmayman! Deputatligiga kerakmish-da kasofatning... Sizlarni sog‘indim-u qo‘ygan poyloqchilarini ham dog‘da qoldirib, bugun ko‘zni ishqay-ishqay yo‘lga tushdim... Hay, o‘zlaringdan gapiringlar, qani? Ametboyimiz ko‘rinmaydi?.. (Shogirdlari yerga qarab qolgach, taassuf ila bosh chayqaydi, og‘ir xo‘rsinadi.) Bola ketibdi-da baribir. Atta-ang, atta-ang. Yaxshigina usta bo‘lib qoluvdi-ya, kasofat!

Genjamurod (g‘ashi kelib). Kasofatingizning o‘rnini bildirmayapmiz lekin, bobo! Ana, siz yo‘g‘ingizda bir emas, ikkita qayiq yasab qo‘yganmiz!

Orol bobo (ruhlanib). Barakalla, chirog‘larim, barakalla! Xo‘sh, yana nima yangilik?

Tilovbergan. Siz birdan ketib qoldingiz, mana, bugun birdan kelib qoldingiz — yangilik shu!

Baravariga kulib yuborishadi.

Orol bobo (o‘rnidan og‘ir qo‘zg‘alib). Asr payti kepgolgandir, men namozimni o‘qib olay endi...!

Chol o‘choqboshidan oftobasini olib, uy orqasiga o‘tadi. Yigitlar qaytib ishga tutinadi. Jumaboy qandaydir taxtani aylantirib ko‘zdan kechirayotganida uning bir uchi dastgoh adog‘ida turgan tranzistorga tegib ketadi-yu sho‘x yalla yang-raydi. Qoraqalpoqlarning mashhur «Dembermas»il.. Ana shu tarona asnosi hovli qorong‘ilashib, keyin yana asta yorisha boshlaydi.



Tong! Uzoqlardan kelayotgan dengiz shovqinlari boyagi qo'shiqqa qorishib, uni bosib ketadi. Ana – to'lqinlar bir-biriga urilib shaloplashi, jonsarak mavjlar shiviri, eshkaklarning bir maromdagi g'ichir-g'ichiri... Ana – chag'alaylarning betinim chug'ur-chug'uri-yu suvga to'sh urib uchayotgan oqchorloqlar sasi... Yer-u osmon g'ayrioddiy, g'ayritabiiy bir yog'dular, charog'onlik qo'ynida...

Tom boshidagi ona qayiqda Orol bobomiz tik turibdi. Qalpog'i qo'lida, quvonchdan ko'zlari chaqnab har yonga alanglayotir. Chetan ortidan shogirdlar sasi eshitiladi: «Ko'rdi! Ana, qaranglar – ko'rdi!»

Orol bobo (hayqira-qiyqira). Mana, keldi! Axiyri keldi! Suv, suv!.. Orolimiz suvga to'ldi, odamlar! Yashasin, dod! Shu kunni ko'rdim-a! Endi o'lsa armonim yo'q.. (Qo'llarini ko'kka cho'zib.) Omonating olsang ham roziman, bariga roziman! Shukr, shukr...

Chol shunda bir qalqiydi-yu oyoqlari mayishib, bo'shsha-bo'shsha, baayni suvga cho'kayotgan misol, qayiq ichida ko'rinmay ketadi. Atrofni sukunat chulg'aydi – purhikmat, tantanavor bir sukunat!..

## 8

Chol qayiq ichiga «cho'kib» ketgach, andak sukunatdan so'ng, chamasi, chetan ortida bu manzarani – nima bo'lishini kuzatib-poylab turishganmi, birin-ketin shogirdlar kirib keladi. Ular hovli o'rtasida saf tortib, tomboshiga baqraygancha qotib qolishadi. Bir vaqt chetan eshik og'zida yelkasiga safarxalta osgan notanish libosli yigit paydo bo'ladi. Amet! U ohista yaqinlashib, uch o'rtoqni orqasidan birvarakay quchib oladi.

Tilovbergan (vahima ichida). Amet! Senmisan? Omondan tushdingmi, nima balo?..

Amet (aybdorona). Keldim. Ko'nglim bir nimani sezgan-day bo'laverdi...

To'rt o'rtoq yig'lamsiragancha quchoqlasha ketadi.

Sizlarni... Orolni unutilmadim, jo'ralar. Keldim. Bobomiz qani?

Jumaboy (tomboshiga ishora qilib). Yuragi yorilib o'lib qoldi... Ko'zlariga ishonmagan-da!



Amet (yuzini changallab). Men, hammasiga men aybdor!.. (U jahl bilan yelkasidagi safarxaltani yerga otadi.)

Tilovbergan. Endi nima qildig-a, bolalar, nima qildik?

Jumaboy (sarkorlikka o'tib). Yuringlar. Olib tushish kerak...

Birin-birin qayiq-narvonga tirmashib, tomga chiqa boshlaydilar.

Genjamurod (chiqayotib). Aytib edim-ku, bu ishimizning oxiri zil bo'lib chiqadi, deb!..

Jumaboy (tepadan, jerkib). Qo'y endi sen ham shu paytda!.. Har ne bo'lgandayam murodiga yetdi-ku bobomiz! Suvni ko'rganday bo'lib ketdi...

Yigitlar tomda qayiqni qurshab, baravariga unga engashadilar. Amet beixtiyor cholning qalpog'ini olib, boshiga qo'ndiradi.

Tilovbergan (izillab). Bobojon, o'lmang! Ko'zingizni oching...

Amet. Kechiring, ustoz, beoqibat shogirdingizni kechiring...

Jumaboy (o'qrayib). Bo'ldi!.. Qani, oldik!

Tomboshida to'rt o'g'lon – to'rt shogird qayiq-tobutni dast ko'tarib turibdi! G'oyibona vidolashuv...

Orol bobo (ovozi). Kelganing chinmi, Amet bolam? Bobongning o'lishini kutib yurganmidang yo?..

Amet (ovozi, titrab). Unday demang, bobojon, unday demang. Keldim, mana. Butunlay keldim.

Orol bobo (ovozi). Bilib qo'y, Orol chaqirdi seni, Orolimiz! Ishonmasang, ana – atrofga boq, suvning o'zidan so'ragaysan!

Amet (ovozi). Sizlarni tashlab qayoqqa ham borardim, bobo?!

Orol bobo (ovozi). Ota bolasi emas, Orol bo'lib qaytdim de? Barakalla, chirog'im! Bobongning vasiyati – anovi qalpoqni hech qachon boshingdan qo'ymagaysan!

Amet (ovozi). Ko'nglingiz xotirjam bo'lsin, bobo, sizdan meros bu qalpoq hamisha boshimda tug'!..

Tilovbergan (ovozi, yig'i aralash). Bizlarni kechiring, bobojon...



Genjamurod (ovozi). Men sizni bugun bildim, Orol bobo! O'zimni ham endi taniyapman. Sarkashroq bolangizning qiliqlaridan o'tarsiz, bobojon...

Jumaboy (ovozi). Bunday bo'lib chiqishini kim o'ylabdi deysiz, Orol bobo! Biz sizni bir suyuntirmoqchi edik-da...

Orol bobo (ovozi). Bu dunyodan, sizlarning baringizdan rozi bo'lib ketyapman, qaroqlarim, yig'lamanglar, men uchun ko'zyoshi qilib yurmanglar. Sizlar bor ekansiz, bobongiz o'lmagan, o'lmaydi. Sizlar bor ekansiz, Orol o'lmaydi, Orolimiz tirik! Toabad bor bo'lgay, omin!

Qayiq-tobut nogahon bir silkinib, boshlar uzra ohista ko'tarila boshlaydi. Yuksala-yuksala, ko'k dengizi sari suzib ketadi... To'rt o'g'lon osmonga qo'l cho'zib, uni go'yo kuzatib qolgan... Uzoqlardan kelayotgan dengiz shovqinlari tobora kuchayadi. Ana – to'lqinlar bir-biriga urilib shaloplashi, jonsarak mavjlar shiviri, eshaklarning bir maromdagi g'ichir-g'ichiri... Ana – chag'alaylarning betinim chug'ur-chug'uri-yu suvga to'sh urib uchayotgan oqchorloqlar sasi...

### Savol va topshiriqlar

1. Mustaqillik davrida qanday dramatik asarlar yozildi? Ulardan qaysi birlarini o'qigansiz yoki tomosha qilgansiz? Taassurotlaringiz bilan o'rtoqlashing.
2. Dramani rollarga bo'lib o'qing?
3. Nima uchun Erkin A'zam dramani «Tanho qayiq» deb nomladi?
4. Dramaning bosh qahramoni – Orol boboga xos fazilatlarini izohlang.
5. Orol bobo farzandlariga xos bo'lgan sifatlarga baho bering?
6. Orol bobo va uning shogirdlari munosabatini matnga asoslangan holda sharhlang.
7. Amet nima uchun ovulga qaytdi?
8. Drama mavzusini hozirgi kun ekologiya muammosi bilan qiyoslab tushuntiring.



## JAHON ADABIYOTI



### **Anton Pavlovich Chexov**

(1860–1904)

Mashhur rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov 1860-yil Rossiyaning Taganrog shahrida tug‘ilgan. Moskva universitetining tibbiyot fakultetini tugatgach (1884), Moskva yaqinidagi qishloqlarda shifokor bo‘lib ishlaydi. Keyinchalik kasalligi bois Yaltaga ko‘chib o‘tadi. A. P. Chexov xalq hayotini zimdan teran o‘rgandi; odamlar orasida bo‘ldi, ularning dard-u holini tingladi. O‘z davrining ijtimoiy-maishiy hayot tarzi, insonlararo turli muomala-munosabatlari A. P. Chexovning badiiy tafakkuri, o‘tkir nigohi orqali adabiy asarlariga ko‘chdi. Yozuvchi hayotdan go‘zallik izladi, tevarak-atrofida bo‘layotgan bema‘ni ishlardan hazar qildi va inson tabiatidagi ayrim qusurlarni hajviy usulda tasvirladi. U ham shifokorlik kasbi bilan, ham o‘tkir adabiy qalami bilan oddiy odamlarga quvonch ulashishga harakat qildi. Adib ijodiy merosining katta qismini tashkil etgan o‘nlab hikoyalari dunyo adabiyoti xazinasidan mustahkam o‘rin oldi. Hikoyalari kam so‘z bilan katta voqealarni tasvirlash san‘atini namoyish qildi. Ayni damda, uning qissa va sayohatnomalari sevib o‘qiladi. «Chayka», «Vanya amaki», «Uch opa-singil», «Olchazor» kabi qator pyesalari teatr sahnalarida qo‘yilgan.

A. P. Chexovning asarlari ko‘pgina iste‘dodli tarjimon va adiblar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Adib 1904-yilda vafot etgan.





## GAROV

### I

Qorong'i kuz oqshomi. Keksa bankir xonada u yoqdan bu yoqqa borib kelar, bundan o'n besh yil ilgari mana shunday kuz oqshomida ziyofat berganini eslardi. Ziyofatga ko'plab aqli salim, orif mehmonlar tashrif buyurishgan va ko'p maroqli suhbatlar bo'lgandi.

Darvoqe, kechada o'lim jazosi haqida bahslashdilar. Mehmonlar orasida ancha-muncha olimlar va muxbirlar ham bor edi, ularning aksariyati o'lim jazosiga norozilik bildirishdi. Ular jazoning bu usulini eskirgan, nasoro diniga e'tiqodda bo'lgan xalqlar uchun badaxloq hamda sharmandalik deb topishdi. Kechada yig'ilganlarning ayrimlari o'lim jazosi umrbod qamoq jazosiga almashtirilishi lozim deyishdi.

– Fikringizga qo'shila olmayman, – dedi bank sohibi. – Kamina na o'lim, na umrbod qamoq jazosini boshidan o'tkazgan, vaholanki, agarda arriori<sup>1</sup> mulohaza yuritadigan bo'lsak, qatl umrbod qamoq jazosidan axloqiy va insoniyoqdir. Jallod mahkumning jonini bir necha daqiqada tanidan judo qilsa, umrbod tutqunlik uzoq-uzoq yillar davom etadi. Ayting-chi, ularning qaysi biri insoniyoq – bir necha soniyada o'ldiradiganimi yoki yillar davomida jonini zulukdek so'rib yotadiganimi?

– Jazoning har ikkalasi ham insoniylik tamoyillariga to'g'ri kelmaydi, – ta'kidladi mehmonlardan biri, – chunki ularning har ikkalasi ham inson hayotini so'ndirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Hukumat – Xudo degani emas. Modomiki, u istagan taqdirda ham, tortib olgan narsani egasiga qaytarib berolmaydi-ku!

Mehmonlar orasida yigirma besh yoshlardagi huquqshunos ham bor edi. Bu borada u o'z fikrini shunday bayon etdi:

– O'lim jazosi ham, umrbod qamoq jazosi ham bir xilda badaxloq choralardandir, biroq basharti ulardan bittasini tanla deyishsa, men, albatta, ikkinchisini tanlardim. Har holda, yashamoq – o'lmoqdan afzalroqdir!

Davrada qizg'in bahs boshlanib ketdi. O'sha kezlari bir-

<sup>1</sup> Arriori (*lot.*) – ilgaridan, oldindan.

muncha yosh, shu bois serdiqqat bo'lgan bankir quyushqondan chiqib ketib, stolni mushtlagan cha yosh huquqshunosga tashlandi:

– Bekorlarni aytibsiz! Hoynahoy, siz umrbod qamoq jazosini yengil hisoblayotgandirsiz. Keling, garov o'ynaymiz: siz kazematda<sup>1</sup> besh yil ham o'tira olmaysiz!

– Buni jiddiy aytyapsizmi? – keskin javob qildi yosh huquqshunos. – Bo'пти, o'ynaganim bo'lsin. Men u yerda besh yil emas, o'n besh yil o'tira olaman!

– O'n besh yil! Nahotki? Siz-a? – xitob qildi bankir. – Janoblar, men garovga ikki million tikaman!

– Roziman! Siz millionlaringizni, men bo'lsam o'z erkimni tikaman! – dedi huquqshunos.

Shunday qilib, aqlga sig'maydigan ahmoqona garov o'ynaldi. U paytlari millionlarining hisobiga yetmayotgan bemulohaza taqdir arzandasining garovdan boshi osmonda edi. Ziyofatda bankir huquqshunosning ustidan kulgan cha dedi:

– Hoy yigitcha, es-hushingizni yig'ib oling. Haliyam kech emas. Kamina uchun ikki million pul shunchaki arzimagan narsa, siz bo'lsangiz zindonda hayotingizning eng gullab-yashnagan uch-to'rt yilini yelga sovurasiz. Zero, kazematda siz undan ortig'iga chiday olmaysiz! Yanayam ayta-man – umringizning uch-to'rt yilini yo'qotasiz. Shuniyam unutmangki, ey notavon banda, o'z inon-ixtiyori bilan o'zni mahkum etish majburiy qamoq jazosiga qaraganda, nihoyatda mashaqqatli kechadi. Xohlagan paytingizda ozodlikka chiqish huquqi sizda saqlanib qolayotganligi bandilikda kechadigan hayotingizga muttasil og'u solib turadi. Sizga rahmim kelganidan aytyapman bu gaplarni!

Shu topda bankir xonada betinim u yoqdan bu yoqqa borib kelar, shularni eslab, o'zini savolga tutardi:

– Garovning nima keragi bor edi o'zi? Huquqshunosning o'n besh yil umrini yo'qotishi, kaminaning ikki millionini ko'kka sovurishidan kimga foyda-yu kimga ziyon? Bu narsa odamlarga o'lim jazosining beshafqatligini anglatadimi yoki umrbod qamoq jazosining afzalliginimi? Yo'q, aslo unday emas! G'irt bema'nilik bu. Bu narsa kamina to-

---

<sup>1</sup> Kazemat – chor Rossiyasi davrida mahbuslar uzoq muddatga qamaladigan bir kishilik qamoq kamerasi.

monidan badavlat kishining shunchaki to'qlikka sho'xligi bo'lsa, huquqshunos tomonidan — pulga o'chlik, boylikka hirs qo'yish, tamom-vassalom...

Shundan so'ng u o'sha oqshom tag'in nimalar bo'lgani ni xotiriga keltira boshladi: o'shanda barcha mehmonlarning guvohligida garov o'ynalib, uning shartlariga ko'ra, yosh huquqshunos bankirning chorbog'idagi xilvat go'shada qamoq muddatini qattiq nazorat ostida o'tashi lozim edi. Huquqshunos o'n besh yil davomida ostona hatlab chiqmasligi, odamlar bilan uchrashmasligi va ular bilan muloqot qilmasligi, yaqinlari va do'stlaridan xat-xabar olmasligi kerak edi. Ammo-lekin uning cholg'u chalib xirgoyi qilishiga, xohlaganicha kitob o'qib, yozib-chizishiga, musallas ichib, tamaki chekishiga ruxsat berildirdi. Tashqi dunyo bilan esa devordan ataylab ochilgan chog'roq deraza orqali, unda ham lom-mim demasdan aloqa o'rnatishi, ehtiyojlarini bir enlik qog'ozga yozib, talab qilishi mumkin edi, xolos. O'ziga kerakli barcha kitoblar-u musiqa notalari, musallas-u tamaki, yemag-u ichmak va hokazolarni istagancha so'rashga haqqi bor edi. Garovda qamoq muddati 1870-yil 14-noyabr kunduz soat 12 dan 1885-yil 14-noyabr kunduz soat 12 gacha belgilanib, huquqshunosning garov shartlarini ozgina buzishi, aytaylik, muddat tugashiga ikki daqiqa qolganda kazematni tark etishi bankirning unga ikki millionni to'lash majburiyatidan soqit qilar edi.

Huquqshunosning yozma talabnomalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, tutqunlikning dastlabki yilida u uzlatda qattiq iztirob chekkan. U bandilikka solingan xonadan kecha-yu kunduz musiqa ovozi eshitilib turgan. Bandi musallas va tamakidan bosh tortadi. «Sharob, — deb yozadi u, — ishtiyoqni battar alangalatadi. Zotan, ishtiyoq mahbusning ashaddiy dushmanidir. Zero, xushbo'y va xushta'm musallasdan so'ng kimsasizlikda zerikib o'tirishdan-da rasvo holat bo'lmasa kerak. Tamaki bo'lsa, katalakday xonaning havosini buzib yuboradi».

Tutqunlikning birinchi yilida huquqshunosga, asosan, yengil-yelpi mazmundagi kitoblar — chigal sujetli ishqiyy romanlar, jinoiy va fantastik ruhdagi hikoyalar, komediyalar va shunga o'xshagan narsalar yetkazib berib turildi.

Ikkinchi yili musiqa va qo'shiq sadolari tinib, yurist mukka tushib olib, nuqul mumtoz asarlar mutolaa qila boshladi.

Beshinchi yilga borib qamoqxonadan yana ohang va navolar taraladigan, endi mahbus sharob berishlarini soʻraydigan boʻldi. Uning uzlatdagi hayotini zimdan kuzatganlar u yil boʻyi faqat yeb-ichgani, toʻshakka uzala tushib yotib olib, dam-badam homuza tortib qoʻygani, dilgirlikdan oʻzi bilan oʻzi tillashib oʻtirganini aytishdi.

Endi u mutlaqo mutolaa qilmay qoʻygandi.

Baʼzan kechalari u tuni bilan uxlamasdan allanimalarni yozib chiqar va tongga yaqin bitiklarining hammasini mayda-maydalab yirtib tashlardi. Goho uni yigʻlab oʻtirgan holda koʻrishardi.

Oltinchi yilning ikkinchi yarmidan boshlab tutqun falsafa, tarix hamda xorijiy tillarni oʻrganishga qatʼiy bel bogʻladi. U mazkur fanlarni oʻzlashtirishga shunchalik jidd-u jahd bilan kirishib ketdiki, hatto bank sohibi unga qoʻllanma va darsliklarni yetkazib berib turishga ham ulgurolmay qolardi. Keyingi toʻrt yil mobaynida huquqshunosning talabiga muvofiq olti yuz jilddan iborat har xil kitoblar xarid qilindi. Ushbu fanlarni oʻrganish jarayonida bankir undan quyidagi mazmunda noma oldi:

«Birodari aziz! Ushbuni sizga olti xorijiy tilda yozmoqdaman. Ularni oʻz sohasining zarshunoslariga koʻrsatishingizni soʻrayman. Yaxshilab oʻqib chiqishsin. Basharti ular nomalarimdan xato va kamchilik topa olishmasa, unda chorbogʻingizda miltiqdan ikki marta oʻq uzib, maʼlum qilishsin. Bu kaminaning saʼy-harakatlari besamar ketmaganligini anglatadi. Qadimda buyuk daholarimiz turli tillarda ijod qilishgan, biroq ularning qalblarida yagona maslak oʻt boʻlib yongan. Kamina daho insonlar bilan hamfikir, hammaslak boʻlish maqomiga yetganidan oʻzini arshi aʼloda his etmoqda!»

Huquqshunosning xohish-istagiga binoan, bankirning chorbogʻida miltiqdan ikki marta oʻq uzildi.

Bandilikning oʻn birinchi yilidan boshlab huquqshunos Muqaddas Kitobni oʻqishga tushdi. Qiyin tushuniladigan olti yuz jildlik kitobni toʻrt yilda tushirib tashlagan ziyolining bir yildan beri risolani oʻqib chiqolmayotganidan bankir taajjubda edi. Muqaddas Kitobdan soʻng u «Dinlar tarixi» va «Ilohiyot»ni qoʻlga oldi.



So‘nggi ikki yil mobaynida huquqshunos nihoyatda ko‘p mutolaa qildi — qo‘liga nima tushsa o‘qiyverdi. Bir qarasang, u tabiiy fanlarni o‘rgana boshlagan, bir qarasang — Bayron va Shekspir asarlariga yopishib olgan. Ba‘zan u bir vaqtning o‘zida kimyo va tibbiyotga oid darsliklarga qo‘shib bironta roman yoki bo‘lmasa falsafa va ilohiyot qo‘llanmalarini keltirib berishlarini so‘rardi.

Huquqshunosning mutolaasi halokatga uchragan kema parchasiga yopishib olgan kishi holatiga o‘xshardi.

## II

Shularni eslab bank sohibi teran xayolga cho‘mdi:

«Ertaga choshgohda u ozodlikka chiqadi. Shartga ko‘ra, kamina unga ikki million to‘lashim lozim. Agar garovda yutqazib qo‘ysam, rasvoiy jahon bo‘laman».

O‘n besh yil ilgari u yiqqan sarmoyasining hisobiga yetmas, pulni po‘choqcha ko‘rmasdi, endi bo‘lsa u o‘zidan «Pullarim ko‘pmi yoki qarzlarim?» deb so‘rashga yuragi dov bermasdi. Gardkam birja o‘yinlari, qaltis oldi-sotdi operatsiyalari hamda keksayganda ham qutula olmayotgan, salga tutab ketish odati bora-bora hamma ishlarini chaparasta qilib tashladi va bebok, o‘ziga bino qo‘ygan kalondimog‘ boyvachcha birja qog‘ozlarining har ko‘tarilib tushishidan dag‘-dag‘ titraydigan o‘rtamiyona bankirga aylandi.

— Ming la‘nat o‘sha garovga! — tushkunlikdan boshini changallagancha o‘zidan yozg‘irib oldi u. — Shu paytgacha nega o‘la qolmadi-a? U endigina qirqqa kirdi. Bor-budimdan ayirib, mening davlatimga uylanib oladi-da, rohat-farog‘atda yashab, meni har ko‘rganida: «Iqbolimni sarbaland etdingiz, endi sizga yordamlashishni burchim deb bilaman!» — deb qitig‘imga tegadi. Yo‘q, bunga toqat qilolmayman! Xonavayron va sharmisor bo‘lishdan qutulishning birdan-bir yo‘li — huquqshunosning o‘limidir!»

Soat tungi uchga jom urdi. Bankir jim qoldi: butun boshli uy orom og‘ushida, faqatgina chorbog‘dan daraxt yaproqlarining so‘lg‘in shitirlashi quloqqa chalinadi. Qariya sas-sadosiz po‘lat sandiqdan o‘n besh yildan buyon qulflog‘lik turgan eshik kalitini oldi-da, paltosini kiyib tashqariga chiqdi.

Chorbogʻ qorongʻi va sovuq edi. Yomgʻir yogʻardi. Shiddat-la esayotgan rutubatli shamol vahimali shovullab, daraxt shoxlarini silkitib oʻynardi. Bankir chor-atrofga zingil qarash qildi, biroq u na oyoqlari ostidagi yerni, na oppoq haykalchalarni, na chekkadagi ovloq uyni koʻrardi. U huquqshunos hibsdan saqlanayotgan binoga yaqinlashib, qorovulni ikki marta chaqirdi – javob eshitilmadi. Aftidan, qorovul yomgʻirdan qochib oʻchoqboshigami, gulxonagami kirib olib uyquni urardi.

«Basharti yovuz niyatimni amalga oshira olsam, – deya oʻyladi bank sohibi, – shubha dafʻatan qorovulga tushadi».

U zim-ziyo tun qorongʻida pillapoyalarni bir-bir bosib tushib, asta dahlizga kirib bordi. Soʻng gugurt chaqib, chogʻroq yoʻlakka oʻtdi. U yer ham kimsasiz edi. Yalang karavot hamda choʻyan pechkadan boʻlak hech vaqo yoʻq edi. Toʻgʻridagi eshik qulflogʻ boʻlib, surgʻich bilan muhrlab qoʻyilgandi.

Gugurt choʻpi yonib tugadi, keksa bankir hayajondan dagʻ-dagʻ qaltirab, derazadan ichkariga moʻraladi. Xonani sham shuʻlasi xira yoritib turar, huquqshunos boʻlsa, stoldan bosh koʻtarmay oʻtirar edi. Bu yerdan uning yelkasi, orqasiga osilib tushgan sochi va uzun qoʻllarigina koʻrinib turardi, xolos. Stol ustida, uning ikki yonidagi oromkursilarda va gilamda kitoblar tartibsiz sochilib yotardi.

Oradan besh daqiqacha vaqt oʻtdi, biroq tutqun qimir etmayotgandi. Oʻn besh yillik qamoq uni tosh qotib oʻtirishga oʻrgatib qoʻygandi. Bankir derazani chertdi, ammo tutqun bunga javoban loaqal qimirlab ham qoʻymadi. Shunda bankir qulfning koʻzidagi muhrni avaylab buzib, kalitni teshikka tiqdi. Zanglab yotgan qulf boʻgʻiq shiqirlab ochildi. Huquqshunos hozir hayratdan qichqirgancha oʻrnidan turib ketadi, deb oʻylagandi bank sohibi, lekin oradan uch-toʻrt daqiqa oʻtsa hamki, hech qanday ovoz eshitilmadi. Nihoyat, qariya ichkariga kirib bordi.

Stol yonida oddiy odamlarga mutlaqo oʻxshamagan alomat banda tosh qotib oʻtirardi. Sochlari ayollar sochidek oʻsib, jingala-jingala boʻlib ketgan, soqol-moʻylabi baroqlashib, ustuxonini yupqa teri sirib turgan skeletdangina iborat edi u. Yonoqlari ich-ichiga botib ketgan, rangi murdaday oppoq, belidan yelkalarigacha choʻzilib kambar tortgan tanasi ham-



da uzundan-uzun soch-soqolli boshini tutib turgan qo'llar shunchalik ingichka va qoqshol ediki, unga ko'zi tushgan kishining qo'rquvdan yuragi tars yorilishi tayin edi. Sochlariga oq oralab qolgan, zero, butun andomi qarimsiq tus olgan bu odamning endigina qirqqa kirganiga aql bovar qilmasdi. U shu o'tirishida uyquga ketgandi... Quyi solingan boshi qarshisida mayda harflarda yozilgan bir varaq qog'oz yotardi.

«Sho'ring qursin! — dedi ichida bankir. — Uxlayapti. Ehtimolki, shu topda tushida garovga tikilgan million-million pullarni ko'rayotgandir! Bu tirik murdani dast ko'tarib to'shakka yotqizaman-da, paryostiq bilan og'iz-burnini yopib turaman — joni uziladi. O'shanda eng adolatpesha ekspertiza ham u zo'rlab o'ldirilganini aniqlay olmaydi. Darvoqe, u nimalar haqida yozganini o'qib ko'ray-chi...»

«Ertaga kunduz soat o'n ikkida kamina ozodlikka chiqib, yana odamlar orasida yashash huquqini qo'lga kiritaman. Ammo-lekin ushbu zindonni butunlay tark etib, oftobni yana o'z ko'zim bilan ko'rish baxtiga erishishdan oldin sizga quyidagilarni yetkazib qo'yishni lozim topdim. Pok vijdonim hamda Yaratganning guvohligida sizga shuni aytmoqchiman-ki, endi men sizlarning minglab jild-jild kitoblaringizda foniylar dunyoning noz-ne'matlari-yu rohat-farog'atlari deya maqtalgan hurlik, sihat-salomatlik, to'y-u tomoshalar-u, shod-u xurramliklar — hamma-hammasiga tupurdim!

Uzlatda kechgan o'n besh yil davomida kamina bu o'tkinchi dunyo hayotini miridan sirigacha o'rgandim. To'g'ri, uzoq yillar men na quyoshni, na odamlarni ko'rdim, ammo-lekin sizlarning kitoblaringizdan ajoyib musallaslar no'sh etib, diltortar navolar tingladim, o'rmon va yobonlarda ohullar-u g'izollar ortidan quvdim, ofatijon xonimlarning ko'nglini ovladim... Daho shoirlarning sohir xayolotidan ofarida bo'lgan hur-u g'ilmonlar uzoq oqshomlarda huzurimga tashrif buyurishar va aql-u hushimni sarmast etib, tong otguncha menga ertaklar so'zlab chiqishardi. Sizlarning kitoblaringizdan men Monblan va Elbrus cho'qqilarini zabt etar; erta-tongda quyoshning ufq ortidan ko'z uqalab chiqib kelishini, kechga borib osmon-u ummonlarni hamda baland tog' cho'qqilarini lolarangga bo'yab yuborishini sehrlanganicha tomosha qilar edim; yuksak qoyalarga chiqib olib, yildirimning bulutlarni

tilkalashini vahima bilan kuzatardim, u yerdan turib yam-yashil oʻrmonlar va oʻtloqlar, daryolar-u koʻllar, kentlar va qoʻrgʻonlarga zavqlanib boqar, ularning poyimda yastanib yotishidan lol-u musaxxar boʻlar, pari-paykarlarning sehrli ovozi-yu choʻponlarning sibizgʻa sozi ruhimga orom bagʻishlar va kamina bilan ilohlar haqida suhbat qurgani xonamga uchib kirgan farishtalarning oppoq harir qanotchalarini yaqqol his etardim... Kitoblaringiz sahifalaridan oʻzimni tubsiz jarliklarga otgan boʻlsam, sabr-qanoatim, chidam-bardoshim bilan moʻjizalar yaratar, bu ham yetmaganday, oʻzimni bebok va oʻtyurak chogʻlab, kent-u qishloqlarga oʻt qoʻyar, odamkushlik qilar, katta-katta mamlakatlarni zabt etib, xalqini qirgʻinbarot etar, pirovardida yangi-yangi ilohiy taʼlimotlarining targʻiboti bilan shugʻullanar edim...

Kitoblaringiz aqlimni charxlab, idrokimni oʻtkirladi. Tinim bilmas va yaratuvchan inson zakovati asrlar mobaynida bunyod etgan narsalarning hammasi bosh chanogʻimda ixcham holga kelib yigʻildi. Endi kamina oʻzimni sizlarning barchangizdan har jihatdan komil va yetuk ekanligimga ishonch hosil qilmoqdaman...

Bundan buyon men bu dunyoning jumla noz-neʼmatlaridan nafratlanaman. Ularning hammasi oʻtkinchi, haqir, turgan-bitgani sarob ekan. Sizlar, yaʼni oʻzini ilm-u hikmatda, dunyoni anglab yetishda barkamollikka erishgandek chogʻlayotgan mutakabbir bandalar qanchalik kibr-u havoga berilmang, ajal sizlarni yertoʻla va yer ostidagi sichqon-u kalamushlarga qoʻshib, yer yuzidan supurib tashlaydi, ortingizda qolayotgan avlod-u ajdodlaringiz yaratgan barcha moddiy va maʼnaviy boyliklar kurrayi zamin bilan birgalikda kunpayakun boʻladi...

Boylik, hasad, hirs-u havas barchangizning koʻzingizni koʻr, shuuringizni shafaq qilib qoʻygan. Sizlar yolgʻonni haqiqat, hamoqatni nafasat deyishga oʻrganib qolgansiz. Mabodo falakning gardishi bilan daraxtlarda, olma, poʻrtaxol va nok oʻrniga qurbaqa, kaltakesak va ilonlar osilib tursa; atirgullar firdavs bogʻlarining iforlarini emas, balki badboʻy ter isi taratib turishidan qanchalik irganib-jirkanganingiz kabi, kamina ham Arshi aʼloni yolgʻonchi dunyoning hoy-u ha-





vaslariga almashtirib o'tirganingizdan bag'oyat taxayyuldaman. Endi ichingizda kaminani yo'q deb hisoblayveringlar!!!

Sizlarning hulvo misol botil turmushingizga nisbatan qalbimda uyg'ongan cheksiz nafrat va jirkanchimning isboti o'laroq taqdirning buyuk ne'mati va katta omad deb orzu qilgan ikki millioningizdan butunlay bosh tortaman. O'sha garovga tikilgan pullarga haqdorlik huquqidan o'zimni mahrum etish maqsadida muddatidan besh soat burun bu yerdan qochib chiqib, o'rtamizdagi shartni atayin buzaman...»

Bank sohibi nomani o'qib chiqib, uni joyiga qo'ydi, so'ngra huquqshunosning peshonasidan o'pdi-da, ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh olib, xonadan chiqib ketdi. U ilgari hech qachon, hatto gardkam birja o'yinlarida yutqizib, katta talofatga uchraganda ham, hozirgidek o'zidan bunchalik nafratlanmagandi. Bankir uyiga qaytib kelib, o'zini to'shakka tashladi, biroq kuchli iztirob va ko'zlaridan oqayotgan yoshlar unga tinchlik bermasdi.

Ertasiga ertalab uning huzuriga chopa-chopa kelgan qorovul va malaylarning rang-qutlari o'chgan, sarosimada edilar. Ular bandining derazadan bog'ga, u yerdan darvoza orqali noma'lum tarafga qochib ketganini aytishdi.

Bank sohibi malaylari bilan darhol chorbog'ning etagidagi xilvat go'shaga yetib keldi va huquqshunosning qamoqdan qochganiga ishonch hosil qildi. Ortiqcha gap-so'zlarga yo'l qo'ymaslik uchun u huquqshunosning garov shartnomasini buzganligi haqidagi qog'ozni olib uyiga qaytib keldi-da, uni po'lat sandiqqa solib qulflab qo'ydi.

## CHEXOVNING HIKOYASI HAQIDA

Rus adibi A. P. Chexov dunyo hikoyachiligiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biri sanaladi. Uning hikoyalari qisqaligi, real hayotiy voqealarga asoslangani, shuningdek, o'ziga xos badiiy uslubi bilan ajralib turadi. A. P. Chexov o'z hikoyalarida ulkan tarixiy yoki favqulodda jahonshumul hodisalarni qalamga olmaydi. Balki oddiy rus odamlari qatnashgan, bir tomondan juda sodda ko'ringan voqealarni qiziqarli bayon qiladi; unga mahorat bilan badiiy bo'yoq beradi. Jumladan,

adibning mashhur hikoyalardan biri bo'lgan «Garov» hikoyasi bankir va yosh huquqshunosning qatl hukmi bilan qamoq jazosi borasidagi ziddiyati asosiga qurilgan. Hikoyada hayotning mazmuni, yoshlik faslining qadri, mol-dunyoning nimaga zarurligiga urg'u beriladi. Hayot hamma vaqt go'zal, ayniqsa, saodatli va fayzli umr har qanday odamning orzusidir. Bunday hayot tarzi uchun faqat cheksiz boylikning o'zigina yetarli emas. Bunday umr uchun dunyoning hamma turdagi kerakli-keraksiz minglab kitoblarini o'qish ham kamlik qiladi. Muhimi – uqish. O'qilgan kitoblar ijtimoiy hayot va inson umri bilan bog'lanishi, har qanday odamni kamolot cho'qqisiga olib chiqishi, shuningdek, umr mazmunini teranroq anglashga yordam berishi lozim. Aks holda, bunday ta'lim va tahsil hayotdan uzilgan bo'ladi. Shu ma'noda hikoyadagi bayonga ko'ra bankirni hamisha boyliklaridan ajralib qolish xavfi ta'qib qiladi. Garov o'ynashning o'zi bema'nilik emasmi? Boshidayoq bankirni shu savol qiynaydi. Savolga o'zicha javob ham topadi: «G'irt bema'nilik bu. Bu narsa kamina tomonidan badavlat kishining shunchaki to'qlikka sho'xligi bo'lsa, huquqshunos tomonidan – pulga o'chlik, boylikka hirs qo'yish, tamom-vassalom...» – deb mulohaza yuritadi. Oradan yillar o'tgan sari uning boyliklari kamayib, hatto qarzga botadi. Shunda o'z boyliklari, xususan, ikki million pulini asrab qolish uchun qamoqda o'tirgan huquqshunosni qatl etishni niyat qiladi. «Har holda, yashamoq – o'limdan afzalroq» degan fikrini isbotlash va garovga qo'yilgan pul uchun o'zini o'n besh yillik hibsga mahkum etgan yosh huquqshunos qirq yoshga yetganida hayot mazmunni o'zicha, o'z qarichi bilan o'lchab ko'radi. Ma'lum bir xulosalarga keladi. Shu xulosalarini mahbus qog'ozga tushiradi. Bankir qamoqxonaga kirib, ozib-to'zib qolgan va pinakka ketgan mahbus yonida shu maktubni ko'radi. Bu mulohazalari davomida bir necha marta kitoblarni tilga olib: «Endi kamina o'zimni sizlarning barchangizdan har jihatdan komil va yetuk ekanligimga ishonch hosil qilmoqdaman...» – deb ta'kidlaydi. Dunyoning noz-u ne'matlarini o'tkinchi sanaydi, faqat mol-dunyogina insonni baxtli-saodatli qilmasligini anglab yetadi. Shuning uchun puldan ixtiyoriy ravishda voz kechadi; o'z xohishiga ko'ra oxirgi muddatda qamoqxonadan atayin



qochib, garov shartini buzadi. Huquqshunos yozgan maktub bankirga ham ta'sir ko'rsatadi; u o'zidan o'zi nafratlanadi.

A. P. Chexovning ushbu «Garov» hikoyasi inson umri, erkin hayot, mutolaa, kitobning foydasi, olingan ilmning hayotga tatbiqi, kamolotning darajasi va boshqa hayotiy masalalar haqida fikrlashga undaydi. Ayni damda, hikoya mazmuni, bankir va huquqshunosning qilmishlariga sharqona odob-axloq mezonlari bilan qaralganda, ikki dunyo saodati degan tushuncha o'rtaga qalqib chiqadi. Bir qarashda, mahbus o'z-o'zini tarbiyalagan, komillikka erishgan va ruhan tozalangan inson sifatida ko'rinadi. Biroq inson zoti bu dunyoni deb u dunyoni esdan chiqarmasligi hamda u dunyoni deb bu dunyodan kechmasligi lozim. Hikoya shunday muhim hayotiy masalada ham ogohlikka chorlaydi. Umr yelga sovrilmasligi kerak. Shu ma'noda hikoya noo'rin bahs-munozaraning oqibati, xususan, garov ikki inson taqdirini boshqa o'zanga solganligi haqida saboq beradi.

### Savol va topshiriqlar

1. A. P. Chexov hayoti va ijodi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar toping.
2. Hikoya nima sababdan «Garov» deb nomlangan? Sarlavhani izohlang.
3. Garov boylash uchun qanday zarurat bor edi?
4. Hibsda o'tirgan odam nimalar bilan shug'ullangani to'g'risida so'zlang.
5. Huquqshunos qancha muddat va qaysi yillar oralig'ida hibsda o'tirdi? U nima sababdan pullardan voz kechdi?
6. Bankir hayotni qanday tushunadi? Huquqshunos-chi?
7. Huquqshunosning maktubi bankirga qanday ta'sir ko'rsatdi?
8. Bankir nima uchun huquqshunosni qatl etish fikridan qaytdi?
9. Huquqshunos nima uchun maktub yozdi, deb o'ylaysiz? Axir, yozmasligi ham mumkin edi-ku.
10. Yozuvchi ikki odam o'rtasida garov bog'lashni tasvirlash bilan qanday g'oyani ilgari surgan? Hayotda garov o'ynagan yoki birovlarining garov bog'lashganiga guvoh bo'lganmisiz?
11. Ayting-chi, hozirda siz qanday adabiyotlarni o'qishga ko'proq ehtiyoj sezyapsiz? Nima uchun?
12. «Mening kitob javonim» mavzusida ijodiy matn yozing.



## Rashod Nuri Guntekin

(1889–1956)

XX asrdagi mashhur turk yozuvchilaridan biri Rashod Nuri Guntekin 1889-yil Istanbulda tugʻilgan. Istanbul universitetining turk tili va adabiyoti boʻlimini tamomlagan (1912). XX asrning 20-yillarida uning bir qancha hikoyalari bosilib chiqadi. Katta epik janrga qoʻl urgan yozuvchi dastlab «Sirli qoʻl» (1921) romanini yozadi. Keyinchalik «Xazonrezgi», «Tamgʻa», «Yashil tun» nomli romanlari nashr qilinadi. Ammo dunyo adabiyotida Rashod Nuri Guntekin «Choliqushi» (1922) romani bilan shuhrat qozondi. Adibning bu romani Mirzakalon Ismoiliy tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan (1959).

Rashod Nuri Guntekindan koʻplab hikoyalar, roman va dramatik asarlar meros boʻlib qoldi. Turkiyada adibning yigirma toʻrt jilddan iborat asarlari bosilgan (1958–61).

Adib 1956-yilda vafot etgan.

### CHOLIQUSHI

(Romandan parcha)

#### BIRINCHI QISM

*B..., 19...-yil, sentabr*

Toʻrtinchi sinfda edim. Yoshim oʻn ikkilarda boʻlishi kerak. Fransuz tili muallimimiz Aleksy opa bir kun bizga inshodan vazifa topshirdi. «Hayotdagi ilk xotiralaringizni yozishga harakat qiling. Koʻraylik-chi, nimalarni eslar



ekansizlar. Sizlar uchun bu ajoyib xayol mashqi bo‘ladi», – degan edi u.

Hech esimdan chiqmaydi: sho‘xligimdan, sergapligimdan bezor bo‘lgan murabbiylarim meni o‘rtoqlarimdan ayirib, sinf burchagidagi bir kishilik kichkina partaga o‘tqazib qo‘yishgan edi.

Mudira aytgandek, men «dars paytida qo‘shnilarimni gapga tutmaslikni, o‘qituvchimizning so‘zlarini odob bilan tinglashni o‘rgangunimga qadar» u yerda surgun hayot kechirishga mahkum edim.

Bir yonimda kattakon yog‘och ustun bor: nimaiki qilinsa pinagini buzmaydigan va ora-sira pakkimning uchi bilan u yer-bu yeriga ozor berganimda mardona chidab turadigan vazmin, uzun, gung qo‘shni...

Alexi opa vazifani tushuntirib bo‘lgandan so‘ng bizni yozishga qo‘yib berdi.

Oldingi partalarga husn berib turgan og‘ir tabiatli peshqadam o‘quvchi qizlar allaqachon ishni boshlab yuborishdi. Ularning yonida o‘tirmasam ham, nimalar yozayotganlarini kiftlari ustidan ko‘rib turganday bo‘lar edim: «Ilk xotiramda qolgan birdan-bir narsa mehribon onajonimning kichkina karavotcham ustiga egilgan oltin sochli aziz boshi, menga mehr-u muhabbat bilan kulimsiragan havorang ko‘zlari-dir...» tarzida shoirona bir yolg‘on... Aslida esa, onalar oltin va havoranglardan boshqa ranglarda ham bo‘ladilar. Faqat so‘rlarning<sup>1</sup> o‘quvchilari qalamidan shunday ranglarga bo‘yalib chiqish u bechoralar uchun bir majburiyat, biz uchun esa odat edi.

Menga kelsak, men butunlay boshqacha qiz edim. Juda yoshligimda ayrilgan onamdan esimda nihoyatda oz narsa qolgan. Lekin onamning oltin sochli, havorang ko‘zli bo‘lmaganini aniq bilaman. Shunday bo‘lgandan keyin, uning asl qiyofasini o‘zgartirib tushuntirishga va bundan mamnun bo‘lishga hech qanday kuch meni majbur qilolmaydi...

---

<sup>1</sup> So‘r (Soeur) – opa (*fransuzcha*). Bu yerda fransuz katolik tarbiyaxona murabbiyasi.

\* \* \*

O'sha kuni har qancha o'ylasam ham, faqat shu narsalarnigina yozganim esimda:

«Men baliqlar singari ko'l ichida tug'ilganga o'xshayman. Onamni es-es bilaman... Otam, enagam, xizmatkorimiz Husayn ham esimda... Bir kun meni ko'chada quvgan qora laychani... Bir kun to'la savatdan yashiriqcha uzum olayotganimda barmog'imni chaqib olgan arini... Ko'zim og'riganda tomizilgan qizil dorini... Mehribon Husayn bilan Istanbulga kelganimizni... Ha, shularga o'xshash ko'p narsalarni eslayman... Lekin bulardan hech biri ilk xotira emas... o'zim yaxshi ko'rgan ko'lda, quyuc yaproqlar orasida cho'milib yurgan vaqtlarimdagiday eski xotiralar emas... Dengizday poyonsiz bir ko'l... «Ichida katta-katta yaproqlar, atrofida daraxtlar bo'lsa, bu ko'l qanday qilib dengizday katta bo'lishi mumkin?» deyarsizlar... Xudo haqqi, yolg'on so'zlayotganim yo'q, o'zim ham sizlarga o'xshab hayronman... Ammo, aslida, shunday bo'lgandan keyin ilojim qancha?..»

Inshom sinfda o'qilganda, dugonalarim men tomonga o'girilishib, qahqaha urib kulib yuborishdi. Bechora Aleksii opa ularni tinchitish uchun anchagina zahmat chekdi.

\* \* \*

Mening otam Nizomiddin nomli bir suvori mayori edi. Onamga uylangan yili uni Diyorbakirga jo'natishgan. Shu ketganicha Istanbulga boshqa qaytib kelmagan. Diyorbakirdan<sup>1</sup> Musulga, Musuldan Xonikinga, u yerdan Bag'dodga, Karbaloga o'tgan... Bir yerda aqalli bir yil ham turmagan.

Onamni menga o'xshatishadi. Onam otamga tushgan yili oldirgan bir rasmi bor, xuddi mening o'zginam. Faqat bechora onam sog'liq jihatidan menga hech o'xshamas edi. Juda zaif ekan. Bitmas-tuganmas yo'llarga, tog'larning qattiq havosiga, dalalarning jaziramasiga chidash beradigan sog'lig'i yo'q ekan. Keyin, aftidan, tag'in bir kasali ham bo'lgan. Bechoraning er bilan bo'lgan butun hayoti shu kasallikni

<sup>1</sup> Diyorbakir – Turkiya shaharlaridan biri. Musul, Bag'dod va Karbalo – Iroq shaharlari; Birinchi jahon urushigacha Iroq Usmonli imperiyasida edi.



yashirish bilan o'tgan... Nima qilsin, otamni juda yaxshi ko'rar ekan. Meni zo'rlab erimdan ajratishadi, deb qo'rqar ekan...

Otam Istanbuldan hamon uzoqlashib borar, har bir safari oldidan onamga:

– Seni hech bo'lmasa bir mavsumgina, mayli, ikki oygina onangning yoniga yuborib turay. Onang bechora ham qarib qoldi... Kim bilsin, seni ko'rgisi kelib, yuragi ezilib o'tirgandir, – desa, onam:

– Shu yog'ini ham pisanda qilibmidik? Istanbulga birga qaytamiz, demabmidik? – deyarkan.

Gap kasaliga borib taqalsa:

– Mening hech qanaqa dardim yo'q... Picha charchadim, xolos... Tunov kuni havo biroz o'zgardi-da, shundan bo'ldim, o'tib ketadi... – deyar ekan.

Ammo Istanbulni ko'rgisi kelganini otamdan hamisha yashirib kelar ekan. Tavba, yashirib bo'larmidi.

Uyquga ketganidan ikki daqiqa o'tar-o'tmas otamni uyg'otar, Qalandardagi chorbog'imizni, naryoqdagi chakalakni yoxud Bosfor suvlarini ko'rganligini aytar ekan... Jindakkinna uyqu ichida o'tgan bir necha daqiqaga shu qadar uzun tushni sig'dirish – u yerlarni odam juda ham ko'rgisi kelgan bo'lishidan emasmikan?

Buvim harbiy vazirlikka, saroy mulozimlarining oldiga borib, otamni Istanbulga qaytarishlarini har qancha iltimos qilsa ham, har qancha yig'lab-siqtasa ham, bu yolvorishlar hech qanday naf bermagan.

Nihoyat, onamning kasali og'irlashganidan so'ng otam hech bo'lmasa uni Istanbulga olib borib qo'yish uchun bir oyga ruxsat so'ragan-u, javobni ham kutib o'tirmasdan yo'lga chiqqan.

Tuyalarga ortilgan kajavalarda o'tirib, cho'ldan o'tganimiz xuddi bugungiday esimda.

Bayrutga yetib, dengizni ko'rishimiz bilanoq, onam biroz jonlanganday bo'ldi. Qo'ngan uyimizda onam meni ko'rpasiga o'tqazib, sochlarimni taradi, qo'llarimning kirligini, tugmalarimning tushganligini ko'rib xafa bo'ldi, boshini bag'rimga bosib yig'ladi.

Bir-ikki kundan keyin oʻrnidan turdi. Sandigʻidan yangi kiyimlarini olib yasandi. Kechqurun otamni kutib olgani pastga tushdik. Otam menda qoʻrs tabiat askar taassurotini qoldirgan edi. Lekin oʻshanda onamning turib yurganini koʻrib, suyunganidan yugurib keldi-da, onamni endigina yura boshlagan goʻdak boladay qoʻllaridan ushlab yigʻladi — men buni hech esimdan chiqarmayman...

Bu bizning birga kechirgan soʻnggi kunimiz boʻldi. Onamni ertasi kuni ochiq sandiq yonida, boshi kiyimlar boʻxchasi ustiga qoʻyilgan, lablarida qon qotib qolgan holda topishdi — onam oʻlib qolgan edi.

Olti yashar bolaning ancha-muncha narsaga aqli yetishi kerak. Lekin men hech nimani uqmaganday parvosiz yuraverdim.

Biz tushgan uyda odam koʻp edi. Hali ham esimda, bir necha kungacha kattakon bogʻda bolalar bilan boʻgʻishib yurdim, Husayn bilan koʻchalarda, dengiz boʻylarida aylan-dim, jome hovlisiga kirib, qubbalarni tomosha qildim.

Onamni begona yerga qoʻyganimizdan soʻng, Istanbulga qaytish otamning yuragiga sigʻmadi... Innaykeyin, buvim, xolalarim bilan koʻrishishdan qochdi, shekilli ham... Shunga qaramay, meni ularning oldiga yuborishni oʻz burchi deb bildi. Nazarimda, kun sayin oʻsib borayotgan qiz bolani kazarmada, askarlar qoʻlida tarbiyalash yaxshi boʻlmaydi, deb oʻylagan boʻlsa ham kerak.

\* \* \*

Buvimdan judo boʻlganimizda toʻqqiz yoshlarda edim. Otam ham ittifoqo Istanbulda edi.

Otam bechorani bu safar Tripolidan Albaniyaga ishga oʻtkazishibdi. Shuning uchun Istanbulda atigi bir hafta qolishi mumkin edi.

Buvimning oʻlimi uni mushkul ahvolga solib qoʻydi. Beva ofitser toʻqqiz yashar qizini yetaklab togʻ-u toshlar orasida sargardon boʻlib yurolmas edi. Meni siqilib qoldi deb qoʻrqibmi, xolalarimga tashlab ketishga negadir koʻngli chopmadi. Nimani oʻylagan boʻlsa oʻylagandir, har holda, bir kun meni yetaklab borib kemaga oʻtqazdi. Istanbulga oʻtdik. Koʻprikda yana aravaga tushib, uchi-keti koʻrinmagan





o'rlardan oshdik, bozorlardan o'tdik, keyin bitta kattakon g'ishtin bino oldiga kelib to'xtadik.

Bu yer umrimning o'n yilini qamoqda o'tkazishim kerak bo'lgan so'rlar (soeur) maktabi edi. Bizni eshik yonidagi pardalari, derazalari yopiq, olaqorong'i bir xonaga olib kirishdi.

Hamma narsa avvaldan gaplashib qo'yilgan bo'lsa kerak, birozdan keyin qora kiyimli bir xotin kirdi-yu, to'g'ri mening ustimga kelib engashdi. Boshidagi oq ro'molining uchlarini g'alati bir qushning qanotlari singari sochlarimga tegizib turib, yaqindan yuzimga tikildi, betlarimni siladi.

Maktabga qo'ygan birinchi qadamim yangi bir bema'nilik, yana bir yaramaslik bilan boshlanganini eslayman.

Otam mudira opa bilan gaplashib turganida, men xonani aylanib uni-buni kovlashtira boshladim. Bir vazaning rangli rasmlariga barmog'imni tegizib ko'rmoqchi bo'luvdim, u tushib chil-chil bo'ldi.

Otam qilichini sharaqlatib o'rnidan sapchib turdi, jahl bilan qo'limdan tortdi.

Singan vazaning egasi mudira opa esa, aksincha, kulardi. Qo'llarini silkitib, otamni tinchlantirishga harakat qildi.

\* \* \*

Maktabda bu vazaga o'xshash yana qancha narsalarni sindirishim turgan gap. Uydagi bevoshligim u yerda ham davom etdi. Murabbiyalarimiz chindan ham malak kabi sabrli xotinlar edi yoki mening yaxshi tomonlarim bor edi. Yo'qsa, mening dastimdan bu qadar ozor chekishlari mumkinmi, qalay?

Sinfda sira tinmay to'polon qilar, u yoqdan bu yoqqa o'tib yurardim.

Hamma singari zinadan tushish mening odatim emas edi. Albatta, biror burchakka biqinib olib, sinfdoshlarimning tushishlarini poylar, keyin panjara yog'ochiga otga minganday sakrab chiqib olib, o'zimni pastga qo'yib yuboardim. Yoki oyoqlarimni juftlashtirib zinalardan sakrardim.

Bog'da qurigan daraxt bo'lardi. Payti keldi deguncha o'shanga tirmashib chiqib olganimni, po'pisalarga quloq solmay tanaffus oxirigacha shoxdan shoxga irg'iganimni ko'rgan

muallimam: «Bu odam bolasi emas, choliqushi»<sup>1</sup>, – deb koyigan edi.

Ana shunday qilib, o'sha kundan boshlab asl nomim unutildi-yu, hamma meni «Choliqushi» deb ataydigan bo'ldi.

Bilmayman, bu ism keyinchalik qanday qilib oilamizga ham o'tdi-yu, Farida otim bayram kiyimi singari juda kam qo'llanadigan rasmiy ot bo'lib qoldi.

«Choliqushi» mening o'zimga ham yoqardi, nimagaki bu nom ko'p mahal jonimga ora kirardi. Biron nojo'ya harakatimdan shikoyat qilishsa, bahuzur yelkalarimni uchirib: «Na chora... Choliqushining qo'lidan boshqa nima kelardi», – deyardim...

\* \* \*

Avgustning oydin kechalaridan biri. Chorbog'ga bir to'da mehmon kelgan edi. Bular orasida Narimon nomli yigirma besh yoshlardagi bir tul xotin ham bor edi. Uning onda-sonda chorbog'ga kelgan kunlari katta voqea hisoblanardi.

Dunyoda o'zlaridan boshqa hech kimni yoqtirmaydigan xolalarimdan tortib xizmatchi qizlarga qadar – hamma bu xotinga mahliyo bo'lib qolgan edi.

Narimonning eri bundan bir yil avval o'lgan. Narimon erini juda ham yaxshi ko'rardi, deyishadi. Shuning uchun u hamisha qora kiyib yurar ekan. Lekin menga shunday tuyuladiki, bu xotinning sarg'imgir chehrasiga juda ham yarashib tushgan qora kiyimi aza tamom bo'lgandan so'ng yechilguday bo'lsa, uning quruqligi oshkor bo'lib qoladi.

Narimonning menga qilgan muomalalari it mushukni erkalaganiga o'xshardi. Lekin men unga hech elikmas edim. Oramiz ancha sovuq edi. Menga qilgan iltifotlarini juda sovuq qarshilardim.

O'rtamizdagi sovuqlikning hali ham davom etganiga qaramay, tan berishim kerak: Narimon o'lguday chiroyli edi. Menga yoqmaydigan bir narsasi bo'lsa, u ham nozu karashmalarga o'chligi edi. Xotinlar ichida-ku o'zini uncha-muncha yaxshi tutardi-ya, lekin, mabodo oraga bitta-yarimta erkak aralashib qolguday bo'lsami, ana unda yuzi o'zgarar, ovozi, qahqahalari, qiliqlari butunlay boshqa tus olardi. Qisqasi,

<sup>1</sup> Choliqushi – butazor qushi, chittak.

maktabimdagi yeng ichida ish ko'radigan dugonalarimning yana ham savodi chiqqanrog'i...

Eri haqida gap ochilguday bo'lsa, bu xotinning: «O, mening hayotim bitdi!» deb yolg'on taassurot qoldirishga harakat qilishi jon-jonimdan o'tib ketardi. U shunday qilganda ich-ichimda g'azabga kelar, «ko'zga yaqinroq birontasi uchrasin, ko'ramiz», deb o'ylardim.

Chorbog'imizda Narimonga teng keladigan hech kim yo'q edi. Latta Najmiyani esa, tabiiy, odam soniga qo'shib bo'lmaydi. Xolalarim sochlari, boshlari oqargan qari xotinlar. Goh uning, goh buning oyoqlarini tushashdan boshqa gaplari yo'q. U holda, u holda...

Men Narimonning chorbog'ga mazaxo'rak bo'lib qolgani-ning sababini seza boshlaganday edim. U esi past bo'lamni ko'z ostiga olib qo'ygan edi. Yo tegmoqchimikan? Unday deb o'ylamayman. O'ttizga yaqinlashib qolgan tul xotinning yigirma yoshlardagi yigitchaga tegish harakatiga tushishi — pastkashlikning borib turgani... Agar u bunday pastkashlikdan qaytmasa, bema'ni xolalarimda tajribasiz bolalarini kalxatga oldirib qo'ymaydigan ko'z topilarmikan?

Komronni esi past dedim-a? Yo'q, qizishganimdan aytdim... Yo'qsa, u nima qilayotganini yaxshi biladigan sariq chayon. Narimon bilan gaplashganda o'zini pinhon tutishga tirishadi, lekin mendan qochib qutula olarmikan?

Bo'lam qayerda bo'lsa ham, o'sha xotinning pinjiga kirib oladi. Goho hech narsadan bexabardek yonlaridan o'tib ketaman. Ana shunday kezlarda ovozlari pasaytirishadi yo gapni boshqa yoqqa burib yuborishadi... «Nima qilishsa qilishavermaydimi, senga nima?» deyarsizlar. Menga nimami? Komron dushmanim bo'lganda ham, har holda, bo'lam... Qandayligi noma'lum bo'lgan bir xotin uni buzar ekan-u, men qarab o'tiramanmi?..

Nima to'g'risida gapirayotgan edim?.. Ha, avgustning oydin kechalaridan biri... Mehmonlar chorbog' oldidagi ayvonda o'rinsiz yoqilgan katta lampaning yorug'ida hangomalashib o'tirishgan edi.

Narimonning muzika notalari singari o'lchovli, ohangdor qahqahalari asabimga tekkani uchun bog'ga chiqib, bir burchakda, qorong'i daraxtlar tagida xayol surib o'tirgan edim.

Azamat shoxlaridan bir qismi qo‘shni bog‘ga osilib tushgan bitta qari chinor bor. Bechoraning yeyishga yaraguli mevasi bo‘lmaganiga qaramay, salobati uchun yaxshi ko‘rardim. Us-tida, xuddi supada yurganday, hech qo‘rqmasdan yuriladigan yo‘g‘on, soyabon shoxlariga chiqib aylanar, yoxud o‘tirardim.

O‘sha kecha ham shunday qildim, anchagina baland shoxiga chiqib o‘tirdim.

Birozdan so‘ng qulog‘imga yengil oyoq tovushi, orqasidan esa bo‘g‘iq qahqaha eshitildi.

Darhol ko‘zlarimni ochib, quloqlarimni ding qilib turdim... Nima desam bo‘ladi. Bo‘lam baxtiyor tul bilan men tomon kelardi...

Qarmog‘iga baliq yaqinlashganini ko‘rgan baliqchi singari boshdan oyoq diqqatga aylandim. O‘tirgan yerimda shovqin solib yubormasaydim, deb o‘takam yorilardi. Behuda qo‘rquv!

Ular o‘zlaridan shu qadar ketishgan ediki, o‘tirgan yerimda bong ursam ham eshitishmas edi. Narimon oldinda, bo‘lam esa arab malayday to‘rt-besh qadam orqada kelardi. Devor orasidan o‘tib, nari ketishga madorlari yetmagani uchun men chiqib olgan daraxt tagiga kelib to‘xtashdi:

– Keling, jujuqlarim! Keling, qo‘zilarim!.. Sizlarni menga Olloh nasib qildi. Birozdan so‘ng ko‘rishamiz... Bu go‘zal oydin kechada sizlarda unutilmas bir xotira qoldirish uchun qo‘limizdan kelganicha g‘ayrat qilamiz!

Xuddi shu choq bir chigirtka chirillay boshlamaydimi? Dod deyman! Bo‘lamning baxtiyor tulga aytayotgan gaplarini eshitolmay qoldim... Qo‘limdan kelsa: «Hoy, notavon, nimadan qo‘rqasan? Bu yerlarda kim bo‘lardi?.. Ovozingni chiqarsang-chi!» deb baqirardim.

Komronning «Narimon, azizim, malagim», degan so‘zlarigina qulog‘imga chalindi. Dag‘-dag‘ titray boshladim. Yiqilib tushmaganimda ham, sharpa qilaman, yaproqlarni shitirlatib yuboraman, deb qo‘rqar edim. Bu orada Narimon xonimning ham bir-ikkita so‘zini eshitdim... «Iltimos qilaman, Komronbey, iltimos qilaman», – deyardi.

Nihoyat, ovozlar tindi. Narimon sekin-sekin devor tomon yurdi, qo‘shni bog‘da boshqa birov bor-u, uni ko‘rmoqchi bo‘lganday, oyoqlarining uchiga turib qaradi.



Komron esa uning orqasida nima qilishini bilmayotganday turardi...

Bo‘lamning birdan u tomonga yurganini, qo‘llarini ko‘targanini ko‘rdim... Yuragim qinidan chiqib ketayozdi, «axiyri aqli boshiga keldi, bu yomon xotinga shapati otadi», deb o‘ylayman. Komron shunday qila qolsa, men ham ho‘ngrab o‘zimni daraxtdan tashlayman, u bilan umrbod yarashaman. Lekin u maxluq bunday qilmadi. Qizlarnikiga o‘xshash opoq qo‘llari bilan Narimonni o‘ziga tortdi...

Yo Rabbiiy, bu qanday razolat, qanday razolat-a! Butun vujudim dag‘-dag‘ titrardi. Biroz avval ularga g‘alati bir o‘yin ko‘rsatib qo‘yishga qaror qilgan bo‘lsam, endi meni sezishmasin deb o‘takam yorilardi. Haqiqiy qushga aylanib, bu shoxlardan ko‘kka parvoz qilishni, osmondagi oy manzilida g‘oyib bo‘lib, bu dunyodagi odamlarning yuzlarini ko‘rmaslikni nechog‘liq istar edim!..

Lablarimni barmoqlarim bilan siqib turganimga qaramay, og‘zimdan bir ovoz chiqdi. Bu faryod bo‘lsa kerak. Lekin pastdagilar tushunguncha faryodim qahqahaga aylandi. Uyat-sizlarning o‘sha damdagi talvasasini, qo‘rquvini bir ko‘rsangiz edi!

Birozgina oldin oyoqlarini oy yog‘dusi kabi yerga tegizmay yurayotganday tuyulgan baxtiyor tul endi daraxtlarga urilib, qoqinib-suqinib qocha boshladi. Xolavachcham ham shunday qilmoqchi bo‘ldi. Lekin Narimon izidan bir necha odim bordi-yu, keyin nima o‘ylasa o‘ylagandir, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib qaytib keldi.

Men qiladigan boshqa ish topolmaganim uchun hamon kular edim. U mashhur «Qarg‘a bilan Tulki» ertagidagi tulki singari, daraxt tagida u yoq-bu yoqqa yura boshladi.

Nihoyat, uyatni bir yoqqa yig‘ishtirib qo‘yib:

– Farida, jonginam, biroz pastroqqa tusha olasizmi? – dedi.

Men kulgini to‘xtatib, jiddiy ohangda:

– Nima ishingiz bor? – dedim.

– Hech... Senga gapim bor edi-da...

– Mening esa siz bilan gaplashadigan gapim yo‘q... Rohatimni buzmang.

– Farida, hazilingni qo‘y...

– Hazilimni? Nega qo‘yar ekanman?

– Lekin haddingdan oshyapsan... Sen pastga tushishni xohlamasang, men tepaga chiqishim mumkin.

Ana xolos, bunisiga nima deysan! Yo‘lda ketayotganida kichkinagina ko‘lob suvni ko‘rib esankirab qoladigan, hatlashga qaror berishdan avval tuflilariga, suvga uch-to‘rt marta qarab oladigan, kursiga o‘tirish oldidan shimining tizzalarini barmoqlarining uchi bilan ushlab yuqori tortib qo‘yadigan nozik, nozanin bo‘lamning daraxtga chiqmoqchi bo‘lganiga, qo‘y, kulma!

Shu kecha Komron chindan ham vahshiydashgan edi. Pastdagi shoxlardan biriga osilib chiqdi, keyin yana ham yuqori chiqish harakatiga tushdi.

Shu kecha u bilan daraxt ustida yuzma-yuz kelish fikri nimagadir meni hayiqtirardi. Uchrashsak, falokat yuz berardi. Uning yashil ilon ko‘zlarini yaqindan ko‘rsam, daraxt shoxlari orasida potirlashib bir-biri bilan olishgan ikki yirtqich qushga aylanamiz. Ko‘zlarni o‘yib, pastga otamiz. Yo uni, yo o‘zimni.

Lekin, nima uchundir, bu yomonlikni ravo ko‘rmadim. Joyimda to‘g‘rilanib, keskin tovush bilan buyurdim:

– To‘xtang o‘sha yerda!

U parvo qilmadi, javob ham bermadi. Chiqib olgan shoxi ustida to‘g‘rilanib, yana ham yuqoriga qaray boshladi.

– To‘xtang, oqibati yomon bo‘ladi! – dedim. – Bilasizki, men Choliqushiman. Daraxtlar mening koinotim. Bu joylarga mendan boshqa odamning oyoq bosishiga ko‘zim yetmaydi.

– Bu yana qanday gap bo‘ldi, Farida?

Haqiqatan ham, bu qanaqa gap edi?

Nochor hazilga oldim. Yaqinlashsa, yana ham yuqori chiqish taraddudiga tushib:

– Bilasizki, sizni hurmat qilaman, – dedim. – Sizni daraxtdan yiqilishga majbur etsam, juda yomon xafa bo‘laman. Hozirgina she‘r o‘qigan ovozingiz birdaniga «Voydod!» «Voydod!» deb baqira boshlasa, fojia bo‘ladi.

Uning ovozin taqlid eta turib, qahqaha urib kulib yubordim.

– Bo‘lmasa ko‘rishamiz! – dedi Komron.

Qo‘rquv unga dalda, chaqqonlik bag‘ishladi. Tahdiddan hayiqmay, ostimdagi shoxlarga tirmasha boshladi.



Daraxtda quvlashmashoq o'yinini boshladik. U yaqinlashdi deguncha, men yuqori chiqaman. Shoxlar hamon ingichkalashib boradi. Bir qur devor ustiga sakrab tushib qochmoqchi ham bo'ldim. Biroq sakrashga qurbim yetsa ham, sakramayman, nimagaki, bir yerimni mayib qilib olguday bo'lsam, bo'lam o'rniga mening dodlash ehtimolim bor.

Har holda, nima bo'lsa ham, shu kecha bir-birimizga yaqin kelmasligimiz kerak. Siyosatni o'zgartirib so'radim:

– Men bilan nega bunchalik gaplashmoqchi bo'lganingizning sababini bilsak bo'ladimi?

Savolimni eshitib, u ham o'zgardi, jiddiy tus olib:

– Sen bilan hazillashyapmiz-u, lekin masala juda muhim, Farida... Sendan qo'rqyapman... – dedi.

– Shunaqami? Nimadan qo'rqasiz?

– Sho'xlik qilishingdan...

– O, har kungi ishim-ku bu!

– Bugungisi boshqa kunlardagiga o'xshamaganidan...

– Bugun biron favqulodda narsa yuz berdimi?

Komron juda charchagan, uzukkan edi. Shimi ham esiga kelmay, shoxlardan biriga o'tirdi. Hamon hazillashayotganday ko'rinsa ham, aslida, yig'lab yuboradigan ahvolda edi.

Unga achinganim uchun emas, u bilan gaplashishga toqatim qolmagani, undan tezroq qutulгим kelgani uchun:

– G'am yema, – dedim, – qo'rqadigan hech narsa bo'lgani yo'q, ko'nglingni to'q tutaver... Bor, mehmonlaring oldiga, ayb bo'ladi.

– Farida, shunchaki so'zmi yo ontmi?

– So'z ham, ont ham... Xohlaganing...

– Ishonsam bo'ladimi?

– Meningcha, ishonish kerak... Axir, burungiday yosh bola emasman-ku...

– Farida...

– Innaykeyin, hayronman: mening nima deyishimdan qo'rqasan? Men-ku daraxtda o'z yo'limcha o'tiribman...

– Qaydam, ichimda hech ishongim kelmaydi...

– Katta bo'lib qolganimni, esi kirgan qiz bo'lganligimni senga aytishdan, albatta, bir maqsad bor... Bor, suyukli bo'lam... Ortiq uzukma... Ba'zi narsalar borki, bularni yosh

bola ham sezadi... Lekin ulg'ayib borayotgan yosh qiz hech farqiga bormaydi... Bor, ko'nglingni xush qil...

Komronning vahmi sekin-sekin hayratga aylanib borayotgan-day ko'rinardi. Meni albatta ko'rgisi kelgandek, boshini ko'tarib:

– Gaplaring butunlay boshqacha-ya, Farida, – dedi.

Gap cho'zilsa, keti ko'rinmasligi mumkin. Shuning uchun yasama g'azab bilan baqirib berdim.

– Bas endi!.. Gapni cho'zaversang so'zimni qaytarib olaman... Tushunsang-chi!

Po'pisam uni qo'rqitdi. Shoshib-pishib daraxtdan tushdi-da, Narimon ketgan tomonga qarab yurishdan uyalganday, bog'ning etagiga qarab ketdi.

Baxtiyor tul o'sha kechadan so'ng chorbog'da ko'rinmadi. Komronga kelsak, uzoq vaqtlargacha mendan hadiksirab yurdi, men buni sezdim.

Komron Istanbulga tushganda, har safar menga hadyalar olib qaytardi. Bitta rasmi yapon soyapari, shoyi ro'molchalar, ipak paypoqlar, yuraksurat pardoz oynasi, chiroyli qo'l sumkasi tortiq qildi...

Bolalik sho'xliklarini tashlamagan qizdan ko'ra ko'proq yetilgan qizga yoqadigan bu narsalarning menga hadya qilinishida qanday ma'no bor edi? Choliqushining ko'zlarini bo'yashdan, janjallarining oldini olib, sho'xligiga to'sqin bo'lishdan boshqa nima ham bo'lardi?

Birov seni esdan chiqarmasa, zavqlanish mumkinligini tushunadigan yoshga yetib qolgan edim. Yana bu chiroyli narsalar o'zimga ham yoqardi.

Lekin bu hadyalar menga manzur bo'lganini na Komronga, na boshqalarga bildirgim kelmas edi.

Buning ustiga, nozik qamishlar terilgan, qiyiq ko'zli yapon qizlarining suratlari bilan bezalgan soyaparimni yerga, tuproqqa tushirgan paytlarimda olmasam, xolalarim:

– Farida, senga berilgan hadyalarni shunday qadrlaysanmi? – deb ta'na qilishardi.

Sumkaning yaltiroq, yumshoq terisiga barmoqlarim tek-kanda, hamisha hurmat hissi tuyardim; bir kun ana shu sumkaga qo'limdagi ho'l mevalarni solmoqchi bo'lganday bir harakat qilib, xolalarimni rosa jag'illatdim.





Yana ham hushyorroq bo'lganimda, Komronning bu hadigidan yana ham ko'proq foydalanar, turli do'q-po'pisa bilan uni yana nimalar... nimalar olib berishga majbur etardim.

Lekin o'zim shu qadar yaxshi ko'rgan bu narsalarimni yirtgim, sindirgim, keyin oyoqlarim ostiga olib yig'lab turib depsigim kelardi.

Bo'lamga bo'lgan kekim, nafratim hech tarqalmas edi.

Boshqa yillar maktabning ochilishi kunlari yaqinlashgan sari boshim og'rir, ko'zlarim tinardi. Ammo o'sha yil bu uydan, bu odamlardan uzoqlashadigan kunimni intizorlik bilan kutdim.

\* \* \*

Maktab ochilgan haftaning yakshanbasida murabbiyalar bizni Qyag'itxona<sup>1</sup> tomonga olib chiqishdi. Murabbiyalar ko'chada yurishni juda yomon ko'rishadi, lekin o'sha kuni nima bo'ldi-yu qorong'igacha qolib ketdik.

Men eng orqada ketayotgan edim. Qanday bo'lganligini bilmayman. Bir mahal qarasam, dugonalarim bilan mening o'rtamdagi masofa juda uzayib ketibdi. Meni odatdagicha oldinda ketayotibdi deb o'ylashgan bo'lishsa kerak, hech yoqdan meni yo'qlovchi ovoz chiqmadi. Bir payt yonimga bir ko'lanka kela boshladi. Qarasam Mishel:

– Senmisan, Choliqushi? Nega yakka o'zing sudralib ketyapsan? – dedi.

– O'ng oyog'imning boldiriga chandilgan ro'molchani ko'rsatdim.

– Hali o'ynab turib yiqilganimda, oyog'imni yaralab olganimdan bexabarga o'xshaysan-a? – dedim.

Mishel yomon qiz emas edi. Holimga achindi.

– Xohlaysanmi, senga yordam qilay?

– Har holda, meni opichib olish fikring-ku yo'qdir?..

– Tabiiy, yo'q... Iloji yo'q-da... Faqat qo'ltiqlab olishim mumkin, xo'pmi? Bunday emas... Qo'lingni yelkamga qo'y... Mahkamroq ushla... Men ham belingdan ushlab olaman... Og'rig'ing picha kamayadi... Qalay, yurganingda joning uncha og'rimayaptimi?

<sup>1</sup> Qyag'itxona – Istanbul atrofidagi bir tuman va soy nomi.

Aytganini qildim. Haqiqatan, ahvolim ancha yengil tortdi.

– Mersi<sup>1</sup>, Mishel, sen juda ajoyib qizsan, – dedim.

Biroz yurganimizdan so‘ng Mishel:

– Bilasanmi, Farida, bu ahvolda yurganimizni dugonalarimiz ko‘rishsa, nima deb o‘ylashadi? – deb so‘radi.

– Nima deb o‘ylashadi?

– Farida ham oshiq bo‘libdi... Mishelga dardini aytyapti, deb o‘ylashadi.

Birdan to‘xtadim.

– Gaping rostmi? – deb so‘radim.

– Albatta...

– Unday bo‘lsa, qo‘ltig‘imdan chiq.

Shu buyruqni bera turib, askar komandiriday jiddiy tus oldim.

Mishel meni hamon qo‘yib yubormay:

– Eski safsata, – dedi. – Nahotki shunga ham ishonsang?

– Safsatami? Nega?

– Qizlar sening qanaqaligingni bilishmaydimi?

– Nima demoqchisan?

– Hech senda bunday mojaro bo‘lishi mumkin emasligini... Birov bilan yurish ehtimoling yo‘qligini...

– Nega endi?.. Meni xunuk deb o‘ylaysanmi?

– Yo‘q... Xunuk demayman... Aksincha, chiroylisan ham...

Faqat o‘lguday laqmasan, og‘zing bo‘sh...

– Meni shunday deb o‘ylaysanmi?

– Mengina emas, hamma ham shunday deb o‘ylaydi...

Sevgi bobida Choliqushi chinakam gurd deyishadi.

Turkchasini ammo uncha yaxshi bilmayman-u, lekin fransuzchasiga «gurd» degani osmaqovoq, suvqovoq, bolqovoq ma‘nolarini beradi. Qaysi biri bo‘lsa ham, yomon narsa... Zotan, pastak bo‘yim, bo‘liq gavdam bilan bu qovoqlardan biriga anchagina o‘xshab ham ketishim mumkin... Shu holda Choliqushidan keyin menga yana gurd degan laqab qo‘yilsa, ko‘p yomon bo‘ladi! Nima qilib bo‘lsa ham, odamni sharmanda qiluvchi bu xavfning oldini olish kerak.

Mishelning o‘zidan o‘rgangan bir qiliqni qildim – boshimni yelkasiga qo‘ydim, tagdor qilib yuziga qaradim, keyin g‘amgin kulimsirab:

<sup>1</sup> Mersi – rahmat (*fransuzcha*).



- Mayli, sizlar shunday deb o‘ylay turinglar, – dedim.
- Nima deyapsan, Farida?

Mishel taqa-taq to‘xtadi, menga ajablanib qaradi. Men bo‘ynimni qisib tasdiqladim.

– Afsuski, shunday, – dedim. Keyin yolg‘onimni osonroq hazm qilinishi uchun bir oh ham urib qo‘ydim.

Mishel bu safar hayratidan ayyuhannos tortib yubordi:

– Ajoyib!.. Juda ajoyib, Farida!.. Afsuski, hech ishongim kelmaydi.

Bechora Mishel sevgi savdosiga shunchalar ishqiboz ediki, buni boshqalarda sezdi deguncha, yuragi suyunchlarga to‘lib ketardi. Faqat, o‘zi aytganidek, ishonishga, ochiq-oshkor sevinishga botinolmasdi.

Beadabgarchilik qilib qo‘ydim. Nomusim uchun buni oxiriga yetkazishim kerak.

– Shunday, Mishel, men ham birovni yaxshi ko‘raman, – dedim.

– Faqat yaxshi ko‘rasan xolosmi, Choliqushi?

– Shubhasiz, uning ham mayli bor, grand<sup>1</sup> gurd. Boya uning menga aytgan gurd so‘zini men ham oldiga «katta» sifatini qo‘shib o‘ziga hadya etdim-u, «bu sensan, sening oting bu» deyish esimga kelmas edi.

Demak, yolg‘on boshlanar-boshlanmas o‘zimni tanitishga muvaffaq bo‘libman, naqadar baxt!

Mishel endi meni zo‘r mehr bilan suyab borardi.

– Aytib ber, Farida... Aytib ber, qanday bo‘ldi? Demak, sen ham, a? Qanday ajoyib narsa, a, shunday emasmi?

– Albatta ajoyib!..

– Kim u?.. Yaxshi ko‘rgan yigiting juda ham chiroylimi?

– Juda chiroyli!

– Qayerda ko‘rding? Qanday tanishding?

– ...

– Bas, ko‘p yalintiraverma.

O‘zim ham yalintirmayin deb o‘lib turibman. Lekin ni-mani to‘qib gapiraman? Ana shunisini bilmayman. Sevgili kishing bo‘lganda shoshib qolasan, chunki uning visolini eslashning o‘zi naqadar qiyin, naqadar qiyin...

– Bo‘la qol, Farida... Yashirma... Bo‘lmasa men bilan hazillashibsanda.

<sup>1</sup> Grand (Grande) – katta (*fransuzcha*).

Birdan shoshib qoldim. Hazilmi? Xudo saqlasin... Men osmaqovoq yo suvqovoqmanmi?.. Bo'lmasa shunday bir ishq savdosini to'qiyki, o'zing hayron qolgin?..

Mishelga sevgan kishim bilan maqtanish uchun kimning otini aytсам sizga manzur bo'ladi? Komron!..

– Bo'lam bilan ishqibozlik qilishamiz...

– O'tgan yil maktab dahlizida men ko'rgan sarg'imgir yigit bo'langmi?

– Xuddi o'sha...

– O, qanday chiroyli, a!

Men sizga aytdim-ku, Mishel sevish uchun yaratilgan qiz edi... Komron shu mahalgacha maktabga ikki yo uch marta kelgandir... Mishel, jigar hidi dimog'iga urgan mushuk singari, yosh yigitning hidini bilib darrov dahlizga yugurib chiqqani, bizni poylagani qiziq emasmi axir?

Yulduzlar chiqdi. Kuz kirib qolganiga qaramay, havo odam dimog'iga ekin bo'ylarini urib turgan yoz havosiga o'xshardi.

Vujudim butun og'irligi bilan Mishel yelkasiga tushdi, sochlarimiz, betlarimiz bir-birimiznikiga yopishdi. Men o'zim to'qigan afsonani hikoya qila boshladim.

– Bundan ham chiroyliroq kecha edi, – dedim. – Eshik oldidagi odamlardan uzoqroqqa ketdik... Men oldinda, bo'lam ikki-uch odim orqada... U menga ajoyib narsalar so'zlardi. Ammo nimalar so'zlaganini takrorlamayman. Chunki xohlamayman... Chigirtkalar biram chirillashdiki... Yurdik, yurdik... Oy yog'dusida hovuzga aylangan maydonlardan daraxtlar orasidagi qorong'i joylarga kirib ketamiz. Keyin yana oydin maydonlarga chiqamiz... Birozdan so'ng tag'in qorong'ilikka sho'ng'iyimiz.

– Bog'inglar muncha uzun ekan, Farida? Xato qilib qo'yishdan juda qo'rqaman.

– Yo'q, uncha uzun emas-u, o'zimiz sekin-sekin yurdik-da... – dedim, keyin hikoyamning u yog'ini aytdim. – Axiri yo'limiz oxiriga ham keldi... Bog'ning etagida qo'shnimizning devoriga osilib tushgan kattakon chinor bor. O'shaning tagiga kelib to'xtadik. Men oyoqlarimning uchida turib, o'zimni qo'shnimizning bog'iga qarayotganga soldim...



Rolimni juda yaxshi o'ynayotgan bo'lsam kerakki, gapirib turib titrar, ovozim bo'g'zimga tiqilib qolar, ko'zlarimga yosh kelar edi...

– Keyin nima bo'ldi, Farida, keyin?

– Keyin daraxtdan bir qushning sharpasi keldi.. – Juda yomon qush ekan... Qo'rqib qochib ketdik...

Ortiq ko'z yoshlarimni tutolmas, boshimni Mishelning ko'ksiga qo'yib olib, piq-piq yig'lar edim... Bu yig'i qancha cho'zilar ekan, bilmayman... Xayriyat, yo'q bo'lib ketganimizni axiyri sezishdi... Baqirib-chaqirib bizni izlay boshladilar. Mishel ularga ovoz qildi.

– Ketyapmiz, lekin tez yurolmayapmiz, – dedi. – Choliqushining oyog'i lat yebdi...

Yasha, Mishel!.. Men ham xuddi shuning uchun yig'layapman... Endi tezroq yurib ketishimiz mumkin.

O'sha kecha hamma uxlagandan keyin ham o'rnimda yig'lab yotdim. Lekin shunisiga aminmanki, bu safar yoshlar rol tufayli emas, o'z-o'zimga achinganim tufayli to'kilmogda edi. Modomiki, dugonalarimga o'zimning gurd emasligimni isbot etish uchun bitta yolg'on to'qishga qaror bergan ekanman, dunyoda boshqa odam topilmagandek, nega endi bo'lamni, dunyoning hech jinim suymaydigan insoni bo'lgan Komronni tilga oldim? Ertalab uyg'onar-uyg'onmas Mishelni qo'lidan ushlab bir chetga tortaman-u, kechqurungi gaplarimning hammasi yolg'onligini aytaman, deb ko'nglimga tugib qo'ydim.

Lekin, netayki, ertalab uyg'onganimda jahlim tarqalgan, xijolatpazligim ham meni tark etgan edi.

Menga har mahalgidan boshqacha ko'z bilan qarab, kasal bolaga qilinadigan muomalani qila boshlagan Mishelga haqiqatni aytishga botina olmadim.

Mening gapim sekin-sekin dugonalarim orasiga tarqaldi. Mishel ularga qattiq tayinlagan bo'lsa kerak, hech kim menga bu gapning uchini chiqarmasdi. Faqat qarashlaridan, kulishlaridan nima demoqchi ekanliklarini bilib turardim. Bu narsa menda g'alati g'urur tug'dirardi. Sho'xligimni, yaramasligimni bir necha vaqtgacha tashlashga majbur bo'ldim. Endi har kim menga bo'lasini yaxshi ko'rib qolgan qiz,

deb qarar edi... Shunday bo'lgandan keyin kap-katta qizning go'dak bola singari hatlab, sakrab o'ynashi, yaramasliklar qilishi juda ham yarashmagan narsa-da!

Afsuski, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi, deydilar. Kechqurunlari oxirgi tanaffusda Mishelning qo'liga osilib, unga yangi to'qigan uydirmalarimni aytar, shu bilan birga, o'zim ham shayton vasvasasiga uchib borar edim.

\* \* \*

Yana bir sayohatdan endi qaytib kelgan edik.

O'sha kuni Mishel nima uchundir biz bilan sayrga chiqmadi. U meni eshikda kutib oldi, qo'limdan ushlab, meni bog'ning bir burchiga yugurtirib olib keldi.

– Senga bitta gap topib qo'ydim, – dedi. – Ham suyunasan, ham xafa bo'lasan...

– Bugun sening malla bo'lang maktabga keldi!..

– ...

– Albatta, seni yo'qlab kelgan-da... Koshkiydi, sen ham men bilan qolgan bo'lsang.

Ishongim kelmas edi. Muhimroq sabab bo'lmasa, Komron meni nechun axtarib kelsin? Mishel, har holda, yanglish ko'rgan bo'lsa kerak.

Lekin shubhamni o'ziga aytmadim. Yolg'ondakamdan ishongan bo'lib:

– Yigit ko'ngil bergan qizini ko'rgani kelishidan ham tabiiyroq narsa bo'lishi mumkinmi? – dedim.

– Ko'rmaganingga xafa bo'lding-a?

– Albatta.

Mishel betimni siladi.

– Xafa bo'lma, yana keladi, – dedi, – modomiki, yaxshi ko'rar ekan...

– Shubhasiz...

O'sha kuni kechqurun ovqatdan so'ng Matild opa meni chaqirdi-da, zar tasma bilan bir-biriga bog'langan rasmi ikkita qand qutichani uzatib:

– Bularni senga bo'lang olib keldi, – dedi. Matild opa hech jinim suymaydigan xotin. Ammo qutichalarni uzatayotganida bo'yniga osilib betlarini o'pishdan o'zimni zo'rg'a ushlab qoldim.

Demak, Mishel xato ko‘rmagan. Meni bo‘lam yo‘qlab kelgan ekan. Dugonalarim orasida mening cho‘pchagimga shubha bilan qarovchilar bo‘lsa, bu ikkita qutichani ko‘rgandan keyin ular ham fikrlarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladilar. Naqadar yaxshi!

Qutichalarimning biri likyorli rang-barang konfetlar, ikkinchisi esa zar qog‘ozlarga o‘ralgan shokoladlar bilan to‘la edi. Uch-besh oy ilgari bo‘lganda, bu narsalarni eng yaqin dugonalarimdan ham zo‘r ehtiyot bilan yashirgan bo‘lardim. Ammo o‘sha kecha dars tayyorlash soatida qutichalarim sinfda qo‘ldan qo‘lga ko‘chib yurdi. Qizlar esa, har qaysisi o‘z insofiga qarab, qutichadan bitta, ikkita, yo uchtadan konfet olishdi.

Ba‘zilari uzoqdan tagdor ishoralar qilardi. Men o‘zimni uyalayotganga solib, yuzimni chetga o‘girar, kular edim. Qanday yaxshi-ya!

Mishel, afsuski, tagidagi zar qog‘ozlari ko‘rina boshlagan qutichalarimni o‘zimga qaytarib berayotib:

– Bu qutichalar, odatda, kelin qizlarga beriladigan shirinlik qutichasi bo‘ladi, Farida, – deb pichirladi.

O‘zim to‘qigan ertak menga juda qimmatga tushdi, lekin nachora?

Oradan uch kun o‘tdi. Imtihon uchun bir geografiya kartasini bo‘yayotgan edim. Menga bo‘yoqchilik hech to‘g‘ri kelmaydi. Uncha epim bo‘lmagani uchun har gal ranglarni bir-biriga aralashtirib yuborar, qo‘llarimga, lablarimga rang tegizib olardim.

O‘sha kuni ham shu ahvolda ishlab turganimda darvoza-bonning qizi sinfga kirib, bo‘lam meni ko‘rgani kelganini, hozir qabulxonada kutib turganini aytdi. Nima qilishimni bilmay, kursida o‘tirgan o‘qituvchimizga alanglab qaray boshladim. Bu hali-hali esimda.

– Bor, Farida, kartangni qo‘y, o‘sha yerda turaversin... Mehmonning oldiga chiq, – dedi.

Kartalarni-ku, joyida qoldiraman, juda soz... Ammo mehmonni qaysi qiyofada ko‘rgani chiqaman?

Yonimdagi dugonam fartugining cho‘ntagidan kichkina oynakcha chiqardi-yu, meni ermak qilayotganday, ro‘paramga qo‘yib qo‘ydi.

Yuzim bilan og‘zimning ahvoliga maymunlar yig‘laydi. Xat yozganda ruchkani og‘zimga solish odatim bo‘lgani uchun mo‘yqalamni ham og‘zimga solibman. Lablarimda sariq, qizil, ko‘k ranglar yo‘l-yo‘l bo‘lib yotardi. Bularni na ro‘molcha bilan artib, na suv va na sovun bilan yuvib chiqarishning iloji yo‘qligini, bunday qilguday bo‘lsam, butunlay surkab yuborishim mumkinligini bilardim.

Komronning-ku ahamiyati yo‘g‘-a, uning oldiga qaysi alfozda chiqishni xohlasam, o‘sha alfozda chiqaveraman-u, lekin keluvchining kimligini bilib, piq-piq kulishayotgan dugonalarim ko‘zida men ko‘ngil bergan, hatto unashilish oldida turgan qizman. Xudo o‘z jazosini bersin!

\* \* \*

O‘sha yil Komron maktabga bir necha bor qatnadi. Shunchalik ko‘p keldiki, eshik har safar ochilganida meni dahlizga chaqirgani kelishayotganday tuyulib, yuragim o‘ynay boshlar edi. U menga keltirgan shokoladlar, pirojniylar, pastalar bilan butun sinf ta‘minlanib turdi, desam bo‘ladi.

Ochko‘zlikda ham tirishqoqligi qadar mashhur bo‘lgan sinfdoshlarimdan Mari Pirlantajiyan qand-qurslarimni oppoq yirik tishlari orasida g‘ajirlatib yeydi-da, yashirishning epini qilolmagach, hasad bilan:

– Jigarso‘xtangki shunday ajoyib narsalar keltirgandan keyin, o‘zing ham rosa jigaridan uribsan-da, – deydi.

Afsus, bu mojaro jonimga tega boshladi. Ba‘zida o‘zimcha o‘ylanib ketaman: gap tashuvchi bolaning og‘zini yopish uchun keltirilayotgan bu narsalarni dugonalarimga boshqacha qilib ko‘rsatishim hayosizlik emasmi? Innaykeyin, Komron nega endi maktabga shuncha tez kelib turibdi? Har safar «Shu tomonlar-da turadigan bir kasal o‘rtog‘imni ko‘rgani kelib edim-da. Taqsin bog‘ida biroz mashq eshitib ketay deb edim-da...» kabi sabablar ko‘rsatadi.

Boshqa bir kun hech narsa so‘ramasam ham:

– Otamning Nishontoshida bir qadrdon do‘stini ko‘rib kelyapman... Otam u kishini ko‘p yaxshi ko‘rardi, – dedi.

O‘zimni tutolmasdan birdaniga hamla qilib:

– Oti nima? Nima ish qiladi? Manzili qanday? – dedim.





Bo‘lam shoshib qoldi. Shu darajada shoshdiki, bironta yolg‘on ism, yolg‘on adres ham tiliga kelmadi. Rangdan rangga kirib, kulib turib:

– Nima qilasan so‘rab? Seni nimasi qiziqtiradi? – kabi so‘zlar bilan meni aldashga tutindi.

Bunda muhim bir masala borday:

– Kelasi hafta boshlarida borib xolamdan so‘rayman, – dedim.

Komron bu gapimni eshitib, beshbattar qizarib ketdi.

– Zinhor so‘ray ko‘rma! Onamga og‘zingdan chiqarma!.. U kishi bilan ko‘rishishimni hech xohlamaydi, – deb yolvora boshladi.

Zaharli chayon, meni hech alday olmaysan... Sening yuragingda nimalar borligini bilaman.

G‘azab bilan o‘rnimdan turdim, u zo‘rluk bilan ushla-moqchi bo‘lgan qo‘llarimni cho‘ntaklaringa yashirdim.

– Na otangizning do‘stlari va na o‘zingizning do‘stlaringiz meni qiziqtiradi, deb o‘ylasangiz, xato qilasiz... O‘rinsiz laqmalik qildim, xolos, – dedim-u, tashqariga chiqib ketdim.

\* \* \*

O‘sha kundan keyin Komron har safar maktabga kelganda turli xil bahonalar qilib, oldiga chiqishdan bosh tortdim. Har safar olib kelgan qutichalarini sinfda yo bog‘da yirtib ochadigan, ichidagilarining bir donasiga ham qo‘l urmay, bolalar ustiga sochib yuboradigan bo‘ldim.

Haqiqat oyday ravshan edi. Baxtiyor tul mutlaqo shu atroflarda turishi kerak. O‘sha kechadan keyin, albatta, pisandalari shunday bo‘lgan. Bo‘lam tez-tez unikiga boradi, shu orada meni ham yo‘qlab turadi.

Xohlagan axloqsizliklarini qilishaversin... Menga nima, faqat ikki o‘rtada meni o‘yinchoq qilishlari jon tomirimni sug‘urardi. Shu narsa esimga tushdi deguncha badanimni o‘t olar, alamimdan yig‘lab yubormaslik uchun lablarimni tishlab qonatar edim.

Narimonning qayerda turishini uydagilardan so‘rab bilib olish hech gap emas, lekin bu xotinning otini tilga olish men uchun chidab bo‘lmaydigan narsaday tuyulardi.

Dam olish kunlarining birida uyga borgan edim, mehmonlardan biri Najmiyaga:

– Ilgari kuni Narimondan xat oldim, juda baxtli emish, – deb qoldi.

Kichkina laychani hovuzda cho‘miltirgani olib chiqib ketayotgan edim. Shu so‘zlarni eshitdim-u, eshik oldida to‘xtadim, yerga cho‘kkalab kuchukchani quchog‘imdan sekin qo‘yib yubordim.

Baxtiyor tul haqida bir narsa so‘rash fikrim yo‘q edi, lekin qulog‘imga birov paxta tiqib qo‘yibdimi?

Mehmon hamon so‘zlardi.

– Eridan juda xursandga o‘xshaydi, bechora bu gal zora baxtli bo‘lsa...

Najmiya odam ovozini takrorlaydigan hammom gumbaziga o‘xshab:

– Ha, ha. Bu gal zora baxtli bo‘lsa bechora, – deb, mehmonning so‘zlarini takrorladi-yu, ahmoqona bir tarzda gapga xotima berdi.

Chorasiz bir zarurat boshimga tushdi. Hazil-mutoyiba qilib:

– Xonim afandi yana erga tegdilarmi? – deb so‘radim.

– Qaysi xonim afandi?

– Sizga xat yozgan xonim. Narimon xonim. Mehmon o‘rniga Najmiya javob berdi:

– Voy, xabaring yo‘qmi? Qachonlari-yu... Narimon bitta injenerga tekkan... Besh-olti oydan beri eri bilan Izmirda turadi...

«Bu gal zora baxtli bo‘lsa, bechora...» degan tilakni men ham uchinchi marta takrorlab, kuchukchani quchog‘imga oldim-u, tashqariga pirillab chiqib ketdim. Lekin hovuzga bormadim: chetanlar, bog‘ to‘siqlari ustidan sakrab o‘tib, bog‘ atrofida gir aylana boshladim.

\* \* \*

O‘sha yoz sayohatga chiqdim. Uzoqqa emas, Taqirdog‘iga... Ma‘lumki, Xudo menga xolalardan mo‘lroq narsa bermagan. Shulardan biri ham Taqirdog‘ida. Eri Aziz pochcham xolamga uylanganidan beri o‘sha yerda dehqonchilik qiladi. Mujgon degan mendan uch yosh katta qizlari ham

bor. Qarindoshlarimning bolalari ichida hammasidan ko‘proq o‘shani yaxshi ko‘raman.

Mujgon — xunuk qiz. Lekin men bunga parvo qilmayman. Oramizda uch yosh farq bo‘lishiga qaramay, men uni yoshligimdan beri katta opam o‘rnida ko‘rib, o‘rganib qolganman. Hozir farqimiz juda kamayib qolgan bo‘lsa ham, hamon unga avvalgiday qarab «opa» deb gapiraman.

Mujgon opam mening tamom aksim. Men qanchalik sho‘x, qanchalik olov bo‘lsam, u shunchalik og‘ir, vazmin. Buning ustiga, sal zug‘mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan bitta shuning o‘zi desam bo‘ladi. Ba‘zan nasihatlariga parvo qilmay, xohishlariga qarshi chiqsam hamki, yana bo‘ysunishga to‘g‘ri keladi. Nega? O‘zim ham hayronman. Odam bolasi birovni yaxshi ko‘rish halokatiga uchradimi, tamom, o‘shanga qul bo‘lib qoladi.

Mujgon Oysha xolam bilan birga necha yilda bir marta Istanbulga kelar, bir necha hafta chorbog‘da qolar, yo boshqa xolalarimnikida mehmon bo‘lar edi.

O‘sha yoz Taqirdog‘idan meni chaqirib xat keldi. Oysha xolam Basima xolamga yozgan xatida: «Sizdan-ku umidim yo‘g‘-a, lekin Faridani yozgi kanikulida, albatta, yuborsangiz, hech bo‘lmasa, ikki oygina turib ketsa. Kutamiz. Bilasiz-ku, biz ham xolamiz. Kelmasa, pochchasi ham, men ham, Mujgon ham juda qattiq xafa bo‘lamiz», — debdi.

Basima xolam bilan Najmiya Taqirdog‘ini dunyoning bir bur-chagida deb hisoblashar, olis yulduzlarga qaraganday ko‘zlarini suzishib: «Bo‘lmagan gap! Shuncha joyga qanday borib bo‘ladi» deb vahima qilishardi. Men yasama bir hurmat bilan huzurlarida egilib:

— Ijzat bersalaringiz, u yerning borib bo‘lmaydigan joy emasligini isbot qilish zahmatini bo‘ynimga olsam, — dedim.

Dugonalarim orasida yozgi kanikul kunlarida oilalari bilan birga sayohatga chiqadiganlar va qaytgandan keyin bizga og‘iz ko‘pirtirib maqtanadiganlar bo‘lardi. Demak, maktab ochilganda bizga ham mundoq qadni ko‘tarib gapirish imkoni tug‘iladi.

Bulturgi sevgi savdosiga bu yil sayohat hikoyasi qo‘shilsa bormi, ajoyib dabdaba bo‘lar edi. Qani endi, men ham portfelimni qo‘limga olsam-u, romanlarda yozilgan amerika-

lik qizlar singari yakka o'zim kemaga tushib jo'nab qolsam. Lekin xolalarim bu orzumni vahimali chinqiriq bilan qarshilab, yonimga bitta odam olmasdan yo'lga chiqishimga rozi bo'lmadilar. Shunda ham «Qorong'ida panjaradan dengizga qarama... Kema zinapoyalaridan yugurib tushma» kabi og'ir nasihatlari bilan ta'bimni rosa tirriq qilishdi, go'yo Taqirdog'iga qatnaydigan tog'oraday paroxodning Transatlantika kemalari singari sakson metrli zinapoyalari borday...

Mujgonni ko'rmaganimga ikki yil bo'lgan edi. Shu orada o'sibdi, yetilibdi, gaplashishga odamning yuragi betlamaydigan darajada kerik salobatli bo'lib qolibdi. Shunga qaramay, bir zumda apoq-chapoq bo'lib ketdik.

Pochchamning uyi dengiz bo'yidagi baland qirlikda. Mujgon opam ba'zi joylari tik devorga o'xshagan bu qirdan dengiz bo'yiga tushishimni xavfli hisoblab, avvallari bunga yo'l qo'ymay keldi. Keyin esa men uchun hech qanday xavf yo'qligiga o'zi ham ishondi. Soatlar bo'yi qumda yotar, suv betida tosh yumalatar, dengiz bo'yida uzoq-uzoqlarga ketib qolar edik.

Dengiz bu mavsumda nihoyatda chiroyli, sokin bo'lsa ham, lekin nash'asiz edi. Ba'zan soatlar o'tardi, lekin sathida na bir yelkan va na nafis tuman parchasi ko'rinardi. Kechki paytlarda dengiz odamning yuragini chiqarib yuboradigan darajada kengayib, sho'ppayib qolardi. Xayriyatki, men bu tahlikani oldindan sezib qolar, dengiz bo'yidagi qoyalarni qahqahalarim bilan gurillatar edim...

\* \* \*

... kechqurun ovqatdan so'ng Mujgon ikkimiz uy oldiga chiqdik. Gaplashib yurib dengiz tomonga ketdik.

– Sening bir darding bor, Farida, hech gapirmaysan, – dedi Mujgon.

Biroz ikkilanib turganimdan so'ng:

– Kunduzi aytgan behuda gapingni hech miyamdan chiqara olmayapman, ko'nglim xijil, – deb javob berdim.

Mujgon shoshib so'radi:

– Nima devdim?

– «Men orqasidan birov yuguradigan qiz emasman-ku»,

– deding.



Mujgon yumshoqqina kuldi.

— Ana xolos, senga nima kuygulik?

Men Mujgonning qo‘llarini ushladim, ko‘zlarimni jovdiratib, mungli tovush bilan:

— Nima, sen xunukmisan, opa? — deb so‘radim.

U yana kuldi, meni erkalab betimga asta shapati urdi.

— Xunuk ham emasman, chiroyli ham... O‘rtachaman deyyayin-u, shu bilan gapni tamom qilaylik... Senga kelsak, bilasanmi, yoshing o‘sgan sari odamning hushini oladigan darajada ochilib boryapsan!

Qo‘llarimni Mujgonning yelkasiga qo‘ydim, uni o‘pmoqchiday burnimni burniga taqab:

— Meni ham o‘rtacha deyyaylig-u, shu bilan bu masalani bitiraylik, — dedim.

Qiyalikning chetiga kelgan edik. Yerdan tosh to‘plab dengizga ota boshladim. Mujgon ham menga qo‘shildi, lekin boyaqish tosh otishni bilmasdi — qo‘lida quvvati yo‘q edi.

Men otgan toshlar osmonda bir zumgina ko‘rinmay ketardi-da, keyin fosforday yaltirab borib, suvga o‘qday otilib kirib ketardi. Uniki esa kulgili bir alfozda yumalab borib, qirg‘oq toshlariga urilar yoki etakdagi qumlarga tushardi. Biz ichagimiz uzilguday bo‘lib kular edik.

Nima ham deysiz, oy yog‘dusiga cho‘milgan dengizning ikki yosh qizga bag‘ishlangan ilhomi shugina bo‘lmasligi kerak edi, lekin nachora. Birozdan keyin Mujgon charchab katta-kon toshga o‘tirdi. Men ham turgan yerimga cho‘kkaladim.

Mujgon maktabdoshlarim to‘g‘risida har xil savollar bera boshladi. Men ham Mishel to‘g‘risidagi bir necha voqeani aytib berdim. Keyin tilimni tiyolmay, o‘z uydirmalarimni aytishga kirishdim.

Buning nima hojati bor edi? Ajabo, Mujgonga shu narsalarni aytib berishga meni majbur qilgan narsa shunchaki bir sho‘xlik ehtiyojigina edimi? Qaydam. Noo‘rin ish qilayotganimni sezib, tilimni shuncha tiyishga urinsam ham, hech epini qilolmay so‘zlar edim.

Mujgonga aytib bergan narsalarim dugonalarimni bo‘ri er-tagidagi singari qanday aldaganim hikoyasidan iborat edi. U mahal rol talabi bilan o‘zimni qayg‘uli holga solardim, lekin

bu safar bunga majburiyat bo'lmasa ham, nima uchundir yana o'zimni qayg'u og'ushiga tashladim. Ovozim asta-sekin mung olib, boqishlarim telbalanib bordi. Mujgonning yuziga qarashdan qo'rqib, ko'zlarimni olib qochar edim. Uning goh etaklari, yo tugmalarini o'ynar, goh boshimni tizzasiga qo'yib, nuqul dengizga, uzoqlarga tikilardim.

Hikoyamning qahramonini avval Mujgondan yashirishga tirishdim-u, keyincha buni ham og'zimdan chiqarib yubordim.

Mujgon sochlarini silab, so'zlarimga jimgina quloq solib o'tirardi.

So'zimni bitirib, dugonalarim haqida yolg'on-yashiq narsalar aytganim aybligini bo'ynimga olganimda, u nimalar dedi deng?

– Bechora Faridaginam! Komron chindan ham jigaringdan urib qolibdi!

Jinim qo'zg'adi-yu, birdan o'zimni Mujgonning ustiga tashladim, uni qurib qolgan o'tlar ichida yumalatib tortqilay boshladim.

– Nima deding, opa, nima deding? Men unaqa sariq chayonni...

Mujgon o'lib-tirilib o'zini qutqazishga tirishar, tipirchilardi.

– Qo'yvor, qo'yvor deyman senga! Usti-boshimni yirtasan! Odamlar ko'rsa sharmanda bo'lamiz, Xudo xayringni bersin, bunday qilma, – deb yolvorardi.

– So'zingni qaytarib ol...

– Xo'p, qaytarib oldim. Nima desang qilaman, lekin meni qo'yib yubor.

– Ammo yuz-xotir uchun emas, meni aldab qo'yish uchun emas...

– Juda soz, yuz-xotir uchun emas, seni aldash uchun emas... Chindan...

Mujgon o'rnidan turib, ust-boshini qoqa boshladi.

– Farida, chindan ham jinni bo'libsana, – dedi kulib.

Men o'rnimdan turmagan edim, titrab turib:

– Xudodan qo'rqmay menga qanday tuhmat qilding-a, opa! Men hali yoshman, – dedim.

Ana shundan keyin o'zimni to'xtatolmay yig'lab yubordim.



\* \* \*

O'sha kuni kechasi juda yomon bezovta bo'lib chiqdim. Negadir uyqum kelmas, alahlar, to'rga ilingan kattakon baliq singari u yoqdan bu yoqqa o'zimni otar, to'lg'anar edim.

Xayriyatki, kechalar qisqa edi. Tong yorishguncha Mujgon yonimdan jilmadi.

Ichimda bir narsa o'zgarganday o'zimdanda o'zim dahshatli bir qo'rquv, nafrat his etardim. Dam-badam yosh boladay Mujgonning bo'yniga tashlanar: «Nega bunday deding, opa-jon?» deb ho'ngrar edim.

U yana ham battarroq hujumga uchrashdan qo'rqqani uchun na «ha», na «yo'q» deyar, indamay sochlarimni silar, boshimni bag'riga bosib, meni yupatishga tirishar edi. Tong yorishar payt uning ham asab tori uzildi, jahli chiqib meni koyib berdi:

— Jinni, yaxshi ko'rish aybmi? Qiyomat qo'pgani yo'q-ku!.. Juda bo'lmasa uylanarsizlar, shu bilan olam guliston... Uxla, bezor qilib yubording-ku! Men bunaqa odobsizlikka toqat qilolmayman.

Mujgon opamning jahli bu safar ham bo'ynimni egib qo'ydi. Bundan tashqari, u bilan gap talashib o'tirishga o'zimda ham majol qolmagan edi. Musyo Segenning butun kecha bo'ri bilan olishib, saharga yaqin o'zidan ketib qolgan echkisi<sup>1</sup> singari holdan ketgan edim.

Ko'zim ilingan paytda, Mujgonning yana shirin til bilan:

— U ham senga beparvo qaramas, — deganini eshitgan bo'lsam ham, bunga qarshi isyon ko'tarishga qurbim yetmay uxlab qoldim.

## **«CHOLIQUISHI» ROMANIDAN OLINGAN PARCHA HAQIDA**

Aziz o'quvchi, siz taniqli turk adibi Rashod Nuri Guntekinning «Choliquishi» romanidan olingan parchani o'qib chiqdingiz. Parcha romanning boshlanish qismidan tanlangan. Guvohi bo'lganingizdek, romanning bosh qahramoni —

<sup>1</sup> Fransuz bolalar ertagi nazarda tutiladi.

Farida. Barcha voqea-hodisalar uning tilidan bayon qilinadi. Faridaning dard-u alamlari, quvonchlari, iztiroblari — barcha qalb kechinmalari o'quvchi yuragidan joy oladi. Asarni o'qish jarayonida siz uning samimiyati, ochiq ko'ngilliligi, shijoati, to'g'riligi, sadoqat va boshqa fazilatlarini uchun yaxshi ko'rib qolasiz. Asardagi joziba, shiddatli bayon uslubi, Farida obrazining betakror qirralari har kimning diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi.

Roman boshlanishida Farida es-hushini tanigan kunlardagi kayfiyatni, atrof-muhitga, odamlarga, yaqinlariga munosabatlarini bayon etadi. Fransuz tili muallimasi Aleksii opaning taklifiga ko'ra boshqa tengdoshlari kabi u ham bolalik xotiralarini yozadi: «Men baliqlar singari ko'l ichida tug'ilganga o'xshayman. Onamni es-es bilaman... Otam, enagam, xizmatkorimiz Husayn ham esimda... Bir kun meni ko'chada quvgan qora laychani... Bir kun to'la savatdan yashiriqcha uzum olayotganimda barmog'imni chaqib olgan arini... Ko'zim og'riganda tomizilgan qizil dorini... Mehribon Husayn bilan Istanbulga kelganimizni... Ha, shularga o'xshash ko'p narsalarni eslayman... Lekin bulardan hech biri ilk xotira emas... Faridaning bu inshosi boshqa o'quvchilarga ham o'qib eshittiriladi. Mazkur parchadagi tasvirlar, birinchidan, roman muallifining o'z qahramonini boshqalardan ajratib ko'rsatishi, ikkinchidan, ochiq ko'ngil, to'g'riso'z, badiiy tafakkur tarziga ega ekanini boshidanoq ma'lum qilishi uchun zarur edi. Faridaning o'z e'tirofiga ko'ra: «Menga kelsak, men butunlay boshqacha qiz edim», — deb yozadi u. Roman Faridaning shu «boshqacha»ligi tafsilotlari asosiga qurilgandir.

Ayniqsa, Faridaning maktabdagi o'qish yillari va shu muhitda turli sarguzashtlarni boshidan kechirgani, ba'zan turli qiziqchilik uchun atay hazillar boshlashlari — bularning barcha-barchasi roman sahifalari miqdori ko'paygan sari o'quvchining ushbu shaddod qahramon to'g'risidagi tasavvurini to'ldirib, yaxlitlashtira boradi. Bolalik va yoshlikning beg'ubor damlaridagi yoshgina qizning biron-bir xayoliga kelmagan ishlarga bosh urishi, deylik, daraxtlar ustida bamisoli chaqqon



mushukdek shoxdan shoxga sakrab o'tishlari obraz tabiatining individualligini namoyon qiladi.

Muallifi sekin-asta Faridani romanning asosiy motivi bo'lgan ishq-muhabbat yo'nalishiga yo'naltira boradi. Faridani bo'lasini Komron bilan uchrashtiradi. Hamma bolalar bilan bemaolol janjal-g'avg'olar ko'taradigan Farida Komronga yo'liqqanida boshqacha bo'lib qoladi, hamma bolalarga qiladigan qiliqlarini qila olmaydi. «Qarindosh bolalar orasida faqat bittasidan tortinar, o'shandangina hayiqar edim.

U Basima xolamning o'g'li Komron edi. Ammo uni bola deyish uncha to'g'ri kelmaydi. Avvalo, yoshi mendan ancha ortiq, qolaversa, juda odobli, vazmin. Bolalarga qo'shilishni yoqtirmaydi. Qo'llarini cho'ntaklariga suqib olib, yo dengiz bo'yida o'zi yolg'iz aylanib yuradi, yo bo'lmasa daraxtlar soyasida kitob o'qib o'tiradi.

Komronning sochlari jingalak, sarg'ish yuzi esa nozik, oppoq, yarqiroq. Shunchalar yarqiroqki, yuragim chopsa-yu, quloqlariga yopishib olib, yaqindan betlariga qarasam, xuddi oynadagi kabi o'zimni ko'rishimga ishonaman». Adib shu zaylda Komronning tabiati va tashqi qiyofasi — portretini Faridaning qalami bilan chizib ko'rsatadi. Albatta, bu qiyofa, tasvirlar Faridaning qalb oynasiga solib qaralishida hech qanday g'ayritabiiylik yo'q. O'rni-o'rni bilan bu tasvirlar orasiga Faridaning istehzolari, piching va kinoyalari qo'shiladi. Bunday ruhiy-psixologik tasvir yo'sini obraz tabiatini, ichki kechinmalarini, boshqalardan farqli xarakterini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Romanda berilishicha, Komron bilan Narimon degan bir tul ayol o'rtasidagi munosabatlarni Farida ulkan bir daraxt tepasida o'tirib tomosha qiladi. Eng qizig'i, qalbiga muhabbat mehmon bo'layotgan qizlar Faridaning shunday go'zal va bebaho tuyg'udan bebahra ekanini o'ylayotgan bir mahallarida u g'alati kayfiyatga tushadi. Barcha sinfdosh qizlar bu o'zgarishni darrov sezishadi. Farida o'zining ham boshqa qizlarga o'xshagan qalb egasi ekanini anglatish uchun Komron bilan Narimon o'rtasidagi uchrashuv sahnasiga o'z laqabini qo'yib gapirib beradi. Demak, yozuvchi sekin-asta shu ikki

qahramonni allaqanday poetik rishtalar vositasida bir-biriga yaqinlashtira boradi.

Yozuvchi Faridaning o'n besh yoshlik paytidagi ajib bir ziddiyatni, ya'ni sho'xlik-o'jarliklari qolmaganini, ammo go'zallashib borayotganini «Fe'li bo'ri bolasiga o'xshasa-yu, yuzi rassom chizganday chiroyli bo'lsa!» degan bir kimsaning ta'biri bilan ta'kidlaydi.

Farida o'z dugonalari, xususan, Mishel ismli qiz bilan sirlashadi, kerak bo'lsa, uning ko'zi oldida sevishganlar rolini ham ijro qiladi. Shunday ijrolardan keyin Farida o'ylanib qoladi: «Sevgi degan narsaning roli odamni shu qadar yondirib titratsa, kim biladi, uning o'zi qanday ekan?» Darhaqiqat, roman shunday olovli, o'tli muhabbatning tarixidan ham so'zlaydi. Farida bilan Komronning o'zaro yaqinlasha borishi uchun adib Mujgon obrazidan ham foydalanadi. Farida o'zining Komronga munosabatlarini, barcha qilg'iliklarini so'zlab berganida, Mujgon Komronning ham Faridaga befarq emasligini aytadi. Farida bundan jahllanadi, xayolga beriladi.

Roman boshlanishidagi yosh qizning hayot yo'li bora-bora Birinchi jahon urushi davridagi turk xalqi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy muammolar foniga olib o'tiladi. Roman faqatgina Farida bilan Komron orasidagi ishq-muhabbat bayonidangina iborat emas, balki oddiy xalqning turmush tarzi, boshidan kechirgan mashaqqatlari, insonlararo murakkab munosabatlarini haqqoniy yoritishi jihatidan ham muhim sanaladi.

Muhtaram o'quvchi! Farida bilan Komron o'rtasidagi munosabatlarni o'zbek adabiyoti tarixidagi, ayniqsa, avval o'tgan sinflarda o'qilgan asarlarning aynan shunga yaqin qahramonlari qismati bilan qiyoslash ham o'rinli bo'ladi. Xususan, Otabek bilan Kumush yoki Anvar bilan Ra'no o'rtasidagi go'zal insoniy fazilatlar «Choliqushi» romani bosh qahramonlari tabiatida ham qaysidir shaklda o'z ifodasini topgan. Bunday tasavvur o'quvchida badiiy adabiyotni boshqa xalqlarning asarlari va ulardagi obrazlar bilan qiyosiy o'rganish malakasini hosil qiladi.



Qolaversa, «Choliqushi»dan olib taqdim etilgan bu parchadagi joziba siz azizlarda romanni to‘la o‘qishga rag‘bat uyg‘otishi ham tabiiy.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Turk adiblaridan yana kimlarni bilasiz?
2. «Choliqushi» romanining asosiy mavzusi nima?
3. Qanday qilib Farida «Choliqushi»ga aylandi?
4. Faridani boshqalardan ajratib turadigan tabiatiga xos xususiyatlar to‘g‘risida fikringizni ayting.
5. Asardagi Komron, Narimon, Mujgon obrazlariga tavsif bering.
6. Roman voqealari qayerda sodir bo‘ladi?
7. «Choliqushi» romani bilan o‘zbek adabiyotidagi shunday romanlarni qiyoslang.
8. «Choliqushi» romanini to‘liq o‘qib chiqing va shu nomdagi film asosida qiyosiy muhokama qiling.
9. Siz ham o‘z xotiralaringizni yozib borasizmi? Yoki bunday fikr sizda endi uyg‘ondimi?
10. «Faridaga maktub» mavzusida kichik ijodiy matn yozing.



## XULOSA

Muhtaram o'quvchi! Ma'lumki, har bir inson umr bo'yi o'z jismi va ruhining komillik sari yuksalib borishini xohlaydi. Bu yo'lda siz-u bizga adabiy-ma'rifiy kitoblar, go'zal san'at asarlari, teatr tomoshalari va boshqa ma'naviy omillar yordam beradi. Ayniqsa, badiiy asarlarni qunt bilan o'qigan va cheksiz zavqlangan odamning yuragi tozarib, insonlararo muomala-munosabatida samimiyat paydo bo'ladi. Siz «Adabiyot» darslaridan abadiyat obidalari ichida badiiy adabiyot o'z shukuhi, benazir tarovati va go'zalligi bilan alohida o'rin tutishini bilib oldingiz, albatta.

Nihoyat, aziz o'quvchi, o'rta maktab, o'rta maxsus ta'limi ham o'z poyoniga yetdi. Ertaga siz mustaqil hayotning turli jabhalariga yo'l olasiz. Jamiyatda o'z o'rningizni topish uchun turli kasblarni tanlab, ulardan birining egasi bo'lishga harakat qilasiz. Kimdir ishchi, dehqon, quruvchi, bog'bon yoki boshqa kasbning egasi bo'ladi. Kimdir tahsilini davom ettirib, oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lishni niyat qiladi; oliy o'quv yurtlariga qarab yo'l oladi. Shunda o'quvchilik yillarida olingan bilimlar yana bir karra imtihon va sinovdan o'tadi. Bunda diqqat-e'tibor va jiddiy o'qish evaziga jamlangan adabiy, ilmiy-nazariy bilimlar sizga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti hamda jahon adabiyotining eng sara namunalaridan tarkib topgan «Adabiyot» darsligining barcha mavzulari shu mahal bir-bir ko'zingiz oldidan o'tadi. Eslaysiz, bilasiz, foydalanasiz va quvonasiz.

Chunonchi, hayotda ham, tabiatda ham betakror go'zallik bor. San'atkor adiblar ularni ta'sirli, obrazli, ramzli ifoda etgani uchun sizni o'ziga maftun qiladi. Bunday ko'rkam adabiyot olam va odamga qarashingizni teranlashtiradi.

Adabiy asarlar faqatgina yoshlikda o'qib, so'ngra bir chetga surib qo'yiladigan manbalar emas. Adabiyot sizga umr bo'yi kerak. Qanday kasb egasi bo'lishingizdan qat'i nazar, og'zaki va yozma nutqni takomillashtirishda adabiy tahsil sizga benihoya katta foyda beradi...

Aziz o'quvchi, asl adabiyotni seving, o'qing, o'rganing va targ'ib qiling!

## MUNDARIJA

### XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

<b>Abdurauf Fitrat</b> .....	3
Abulfayzxon .....	4
«Abulfayzxon» fojiasi haqida .....	31
<b>Abdulhamid Cho‘lpon</b> .....	35
Kecha.....	36
«Kecha va kunduz» romani va undan olingan parcha haqida .....	58
<b>Erkin Vohidov</b> .....	63
Ruhlar isyoni .....	64
Inson.....	74
Yaxshidir achchiq haqiqat.....	76
«Ruhlar isyoni» dostoni haqida .....	76
<b>Rauf Parfi</b> .....	80
Tong otmoqda .....	81
Yong‘ir yog‘ar.....	81
Yoz kechasi.....	81
Yana qaytib keldim... ..	82
Yurak .....	83
Rauf Parfi she‘rlari haqida .....	84

### MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTI

<b>Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati</b> .....	89
Mustaqillik davri she‘riyatidan namunalar .....	91
<i>Jamol Kamol</i> . Asr bilan vidolashuv.....	91
<i>Oydin Hojiyeva</i> . Mustaqil vatanni baxt nuri chaysin .....	94
<i>Usmon Azim</i> . Grafika.....	95
<i>Xurshid Davron</i> . «Men ko‘ksingga boshimni qo‘ydim».....	96
<i>Mahmud Toir</i> . Momo yer.....	97
<i>Sirojiddin Sayyid</i> . Vatan .....	97
<i>Iqbol Mirzo</i> . O‘zbek.....	101
<b>Mustaqillik davri nasri</b> .....	105
Mustaqillik davri nasridan namuna.....	107
<i>Muhammad Ali</i> . «Sohibqiron o‘ylari» .....	107

<b>Mustaqillik davri dramaturgiyasi</b> .....	120
Mustaqillik davri dramaturgiyasidan namuna.....	122
<i>Erkin A'zam</i> . «Tanho qayiq» .....	122

## JAHON ADABIYOTI

<b>Anton Pavlovich Chexov</b> .....	152
Garov.....	153
Chexovning hikoyasi haqida.....	161
<b>Rashod Nuri Guntekin</b> .....	164
Choliqushi.....	164
«Choliqushi» romanidan olingan parcha haqida .....	191
<b>XULOSA</b> .....	196

*O‘quv nashri*

**Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova**

**ADABIYOT**

O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va  
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining  
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

*Birinchi nashr*

*O‘zbek tilida*

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent—2018

Muharrir *Jahongir Qo‘nishev*  
Badiiy muharrir *Bahodir Ibrohimov*  
Sahifalovchi *Shaxboz Sirojiddinov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

Bosishga ruxsat etildi 25.06.2018-yilda. Bichimi  $60 \times 90 \frac{1}{16}$ .  
Ofset qog‘oziga bosildi. «Times New Roman» garniturasida.  
Shartli bosma tabog‘i 13,45. Nashr hisob-tabog‘i 12,50.  
Adadi 432 771 nusxa. Buyurtma № 18-254.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

### Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						

### Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.